Respublikamizda yaqin istiqbolda ham: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.01.2019 yildagi PF-5614-sun farmonida “iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining rag‘batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish” nazarda tutiladi. Bunda quyidagilarga ustuvorlik beriladi:

- davlat mulkini xususiylashtirish tartib-tamoyillarni yanada kengaytirish va soddallashtirish;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish;

- davlat mulkini xususiylashtirilgan ob’ektlarning bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- korporativ boshqaruvinining zamonaviy standartlari va usullarini joriy etish;

- davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish;

- nodavlat, jamoat tashkilotlar va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Iqtisodiy siyosatning tarkibi ko'plab elementlardan iborat bo'lib, ularning jami mamlakatning iqtisodiy siyosati deb ataladi. Ushbu tuzilmaning asosiy elementlariga byudjet, soliq, pul, investitsion va davlat iqtisodiyotining bir qator sohalari kiradi.

Ushbu tizimda markaziy rolni boshqa barcha elementlarni boshqarish funktsiyalarini bajaradigan davlatning o'zi bo'ladi. Boshqaruv bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin, chunki iqtisodiyotning barcha elementlari o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birining o'zgarishi barcha boshqa elementlarning o'zgarishiga olib keladi.

Shuning uchun ham iqtisodiyotning alohida elementlariga davlat ta'sirining oqibatlarini oldindan aytish qiyin bo'lishi mumkin. Iqtisodiyotni boshqarishning eng samarali usuli bu iqtisodiyotning ko'plab sohalarida bir vaqtning o'zida o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradigan va ko'proq taxmin qilinadigan oqibatlarni beradigan kompleks yondashuv deb hisoblanadi.

Nodavlat tuzilmalar, masalan, fuqarolarning turli uyushmalari va birlashmalari ham iqtisodiy siyosatga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ularning manfaatlari davlat manfaatlari to'g'ri kelmasligi mumkin, shuning uchun iqtisodiyot sohasida eng maqbul yechimlarni ishlab chiqish uchun ular bilan davlat o'rtaida doimiy muloqot zarur.

Keyingi yillarda globallashuv natijasida alohida mamlakatlar ichidagi iqtisodiy siyosatga ta'sir ko'rsata oladigan millatlararo birlashmalar ham paydo bo'ldi. Ular bilan samarali hamkorlik qilish har qanday zamonaviy davlatning vazifalaridan biridir.

Iqtisodiy siyosat tarkibiga qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish usullari ham kiradi. Ma'muriy va qonunchilik usullaridan, ya'ni bevosita ta'sir qilishdan tashqari, iqtisodiyotni bilvosita tartibga solish vositalari mavjud. Ko'pincha ular moliyaviy oqimlarni eng ustuvor yo'nalishlarga, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri davlat investitsiyalarini yo'naltirishdan iborat. Aholining tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun qulay moliyaviy muhit yoki qonunchilik bazasini yaratish shular jumlasidandir.

Keyingi samarali usul - bu ishchi kuchini nazorat qilish orqali iqtisodiyotni tartibga solish. Ya'ni, davlat mehnat sharoitlarini, masalan, eng kam ish haqi, ish kunining davomiyligini o'zgartirib, butun iqtisodiyotning holatiga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday qarorlarni qabul qilishda kasaba uyushmalari kabi nodavlat tashkilotlarning intilishlarini inobatga olish muhim.

Iqtisodiy siyosatning tuzilishini bilish nafaqat iqtisodchilar, balki investorlar uchun ham muhimdir, chunki u o'z mablag'larini investitsiyalash uchun eng foydali va past xavfli faoliyat sohalarini tanlash imkonini beradi.

2.2. Iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqida klassik siyosiy iqtisod namoyondalari qarashlari.

Iqtisodiyot nazariyasining birinchi nazariy maktabi mercantilizm (frantsuzcha - mercantilisme; italyancha -merkante - savdogar). Bu atama birinchi marta

muomalaga A. Smit tomonidan kiritilgan bo‘lib, merkantilizmning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari: inglizlar Uilyam Stafford va Tomas Mann, fransuz Antuan Montkretyen, shotlandiyalik Jon Lou, italiyalik Gaspard Skaruffi va Antonio Jevonesi, ruslar Ivan. Pososhkov va Afanasius Ordin-Nashchyokin.

Merkantilizm rivojida ikki davrni ajratish mumkin:

1. Ilk merkantilizm yoki monetarizm (XV-XVI asr o‘rtalari).
2. Rivojlangan merkantilizm, savdo balansi (yoki manufaktura sistemasi) (XVI-XVIII asr o‘rtalari).

Yangi ta’limot vujudga kelishi manufaktura bilan bevosita bog‘liqdir.

Iqtisodiyot tarixida sanoatning uch xil shaklini ajratish mumkin: uy hunarmandchiliği, manufaktura va fabrika.

Uy hunarmandchiligida sohalar, tarmoqlararo mehnat taqsimoti mavjud, hamma ishni bir odam yoki shogird, oila bilan birga bajariladi. Manufakturada esa kooperatsiya yuzaga keladi, eng muhimi, chiqur mehnat taqsimoti, xususiy tadbirkor, yollanma ishchi kuchi paydo bo‘ladi (XV asr).

Muayyan qarashlar va tushunchalarning paydo bo‘lishi doimo jamiyat rivojlanishining ob‘ektiv shartlari, uning iqtisodiy tizimi bilan bog‘liq. Bozor iqtisodiyotiga davlat aralashuviga munosabat uning shakllanishi va rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo‘lgan. Buni turli iqtisodiy maktablarda ko‘rish mumkin. XV asrdan boshlab kapitalning dastlabki to‘planishi va bozor munosabatlarining shakllanishi davridagi davlatning iqtisodiy siyosati XVII-asrning o‘rtalariga qadar. savdo kapitali va sanoat manfaatlarini aks ettirgan (o’sha paytda ular birlashgan edi).

Mamlakatda savdo va sanoatni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi haqidagi qarashlar keyinchalik iqtisodiy maktab - merkantilizm tomonidan ishlab chiqilgan. Merkantilizm iqtisodiy maktab sifatida Angliya, Italiya va Fransiyada rivojlangan. Bu maktabning eng ko‘zga ko‘ringan vakili A. Montchretien (fr.). U birinchi bo‘lib “siyosiy iqtisod” atamasini kiritgan. Asosiy asari “Siyosiy iqtisod traktati” (1615 yil) deb nomlangan.

Merkantilizmning birinchi davri, o‘scha davr iborasi bilan aytganda monetar, ya’ni oltin va kumush pullar toplash bilan bog‘liq edi. Bunda pul balansi siyosati olib borilgan, chetdan imkonimiz boricha kam tayyor tovar sotib olishga urinilgan. Qimmatbaho metallni chetga olib ketish taqiqlangan. Savdogarlarga olib chiqilgan mahsulotning bir qismiga pul olib kelish majburiyati yuklangan (qolgani tovar bo‘lishi mumkin).

Chet ellik savdogarlarni esa sotilgan mol pulining hammasiga yangi tovar sotib olishga majbur qilingan (pul olib chiqib ketmasliklari uchun). Bu siyosat nazorat kuchli bo‘lishini talab etgan, tashqi iqtisodiy aloqalaming rivojini susaytirgan.

Bu siyosatning muhim namoyandalari Angliyada U.Stafford, Italiyada G.Skaruffi va boshqalardir. Masalan, florensiyalik (Italiya) bankir B.Divanzetti (1529-1606) pul (chaqa)ni iqtisodiy organizmning qoniga o‘xshatadi, demak. agar chaqa (pul) bo‘lmasa (qon kabi), organizm o‘ladi. Kapitalizmning o’sishi, savdoning rivoji tufayli bu siyosat o‘zini oqlamadi (XVII asrdan boshlab XVIII asrgacha), pul

balansi siyosati savdo balansi siyosati bilan almashdi. Bunda davlatdan pul olib chiqishga ruxsat berildi.

Rivojlangan merkantilizm yoki savdo balansi nazariyasi XVI asrning ikkinchi yarmida paydo boldi va XVII asming o‘rtalarida asosan Angliyada avj oldi. Uning asosiy mafkurachisi Tomas Mann (1571-1641) edi.

Uning fikricha, pul tashqi savdo aylanmasida boshlang‘ich maqsadni tashkil etadi, ya’ni P-T-P. T. Manning fikricha, har bir savdo kapitalisti o‘z pulini ma’lum foyda olish uchun aylanmaga qo‘yadi. Tovar, pul, foyda va kapital orasidagi aloqadoiiikning sababini topishga harakat qilingan.

Taniqli iqtisodchi N.D. Kondratevning fikricha, merkantilistlarning iqtisodiy tizimi amaliy siyosat bo‘lib, xalq xo‘jaligi qanday bo‘lishi kerak va unga nisbatan davlat hokimiyatining munosabati masalasi asosiy maqsaddir.

Merkantilizmni qisqacha qilib quyidagicha ta’riflash mumkin:

- iqtisodiy siyosatda: mamlakatda va davlat xazinasida imkonlari boricha nodir metallarni (oltin, kumush, javohir, zar va durlami) ko‘proq to‘plash;

- nazariya va ta’limotda: savdo, pul aylanmasi, ya’ni muomala sohasida iqtisodiy qonuniyatlamini izlab topish.

“Insonlar metall uchun qurbon bo‘lmoqda”, ya’ni oltin fetishizmi butun kapitalistik jamiyat rivojiga hamohang bo‘lgan yangi hayot tarzi va fikrlashning tarkibiy qismidir. Ayniqsa, savdo kapitali davrida bu yorqin namoyon bo‘ldi.

Savdo kapitalining asosiy tamoyili - qimmatroq sotish uchun sotib olish (bu hodisa O‘zbekistonda ham hozirgi davr o‘zgarishlarida uchrab turadi). Sotib olish va sotish farqi esa sariq metall shaklida namoyon bo‘ladi. Farq, ya’ni foyda faqat ishlab chiqarishda, faqat mehnat yo‘li bilan yuzaga kelishi mumkinligi haqida o‘ylanmaydi.

Faylasuflar va ularning aqidalariga amal qilgan merkantilizm amaliyotchilarini davlatga murojaat etib, insonlaming tabiiy huquqlarinimta’minalashni talab etganlar. Ana shu talablar orasida mulkchilik va xavfsizlik bor. Bu ta’limotning ijtimoiy ma’nosи shuki, davlat yangi jamiyat boyligi o‘sishini ta’minlovchi sharoitni yaratishi va qo‘llashi shart edi.

Iqtisodiy ta’limotlarning tabiiy huquq bilan aloqasi keyinchalik merkantilizmdan klassik iqtisodiy maktabga ham o‘tdi. Lekin bu aloqaandarlarni qo‘llab-quvvatlash va tashqi bozorda savdo proteksionizmi davlat hokimiyati yordamida amalga oshirilishi kerak deb hisoblaganlar.

Merkantilistlarning davlatning iqtisodiyotdagini roliga bo‘lgan munosabatini qisqacha ifodalash mumkin:

- 1) oltin va boshqa qimmatbaho metallarga boylikning asosi sifatida qaraladi;

- 2) mamlakatga oltin va kumushlarning oqib kelishini ta’minalash maqsadida tashqi savdoni tartibga solish;

- 3) arzon xomashyoni import qilish yo‘li bilan sanoatni qo‘llab-quvvatlash;

- 4) import qilinadigan tayyor sanoat tovarlariga proteksionistik (yuqori)

tariflar;

5) eksportni, ayniqsa tayyor mahsulot eksportini rag‘batlantirish;

6) ish haqi darajasini past darajada ushlab turish uchun aholi o'sishi uchun sharoit yaratish davlatning bevosita vazifalariga kiritilgan.

Shak-shubhasiz, milliy farovonlikning asosiy sharti sifatida aktiv savdo balansi hisoblangan va bu merkantilizm g‘oyasining yuragi edi.

Ulaming mohiyati quyidagilardan iborat:

- Tahlil predmeti (iqtisodiy tahlil) sifatida muomala sohasi muammolarini o‘rganish afzal deb qaraladi, bunda uni ishlab chiqarish muammolari bilan bog‘lab o‘rganish butunlay inkor etiladi;
- Tahlil uslubi sifatida, asosan, empirizm (tajriba)dan foydalaniladi, bunda iqtisodiy hodisalarining tashqi ko‘rinishlarigina ta’riflanib, iqtisodiyotning barcha sohalarini o‘z ichiga oigan ma’lum tizim asosida tahlil etish istisno etiladi;
 - Pulning kashf etilishi insonlaming sun’iy kashfiyoti oqibati deb hisoblanadi, pulning o‘zi esa aynan boylik deb qaraladi;
 - Pul qiymati kelib chiqishini oltin va kumushning «obyektiv (jonli) Tabiat»dan va ulaming mamlakatdagi miqdori bilan belguanadi;
 - Mehnatga taklifning o‘sishi ish haqining yuqori emas, past bo‘lish zarurati bilan bog‘lanadi;
 - Davlatning tartibga solishi tufayli iqtisodiy o‘sishga mamlakat pul boyligining ko‘payish oqibati sifatida qaraladi, bunda tashqi savdo va savdo balansi saldosining ijobjiy (aktiv) bolishi ta’minlanishi kerak.

Merkantilizm bo‘yicha boylikning asosi pul (davlatda qancha pul ko‘p bo‘lsa, u shuncha boy deb hisoblangan) va pul miqdorini davlat hokimiyyati yordamida oshirish mumkin. Aslida merkantilizm buyuk geografik kashfiyotlardan oldinroq paydo bo‘ldi va XVI asring o‘rtalarigacha (asosiy oltinlar yig‘ib olinguncha) yashadi.

"Fiziokratiya"(lotincha *physio - tabiat va kratos - hokimiyat*) tabiat qudrati atamasi ingliz iqtisodchisi A. Smit (1723-1790) tomonidan muomalaga kiritilgan. Bu nazariya XVII -XVIII asrlarda Germaniya, Polsha, Shvetsiyada rivojlangan, biroq faqat Frantsiyada bu qarashlar tizimi eng rivojlangan shaklga ega bo‘lgan va nazariy maktab shaklida mavjud bo‘lgan. Fiziokratianing asoschisi Fransua Kene, uning asosiy vakillari Viktor de Mirabbo, Dyupon de Neymur va Jak Turgo edi. Ular nafaqat merkantistik qarashlarni tanqid qildilar, balki boylik pul emas, balki “yer mahsuloti” ekanligini asoslab berdilar. Ularning fikricha, boylik muomala sohasida emas, balki ishlab chiqarish sohasida, qishloq xo‘jaligida yaratiladi va ko‘payadi.

Agrar masalani hal etish fiziokratlarning asosiy vazifasi bo‘lib qoldi. Ular qishloq xo‘jaligini mamlakat boyligining asosi deb tushundilar.

Fiziokratizm ta’limotining asoschisi Fransua Kene (1694-1774) 1758-yilda «iqtisodiy jadval» asarini yaratdi.

F.Kenening fikricha, millat boyligi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bilan yil davomida ushbu mahsulotlarni yaratishda foydalanilgan

resurslar o‘rtasida farq mavjud bo‘lsa va doimiy ravishda takror ishlab chiqarilsa, o‘sib boradi. U bu farqni «sof mahsulot» deb atadi va u dehqonlar sinfini jamiyatning yagona ishlab chiqaruvchi sinfi deb hisobladi.

F.Kene «sof mahsulot» to‘g‘risidagi o‘z qarashlari asosida jamiyatni uch sinfga bo‘ladi:

- a) unumli sinf (fermerlar);
- b) yer egalari sinfi va unumsiz sinf (bu sinfni u sanoatchilar sinfi deb ham ataydi);
- v) bepusht tabaqa (sanoat, savdo, hunarmandlar vakillari).

Unumli sinfga dehqonchilikdagi barcha xodimlar, qishloq xo‘jalik ishchilari ham, fermerlar ham, ya’ni «sof mahsulot» yaratuvchilaming hammasi kiradi.

Yer egalari, davlat, ruhoniylar bu mahsulotning iste’molchilari hisoblanadi, chunki ular uni ijara to‘lovi sifatida oladilar.

Bepusht tabaqa samarasiz, «unumsiz» sinf vakillari (sanoat, savdo, hunarmandchilik, xizmat sohasi). Ular «sof mahsulot» yaratmaydilar.

Fiziokratlar nazariyasining ajralmas qismi bu davlatning iqtisodiy hayotning tabiiy jarayoniga aralashmaslik g‘oyasidir. Agar iqtisodiy jarayonlar tabiiy, ilohiy o‘rnatilgan qonunlar bilan belgilansa, demak, ularda davlatga shunchaki o‘rin yo‘q. U qila oladigan maksimal narsa tabiatning "tabiiy qonunlari" ga mos keladigan davlatning xususiy mulkni, shaxsiy manfaatlarni himoya qiluvchi, ne’matlarning takror ishlab chiqarilishi va to‘g‘ri taqsimlanishini ta’minlovchi jismoniy va axloqiy, huquqiy qonunlarni o‘rnatishdir va bunda davlatning funktsiyalari tugagan deb hisoblanishi mumkin.

2.3. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o‘rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari konsepsiysi.

XVIII asming ikkinchi yarmida klassik iqtisodiy maktab britaniyalik olimlar A.Smit va D.Rikardo asarlarida eng yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi.

Bu hol tasodifiy emas edi, chunki bu olimlar yashab ijod etgan davrda Angliyada chuqur iqtisodiy, sotsial va siyosiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida «Texnik yo‘nalishda»gi ishbilarmonlarguruhi iqtisodiyot tarixida butunlay yangi insonlami vujudga keltirdi.

Sanoat inqilobi dastlab yengil sanoatda, xususan, to‘qimachuik sohasida boshlandi va mashinasozlik vujudga kelishi bilan nihoyalandi. J.Key to‘quv mokisini, 1733-yilda J.Xargrivs o‘z qizining nomi bilan atalgan «Jenni» mexanik to‘quv dastgohini kashf etdi. Mexanik K.Vud uni 1772-yilda takomillashtirdi, 1783-yilda esa S.Krompton «Spinning mule » (Ingliz tilidan tarjimasi aylanayotgan xachir, paxta va boshqa tolalarni yigirish uchun ishlatiladigan mashinadir. Ular 18-asr oxiridan 20-asr boshlarigacha tegirmонларда va boshqa joylarda keng qo’llanilgan). 1785-yilda E.Kartrayt mexanik to‘quv stanogini ijod qildi, bu dastgoh 40 odamning ishini bajarardi. R.Arkaytning to‘quv mashinasi esa bu sohaning unumdarligini keskin oshirdi.

Ishlab chiqarishning energetik bazasi qo‘l va suv oqimidan 1782-yilda J.Uatt tomonidan ishlab chiqilgan bug‘ mashinasi ixtiyoriga o‘tdi.

Bu mashina asosida 1805-yilda bug' kemasasi-paroxod yaratildi, 1811-yilda J.Stefenson parovoz yasadi, 1830 yilda esa Manchester-Liverpul ternir yo'li qurildi.

Metallurgiya sohasida 1735-yilda A.Derbi pistako'mir o'miga toshko'mirdan foydalanib, domna pechidan nisbatan sifatli va ko'proq miqdorda metall olish yo'lini topdi. J.Uilkinson hamma narsa, ko'prik, quvur va hatto paroxod ham metalldan bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari surdi.

Sanoat inqilobi iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda keskin o'zgarishlarga olib keldi. 1701 -1802-yillar oralig'ida to'qimachilik rivoji tufayli Angliyada paxta tolasidan foydalanish 6000 foizga o'sdi. 1788-1838 yillarda cho'yan eritish 68 ming tonnadan 1347 ming tonnagacha oshdi.

Fransiyada 1815-yiIdan keyingi 30 yil ichida temir olish 5 marta, toshko'mir qazish 7 marta, yuk tashish hajmi 10 marta ko'paydi.

Vaholanki, A.Smit davrida Shotlandiyaning ayrim joylarida mix pul o'mida ishlatilgan. Bu o'zgarishlar, ya'ni texnikaning kirib kelishi buyum - tovarlar turini keskin oshirdi, ilgari ayrim odamlaigagina tegishli bo'lган narsalar kundalik buyumlarga aylanib qoldi. Asta-sekin kapitalizm hayot darajasining o'sishiga olib keldi, moddiy ne'matlar tun tizimli ravishda ko'paydi, sifati yaxshilandi, eng muhimi, bu imkoniyatlardanjamiyatning aksariyat qismi foydalandi.

Adam Smit (1723-1790) - klassik iqtisodiyotning asoschisi. U tabiiy erkinlik tamoyilini himoya qildi. Uning talqiniga ko'ra, bozor tizimi foyda olishga intilish bilan bog'liq bo'lган shaxsiy manfaatlarga asoslangan o'z-o'zini tartibga solishga qodir. U iqtisodiy rivojlanish uchun asosiy rag'bat sifatida ishlaydi. Davlat uchun eng yaxshi variant - davlat tomonidan aralashmaslik tamoyiliga amal qilishdir. Bu g'oya Smitning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan va "iqtisodiy liberalizm" deb nomlangan. Mafkuraning mohiyati: "Davlatni vahshiylikning eng past darajasidan eng yuksak farovonlik darajasiga ko'tarish uchun faqat tinchlik, yengil soliqlar va davlat boshqaruvida bag'rikenglik kerak, qolgan hamma narsa tabiiy yo'l bilan bo'ladi".

A. Smit fiziokratlardan farqli ravishda sanoat va tijorat kapitalini unumdar deb hisobladi. Boylikning o'sishiga ayirboshlashning rivojlanishi, mehnat taqsimoti va iqtisodiy erkinlik sharoitida kapital to'planishi orqali erishiladi. Avvalo, mehnat erkin bo'lishi kerak. Iqtisodiyotda mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv tufayli: ishchilarining epchilligini oshirish, vaqtini tejash, mehnatni osonlashtiruvchi mashinalar ixtiro qilish.

Qiymat nazariyasida Smit foydalanish qiymati (foydalilik) va ayirboshlash qiymatini ajrattdi. Ushbu turdag'i qiymatlar bir-biriga to'g'ri kelmaydi), olmos yuqori almashinuv qiymatiga va past foydalilikka ega, suv esa aksincha). Iqtisodchilar uchun faqat ayirboshlash qiymati muhim.

Smit uning mohiyati haqida ikkita variantni ifodalagan: birinchidan, ayirboshlash qiymati ishlab chiqarishga sarflangan mehnat bilan belgilanadi, lekin qiymat faqat ibridoiy jamiyatlarda to'liq mehnat bilan belgilanadi; ikkinchidan, ayirboshlash qiymati nafaqat mehnat, balki kapital va yer bilan ham belgilanadi. Bular. tovarning ayirboshlash qiymati uni ishlab chiqarish tannarxi bilan belgilanadi.

U ayirboshlash qiymatini tabiiy narx bilan taqqoslaydi, bu bozorga etkazib berish uchun zarur bo'lgan xarajatlarga arzimaydi.

Tabiiy narx bozordagi tovarlarga talab va taklif bilan belgilanadigan joriy bozor narxiga qarama-qarshidir. Raqobat sharoitida tabiiy narx o'rtacha bozor narxiga to'g'ri keladi. Tabiiy narxlar tahlili Smitni uchta komponentni ajratishga olib keldi: ish haqi, foyda va renta. Ish haqi ishchilarning daromadi, foyda kapitalistlarning daromadi, renta esa yer egasining daromadidir. Mamlakatning sof yillik mahsuloti hammasi yig'indisiga teng ish haqi, barcha foyda va barcha ijara.

Tabiiy narxlar faqat iqtisodiy erkinlik sharoitida o'rnatiladi, agar u davlat tomonidan buzilsa, monopoliya paydo bo'ladi. Monopoliyalar tomonidan belgilangan narx eng yuqori, erkin raqobat sharoitida esa eng past narx hisoblanadi. Smit muvozanatli (tabiiy) narx maksimal ishlab chiqarish hajmiga mos keladi, degan xulosaga keldi. Smit ishchi kuchi harakatiga to'sqinlik qiluvchi omillarni ham monopoliya deb atagan.

Kapital ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur resursdir. Kapital asosiy kapital (mashinalar, binolar) va aylanma kapitalga (pul, xom ashyo va sotilmagan tovarlar) bo'linadi. Foyda - bu ishchi o'z mehnati bilan mehnat ob'ektiga yangi qiymat qo'shishi tufayli yuzaga keladigan qo'shimcha qiymatdir. Foyda ortiqcha mehnat hisobidan yaratiladi.

Yagona reja va umumiy markazga bo'y sunmaydigan bozor iqtisodiyoti, shunga qaramay, ma'lum qoidalarga muvofiq ishlaydi. Bunday holda, har bir alohida shaxsning ta'siri sezilmaydi. U o'zidan so'ralgan narxlarni, daromadini hisobga olgan holda o'ziga qiziq bo'lgan tovarlarni tanlab to'laydi. Ammo bu individual harakatlarning yig'indisi narxlarni belgilaydi. Shunday qilib, bozorning harakati alohida shaxslarning irodasiga bog'liq bo'lмаган natijani beradi. Bu bozorning "ko'rinnmas qo'l" tamoyili (iqtisodiyotning bozor o'zini o'zi tartibga solish).

Olim o'z asarian va tadqiqotlarida odamlar ba'zi tabiiy xususiyatlarga ega, ana shunday xususiyatlardan biri - egoizm (xudbinlik) bo'lib, odamlar o'z xo'jalik faoliyatlarida unga amal qiladilar. Ammo ayrim shaxsninggina manfaatlari jamiyat manfaatlariga mos tushadi, deb uqtiradi. Har bir odam o'z shaxsiy manfaatini ko'zda tutadi, ammo bu holatda ko'p boshqa holatlardagi kabi, u «ko'rinnmas qo'l» tomonidan uning niyatida ham bo'lмаган maqsad sari yo'naltiriladi. Bunda u ongli ravishda xususiy manfaatlarga intilgandan ko'ra ko'proq haqqoniy ravishda jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

«Ko'rinnmas qo'l» bu – ob'yektiv iqtisodiy qonunlarning stixiyali harakati. Bu qonunlar odamlaming xohish-irodasidan qat'i nazar, unga qarama-qarshi harakat qiladi. Har bir odam ko'proq foyda olish uchun kapitalni imkonli boricha qulay ishga joylashtirishga urinadi, chunki u jamiyatning emas, o'zining shaxsiy manfaatini ko'zlaydi.

Ammo inson o'z shaxsiy manfaatini o'ylagan paytda, bu holat muqarrar ravishda jamiyat uchun ko'proq naf keltiruvchi mashg'ulotni tanlashiga olib keladi. Smitning ta'rifi bo'yicha, foyda ketidan quvish va raqobat jamiyatga naf keltiruvchi faoliyatga aylanadi.

Hozir «ko'rinnmas qo'l» iborasi bilan birga «iqtisodiy odam» tushunchasi

ham kiritildi. Unga ko‘ra, shaxsiy manfaatlar tufayli savdo va almashuv jarayoni amalga oshadi.

Iqtisodiy rivojlanishning shaxsiy manfaat va stixiyali qonunlarning o‘zaro samarali harakati sharoitlarini A.Smit «tabiiy tartib» deb atagan.

Demak, jamiyatga naf keltiruvchi faoliyatni biror harakat bilan cheklamaslik kerak. Bu tamoyilga ko‘ra quyidagilar taklif etiladi:

1. Ishchi kuchining erkin harakati;
2. Savdoda (yer savdosida ham) to‘la erkinlik;
3. Sanoat va ichki savdoni hukumat tomonidan reglamentatsiya qilishga qat’iy qarshilik;
4. Erkin tashqi savdo (proteksionizmga qarshi).

Bundan kelib chiqib, Smit davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi minimal bo‘lishi kerak, u asosan har bir insонning huquqlarini himoya qilishi kerak, deb hisobladi. Shaxsiy manfaatlar o‘z ichiga olinishi kerak huquqiy asos davlat tomonidan tashkil etilgan. Bundan tashqari, davlat o‘ziga xos funktsiyalarga ega bo‘lishi kerak, davlat yangi va zaif tarmoqlarni himoya qilish usuli sifatida vaqtincha proteksionistik siyosat olib borishi kerak. Minimal majburiyatlarini bajarish uchun davlat yig‘ilgan soliqlardan iborat mablag‘larga ega bo‘lishi kerak. Barcha soliqlar ularning mol-mulkiga mutanosib ravishda to‘lanishi kerak. Smit soliqlarni yig‘ish qoidalarini ishlab chiqdi:

- mutanosiblik,
- aniqlik (qachon va qancha to‘lashni bilishingiz kerak),
- to‘lovchi uchun qulaylik,
- minimallik.

Smit pulni faqat muomala vositasi deb hisoblagan. Agar muomaladagi pul miqdori zarur bo‘lganidan ko‘p bo‘lsa, unda narxlar ko‘tariladi. Banklarning kreditlash funktsiyasi muhim, Smit foiz stavkalarini cheklash uchun o’sha paytda amalda bo‘lgan qonunlarni tasdiqladi. Smit mamlakatning to‘lov balansi nazariyasiga asos solgan. Uning g‘oyalari asta-sekin o‘z vatani Angliyada, keyin esa dunyoda qo’llanildi.

2.4. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni.

"Liberal" so‘zi lotincha: "liber"-erkin degan so‘zdan kelib chiqadi. Liberalizm (fransuzcha: libéralisme) — odamlarning o‘zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin degan nuqtai nazarga asoslangan falsafiy, iqtisodiy va siyosiy dunyoqarash, nazariya

Liberalizm XVII-XVII-asrlarda Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan, u Jon Lokk, Adam Smit, Sharl Lui Monteskye va boshqalarning mutlaq hokimiyatga qarshi qaratilgan nazariyalariga asoslanadi. Liberalizm g‘oyalari birinchi bor AQSH Konstitutsiyasi (1787y.) hamda „Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi“da (1789y.) mujassam bo‘lgan. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida liberalizmning fuqarolik jamiyatni, shaxs huquqlari va erkinliklari, huquqiy davlat, demokratik

siyosiy muassasalar, xususiy tadbirkorlik va tijorat erkinligiga oid asosiy qoidalari shakllangan.

Hozir kunda liberalizm g‘oyalariga ko‘ra, erkin bozor mexanizmi samarali iqtisodiy faoliyat yuritish, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi; ayni chog‘da bozor va raqobatchilik normal sharoitda rivojlanishi uchun bu sohaga davlatning muntazam ravishda aralashuvi zarur. XX-asr oxirida liberalizm, konservativizm va sotsial-demokratiya g‘oyalari bir-biriga yaqinlashdi.

Mukammal liberal jamiyat bu har kim uchun erkin harakat qilish imkoniyatini beruvchi, muhim siyosiy ma'lumotlar bilan erkin almashuvchi, davlat va din hokimiyatini cheklovchi, qonun ustivorligini ta'minlovchi, shaxsiy mulk va erkin tadbirkorlik mavjud jamiyatdir. Liberalizm jamiyat, davlat, hayot tarzi uchun asos bo‘lgan ko‘pgina eski dunyoqarashlarni bekor qildi. Jumladan, hukmdorlarning ilohiy huquqlari va dinding yagona bilim manbai kabi holatlardan voz kechildi.

Liberalizm fundamental prinsiplari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: har kim uchun yashash, shaxsiy erkinlik va mulk egaligi huquqi; qonun oldida hammaning tengligi; erkin bozor iqtisodiyoti; erkin va rost saylovda tanlanuvchi hukumat; davlat boshqaruvining oydinligi. Shu bilan birga hukumatning asosiy funktsiyasi ushbu holatlarni ta’minlashdan iboratdir. Zamonaviy ko‘rinishda liberalizm kamchilikning huquqlarini himoya qiluvchi, plyuralizm va demokratik boshqaruvga asoslangan ochiq jamiyatni ko‘zda tutadi. Ba’zi zamonaviy nuqtai nazarlarda davlat boshqaruvin kengaytirish mumkin deb qaraladi. Buning sababi fuqarolarning o‘z imkoniyatlarida tengligini, ma'lumot olishi va foyda ko‘rishidagi farjni qisqartirishni ta’minlashdan iboratdir. Bunday qarash tarafdozlari davlat o‘z majburiyatlarini bajarishida barchaning muvaffaqiyatini ta’minlashi lozimligini ko‘rsatishadi. Jumladan ishsizlarga yordam berish, boshpanasizlar uchun joy berish va tekin tibbiy xizmat ko‘rsatish davlat majburiyatlaridan biridir.

Liberallarning qarashlariga binoan hukumat o‘z qaramog‘idagi insonlarning qiziqishlarini ko‘zda tutib faoliyat ko‘rsatishi lozim, davlatning siyosiy boshqaruvi ko‘pchilikning roziligi bilan amalga oshirilishi kerak. Hozirda liberallarning talablariga eng yaqin davlat boshqaruv tizimi liberal demokratiyadir.

Ma'lumki, liberal iqtisodiy kontseptsiya iqtisodiyotda davlatning minimal roldan va xususiy iqtisodiy manfaatlarning jamoat manfaatlaridan ustunligidan kelib chiqadi.

Minimum davlat (aralashuvi) - bu iqtisodiy liberalizmning asosiy g‘oyasidir.

Iqtisodiy liberalizm - davlatning iqtisodiyotga minimal aralashuvi va shunga mos ravishda iqtisodiyotdagi shaxslarning to‘liq erkinligi haqidagi konservativ ijtimoiy fikrning tarkibiy qismi bo‘lgan mafkura. Iqtisodiy liberalizm liberal konservativizm falsafasining bir qismidir.

Iqtisodiy falsafada iqtisodiy liberalizm laissez-faire (Laissez-faire [лесе фэр] frantsuzcha – ma’nosi: *tinch qo'y, hamma narsa o'z holidagiday qo'sin; shunday bo'lsin*) yoki aralashmaslik printsipi - bu iqtisodiy ta'limot bo'lib, unga ko‘ra iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy aralashuv minimal bo'lishi kerak) iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlaydi va targ'ib qiladi. Iqtisodiy liberalizm

tarafdorlari erkin bozor, mukammal raqobat va “bozorning ko‘rinmas qo‘li”ni (Adam Smitdan) qo‘llab-quvvatlash uchun falsafiy dalillardan foydalanadilar.

Davlatning iqtisodiy siyosati — bu iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, bandlikni ta’minalash va inflyasiyani oldini olish orqali aholi farovonligini oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlaridir.

Davlatning iqtisodiy siyosati har doim mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ichki va tashqi sharoitlarini hisobga oladi. Bunda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy kon'yunkturaning milliy iqtisodiyotga ta’siri, undan kutilayotgan o‘zgarishlar, mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar, milliy iqtisodiyotning resurslar bilan ta’minalish darajasi kabilarga e’tibor qaratiladi.

Davlatning iqtisodiy siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma’lum maqsadlarni ko‘zlaydi. Bularidan asosiyalar quyidagilar:

1. Barqaror iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va yetarli sur’atlar bilan o‘sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki u qanchalik tez o’ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik ortadi.

2. Milliy iqtisodiyotning mustaqilligini mustahkamlash. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo‘lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko‘proq xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlash. Bu iqtisodiy oqimlar uzlucksizligini, ya’ni takror ishlab chiqarishning to‘xtovsiz davom etishini, iqtisodiy falajlikka yo‘l qo‘ylmasligini bildiradi.

4. Milliy pul barqarorligini ta’minalash. Bu mamlakatdagi pul muomalasining me’yorida borishiga erishish, uni iqtisodiy aloqalarning barqaror vositasiga aylantirish imkonini beradi.

5. Aholi turmush farovonligini muttasil oshirib borish. Bu iqtisodiyotning ijtimoiyligini to‘laroq yuzaga chiqarishga ko‘maklashadi.

6. Milliy xo‘jalikning xalqaro integrasion jarayonlarda faol ishtirok etishiga erishish. Bu mamlakatning jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rnini topishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishishga sharoit yaratadi.

Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya’ni uzoq davrga mo‘ljallangan maqsadi hisoblanadi. Davlat strategik maqsadlardan kelib chiqib qisqa davrdagi vazifalarini belgilaydi. Bular jumlasiga, iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta’minalash, investision faollikni rag‘batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovasion rivojlanishni ta’minalash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilalar kiradi.

Davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni tartibga solish usullarini umumlashtirib quyidagicha guruhash mumkin:

- bevosita ta’sir qilish usullari;
- bilvosita ta’sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo‘lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta’sir qilish usullari ustun bo‘lsa, bozor iqtisodiyoti esa birinchi navbatda iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan

bog‘langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat xilma-xil shakldagi kapitalga egalik qiladi, kreditlar beradi, korxonalarga mulkdor hisoblanadi. Bu davlatning ijtimoiy kapitalning bir qismiga egalik qilishiga olib keladi.

Iqtisodiy rivojlanish maqsadlari

Mamlakat taraqqiyoti turli xil tushunchalar bilan bog'liq, lekin odatda yuqori mahsuldarlik orqali iqtisodiy o'sishni o'z ichiga oladi, o'z fuqarolarining afzalliklarini iloji boricha aniqroq namoyish etadigan siyosiy tizimlar, barcha ijtimoiy guruhlarga huquqlarning kengayishi va ularni olish imkoniyatlari texnik va moddiy-texnika jihatidan murakkabroq vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan muassasalar va tashkilotlarning to'g'ri ishlashi (ya'ni soliqlarni oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish). Ushbu jarayonlar davlatning o'z iqtisodiyotini, siyosatini, jamiyatni va davlat boshqaruvini boshqarish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Odatda, iqtisodiy rivojlanish siyosati ushbu mavzulardagi muammolarni hal qilishga intiladi.

2.5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo'yicha Keyns konsepsiyasining asosiy mazmuni.

XX asrning birinchi yarmida iqtisodiy inqirozlamning damba-dam takrorlanishi tufayli «kapitalizmni tartibga solishga oid iqtisodiy g'oyalar soni ko'paydi. Ana shunday yo'nalishning yorqin tarafdori bo iib, ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns (1883-1946) shuhrat qozondi. Unga mashhurlik keltirgan bosh asari – «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) kitobidir.

Keynsning umumiy nazariyasida investitsiyalaming umumiy bandlik hajmini aniqlashdagi asosiy roli to'g'risidagi tezis muhimdir. Ular iste'mol talabining yetarli emasligini to'ldirishi (kompensatsiyalash) kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish masalasiga iste'mol talabi osishidan alohida qaraladi.

Investitsiyalaming ko'payishi ishlab chiqarishga qo'shimcha ishchilami jalg etishga olib keladi, bu esa bandlik, milliy daromad va iste'mol o'sishini ta'minlaydi. Yangi investitsiyalar tufayli bandlikning dastlabki o'sishi yana qo'shimcha bandlikni vujudga keltiradi, chunki qo'shimcha ishchilaming talabini qondirish zarurati tug'iladi. Qo'shimcha bandlikning o'sish koeffitsientini Keyns multiplikator deb ataydi, u bir tomonidan investitsiyalar o'sishi, ikkinchi tomonidan bandlik va daromadlaming o'sishi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Keyns bir qancha hisob-kitoblaiga asoslanib, AQSHning multiplikatorini aniqladi, u 2,5 ga teng ekan. Bu daromadlar o'sishi investitsiyalar ortishidan 2,5 marta ortiq degani, ya'ni 1 dollar investitsiya 2,5 dollar daromad keltiradi.

Xususiy investisiyalarni rag'batlantirish uchun foiz normasini tartibga soiish taklif etiadi. Uningcha, davlat muomaladagi pul miqdorini oshirish yo'li bilan foiz darajasini tartibga soiish imkoniyatiga ega. Muomaladagi pul miqdorini oshirish amalda inflatsiya (pulning qadrsizlanishi)ni qo'llash demakdir, ammo bunda ssuda foizi kamayadi va pul ishlab chiqarishga qo'yish uchun rag'batlantiriladi.

To'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investisiyalarning emas, balki milliy daromadni ham tartibga soiish taklif etiadi. Buni hal qilish

vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora bolgan «aralash Iqtisodiyot» ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Sof iqtisodiyot deyarli hech qaysi davlatda yo‘q. Keynsning iqtisodiy g‘oyalari birinchi navbatda «buyuk inqiroz» ta’siri ostida paydo bo‘ldi. 1929- 1933-yillardagi bu buyuk inqiroz Amerikani larzaga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%) ga qisqardi. 17 mln odam ishsiz edi (25%), 9 mln omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyotni qutqarishning muhim yo‘li - hukumat xarajatlari ekanligi ko‘rsatib berildi.

Keyns nazariyasining asoschisi J. M. Keyns erkin bozorda iqtisodiyotning inqirozdan chiqib ketishini chinakam ta’minlovchi mexanizmlar mavjud emasligi sababli davlat iqtisodiyotga aralashishi kerak, deb hisoblagan. Uning ta’kidlashicha, davlat talabni oshirish uchun bozorga ta’sir ko‘rsatishi, shu bilan birga iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish, tsiklik tebranishlarni yumshatish, yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlari va bandlik darajasini saqlab qolish uchun moliyaviy bo’lmagan, pul-kredit regulyatorlaridan foydalanishi kerak. Jon M. Keyns investitsiyalarni bevosita tashkil etish uchun davlat mas’uliyatini tobora ortib boradi, deb taxmin qildi.

Dj.M.Keyns nazariyasi 1929-1933 yillarda bo‘lib o‘tgan buyuk depressiya deb nomlanuvchi inqirozdan chiqib ketish uchunyaratilgan nazariya bo‘lib, u 1940-1970 yillarda fanda yetakchilik qildi.

Keyinroq ushbu yo‘nalish Keynsning safdoshlari Dj.Xiks, A.Xansen, P.Samuel’son, A. Lerner, R. Masgrevv, G. Ekkli, U. Xeller, Dj. Pekmenlar tomonidan to‘ldirilgan va rivojlantirilgan.

Davlat moliyasi nazariyasidan asos sifatida foydalanib, Dj.Keyns pul nazariyasining va pul-kredit munosabatlarini boshqarishga oid nazariyani taklif etdi. Dj.M.Keyns nazariyasining muhim asosini likvidlilikni afzal ko‘rish konsepsiyasi tashkil etib, unga muvofiq xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar to‘lov zaxiralarini jamg‘arish bilan birga xo‘jalik yuritish shartlarining noaniqligi bilan bog‘liq risklar oldini olish uchun qo‘srimcha spekulyativ qoldiqni shakllantiradi. Bunday qoldiqlarning umumiy miqdori foizning bozor normasiga bog‘liq bo‘lib, Dj.M.Keyns fikriga ko‘ra, bu holat psixologik fenomen xisoblanadi.

Muomaladagi pul miqdorini boshqarish orqali likvidlilikka ta’sir etib, davlat foiz normasini boshqarishi hamda investision jarayonlarni rag‘batlantirishi yoki cheklashi mumkin. Keyns foiz stavkasining qo‘srimcha pullarni emissiya qilishda va inflayasion jarayonlarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushungan.

1930 yillardagi inqiroz tajribasidan kelib chiqib, Dj.M.Keyns foiz normasi pul massasining o‘sishiga befarq bo‘lib qolishi mumkin degan xulosaga keladi. Bunday sharoit foiz normasini ishlab chiqarishni rag‘batlantiradigan darajagacha pasaytirish mumkin bo‘lmagan holatga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu hodisa likvidlilik qopqoni nomini olgan. Dj.M.Keyns bunday holat yuz bergan vaqtda hukumatga xususiy kapital

yetishmovchiliginı oldını olish uchun davlat byudjet xarajatlarini ko‘paytirishni maslahat bergen.

Jon.M.Keyns kontseptsiyasi hukumatga iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun tsiklik tebranishlar davrida fuqarolarning daromadlarini saqlab qolish mumkinligini taklif qildi. Buning uchun jamoat ishlari dasturlari va ishsizlarga to’lovlar, davlat sektorini kengaytirish, moslashuvchan soliq sxemalarini qo’llash taklif qilindi. Aholi bandligini kengaytirish uchun davlat korxonalaridan foydalanildi. Qiyinchilik tsiklik tebranishlarga kamroq moyil bo’lgan iqtisodiyotni qurish edi. Bunga qudratli davlat sektori mavjudligida erishish mumkin, deb taxmin qilingan edi. Keynscha yondashuv davlatning iqtisodiy rolini kengaytirish uchun nazariy asos bo’lib xizmat qildi.

2.6. Iqtisodiy rivojlanishni boshqarish davlatning roli haqida zamonaviy nazariya.

Iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi jamiyanning maksimal farovonlikka erishishi.

Asosiy maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- jamiyatning erkin rivojlanishi;
- huquqiy tartib;
- mamlakatning tashqi va ichki xavfsizligi.

Amaliy yo’naltirilgan maqsadlar quyidagilarga erishishni o’z ichiga oladi:

- iqtisodiy o’sish;
- to’liq bandlik;
- narxlarning barqaror darajasi va milliy valyutaning barqarorligi;
- tashqi iqtisodiy muvozanat.

Davlat faoliyatining asosiy fundamental sohasi ijtimoiy va iqtisodiy tartib o’rnatishdir.

Bunday tartib birinchi navbatda davlat funktsiyalari ijrosi orqali shakllanadi, yani tartibga solish, taqsimlash, qayta taqsimlash va barqarorlashtirish.

O’zbekiston mustaqil bo’lgach, ma’muriy buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o’tishda davlatning iqtisodiyotdagi roli va funktsiyalari katta o’zgarishlarni talab qiladi.

Birinchidan, o’tish davrida davlat iqtisodiyot va jamiyatni liberallashtirishga majbur, ya’ni oidingi funktsiyalarni bozorga va jamiyatga o’tkazadi;

Ikkinchidan, xususiy lashtirish (mulkni xususiy agentlarga berish) ham iqtisodiyot va jamiyatni boshqarishning real jarayonlariga ta’sirni cheklashni o’z ichiga oladi;

Uchinchidan, yangi demokratik va bozor institutlarini faol qurish kerak. Bu jarayonlarning ba’zilari vaqt talab etadi va shuning uchun ko’p mamlakatlarda ular hali tugallanmagan.

Nihoyat, davlat fuqarolarga bozor sharoitiga moslashishda yordam berishi kerak.

Shu bilan birga, ushbu yordamning shakli:

a) moslashish uchun bozor imtiyozlari harakatlarini sekinlashtirmaslik va buzmaslik kerak;

b) makroiqtisodiy, birinchi navbatda byudjet chekllovleri real hisobga olinishi kerak.

Davlatning iqtisodiy siyosati - bu ma'lum maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish bo'yicha hukumatning turli tadbirlari orqali o'zining iqtisodiy funktsiyalarini amalga oshirish jarayoni.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning eng keng tarqalgan iqtisodiy maqsadlari:

- 1) iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- 2) iqtisodiy erkinlik uchun sharoit yaratish;
- 3) iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash;
- 4) to'liq bandlikni ta'minlash;
- 5) iqtisodiy samaradorlikka erishish.

Davlatning iqtisodiy funktsiyalari:

- 1) iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- 2) mulkiy huquqlarni himoya qilish;
- 3) pul muomalasini tartibga solish;
- 4) daromadlarni qayta taqsimlash;
- 5) ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- 6) tashqi iqtisodiy faoliyatni nazorat qilish;
- 7) jamoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- 8) tashqi ta'sirlarni qoplash;
- 9) bozor tizimini qo'llab-quvvatlash va uning ishlashini ta'minlash.

Davlat tomonidan eng yaxshi hal qilinadigan iqtisodiy vazifalar:

1) Bozor iqtisodiyoti asoslarini himoya qilish. Davlat monopoliyaga qarshi qonunchilikni ishlab chiqadi va qabul qiladi, bu esa raqobatning cheklanishiga va monopoliyalarning moliyaviy qudratining o'sishiga to'sqinlik qiladi.

2) Jamoat mahsulotini ishlab chiqarish. Ijtimoiy ne'matlar - davlat tomonidan o'z fuqarolariga teng ravishda taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar (masalan, mudofaa, bepul ta'lim, dori-darmonlar, kutubxonalariga, bog'larga tashrif buyurish va boshqalar).

3) Tashqi (nojo'ya) ta'sirlarni hisobga olish. Tashqi omillar - bu uchinchi shaxslar uchun tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq xarajatlar va foyda. Ayrimlarning xo'jalik faoliyati bunday oqibatlarga olib kelishi mumkinki, bu tovarlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish bilan bevosita aloqador bo'limgan shaxslarda namoyon bo'ladi. Salbiy oqibatlardan tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish natijasida boshqa shaxslar (ishlab chiqarishda ishtirot etmagan) xarajatlarga duchor bo'lgan taqdirda va ijobjiy oqibatlardan ushbu shaxslar ishlab chiqaruvchilarga ular tomonidan qoplanmagan imtiyozlarni olishlarida yuzaga keladi. tovarlardan. Davlatning vazifasi ishontirish, reklama kampaniyalari, subsidiyalar (ijobjiy tashqi ta'sirlar uchun) va soliqqa tortish (salbiy ta'sirlar uchun), xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va boshqalar kabi choralarini qo'llagan holda salbiy tashqi ta'sirlarni bartaraf etish va foydalilarini rag'batlantirishdan iborat.

4) Muhtojlarga yordam berish dasturlarini ishlab chiqish va moliyalashtirish.

Bozorni davlat tomonidan tartibga solish:

a) bevosita (to'qridan-toq'ri)

Asosan ma'muriy usullardan foydalanishni nazarda tutadi:

- davlatning qonun ijodkorligi faoliyati;
- davlat buyurtmalarini kengaytirish;
- iqtisodiyotda davlat sektorini rivojlantirish;
- faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash.

b) bilvosita

U asosan iqtisodiy usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi:

- pul-kredit (pul) siyosati;
- fiskal (fiskal) siyosat.

Bilvosita usullarning mohiyati:

1. Pul-kredit (pul) siyosati - pul muomalasi va kredit sohasidagi iqtisodiy o'sishni tartibga solish, inflyatsiyani jilovlash, aholi bandligini ta'minlash va to'lov balansini tenglashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi asosiy institut Markaziy bank hisoblanadi.

Asosiy vositalar:

1) Ochiq bozordagi operatsiyalar - mamlakatda narx taklifi ustidan davlat nazoratining eng muhim va har kuni qo'llaniladigan usuli. Bu Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni (federal ssuda obligatsiyalari, davlat g'azna majburiyatlar va boshqalar) naqd pulga sotib olish va sotish bilan bog'liq.

Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni sotadi → u evaziga naqd pul oladi → muomaladagi pul miqdorining qisqarishi, foizlarning oshishi → pul "qimmat" bo'ladi.

Markaziy bank qimmatli qog'ozlarni sotib oladi → foiz stavkasining pasayishi → pulning "arzonlanishi". Shunday qilib, bu bank zahiralarining kamayishiga yoki ko'payishiga, shuningdek, pul massasining ko'payishi yoki kamayishiga olib keladi.

2) Diskont stavkasi siyosati (Markaziy Bank asosiy stavkasi) - tijorat banklari faoliyatini tartibga solish imkonini beradi. Bunga foiz stavkasini o'zgartirish orqali erishiladi.

Diskont foiz stavkasi - bu Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga qisqa muddatli kreditlar beradigan foiz stavkasi.

Tijorat banklari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan ma'lum foizda, ya'ni diskont stavkasida (masalan, 10 foiz) kredit oladi. Banklar o'z mijozlariga olingan mablag'larni chegirma stavkasidan yuqori foizda (masalan, 20%) beradi. Markaziy bank foiz stavkasini ko'taradi → tijorat banklari o'z mijozlarining foiz stavkasini oshiradi. Markaziy bank diskont stavkasini pasaytiradi → tijorat banklari o'z mijozlari uchun foiz stavkasini pasaytiradi. Shunday qilib, Markaziy bank tadbirkorlik faoliyatini rag'batlanirish yoki sovutish maqsadida "arzon" yoki "qimmat" pul siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

3) Majburiy zaxiralar me'yorini o'zgartirish – qonun hujjalariiga muvofiq tijorat banklari mablag'larning bir qismini zaxira ko'rinishida Markaziy bankda saqlashlari shart. Ushbu zaxira miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. U kamaysa, tijorat banklari o'z mijozlari orasida pul joylashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi va mamlakatda pul massasi oshadi. Zaxiraning ko'payishi bilan pul taklifi kamayadi, ular uchun narx, ya'ni foizlar darajasi oshadi, pul "qimmat" bo'ladi. Markaziy bank tomonidan olib boriladigan zaxira siyosati pul-kredit tartibga solishning eng qat'iy vositasidir.

2. Fiskal (fiskal) siyosat - davlat xarajatlari va soliqlar orqali iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

Ushbu siyosatni amalga oshiruvchi asosiy institut Moliya vazirligi, Soliq qumitasi va O'zbekiston Respublikasi hukumati hisoblanadi.

Asosiy vositalar:

- 1) davlat xarajatlari;
- 2) soliqlar.

Nazorat savollari:

1. Iqtisodiy siyosat deganda nimani tushunasiz?
2. Merkantilizm ta'limoti xaqida nimalarni blasiz?
3. Fiziokratizm ta'limoti xaqida nimalarni blasiz?
4. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o'rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari konsepsiysi haqida nima bilasiz?
5. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni nimadan iborat?
6. Iqtisodiy liberalism nima?
7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo'yicha Keyns konsepsiyasining asosiy mazmuni nimadan iborat?
8. Iqtisodiy rivojlanishni boshqarish davlatning roli haqida zamonaviy nazariya haqida nima bilasiz?

3-mavzu. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar

REJA:

3.1. Rasmiy (formal) va norasmiy (noformal) institutlar hamda iqtisodiy siyosat sohasidagi yechimlar.

3.2. Demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi cheklovlar. Iqtisodiy siyosat, vositalar va boshqaruva nazariyasi.

3.3. Saylovchilar, siyosiy partiylar va taklif etilayotgan dasturlar. Parlament va institutsional qayta qurish.

3.1. Rasmiy (formal) va norasmiy (noformal) institutlar hamda iqtisodiy siyosat sohasidagi yechimlar.

Turli nazariyalar turli iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning sabablarini turlicha tushuntiradi. Ularni ikkita asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin: geografik va institutsional. Ular nega ba'zi mamlakatlar yuqori o'sish sur'atlariga erishayotganini, boshqalari esa turg'unlik yoki pasayishni turli yo'llar bilan tushuntiradi.

Geografik gipotezaga ko'ra, mamlakatlarning rivojlanish darajasidagi farqning asosiy sababi atrof-muhitning farqi yoki boshqacha aytganda, geografik joylashuvi va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligidir. Biroq shunday mamlakatlar borki, ularda tabiiy resurslar mavjud emas, geografik joylashuvi esa, masalan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay emas. Lekin ular rivojlanishning yuqori darajasini ko'rsatadi. Masalan, Yaponiyada tabiiy resurslar deyarli yo'q va hududning ko'p qismini past va o'rta balandlikdagi tog'lar egallaydi. Shu bilan birga, Juhon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda Yaponiya YaIM bo'yicha jahon reytingida 3-o'rinni egalladi. Ushbu misoldan biz rivojlanishni belgilovchi boshqa, muhimroq omillar bor degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Institutsional gipoteza ijtimoiy tashkilot va institutsional muhitga yo'naltirilganlikni fundamental sabablar, "o'yin qoidalari" ni belgilovchi omil sifatida belgilaydi.

Institut tushunchasi lotincha institutum – muassasa ma'nosini bildiradi.

Institutlar bu qoidalari plus Sanksiya (lot. sanctio dan - eng qat'iy qaror): Sanksiya - bunday normada mavjud bo'lgan qoidani buzgan shaxs uchun salbiy oqibatlarni nazarda tutuvchi huquqiy normaning elementi. Sanksiya - bu huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan va unga salbiy oqibatlarga olib keladigan ta'sir chorasi.

Institutlarning ahamiyati ortib, mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish va turli xil rivojlanishdagi farqlarni keltirib chiqardi.

Institutlar deganda odamlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro munosabatlarini tuzadigan va belgilovchi cheklovlar tushuniladi.

Iqtisodiy institutlar jamiyatda iqtisodiy rag'batlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bu esa ma'lum iqtisodiy natijalarga erishish imkonini berdi. Masalan, rasmiy institutlar orqali inson va jismoniy kapitalga investitsiyalarni yoki ishlab chiqarish jarayoniga iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, rasmiy va norasmiy institutlarning jamiyatda qanday bog'liqligini va qanday hollarda norasmiy institutlar rasmiylarga qaraganda iqtisodiy sub'ektlarning harakatlariga kuchliroq ta'sir qilishini tushunish kerak.

Rasmiy va norasmiy institutlar tasnifini AQSH iqtisodchisi D. Nort ishlab chiqqan, u institutlar o'rtasidagi farqlarni ajratib ko'rsatadigan ikkita mezonni belgilab berdi: rasmiylashtirish darajasi(yozilgan va yozilmagan), yuzaga kelish va o`zgarish yo`li. Rasmiy institutlar tegishli norma va qoidalarni qonunlashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha maqsadli harakatlar natijasidir. Konstitutsiyalar, kodekslar, qonunlar, qarorlar rasmiy institutlarga misoldir. Rasmiy institutlarning asosiy xususiyatlari orasida qat'iy ierarxiya mavjud: rasmiy institutlarning keyingi (yuqori) darajasini o'zgartirish avvalgisiga qaraganda ancha qiyin.

Norasmiy institutlar - bu jamiyatda shakllangan odamlarning o'zaro munosabatlari qoidalari va usullari, urf-odatlari, an'analari, stereotiplari va xatti-harakatlari. Shuni ta'kidlash kerakki, norasmiy institutlar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va o'zgarishlarga kamroq moyil bo'ladi.

Rasmiy institutlar qisqa vaqt ichida tegishli siyosiy, iqtisodiy, huquqiy qarorlar amaldagi qonunchilikda o'z ifodasini topgan o'zgarishlar qabul qilinishi mumkin. Shu bilan birga, o'rnatilgan urf-odat va an'analarda mujassamlangan norasmiy cheklovlar siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan kichik ijtimoiy guruhlarning insoniy harakatlariga kamroq bog'liqdir.

Rasmiy va norasmiy institutlar tasnifini D. Nort ishlab chiqqan, u institutlar o'rtasidagi farqlarni ajratib ko'rsatadigan ikkita mezonni belgilab berdi: rasmiylashtirish darajasi (yozma), yuzaga kelish va o`zgarish yo`li. Rasmiy institutlar tegishli norma va qoidalarni qonunlashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha maqsadli harakatlar natijasidir. Konstitutsiyalar, kodekslar, qonunlar, qarorlar rasmiy institutlarga misoldir. Rasmiy muassasalarning asosiy xususiyatlari orasida qat'iy ierarxiya mavjud: rasmiy institutlarning keyingi (yuqori) darajasini o'zgartirish avvalgisiga qaraganda ancha qiyin.

Norasmiy institutlar - bu jamiyatda shakllangan odamlarning o'zaro munosabatlari qoidalari va usullari, urf-odatlari, an'analari, stereotiplari va xatti-harakatlari. Shuni ta'kidlash kerakki, norasmiy institutlar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va o'zgarishlarga kamroq moyil bo'ladi.

Rasmiy institutlar qisqa vaqt ichida o'zgartirilishi mumkin, Ya'ni tegishli siyosiy, iqtisodiy, huquqiy qarorlar qabul qilinishi amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlarda o'z ifodasini topadi.

Shu bilan birga, o'rnatalgan urf-odat va an'analarda mujassamlangan norasmiy cheklovlar siyosiy hokimiyatga ega bo'lган kichik ijtimoiy guruhlarning insoniy harakatlariga kamroq bog'liqdir.

Rasmiy institutlar amaldagi qonunchilikda aniq belgilangan va mustahkamlanganligi sababli, institutsional muhitni ko'rib chiqishda ular ko'pincha tahlil qilinadi. Shu bilan birga, norasmiy institatlarning xatti-harakatlarga ta'siri bir qancha kuchli bo'lishi mumkin, ammo ular ko'pincha tahlilda e'tibordan chetda qoladilar.

Norasmiy institatlarning iqtisodiy farovonlikka ta'sirini birinchilardan bo'lib o'z ishida M.Veber ko'rib chiqdi.

"Protestant axloqi (etikasi) va kapitalizm ruhi" asarida kapitalizmning paydo bo'lishi din bilan chambarchas bog'liqligi haqidagi tezisni ilgari surdi.

Protestantlar Xudo tomonidan tanlangan kishi moddiy jihatdan ta'minlangan bo'lishi kerak, deb hisoblashgan. Shuning uchun, har bir kishi o'zini tanlangan deb his qilishi uchun yuqori turmush darajasiga erishishga harakat qiladi

Moddiy standartlar Xudo bilan munosabatlarda hech qanday rol o'ynamagan boshqa jamiyatlarda, odamlar ishslash, tejash va sarmoya kiritish uchun kuchli rag'batlarga ega emas edi. Shu sababli, Veberning fikriga ko'ra, AQSh, Germaniya, Angliya kabi protestantizmni qabul qilgan fuqarolar soni nisbatan yuqori bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lgan.

B. Kuzinos o'z asarlaridan birida qonun ustuvorligi shubha ostiga qo'yilgan inqirozlar va urushlar davrida rasmiy institutlar jamiyatning normal faoliyat yuritishini ta'minlay olmagaganida norasmiy institutlar xulq-atvorga kuchliroq ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan edi. Bunga Rossiyyadagi 1990-yillardagi o'tish davri yaxshi misol bo'ladi.

M.Veber "foydaga chanqoqlik" (ochko'zlik)ning ikkita tubdan farqli turi tushunchasi (kontsehsiyasi)ni ilgari surgan, ulardan biri ilgari yaratilgan boylikni qayta taqsimlash (shu jumladan o'g'irlik va talonchilik yo'li bilan) orqali boyib ketish edi.

Bu singari hodisalar qadim zamonlardan beri turli jamiyatlarda kuzatilgan. Dengiz va quruqlikdagi qaroqchilik, qaroqchi to'dalar - bularning barchasi insoniyat tarixinining eng dastlabki bosqichlarida uchraydi.

O'zaro ta'sirning norasmiy mexanizmlari rasmiy qoidalar to'plamiga emas, balki odamlar o'rtasidagi ishonchga asoslanadi. Ushbu o'zaro ta'sir mexanizmida iqtisodiy va fuqarolik jamiyatidan yuqori darajadagi avtonomiya mavjud, shartnoma majburiyatlarini bajaruvchi, mulk bilan bog'liq huquqlarni himoya qiluvchi va bozorni tartibga soluvchi organ sifatida kuchli davlat mavjud emas.

Qoida tariqasida, demokratiya darajasi past bo'lgan mamlakatlar norasmiy institutsional tuzilma bilan bog'liq, demokratiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar esa qonun ustuvorligiga e'tibor qaratadi.

Shuni tushunish kerakki, agar rasmiy va norasmiy institutlarning biri boshqasining qonuniy ifodasi bo'lsa, ular faoliyatining sinergik (birgalikdagi) samarasi ancha yuqori bo'ladi.

Misol tariqasida korruptsiyaga qarshi kurash kampaniyasini keltirish mumkin.

Korruptsiya norasmiy institutdir, ammo uning mavjudligidan kichik guruhlar o'z vakolatlaridan foydalanish orqali foyda ko'radi. Shunday qilib, cheklangan miqdordagi odamlar doirasi ushbu institut mavjudligidan manfaatdor.

Umuman olganda, jamiyat bu illatga salbiy baho beradi va unga duch kelishni xohlamaydi.

Korruptsiyaga qarshi kurash rasman va amalda bo'lishi kerak. Bunday holda, rasmiy va norasmiy institutlarning o'zaro ta'siri sodir bo'ladi, bu esa samara ta'sirmi kuchaytirishi kerak. Jamiyatning korruptsion harakatlarga nisbatan nafratlanishiga qaramay, fuqarolar bu faktlar haqida huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishni istamaydilar

Buning sababi shundaki, jamiyatda, xususan, O'zbekistonda kimdir haqida hokimiyat organlariga xabar berish uyat hisoblanib, norasmiy qoidalar tufayli atrofdagilar tomonidan hurmat qilmaslik va ishonchszilik holatlari bo'lishi mumkin.

Agar aksilkorrupsiya siyosati rasman va amalda olib borilsa, yangi avlod to'g'ri tarbiyalansa, norasmiy institutlar teskari ishlay boshlaydi, ya'ni mansabdor shaxslarning korruptsion faoliyati to'g'risida hisobot berish jamoatchilik tomonidan ma'qullanadi.

Natijada, davlat boshqaruvidagi korruptsiya darajasi pasayadi va investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiy rivojlanishni oshirish omillaridan biri bo'ladi.

3.2. Demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi cheklar. Iqtisodiy siyosat, vositalar va boshqaruv nazariyasi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev "Mustaqil taraqqiyot yillarda Konstitusiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda".

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va faol amaliyotga tadbiq etilayotgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning aniq mexanizmlari belgilab berilganligi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining yangi bosqichi sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yil PF-60 sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»

gi Farmonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo‘nalishdan iborat etib belgiladi.

1. Erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etiladi, inson qadri-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan, keng ko‘lamli islohotlar yangi pog‘onaga ko‘tariladi.

2. Adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta‘minlashning eng asosiy va zaruriy sharti bo‘ladi.

3. Milliy iqtisodiyotni, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish ustuvor vazifalaridan biri bo‘ladi.

4. Adolatlari ijtimoiy siyosat yuritiladi, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta‘lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e’tibor markazida bo‘ladi.

5. Ma’naviy va ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

6. Iqlim o‘zgarishi, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi kabi umumbashariy muammolarga yechim topish dolzarb bo‘lib qoladi.

7. Mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashning ishonchli kafolati bo‘lgan Qurolli Kuchlar qudratini yanada oshirish ustuvor maqsad bo‘lib qoladi.

Demokratiya („xalq hokimiyyati“) — barcha insonlar tenglik asosida va jamoaviy holatda qaror qabul qilish orqali jamiyatni boshqaradigan boshqaruva tuzumi. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatalgan va yuzaga chiqarilgan bo‘ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Shuningdek, demokratiya markaziy va mahalliy vakillik muassasalari, saylash va saylanish, qonuniylik tamoyillarini, turli partiyalar, jamoat tashkilotlarining amal qilishini taqozo etadi.

Demokratiyaning mohiyatini ochib berish uchun siyosatchilar quyidagi fiklarni ilgari surganlar.

Ronald Reygan: “Demokratiya qurbon bo‘lishga arziydi. Chunki u insonni sharaflaydigan davlat tuzumidir”

Uinston Cherhil: “Demokratiya davlat boshqaruvining eng yomon shaklidir, biroq insoniyat shu vaqtga qadar undan yaxshirog‘ini yarata olgani yo‘q”

Demokratiyaning tarixiga nazar tashlasak, uning ildizlari Qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Qadimgi Yunonistonda «demokratiya» atamasi teng huquqli fuqarolar yig`ini, fuqarolarning asosiy qismi ma`nolarida qo`llanilgan.

Miloddan avvalgi V-IV asrlarda bu g`oya Afinada o‘z mumtoz shakliga ega bo‘lgan. V asrning boshidan beri, ya`ni davlat lavozimlarini egallash uchun mulkiy chekhanishlar bartaraf etilgandan so`ng afinalik barcha fuqarolar qonunlarni muhokama qilish, ularga ovoz berish va hamjamiyat siyosatni ishlab chiqish jarayonida shaxsan ishtirok etish huquqididan foydalanganlar. Shuningdek, ular

rotatsiya (almashinuv) tamoyili asosida egallanadigan lavozimlar, sud va ma`muriy qo`mitaga a`zolik, boshqaruvda qatnashish huquqidan ham foydalanganlar. Shu paytdan beri ushbu misol demokratlar uchun ilhom manbai va tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar demokratik boshqaruv haqida turli-tuman nazariya va yondashuvlar shakllangan. XVIII-asrdan boshlab AQSh va Yevropada “demokratiya” keng quloch yozganligi tufayli, amerikalik ma`rifatparvar, davlat arbobi bo`lgan Benjamin Franklin demokratiyani «chiqib kelayotgan quyosh» deb ta`riflagan edi. Demokratiya tushunchasi turli davrlarda turli joylarda turli odamlar uchun o’zlarining manfaatlariga mos ravishda turli ma`nolarni anglatgan. Amerikaparastlar “adolatli boshqaruv” sifatida, Adolf Hitler kabi totalitar tuzum vakillari esa “ahmoqlar ishi” sifatida e’tirof etganlar. Rossiya olimlari V.P.Pugachyov, A.I.Solovyovlar bo’lsa demokratiyani rahbarlikka imkoniyatlari bor fuqarolarning raqobatchilik asosida saylovchilar ishonchlarini qozonish orqali boshqarish uslubi deb ta`riflaydilar.

Saylov insoniyat o’ylab topgan, hokimiyat vakolatini vujudga keltiruvchi eng qadimiy usullardan hisoblanib, u demokratiyaning yorqin ifodasi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida ishtirokining muhim shakli, davlat boshlig’i, vakillik organlarini (qonunchilik organini) vujudga keltirishning asosiy vositasidir. Vujudga kelib, qo’llanila boshlagandan to hozirgacha saylovlar takomillashib keldi va hamma joyda bir nechta ijtimoiy funksiyalarni bajarib kelmoqda.

Birinchidan, saylovlar mavjud hokimiyatning legitimligini ta’minlaydi, bu aholi saylov natijasidagina vujudga kelgan hokimiyat tuzilmalarinigina tan olib, ularning ko’rsatmalarini ixtiyoriy bajarishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi turli siyosiy kuchlar nisbatini aniqlash imkonini beradi, bu qaysi siyosiy kuch nimaga qodirligini, aholi nimani ma’qul ko’rishini, kimga ishonishini bildiradi.

Uchinchidan, siyosiy hokimiyatni, siyosiy boshchilarni, siyosatchilarni tinch yo’l bilan almashishini ta’minlaydi, bu – hokimiyatga yangi kuchlar kelishi, ishonchni oqlamagan shaxslar, vakillik organlarining a’zolari siyosat maydonidan chiqishi, ularning o’rniga yangilari kelishi demakdir.

To’rtinchidan, xalq suverenitetini, demokratik siyosiy rejimni ta’minlab, siyosiy elitani aholi nazoratida bo’lishini ta’minlaydi. Bu degani har bir yangi saylov davrida avval saylanganlar saylovchilar oldida hisobot berishini ta’minlashni bildiradi.

O’zbekiston o’z taraqqiyotini insonparvar demokratik huquqiy davlat qurishda ko’rmoqda. Shu maqsadda barcha jabhalarda demokratik islohotlar o’tkazilmoqda, natijada demokratiyaning o’zi ham takomillashmoqda. Demokratiyaning takomillashuvini esa saylovlarning takomillashuvisiz, demokratlashuvisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. O’zbekistonning Birinchi Prezidenti tomonidan 2010-yil 12-noyabrda ilgari surilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada

chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi”da “O’zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish” masalasiga alohida bob ajratilishining o’zi ham, saylov masalasi, saylov huquqi demokratiya tizimida, jamiyat, fuqarolar hayotida muhim masala ekanligini ko’rsatadi.

Konsepsiya qayd qilinishicha “erkin saylov va o’z xohish-irodasini erkin bildirish prinsiplari, birinchi navbatda, har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha Konstitusiyaviy huquqi milliy davlatchiligidan modelining asosini tashkil etadi”. Saylov saylov huquqi orqali amalga oshiriladi. Saylov huquqi esa konstitusiyaviy huquqning muhim institutidir.

Saylov biror narsani yaratish, tashkil qilish vositasi bo’lib, u kishilarni, jamiyat a’zolarini xohish irodasini ro’yobga chiqarish vositasidir. Saylovda xohish-iorda ovoz berish orqali namoyon bo’ladi. Ovoz berishni esa turlari har xil bo’lib, ular orasida eng ahamiyatlisi, ommaviy xarakterga ega bo’lgani bu – hokimiyat organlarini, tuzulmalarni tuzishda qo’llaniladigan ovoz berish, ya’ni saylovdır. Bu ovoz berish qonunlarda fuqarolarning saylov huquqi sifatida mustahkamlanganib, siyosiy huquq tarzida e’tirof etiladi.

Saylov – saylov huquqi orqali namoyon bo’ladi. Saylovlar XX asrda ayniqsa rivojlandi va ahamiyati oshdi. Xalqaro miqyosdagi munosabatlarga aylandi. Hozirgi paytda har qanday demokratik mamlakatlarda saylov huquqi mavjud ekan, u ma’lum xalqaro-huquqiy standartlarga mos kelishi zarur. Bunday standartlar, talablar ikkinchi jahon urushidan so’ng ishlab chiqilib, xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan.

Fuqarolarning saylov huquqiga egaligi BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi” da belgilab qo’yilgan. Uning 21-moddasi “a” bandida “Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o’z mamlakatlarini boshqarishda qatnashish huquqiga ega” ekanligi yozib qo’yilgan. Xuddi shu mazmundagi qoida “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt”da ham mustahkamlangan.

Hozirgi kunda saylov huquqi fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan saylovlarda qatnashish huquqidir.

Saylov huquqini aniq tushunish, bilish uchun, “saylov huquqi” atamasini bilish zarur. Chunki bu atama bir necha mazmunda yoki boshqacha qilib aytganda, bir necha tushunchalarga nisbatan ishlatiladi.

Ko’pchilik manbalarda saylov huquqiga ta’rif berishda u ikki ma’noda ishlatilishi hisobga olinadi va tushuncha shunga mos ravishda beriladi.

“Saylov huquqi” ikki ma’noda ishlatiladi:

- birinchisi – saylov huquqi saylov yo’li bilan shakllantiriladigan davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimidir;
- Ikkinchisi – saylov huquqi fuqarolarning saylab qo’yiladigan organlarni tuzishda qatnashish, ya’ni unga o’zlarining saylanish (passiv saylov

huquqi) va ularning tarkibini saylash (faol saylash huquqi) huquqlaridir.

Bu ta’rifdagi saylov huquqi normalari saylov yo’li bilan shakllantiriladigan davlat organlari faoliyatini tartibga soladi degan ta’rifga qo’shilish qiyin. Chunki, saylov huquqi davlat organlarini tashkil qilish tartibinigina belgilaydi, ularning faoliyatini esa boshqa huquqiy normalar masalan, “Parlament huquqi” tartibga soladi. “Saylov huquqi” atamasi shu ikki ma’no bilan tugallanmaydi. U yana boshqa ma’noda ham ishlatiladi.

Birinchidan, “Saylov huquqi” atamasi ma’lum bir ijtimoiy munosabatlarni (saylov munosabatlarini) tartibga soluvchi huquqiy normalar yig’indisiga nisbatan ishlatiladi. Bunda saylov huquqining huquqiy institut ekanligi ko’rinadi.

Ikkinchidan, “saylov huquqi” fuqarolarning siyosiy huquqlariga nisbatan ishlatiladi. Fuqarolarning saylov huquqi saylash va saylanish huquqidan iborat. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 117-moddasida fuqarolar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar – deb belgilab qo’yilgan. Demak, fuqarolarning “saylov huquqi” siyosiy huquq va u saylash hamda saylanish huquqining umumlashgan ifodasidir.

Saylov huquqining huquq tizimidagi o’rniga kelsak, u alohida huquq tarmog’i bo’lmasdan, Konstitusiyaviy huquqning instituti sifatida e’tirof etiladi.

Saylov huquqi deganda, birinchidan, mamlakatda saylovlarni tashkil etuvchi huquq normalari tushinilsa, ikkinchidan fuqarolarning saylash va saylanishga bo’lgan huquqi tushiniladi. (aktiv va passiv saylov huquqi).

Siyosiy raqobatning mazmuni va mohiyati ommaga, muayyan ijtimoiy qatlam va guruhlarga ta’sir o’tkazish uchun kurashdan iborat.

Demokratik jamiyatda siyosiy maqsadlarga erishish faqat siyosiy partiya, uning yetakchisining jamoatchilik fikrini o’z foydasiga aylantirish, odamlarni o’z intilishlari va harakatlarining to’g’riligiga ishontirish qobiliyatiga bog‘liq.

Faqatgina saylovchilarni o’z tomoningizga og’dirish orqali davlat lavozimiga saylanish mumkin, odamlarning fikri va e’tiqodini o’zgartirib amaldagi davlat arbobi nufuzini oshirishni ta’minalash mumkin, faqat deputatlar va jamoatchilik fikriga ta’sir o’tkazish orqali ularni qonun hujjalariiga zarur o’zgartirishlar kiritish uchun ovoz berishga undash mumkin.

Siyosiy raqobat - jamiyatning tashkiliy darajasini belgilovchi, bevosita yagona siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayoni yuzaga kelishiga ta’sir qiluvchi quruqlarning siyosiy imkoniyatlari ko’rsatkichidir.

Siyosiy raqobat saylovoldi kurash jarayonining muhim tarkibiy qismidir.

Partiyalar raqobati sharoitida konstruktiv umumiyl platforma namoyon bo’ladi, deputatlikka eng munosib nomzodlar ko’rinadi, parlamentning deputatlik korpusi shakllanadi.

Siyosiy partiyalarning qarama-qarshiligi har doim jamiyat va fuqarolar uchun madaniyat, bilim, dunyoqarash, bag’rikenglik sohasida jiddiy sinov bo’lib kelgan.

Siyosiy ambitsiyalar qanchalik kuchli bo'lsa, partiyalarning o'z harakatlari va ishlari uchun javobgarligi shunchalik yuqori bo'lishi kerak.

Zamonaviy xalqaro saylov standartlari deputatlikka nomzodning saylovchilar va boshqa nomzodlar bilan munosabatlarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari majmuini belgilaydi.

Islohotlarning ko'lami ko'ppartiyaviylik va partiyalar o'rtasidagi erkin raqobatga o'tishda namoyon bo'ldi, bu esa ushbu jarayonning bevosita ishtirokchisi sifatida elektorat yuqori darajadagi siyosiy va huquqiy madaniyatni talab qiladi.

Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi cheklovlar.

Proteksionizm (fr. protectnisme, lot. protect — himoya, homiylik) — davlatning chetdan keltiriladigan tovarlar importini vaqtincha cheklash va shu kabi mahalliy tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashqi savdo siyosati. Proteksionizmning maqsadlari, masalan, yalpi milliy daromadning o'sishi, bandlikni oshirish, ijtimoiy ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasida proteksionistik ta'limot erkin savdo – erkin savdo doktrinasiga qarama-qarshidir. Proteksionizm tarafдорлари erkin savdo doktrinasini milliy ishlab chiqarishning o'sishi, aholi bandligi va demografik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi nuqtai nazaridan tanqid qiladilar. Proteksionizm muxoliflari uni erkin tadbirkorlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, aholi hayotini yomonlashtirish va iqtisodiy o'sishni sekinlashtirish nuqtai nazaridan tanqid qilishadi.

Proteksionistik siyosat

Iqtisodiy siyosatning umumiy maqsadlariga erishish uchun proteksionizm bir qator cheklovchi chorallardan foydalanadi:

- import bojxona to'lovlari (bojxona siyosati);
- import kvotalari va savdo embargolari;
- tovarlar va xizmatlar xavfsizligini sertifikatlash tizimi;
- intellektual mulk, patentlar va mualiflik huquqini himoya qilish;
- ma'muriy to'siqlar: byurokratik taqiqlar, tasdiqlashlar, bojxona tartiblari;
- eksportni ixtiyoriy cheklash;
- texnik to'siqlar: qadoqlash, yorliqlash, mahsulotni standartlashtirish, sanitariya va veterinariya shakllari bo'yicha majburiy ma'lumotlar;
- tovar va xizmatlar eksportida ishtirok etuvchi ishlab chiqaruvchilar uchun subsidiyalar: imtiyozli kreditlash, bir qator xarajatlarni qoplash, imtiyozli soliqqa tortish;
- ichki bozor uchun tovar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi ishlab chiqaruvchilar uchun subsidiyalar;
- eksport qiluvchilar uchun grantlar va rag'batlantirishning boshqa shakllarini taqdim etish;
- valyuta nazorati: ayirboshlash operatsiyalariga cheklovlar, kapital nazorati;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarga imtiyozli kreditlar va kreditlar berish;
- xorijiy ishchilar va investorlarga nisbatan diskriminatsiya;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilardan tovar va xizmatlar sotib olgan iste'molchilarga subsidiyalar;
- valyuta kursiga intervensiya: milliy valyutaning qadrsizlanishi;
- “faqat mahalliyni sotib ol” shaklida siyosiy vatanparvarlik kampaniyalarini o'tkazish;
- tijorat tenderlarida mahalliy tovar va xizmatlarga imtiyozlar berish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlari va faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan davlat xaridlari.

Proteksionizmning afzalliklari.

Proteksionizm tarafdorlarining fikricha, u mamlakat sanoatining rivojlanishiga, uning barqaror iqtisodiy o'sishiga va pirovardida boy davlatga aylanishiga yordam beradi, erkin savdo esa sanoatning yo'q bo'lib ketishiga, iqtisodiy tanazzulga va qashshoqlikka olib keladi, ayniqsa, agar u mamlakatga joriy qilingan bo'lsa, sanoat rivojlanishining past darajasi bilan. Ushbu iqtisodchilar o'z fikrlarini qo'llab-quvvatlash uchun proteksionistik siyosat olib borgan mamlakatlarning sanoatlashuvi va gullab-yashnashining ko'plab misollariga va erkin savdo (erkin savdo) siyosatini olib borgan mamlakatlarning industrializatsiyasi va qashshoqlashuviga teskari misollarga murojaat qiladilar. Ushbu iqtisodchilarning fikriga ko'ra, mamlakat yetakchi kuchlardan qanchalik orqada qolsa, shunchalik ko'p. uning raqobatbardoshligini pasaytiradigan iqlimi va geografik kamchiliklar (qattiq iqlim, aholining past zichligi, asosiy transport yo'llaridan uzoqligi), milliy sanoatni rivojlantirish yo'lidagi proteksionistik to'siqlar shunchalik yuqori bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, ushbu iqtisodchilarning fikriga ko'ra, quyidagi maqsadlarga erishish uchun cheklovchi choralar kiritiladi:

- sanoatni modernizatsiya qilish davrida nafas olish, mahsulot hayotiy tsiklining dastlabki bosqichida boshlang'ich sanoat yoki mahsulotni qo'llab-quvvatlash;
- Milliy xavfsizlikni ta'minlash: milliy mudofaa bilan bog'liq tarmoqlarni saqlab qolish;
- mamlakat iqtisodiyotining o'zini-o'zi ta'minlash va uning barqarorligini ta'minlash shaklida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- barqarorlik, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;
- mamlakat aholisining bandlik darajasini oshirish va himoya qilish, arzonroq xorijiy ishchi kuchidan himoya qilish;
- dempingdan himoya qilish: raqobatchini yo'q qilish yoki monopol mavqeini o'rnatish maqsadida xorijiy davlatga qiymatidan past tovarlarni demping qilgan mamlakatlardan;

- to‘lov balansini yaxshilash, importning qisqarishi hisobiga tashqi savdo taqchilligini kamaytirish;
- mamlakat davlat byudjeti daromadlarini bojxona to‘lovlari hisobiga to‘ldirish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarning qo‘srimcha foydasi hisobidan mahalliy byudjet daromadlarini to‘ldirish;
- xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan nomukammal raqobatdan yo‘qotishlarni kamaytirish;
- davlat organlari tomonidan nazorat qilinadigan ishlab chiqarish mahsulotlarini sotish orqali fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta‘minlash.

3.3. Saylovchilar, siyosiy partiylar va taklif etilayotgan dasturlar.

Parlament va institutsional qayta qurish.

Saylov huquqi — davlat boshlig‘i, vakillik organlari va boshqalarni saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisi. Konstitutsiyaviy huquq tarkibiga kiradi. Saylov huquqi, odatda, konstitutsiya va saylov to‘g‘risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi. Ularda nomzodlar ko‘rsatish tartibi, vakillik normalari, ovoz berish natijalarini aniqlash tartibi va boshqa belgilab beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan.

Konstitutsianing VIII- Siyosiy huquqlar bobi 32-moddasida shunday deyilgan:

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

26.06.2019 yil qabul qilingan O‘zbekiston respublikasing Saylov kodeksining 1-bob 1-moddasasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati (bundan buyon matnda Senat deb yuritiladi) a’zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari (bundan buyon matnda mahalliy Kengashlar deb yuritiladi) deputatlari saylovlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xohish-irodasi erkin bildirilishini ta‘minlovchi kafolatlarni belgilaydi.

Saylov to‘g‘risidagi qonunchilik O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Kodeks va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasida saylov o‘tkazishning asosiy prinsiplari O‘zbekiston Respublikasida saylov umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o‘tkaziladi.

Saylov ochiq va oshkora o‘tkaziladi.

4-modda. Umumiy saylov huquqi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlari umumiyyadir.

Saylov kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi) saylash huquqiga egadir.

Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, ma’lumoti, mashg‘ulotining turi va xususiyatidan qat’i nazar, teng saylov huquqiga egadir.

5-modda. Teng saylov huquqi

Saylovda ishtirok etuvchi har bir fuqaro bir ovozga ega bo‘ladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmaydi.

6-modda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadi.

7-modda. Yashirin ovoz berish

Saylovda erkin va yashirin ovoz beriladi. Saylovchilarining xohish-irodasini nazorat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta’milnadi.

«*Partiya*» atfmasi lotinchcha «*parts*» so’zidan kelib chiqqan bo’lib, «*qism*», «*bo’lak*» degan ma’noni anglatadi. Siyosiy partiya deganda fuqarolarning muayyan siyosiy maqsadlar atrofida birlashgan va muayyan siyosiy tashkilotlarga uyushgan qismi, bo’lagi tushuniladi.

Siyosiy partiyalar, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muxim qismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Dastlabki Siyosiy partiyalar XVII-XVIII-asrlar inqiloblari davrida paydo

bo‘la boshlagan bo‘lsada, Siyosiy partiyalarga o‘xshash jamoa, tashkilotlar qadimdan mavjud edi. Afina geteriyalari, Rim optimat va populyarlari antik davrda Siyosiy partiyalar vazifasini bajargan. Siyosiy partiyalarning universal shakli asosan, qarindoshlik aloqalari bilan boglangan kishilar guruhi va maxfiy tashkilotlar bo‘lgan (Yorklar va Lankasterlar — o‘rta asrlar Angliyasida; Ali tarafдорлари — o‘rta asrlarda Arabistonda). Osiyo davlatlarida hozirgi kunda ham qarindoshlik va yurtdoshlik tamoyillarining siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishida ahamiyati katta.

Markaziy Osiyoda siyosiy partiyalar tuzish uchun tarixiy-ijtimoiy vaziyat 19-asrning oxiri — XX-asrning boshlarida yuzaga kela boshladi. Jadidlar va ma’rifatparvarlarning xalq orasida ma’rifatni yoyib, uning siyosiy faolligini oshirish, ommani chor Rossiyasi tarkibida muxtoriyatga erishishga da’vat qilish, o‘lkada mustaqil milliy davlat yaratish masalasini o‘rtaga qo‘yish borasidagi harakatlari shundan dalolat berardi (qarang Jadidchilik). Lekin ularning intilishlariga chor hokimiyati va mahalliy hukmdorlar boshdan qarshilik qildi. Oqibatda, mintaqada 1917-yilgacha bo‘lgan davrda siyosiy, nazariy va tashkiliy jihatdan yetuk siyosiy partiyalar shakllanib ulgurmadi. Oktyabr (1917y.Rossiya) to‘ntarishi arafasida va undan keyin o‘zini namoyon eta boshlagan siyosiy tashkilotlar va ularning rahbarlari qatag‘onga uchradi, badarg‘a va surgun qilindi ("Milliy ittihod", Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar). Sho‘rolar davrida esa hukmron kommunistik partiyadan boshqa bironbir partiyani tuzish taqiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lganidan so‘ng Sp.ning shakllanishi va faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratildi.

Mamlakatda hozirgi paytda 5 ta siyosiy partiya mavjud:

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi,

O‘zbekiston "Adolat" sotsialdemokratik partiyasi,

O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi,

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi,

O‘zbekiston Ekologik partiyasi.

Bu Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8 dek.), O‘zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to‘g‘risida"gi qonuni (1996-yil 26 dek.), boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, o‘z ustavi asosida amalga oshiradi.

Siyosiy partiyalar tashkil etish huquqi Konstitutsyaning 34moddasida mustahkamlangan. Konunga ko‘ra siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a’zolarining teng huquqliligi, o‘zini o‘zi boshqarish, qonuniylik va oshkorlik asosida tuziladi va faoliyat ko‘rsatadi.

Siyosiy partiyalar uchun quyidagilar taqiqlanadi:

- konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi;

- O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;
- urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi;
- xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi;
- milliy va diniy ruhdagi partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko‘rsatish.

Siyosiy partiyalar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni bo‘yicha quyidagi shaxslar Siyosiy partiyalarga a’zo bo‘la olmaydilar:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat qiluvchi shaxslar (sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari);
- ichki ishlar organlari, Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar,
- xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Siyosiy partiyalarga a’zolik faqat yakka tartibda qayd etiladi. Bir partiyaning zosi ayni vaqtida ikki partiyaga a’zolikka qabul qilinmaydi.

Siyosiy partiyalarni tuzish uchun kamida 8 ta hududiy sub’yektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo‘lgan kamida 20 ming fuqaroning imzosi bo‘lishi talab etiladi.

Siyosiy partiyalar saylab ko‘yiladigan davlat organlaridagi o‘z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda, qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etadi. O‘z partiyalarining siyesatini uyushqoklik bilan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida Siyosiy partiyalarning fraksiyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlari tuziladi.

“Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunda Siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlari, ularni tuzish, ro‘yxatga olish, partiyalar mulki, ular faoliyatini to‘xtatish tartibi va boshqa masalalar to‘liq ko‘rsatib berilgan.

Parlament — (inglizcha: parliament, fransuzcha: parlement) davlatning davlat hokimiyati organlaridan biridir. Parlament vakillik muassasasi bo‘lib, uning deputatlari xalq tomonidan saylanadi va Parlamentda uning manfaatlari himoya qilinadi. Parlament qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi, ya’ni davlatning qonunlarini qabul qilishda mutlaq huquqqa ega bo‘ladi. Parlament davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilash va amalga oshirishda qatnashadi, davlat budgetini tasdiqlaydi, davlatning soliq asoslarini va umum davlat soliqlari hamda yig‘imlari turlari belgilab beradi. Parlament boshqa davlat organlarini shakllantirishda davlatning oliy mansabdor shaxslarini tayinlashda qatnashadi — bu ishlarni yo o‘zi bajaradi, yoki tegishli nomzodlar u bilan kelishib bajariladi. Parlament davlat qonunlari ijrosi ustidan va ijroiya hokimiyati organlarining faoliyati ustidan, yangi qonunlarning tasdiqlanishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi. Parlament

aholi turli qatlamlari va guruhlarini, davlat mintaqalarini jipslashtiruvchi organ bo‘lib xizmat qiladi.

Parlament bir palatali yoki ikki palatali bo‘ladi (kamdan kam hollarda palatalar ko‘proq bo‘lishi mumkin). Ikki palatali parlamentda palatalarni biri umumxalq vakilligi prinsipida bo‘ladi. Uning deputatlari hududiy saylov okruglari bo‘yicha saylanadi. Davlatning hududi shunday okruglarga taqsimlanadi (majoritar saylov tizimi) yoki proportsional (mutanosib) saylov tizimi bo‘yicha, ya‘ni siyosiy partiyalar va harakatlar taklif etgan ro‘yxatlar bo‘yicha yoxud aralash tizim bo‘yicha saylash o‘tkaziladi.

Palatalarning ikkinchisi davlatning qismlaridan vakillik printsipida bo‘ladi. Mazkur palata a’zolari tegishli hudud aholisi tomonidan, mintaqalarning qonun chiqaruvchi majlislar tomonidan saylanadi yoxud mintaqalardagi qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyatning boshliqlari lavozimlarini egallab turganlari tufayli palata a’zosi bo‘ladilar, yo bo‘lmasa, mintaqalar ijroiya hokimiyati organlari tomonidan tayinlanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi — O‘zbekiston parlamenti, oliy davlat vakillik, qonun chiqaruvchi organi. Dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etilgan va fuqarolarning umumiyligi, teng , to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida shakllantirilgan. 1-chaqiriq Oliy Majlis ko‘p partiyalilik asosda 3 turda — 1994-yil 25-dekabr, 1995-yil 8- va 22-yanvarda bo‘lib o‘tgan saylovlarda saylangan va 1995—99 yillarda faoliyat ko‘rsatgan. 2-chaqiriq Oliy Majlisga saylovlар 1999-yil 5 va 19 dek.da bo‘lib o‘tgan va u 2000— 2004-yillarda faoliyat ko‘rsatgan. Bir palatali parlament 250 deputatdan iborat bo‘lib, u ishlagan davrda 10 ta kodeks, ikkita milliy dastur, 240 ta qonun, 468 ta qaror qabul qilingan, qonun hujjatlariga 1573 ta qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. Bu yillarda parlament, o‘z konstitutsiyaviy vakolatlariga asoslanib, demokratik jamiyatning huquqiy asoslarini shakllantirish, bozor iqtisodiyoti prinsiplarini rivojlantirish bo‘yicha muayyan ishlarni amalga oshirdi. Qonunchilik, davlat boshqaruvi, o‘tish davri muammolarini yechishda muayyan tajribaga ega bo‘ldi. 2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan referendumda ikki palatali parlamentni tuzish masalasi O‘zbekiston xalqi tomonidan qo‘llab quvvatlandi. 2004-yil 26-dekabr va 2005-yil 9-yanvarda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga, 2005-yil 17—20-yanvarda Oliy Majlis Senatiga saylovlар bo‘lib o‘tdi va Oliy Majlis 2 palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palatadan) iborat qilib shakllantirildi.

Institutsional qayta qurish.

Har qanday jamiyat institutsional muhitni tashkil etuvchi ma’lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritadi va rivojlanib boradi.

Vaqt o‘tishi bilan o‘sha institutlar va uning tarkibga kiruvchi aksariyat huquqiy — institutsional normalar hamda mehanizmlar rivojlanishning ichki talablari va tashqi omillar ta’sirida “eskiradi”. Eskirgan institutlar va normalar taraqqiyotga to‘siq bo‘lib qoladi.

Mavjud institutsional normalar va mexanizmlarni bir – biri bilan o‘zaro bog‘liqligi, ular o‘rtasida yuzaga kelgan nomutanosibliklar, uzilishlarni aniqlash va yangi yoki tarkibiy jihatdan takomillashgan institutlar, institutsional qoidalar va

mexanizmlarni asoslash zarur hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinlik, hozirgi kunda ayrim shakllangan, kundalik hayotda foydalanilayotgan, ammo takomiliga yetmagan, nisbatan murakkab bo‘lgan institutlar mamlakatimizni yanada barqaror rivojlanishiga halaqit berayotgan to‘sirlardan hisoblanadi, qaysikim ular orqasida yashirinib turgan aniq tarkibga ega, mutanosib, qarama–qarshiliklarsiz institutlar mavjud, ana shunday institutlarni amalga kiritish iqtisodiy o‘sishga yangi turki beradi hamda o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni tezlashtiradi va soddalashtiradi, xalqaro maydonda O‘zbekiston obro‘sini yanada oshiradi.

Ammo har qanday yangi institut yoki institutsional normalar, qoidalar tezda paydo bo‘lmaydi, yoki ularni amalga kiritish birdan yuz bermaydi.

Aksincha, ayrim institutlar qanchalik jozibali bo‘lmasin, ularni qonunchilikka kiritish hamisha ham maqsadga muvofiq hisoblanmaydi, yoki bunday harakat rivojlanishga to‘sinq bo‘lib, mavjud institutsional mutanosiblikni buzishi mumkin. Shularni hisobga olganda, O‘zbekistonda islohotlarni bosqichma–bosqich amalga oshirish tamoiliga amal qilgan holda, o‘zini oqlagan huquqiy – institutsional norma va mexanizmlarni rivojlantirishning strategik maqsadlariga muvofiq takomillashtirish talab etiladi.

Institutsional nuqtai nazardan, davlatning asosiy funksiyalaridan biri – bu xususiy mulk huquqini himoya qilish hisoblanadi. Xususiy mulk –iqtisodiy raqobatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hamda iqtisodiy o‘sishni, yangi ish o‘rinlarini yaratishning samarali mehanizmidir. Shu nuqtai nazardan mulkchilik munosabatlarida yuzaga kelayotgan muammoviy holatlarga iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida institutsional normalar ta’sirini baholash, xususiy mulk huquqini himoya qilish va shartnomalar bajarilishiga davlat kafolatining institutsional mexanizmlarini takomillashtirish zarurdir.

Nazorat savollari:

1. IIstitutlar deganda nimani tushunasiz?
2. Rasmiy (formal) va norasmiy (noformal) institutlar nima?
3. Siyosiy raqobat nima?
4. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda qanday ichki va tashqi cheklolar mavjud?
5. Protektsionistik siyosat - nima?
6. Saylovchilar, siyosiy partiyalar va taklif etilayotgan dasturlar haqida nima bilasiz?
7. Parlament va institutsional qayta qurish nima?
8. Parlament – nima?

4-mavzu. Davlat mulkini xususiyashtirish va boshqarish- iqtisodiyotni tartibga solish vositasi.

REJA:

- 4.1. Davlat mulkining mohiyati va o‘lchamlari**
- 4.2. Xususiy biznes va tadbirkorlikning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi**
- 4.3. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishning mohiyati, yo‘llari va bosqichlari**

4.1. Davlat mulkining mohiyati va o‘lchamlari

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosini tashkil qilib, insoniyat iqtisodiy taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi. Shunday ekan, mulkchilik munosabatlari - bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas uch jihatni (egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish) belgilab bersada, bu munosabatlar xarakteri nafaqat alohida mulk shakllarida, balki bitta mulk shakli doirasida ham farqlanishi mumkin.

Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o‘zida ifodalaydi. Mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni o‘zar bog‘liq va bir-birini taqozo qiladi, shu sababli mulkchilik bir vaqtida ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bu birlikda, yuqorida ko‘rsatilganidek, hal qiluvchi rolni mulkchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarilmasa, ya’ni ishlab chiqarishda foydalanimasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi.

Mulkchilik xo‘jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqariladi.

Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihatni uning iqtisodiy tomoniga nisbatan faqat bo‘ysunuvchi rol' o‘ynamaydi. Bu shunda ko‘rinadiki, ishlab chiqarish vositalariga ma'lum huquqiy egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalana olmaydi. Shu sababli mulkchilikning huquqiy normalari (egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi) iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan ko‘rinishi hisoblanadi.

Huquqiy normalari, bir tomondan, aynan mulkchilik munosabatlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog‘liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan u tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g‘oyat muhim rol' o‘ynaydi. Bu rol' shunda ko‘rinadiki, tovar xo‘jaligi sharoitida ayrim

ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etib (masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, mulkchilikning huquqiy normalari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne'matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalarining qonun bilan qo‘riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan mol-mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

Mulkchilik munosabatlari, uning ob'ektlari va sub'ektlari bo‘lishini shart qilib qo‘yadi. Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik ob'ektlaridir. Mulk ob'ekti bo‘lib, inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilishi qobiliyati – ishchi kuchi va boshqalar hisoblanadi. Mulk ob'ektida asosiy bo‘g‘in – bu ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo‘lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo‘ladi.

Real hayotda ishlab chiqarish vositalarining umumlashish darajasi turli xil, ya’ni ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish vositalari bilan qo‘shilishi turli darajada va turli shakllarda amalga oshiriladi. Shunga mos ravishda mulk sub'ektlari vujudga keladi. Mulk sub'ekti jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiga ega bo‘lgan, mulk ob'ektini o‘zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga birlashgan bo‘ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik sub'ekti bo‘lib chiqadi.

Davlat mulki. Mulk davlatga tegishli bo‘lganda mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo‘ladi. Davlat mulki asosan ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi:

1. Xususiy mol-mulkni milliyashtirib, davlat qo‘liga olish.
2. Davlat mablag‘lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxona va tashkilotlarda investisiyalarni amalga oshirish yo‘li bilan.

Davlat mulki haqiqatda ham xalqqa qarashli bo‘lgan, bo‘linmaydigan yoki umumiylashtirishda foydalanish uchun juda mosdir. Bunga misol qilib takror ishlab chiqarib bo‘lmaydigan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo‘llar kabi iqtisodiy tuzilmaning kattagina qismini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekistonda Fuqarolik Kodeksiga muvofiq davlat mulki respublika mulkidan va ma’muriy-hududiy (munisipal) tuzilmalar mulkidan iborat bo‘ladi. Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo‘shlig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hokimiyati va boshqaruv tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag‘lari, oltin zahirasi, valyuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi.

Ma’muriy-hududiy (munisipal) tuzilmalar mulkida davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy byudjet mablag‘lari, munisipal uy-joy fondi

va kommunal xo‘jaligi korxonalarini va boshqa mulkiy majmualari, xalq ta’limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalarini kabilar mol-mulki bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi davlat mulki monopoliyasini qisqartirishni taqozo qiladi. Chunki sog‘lom bozor iqtisodiyoti davlat monopoliyasi bilan chiqishmaydi, monopoliya raqobatga to‘sinqilik qiladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish oqibatida iqtisodiyotda davlat mulkining ulushi kamayib u asosan jamoa mulkiga, ayrim hollarda fuqaro mulkiga va xususiy mulkka aylanadi.

Davlat korxonalarining asosiy fondlar, ishlovchilar soni, yalpi milliy mahsulot va milliy daromad yaratishdagi hissasi qisqarib, ayni vaqtda boshqa mulkka mansub korxonalar hissasi ortib boradi

Davlat mulkning tuzilishi va shakli xilma-xilligi sababli, bu mulkni o‘zlashtiruvchi yuqorida ko‘rsatilgan sub'ektlar ham turli darajada bo‘ladi. Masalan, davlat mulkining bevosita sub'ektlari respublika hokimiyati va boshqaruv organlari, davlat korxonalarini va muassasalarini hamda aralash mulk shakllari bo‘lishi mumkin.

4.2. Xususiy biznes va tadbirkorlikning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan manbalarga tayanadigan bo‘lsak, “Tadbirkor” atamasi ingliz iqtisodchisi R.Kantil’onga tegishli bo‘lib, u quyidagilarni tushungan: “Tadbirkor – bu doimiy daromadga ega bo‘lmagan dehqon, hunarmand, savdogar, kambag‘al va boshqalardir. U o‘zgalar molini muayyan narxda sotib olib, o‘zining molini ham muayyan bo‘lmagan yuqoriqoq narxda sotishga intiladi. Uning asosiy iqtisodiy vazifasi turli tovarlar bozorida talabga mos taklifni yuritish hisoblanadi”[10]. Shuningdek, R.Kantil’on “Tijorat tabiatini haqida ocherk” asarida yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq yangi korxonalar yoki yangi tijorat g‘oyalarini yaratish (tatbiq etish) da riskni o‘z zimmasiga oluvchi xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarni xususiy tadbirkor tushunchasi bilan izohlagan.

Fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832yy.) birinchi bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida “tadbirkorlik qobiliyati” (layoqati) va ishchi kuchi o‘rtasidagi farqni ish haqi darajasida deb ko‘rsatadi. Darhaqiqat, tadbirkor mehnati uchun oladigan ish haqi, yollanma ishchiga nisbatan yuqoriligi, ularning bajaradigan vazifalari, iqtidorligi, faolligi, qobiliyati, intizomi va boshqarish qobiliyatida namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. J.B.Seyning yana muhim nazariy kashfiyotlaridan biri, takror ishlab chiqarish nazariyasi “Sey qonuni”, “bozor qonuni” yoki “sotish nazariyasi” bo‘lib, “har bir odam bir vaqtning o‘zida ham sotib oluvchi, ham sotuvchidir”- deb ko‘rsatgan. Qayd etish joizki, barcha nazariy qarashlarda u yoki bu jihatdan tadbirkorlik faoliyati zarurligi tan olingan. Chunonchi, J.B.Sey xususiy sektor – iqtisodiy resurslarning past unumdorligi va past daromadi bilan yuqori unumdorligi

va yuqori daromadining o‘zaro qorishmasi ekanligini ta’kidlaydi. J.B.Seyning xususiy tadbirkor to‘g‘risidagi bu tasavvuri talabga mos taklifni amalga oshirishga qaratilgan. Bu hol ingliz iqtisodchisi R.Kantil'on tomonidan tavakkalchilik bilan bog‘lanadi. Shuningdek mazkur davrlarda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq yangi atamalar vujudga keldi.

Misol uchun, kapitalga egalik qilish, foydali ishlab chiqarish, moliyaviy tavakkalchilik, tashabbuskorlik va boshqalar. Vaqt o‘tishi bilan tadbirkorlik haqidagi tasavvurlar rivojlantirildi hamda faoliyati davomida foya oshishiga e’tibor qaratildi. J.B.Sey “Siyosiy iqtisod traktati” nomli asarida xususiy tadbirkorlik rostgo‘ylik, aniqlik, tashabbuskorlik, moddiy ta’minlanganlik va boshqa xususiyatlarga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlab o‘tdi. Ta’kidlash joizki, kichik biznesning rivojlanish tarixida tadbirkor tashabbuskor, yangilikka intiluvchan, ilg‘or fikrlovchi, aql sohibi, shafqatsiz raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishuvchi inson sifatida tasavvur qilindi.

XX asr boshlarida esa G‘arbda Yozef Shumpeterning tadbirkorlik nazariyasi haqidagi mulohazalari muhokamalar mavzusi bo‘lib, “tadbirkorlikning vazifasi – yangi ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etish yo‘li bilan ishlab chiqarishni isloh qilish va inqilobi o‘zgarishlarni amalga oshirishdir” deb hisoblandi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalarining mazmun mohiyatini “Ekonomiks” darsligining mualliflari K.R.Makkonell, L.S.Bryu xususiy sektorni maxsus insoniy resurs sifatida qabul qilib, ularning fikricha, kichik biznes – bu shunday sohaki, u tovarlar va xizmatlar ishlab chiqariishi jarayonida yer resurslari, kapital va mehnatni birlashtirish bo‘yicha tashabbusni o‘z zimmasiga olib, biznesni yuritish jarayonida asosiy qarorlarni qabul qiladi. Mazkur soha yangilik yaratuvchi bo‘lib, tijorat asosida yangi mahsulotlar va ishlab chiqarish texnologiyalari yoki biznesni tashkil etishning yangi shakllarini ishlab chiqarishga intiluvchi risk bilan ish tutadi. Boshqa xorijiy olimlar esa, xususiy sektorni xususiy shaxslar, korxonalar yoki tashkilotlar tomonidan moddiy boyliklarni yaratish, ishlab chiqarish, tovarlar xarid qilish yoki sotishdan manfaatdor shaxslar yoki tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida xizmatlar ko‘rsatishni amalga oshirilishi sifatida tushunadilar[15].

A.Smit (1723-1790) va D.Rikardolar (1772-1823) bozor baholarini tartibga solish vazifasini bajaruvchi kichik xo‘jalik yurituvchilarni investorlar deb hisoblaganlar[16]. A.Smit mazkur toifaning alohida belgilari mavjudligini bilgan holda, ta’kidlaydiki, o‘zlarining hayotlari davomida har xil reja va loyihamalar bilan butunlay band bo‘ladilar, o‘zlarining ko‘plab ixtirolari bilan boshqa ko‘pchilik mahalliy dvoryanlar darajasidan farqlanadilar deb ta’kidlaydi.

Neoklassik maktab vakili A.Marshall (1842-1924) tomonidan iqtisodiy o‘sish uchun tadbirkorlikning hal qiluvchi ijodiy ahamiyati tan olinib, A.Smitning ishlab chiqarish omilining uchta mumtoz toifasiga: yer, ish haqi va kapitaldan tashqari mehnat to‘rtinchisi, deb qaraydi. Mehnat bu - “ishonchli tadbirkorlik

qobiliyatini va kapitalini talab qiluvchi yaxlit birlashgan tashkilotdir”. Shu bilan birga A.Marshall tadbirkorlik qobiliyatini korxonalarining boshqarish shakli bilan bog‘lagan holda talqin etib, tadbirkorlik qobiliyatini kapital qo‘yilmalarning hajmiga, ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohalariga hamda kor

O‘zbekiston hududida xususiy biznes va tadbirkorlikni bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida turli shakllarda: kooperativ, yakka mehnat faoliyati, shaxsiy va xususiy tadbirkorlik, dehqon va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari kabi shakllaridan tashqari, keyinchalik hududlarda sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, hunarmandchilik, kosibchilik, zargarlik, temirchilik, sog‘liqni saqlash, turizm, servis kabi sohalarning rivojlanishida kuzatildi.

Mustaqillik yillarda tadbirkorlik faoliyatini ilk huquqiy negizini yaratish maqsadida «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonun, “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish”, “Kichik va o‘rta korxonalar, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida” hamda boshqa qator Qonun, Qaror, Farmonlar qabul qilinib, amaliyotga joriy eildi.

Yuqorida keltirilgan fikr - mulohazalarimizga tayangan holda xususiy biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishni qo‘yidagi beshta bosqichga bo‘lib, tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

I-bosqich (1990-1995 yillar). Mazkur bosqichda erishilgan ilk natija 1990 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan barcha hududlarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shaxsiy tomorqa uchastkalarini kengaytirish maqsadida 2,5 million oila birinchi marta yer uchastkalariga (550 ming hektar) ega bo‘ldilar.

Bu davrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «Mulkchilik», «Korxonalar», «Kooperatsiya», «Tadbirkorlik», «Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari», «Monopolistik faoliyatni cheklash», «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish» to‘g‘risidagi qator qonun va farmonlar qabul qilindiki, ularda aholining ongida bozor munosabatlarini shakllantirish ruhiyatini, xususiy mulkchilikka ega bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida “O‘zbekistonda tadbirkorlar uyushmasini va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tashkilotlarini tashkil qilish”, “Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi jamg‘armani tashkil qilish to‘g‘risida” gi qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

II-bosqich (1996-2000 yillar). Mazkur yillarda hududlarda faoliyat yurituvchi KBXT faoliyatlari rivojlanishiga erishish borasida yanada keng imkoniyatlari yaratilib, ularning huquq va majburiyatlari, ularga nisbatan belgilangan imtiyozlar tarkibi yanada kengaytirildi. Jumladan, Oliy Majlisning «Tovarlar bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobatni rivojlantirish», «Er Kodeksi», «Soliq Kodeksi», «Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi jamg‘armalarni tashkil etish», «Tadbirkorlik faoliyati

erkinligining kafolatlari», «Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish», kabi qonunchilik asoslari hamda kichik tadbirkorlik faoliyatini maqomini belgilovchi mezon qabul kilindi.

III-bosqich (2001-2003 yy). Bu davrda xususiy biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga to‘sinqlik qiluvchi barcha omillar, ular faoliyatiga asossiz ravishda aralashayotgan, nazorat qilayotgan, turli bahonalar bilan to‘sinqlikni vujudga keltirayotgan hokimiyat idoralari, mahalliy tashkilotlarning noqonuniy xatti-harakatlarini bartaraf etish maqsadida 2003 yil 11 dekabrdagi «Xususiy korxona to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur yillarda hududlardagi KBXTning ishlab chiqarish yo‘nalishlari kengaytirilib, faoliyat turlari ko‘paytirildi, hududlarda faoliyat yuritayotgan xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi faoliyatlariga katta e’tibor qaratildi. Shuningdek, KBXT faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi qator huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

Fermer va dehqon xo‘jaliklarini ishlab chiqarish sohasida rivojlanishiga katta e’tibor berildi. Hududlarda xususiy biznes va tadbirkorlik faoliyatini barcha yo‘nalishlarini tartibga soluvchi huquqiy-me’oriy xujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kirtildi.

Xususiy biznes va tadbirkorlikning vositachilik faoliyatidan oladigan daromadlari darajasini sezilarli darajada qisqartirish, ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyatini rag‘batlantirish, ular faoliyatini kreditlash jarayonini soddallashtirish hamda soliq imtiyozlarini berish yuzasidan qator tadbirlar amalga oshirildi.

IV-bosqich (2004-2008 yy). Bu bosqichning asosiy xususiyati, barcha hududlarda KBXT faoliyatiga hukumatning e’tibori yanada kuchaytirildi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sohalarida samarali faoliyat yuritayotganlarga iqtisodiy, huquqiy-tashkiliy, ijtimoiy, ma’naviy kompleks shart-sharoitlar yaratildi. Respublika va mahalliy hukumatlar bilan tadbirkorlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik muhitini vujudga kelishida, jahon mamlakatlari va xalqaro moliya institutlari tajribasida donorlarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash uchun qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan xalqaro yordami, iqtisodiyotning barqaror sur’atlarda o‘sishini ta’minlashga ko‘maklashuvi ham oshib bordi.

2005 yildan boshlab kichik biznesni soliqqa tortish tizimida to‘plangan tajribalarga tayangan holda, tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bunda kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Mazkur sub'ektlar faoliyatini aynan soliqlar orqali rag‘batlantirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli “Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan esa 2005 yil 1 iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona

soliq, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi va Maktab ta’limi jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lash o‘rniga yagona soliq to‘lovi joriy etildi.

2006 yildan boshlab esa umumiy tartibda soliq to‘lovchi korxonalar bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida, yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar uchun ixtiyoriy ravishda QQS to‘lash imkoniyati berildi.

2005 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi PQ-100-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, 2005 yil 1 iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar soliqlar, ajratmalar hamda boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni davlat soliq xizmati organlariga har oyda taqdim etishlari o‘rniga, har chorakda taqdim etishlari belgilandi. Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim etiladigan hisobotlar soni qisqartirildi, soliq to‘lovchilarni soliq idoralariga tashrif buyurishlari, moliyaviy hisobotlarga ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflashini oldi olindi. Tadbirkorlik sub'ektlaridan hisobotlarni elektron aloqa vositalari orqali qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

V-bosqich (2009-yildan hozirgi kunga qadar). Bu bosqichni xususiyatli tomoni shundaki, xususiy biznes va tadbirkorlikni yanada jadal faoliyat yuritishi, ularni tashkil etishdagi jarayonlarni takomillashtirish yuzasidan qator chora tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15-mayda “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi (28.04.2010y. PF-4215-son farmoni bilan o‘zgartirish kiritilgan) Qarori qabul qilindi.

Shuningdek, jahonda moliyaviy - iqtisodiy inqiroz davom etayotgan paytda, o‘z vaqtida shakllangan shart-sharoitni to‘g‘ri tahlil etgan holda, mamlakatimizda 2009-2012 yillarga mo‘ljallab “Inqirozga qarshi choralar”, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi dasturining qabul qilinishi hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan asosiy strategik tadbir bo‘ldi. Shuningdek, dasturda korxonalarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyotda real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari sifatida mahsulot tannarxini pasaytirish, eksportyor korxonalarga soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berish, qat‘iy tejamkorlik tizimini joriy etish, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish va bu orqali ular faoliyatini rag‘batlantirish kabi vazifalar qo‘yildi. Mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan tadbirlardan biri, bu soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikasiya qilish bo‘yicha xo‘jalik tuzilmalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qo‘srimcha choralar ko‘rilganidir.

4.3. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning mohiyati, yo'llari va bosqichlari

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy sharti ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashuvchi muhitni shakllantirish uchun shart-sharoitini vujudga keltirishdan iborat. Bunda asosiysi mulkchilik masalasini hal qilishdir. Uzoq yillar mobaynida respublikamiz iqtisodiyotida umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlatlashtirilgan mulk to'liq hukmronlik qilib keldi. Nazariya va amaliyotda umumxalq mulki deb hisoblangan mulk sub'ekti sifatida davlatning chiqishi jamiyat a'zolari o'rtasida bu mulkka «hech kimniki», «davlatniki», «birovning mulki» deb qarashlarining shakllanishiga olib keldi.

Bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish vazifasi o'tish davrida mulkchilikda davlat sektorining salmog'i ancha yuqori bo'lgan mamlakatlarda bu mulkning ma'lum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishni taqozo qiladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiy lashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. Xususiy lashtirish davlat mulkiga egalik huquqini davlatdan xususiy shaxslarga o'tishidir.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiy lashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U bir qator yo'llar bilan amalgalashuvchi oshiriladi: davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish; mulkni qiymatiga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish; mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish; davlat mol-mulkini auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va hokazo.

Bu yo'llardan qaysi birini tanlash undan kutilgan maqsadga bog'liq. Masalan, Rossiyada Davlat mulkini vaucher orqali bepul taqsimlash usuli qo'llanildi. Bundan ommaviy xususiy lashtirishdan ko'zlangan maqsad qisqa muddat ichida cheklar bozorini joriy etish hisobiga mulkdorlarning g'oyat keng qatlagini vujudga keltirishdan iborat edi. Agar tadbirkorlikni rag'batlantirish ko'zda tutilsa, xususiy lashtirish tanlab olingan ozchilik o'rtasida o'tkaziladi. Agar xususiy lashtirish chetdan kapitalning kirib kelishiga yo'l ochishi zarur bo'lsa, davlat mulkini xorijiy tadbirkorlarga berish shaklida amalgalashuvchi oshiriladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda ayrim usullarga ustuvorlik berish boshqa usullarni qo'llashni rad etmaydi, aksincha, ularni ham qo'llash zarurligini bildiradi. Masalan, korxona jamoasiga ustunlik berilib, davlat mulkini aksiyalashtirish, bu aksiyalarni sotib olishda shu jamoadan tashqari kishilar va chet el kapitalining ishtiroy etishi ham bo'lishi mumkin. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish sharoitga qarab pulli, pulsiz yoki imtiyozli tarzda o'tkaziladi. O'z shakli va usulidan qat'iy nazar bu tadbir xilma-xil mulkchilikni vujudga keltirishni ta'minlaydi, chunki davlat mulki hisobidan nodavlat mulkining barcha shakllari va turlari rivojlanadi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish mulkchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan davlatning monopol hukmronligiga chek qo'yib, jamiyatda faollik ko'rsatayotgan erkin tadbirkorlik tashabbusiga keng yo'l va imkoniyatlar olib berishdan iborat. Aslida xususiyashtirish iqtisodiyotni davlatlashtirishdan qaytish yo'llaridandir. Xususiyashtirish davlat mulkini ma'lum darajada haqiqiy egalari - fuqarolarga berish demakdir. Ko'pincha xususiyashtirish – bu davlat mulkini ishlovchilarga berish, deb talqin qilinadi. Aslida mamlakatning barcha aholisiga davlat mulkini bo'lib berib bo'lmaydi, bunda aholining hammasi mulkka ega bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish ishlab chiqarish hamda mahsulotni ayriboshlash kabi mashaqqatli ishlarni o'z zimmasiga olavermaydi.

Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish jarayonida, avvalambor, xususiyashtirish yo'li bilan yaxshi iqtisodiy natijalarga erishgan mamlakatlar tajribasidan to'laroq foydalanish va ular yo'l qo'ygan xatolar takrorlanmasligi kerakki, bu bilan bozor iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlashi mumkin. Xususiyashtirishni amalga oshirish uchun davlat mulkini xususiyashtirishning keng ko'lamli dasturini ishlab chiqarish zarur.

Huquqiy jihatdan xususiyashtirilgan barcha korxonalarga erkin iqtisodiy xo'jalik yuritish huquqi berilishi va davlat sektori bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. Davlat sektoriga nisbatan bu korxonalarga soliqlarni birmuncha kamaytirish va ayrimlarini ma'lum muddatga soliqdan ozod qilish zarur.

Xususiyashtirish natijasida aholi orasida ijtimoiy jihatdan tabaqlanish yuz beradi va kishilarning bajargan ishiga qarab oladigan haqi turlicha bo'lib, aholining daromadlarida ham tabaqlanish yuz beradi. Kishilar turli sohalarda, masalan biznesda turli shakllardagi mulkka ega bo'lib, aksiya sotib olish va korxona mulkida o'z hissalarini oshirib borishga harakat qiladilar.

Xususiyashtirish orqali korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ma'lum jamoa va shaxslarga sotilgandan keyin faoliyatlarini bozorning shafqatsiz raqobat qonunlari asosida tashkil etadi. Bozor korxonalarining yashovchanligini va ularni doimo raqobat kurashida o'z manfaatlarini himoya qilishga majbur etadi. Mabodo korxona raqobat kurashiga dosh berolmay sinsa, oldingi davrdagidek davlat byudjetidan mablag' hisobiga uni saqlab qolish hollariga xususiyashtirish orqali barham beriladi.

Xususiyashtirish mulkning bir shaklidan ikkinchi shakliga o'tishni aks ettirmasligi kerak, balki xususiyashtirish oldiga qo'yilgan vazifa katta bo'lib, ya'ni xususiyashtirish orqali avvalo barcha sohani o'z qaramog'ida turli uslublar orqali birlashtirib turgan davlat hukmronligini iqtisoddan ajratish uchun bir qancha tadbirlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Davlat korxonalarini xususiyashtirish bu mulkchilikning rivojlanishiga, uning yangi bosqichiga o'tishiga bo'lgan talabidan kelib chiqadigan bir jarayondir. Xususiyashtirishning rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri – bu

ishlab chiqaruvchilar hamda tadbirkorlarning tashabbusi, ularning ishlab chiqarishdagi faolligi hamda ishbilarmonligidir. Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida hokimiyat va ishlab chiqarish sohalariga yangi ishbilarmonlar, aholining faol qismi jalg etiladi va mulkiy munosabatlarni rivojlantirishdan hamda mulk shakllarini takomillashtirishdan aholining shu qismi manfaatdorgina bo‘lib qolmay, balki o‘rtaligida quyi ijtimoiy qatlamni ham mulkiy munosabatlarni takomillashtirishdan manfaatdor qiladi.

Davlat mulkini xususiylashtirish siyosati mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini, mahalliy va milliy sharoitlarni, urf-odatlarni hisobga olgan holda olib borilishini ko‘zda tutadi. Davlatlashtirishdan qaytishning muhim yo‘nalishlari bu ijara munosabatlarini rivojlantirish va aksionerlik mulkini shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayon ma’lum tadbirlarga rioya qilingan holda olib borilishi lozim, bu avvalo, ixtiyorilik asosida, oshkoraliq hamda jamoatchilikning umum ishtirokida amalga oshirilib, u mehnat jamoalarining iqtisodiy manfaatiga, davlat manfaatlariga putur yetkazmasligi, shu bilan birga iste’molchilar manfaatlariga ham zid bo‘lmasligi zarur. Bu holda mahsulot hajmi, sifati va mehnat unumdonligini oshirish, ishlab chiqarishni boshqarishni yaxshi tashkil etish, mavjud moddiy texnika, moliyaviy va mehnat resurslaridan, fan va texnika yutuqlari, yangi texnologiyadan samarali foydalanish, tovar ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisobiga bozorda narxlarning pasayishiga erishish yo‘li bilan aholining moddiy farovonligining oshishiga erishish talab etiladi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitusion tarzda e’tirof etildi va davlat mulki monopolizmini tugatish hamda bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish vazifasi qo‘yildi. Avvalo mulkchilikning turli xil shakllari qaror topishi uchun teng huquqiy normalar va amal qilish mexanizmlari yaratildi.

O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondoshuvning muhim xususiyati – uni dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. 1992–1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichini o‘z ichiga olib, bu bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiyligi uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalarini hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi. Yengil, mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o‘rtaligida va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan ko‘proq ijara korxonalariga, jamoa korxonalariga, yopiq turdagisi aksionerlik jamiyatlariga aylantirildi. Aksiyalarning nazorat paketi davlat ixtiyorida saqlab qolindi.

Xususiylashtirishning birinchi bosqichida davlat xalq xo‘jaligining iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin o‘ynaydigan ayrim sektorlarini, ayrim korxonalarini saqlab turishni va mablag‘ bilan ta’minlash vazifalarini o‘z zimmasiga oldi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichi natijasida kichik xususiy lashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo‘lgan muassasalar tizimi vujudga keltirildi.

Savdo, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, mahalliy sanoat korxonalari xususiy va jamoa mulki qilib berildi. Natijada 1997 yilda savdo-sotiq hajmi va umumiy ovqatlanish yalpi mahsulotining 95 foizdan ortiqrog‘i davlatga qarashli bo‘lмаган секторга то‘г‘ри келиди. Уй юйларни xususiy lashtirish jarayonida ilgari davlat ixtiyorida bo‘lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog‘i fuqarolarning xususiy mulki bo‘lib qoldi.

Davlat ijtimoiy dasturida belgilab berilgan ikkinchi bosqich 1994-1995-yillarga to‘g‘ri keldi. Bu bosqichda ko‘plab o‘rta va yirik korxonalar hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi hamda ularning aksiyalari respublika qimmatbaho qog‘ozlar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulki hissadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalari qizg‘in tashkil qilindi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning bu bosqichida ochiq turdag'i aksionerlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Ko‘chmas mulk va qimmatli qog‘ozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi.

Davlat mulkini xususiy lashtirish boshlangan davrdan 1994 yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxona va ob'ekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shulardan 18,4 mingtasi xususiy, 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa mulkiga o‘tdi, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, u aholining bo‘sh turgan mablag‘larini o‘ziga jalb qilib, ularning bozorga tayziqini pasaytiradi. Ikkinci tomondan, yangi mablag‘larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki xususiy lashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo‘lмаган секторини шакллантirishning yagona yo‘li emas. Tashabbuskorlik asosida yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, ma'suliyatli cheklangan jamiyatlar ko‘rinishidagi kichik va o‘rta korxonalarini tashkil qilish – ikkinchi qudratli jarayon hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyoti 1996 yildan boshlab mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning uchinchi bosqichiga kirdi. Bu bosqich yakunlovchi xarakterga ega bo‘lib, bu davrda xususiy lashtirilmaydigan ob'ektlar ro‘yxatiga kirmagan barcha ob'ekt va korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi.

Respublikada xususiy lashtirishning adresli yo‘naltirilganligi uning navbatdagi xususiyatidir. Bu aholining barcha qatlamlariga mazkur jarayonda aniqroq va natijaliroq qatnashish imkonini beradi. Xususiy lashtirishning adresli yo‘naltirilganligi uy-joylarning o‘z egalariga imtiyozli yoki bepul berilishida,

aholining ko‘proq muhtoj va zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning turli xil dasturlari byudjet mablag‘lari hisobiga qoplanishida, qishloq aholisi o‘z yordamchi xo‘jaligi uchun chek yerlar olishi kabilarda ifodalanadi.

O‘zbekistonda xususiylashtirishning to‘loviligi uning navbatdagi muhim xususiyatidir. Pulni to‘lash orqali davlat tasarrufidagi korxona va ob’ektlarni xususiylashtirishda mulkni bepul taqsimlash bilan bog‘liq salbiy holatlar bartaraf etilishi bilan birga qator muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi. Bularidan asosiysi avvalo tadbirkorlikni, xususiylashtirilgan korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy manbalari paydo bo‘ladi, bozor infrastrukturasini barpo etish uchun resurslar vujudga keladi va aholini ijtimoiy muhofazalash dasturini ro‘yobga chiqarish uchun mablag‘lar jamlanadi.

Davlat mulkini yangi mulkdorlarga sotish yo‘li orqali ularning mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirilishi bilan birga xususiylashtirishdan olinadigan mablag‘lar shu korxonaning o‘zini qo‘llab-quvvatlashga, yangi raqobatlashuvchi korxonalar barpo etishga ham sarflanadi.

Navbatdagi muhim xususiyat – respublikada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog‘ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlar yaratildi va ta‘minlandi. Ijtimoiy kafolatlar bir butun imtiyozlar tizimi orqali yaratildi. Bular xususiylashtirilayotgan korxona mehnat jamoasiga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotish, yangi mulkdorga eskirgan asosiy fondlar hamda ijtimoiy infrastruktura ob’ektlarini bepul topshirish, davlat korxonalarining mol-mulki, fermalar, bog‘lar va shu kabilarni imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirish, hamda soliq to‘lashda ayrim imtiyozlar berish kabilardir.

Ijtimoiy kafolatlar iste’mol savatining eng kam miqdorini kuzatib borish, eng kam ish haqini, daromad solig‘ini tartibga solish kabilarni ham o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy muhofazalash davlatning barcha mulkdorlar: hissadorlar, xususiylashtirilgan uy-joylarning, sotib olingan texnika va avtovositalarining, yer maydonlari, xususiylashtirilgan fermalar va boshqa vositalarning egalarining huquqlarini himoya qilishda o‘z ifodasini topadi.

Respublikada davlat mulkini xususiylashtirishning o‘ziga xos boshqa jihatlari mamlakatimiz Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan bayon qilingan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy qoidalaridan kelib chiqadi. Bular quyidagilar:

- a) davlat mulkini xususiylashtirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning ichki mantiqiga bo‘ysindiriladi va ularning asosini tashkil qiladi;
- b) mulkni xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;
- v) xususiylashtirishni huquqiy-me'yoriy jihatdan ta‘minlashda qonunlarga rioya etiladi.

Respublikamizda xususiylashtirish jarayonining hozirgi bosqichdagи yo‘nalishlari islohotlarni chuqurlashtirish talablaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu

avvalo, kichik va o‘rta biznesni, xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirishga qaratilishi zarur.

Hozirgi davrda xususiy lashtirishdagi an'anaviy yo‘nalish davlat ro‘yxatiga kirmagan korxona va ob’ektlarni bu jarayonga jalg qilish ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib qolaveradi. 2008 yilda respublikamizda xususiy lashtirilgan korxona va ob’ektlar soni 392 birlikni tashkil qilib, ulardan 130,6 mld. so‘mlik mablag‘ olingan. Yopiq turdag‘i aksionerlik jamiyatlarini keng aholi qatlami, shu jumladan chet el kapitali ishtirokini ta’minlaydigan ochiq turdag‘i jamiyatlarga aylantirish xususiy lashtirishdagi navbatdagi yo‘nalishdir.

Respublikamizda xususiy lashtirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifa, davlat sektori bozor sharoitida ham sezilarli rol o‘ynashini inkor qilmaydi. Chunki iqtisodiyotning davlat korxonalarini saqlanib qolishi kerak bo‘lgan sohalar ham mavjud. Bunday korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo‘jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi.

Respublikada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, turli mulk shakllariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘li xosdir. 1992-2011 yillarda turli mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni olti bosqichga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich – 1992-1993 yillarda asossan davlat uy-joy fondi, savdo, maishiy xizmat va mahalliy sanoatning kichik korxonalarini, dorixonalarni o‘z ichiga olgan kichik xususiy lashtirish amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ikki muhim vazifani birdaniga hal etishga to‘g‘ri keldi:

1. Ma muriy-buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish hamda makroiqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish;
2. Islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini shakllantirish, institusional o‘zgarishlarni va kichik xususiy lashtirishni amalga oshirish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish.

Kichik xususiy lashtirishni amalga oshirish oqibatida 1994 yil ohirigacha 65 mingdan ortiq korxona va ob’ekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Natijada 1994 yilda yalpi ichki mahsulotning 50 foizga yaqini iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarildi.

Ikkinci bosqich – 1994-1998 yillarda asosiy e’tibor ommaviy xususiy lashtirish bosqichi bo‘lib, bu bosqichda kichik korxonalar xususiy mulkka, o‘rta va yirik korxonalar esa ochiq aksionerlik va mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga aylantirildi. Ushbu bosqichda minglab o‘rta va yirik korxonalar xususiy lashtirildi. Ularning aksiyalari quyidagi nisbatda bo‘lindi: mehnat jamoasi 25 foiz, davlat 25 foiz, aralash korxonalar 10 foiz va erkin savdoga 40 foiz chiqarildi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi muomalaga milliy valyuta – so‘mning kiritilishi bilan boshlandi. Unda amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari

va sohalaridagi o‘rta va yirik korxonalarni xususiy lashtirish hamda raqobatchilik muhitini shakllantirish choralari ko‘rildi. 1995-1999 yillarda 14 mingdan ziyod ob’ektlar xususiy lashtirildi. Buning oqibatida 1999 yil boshiga kelib, iqtisodiyotning nodavlat sektorining ulushi YaIMda 64,5%ni, sanoat ishlab chiqarishida 64,1%ni, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotida 98,7%ni, chakana tovar aylanmasida 95,3%ni, aholining bandligida 74,2%ni tashkil etdi.

Uchinchi bosqich – 1999-2000 yillar bosqichida esa asosan o‘rta va yoqilg‘i-energetika kompleksiga qarashli yirik korxonalar xususiy lashtirildi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Birinchi chaqiriq Oliy Majlisining 14-sessiyasida “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” mavzusidagi ma’ruzasida va Ikkinchchi chaqiriq Oliy Majlis 1-sessiyasida qilgan ma’ruzalarida iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi:

-mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish. Buning uchun xususiy mulkchilik sektorining iqtisodiyotdagagi, YaIMda salmog‘ini oshirish orqali uning yetakchilik o‘rinda turishini ta’minalash, shuningdek, kichik va o‘rta biznes, tadbirkorlikni rivojlantirish;

-haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish;

-bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

-tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish;

-valyuta tizimini va bozorini erkinlashtirish, so‘mning qadrini oshirish va bosqichma-bosqich uning boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta’minalash;

-davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalar xo‘jalik faoliyatiga noo‘rin aralashishini cheklab qo‘yish. Eng muhimi, bozor qonunlarining, iqtisodiy faoliyat va tanlash erkinliklarining amal qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlarining uyg‘unligini ta’minalash.

To‘rtinchi bosqich – 2001-2005 yillarni o‘z ichiga olib, I.Karimov ta’kidlaganlaridek, “xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik sektorini kengaytirish, jadallashtirish sari tub burilishlar davri hisoblanadi”. Ushbu bosqichga xos muhim xususiyat – davlat ob’ektlarining to‘liqligicha xususiy mulk sifatida sotilishi ulushining ortib borishi hisoblanadi.

Ushbu vazifalarni amalgaga oshira borish hamda kichik va o‘rta biznes sub’ektlari erkinliklarining kengaytirilishi va ularning faoliyatiga davlat organlarining noo‘rin aralashuvining kamaytirilishi oqibatida 1999-2001 yillarda ijobjiy o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, iqtisodiyotning nodavlat sektorining YaIMdagi ulushi 2002 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 74,1%ni, sanoat mahsuloti hajmida 70,8%ni, yalpi qishloq xo‘jalik mahsuloti hajmida 99%ni, ish bilan band bo‘lganlar sonida 76%ni tashkil etdi.

Beshinchi bosqich – 2006-2008 yillarda amalgaga oshirilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 10 iyuldagagi “2006-2008 yillarda

mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish to‘g‘risida”gi farmonining qabul qilinishi bilan boshlandi. Iqtisodiyotda xususiy mulkchilik rolining ortib borishi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ustav fondida davlat ulushining qisqarishi, yuridik va jismoniy shaxslarning binolari, inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalari xususiy mulk huquqida xususiy lashtirilishi ushbu bosqichning muhim xususiyati hisoblanadi.

Albatta ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 iyulda qabul qilingan “Yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari va inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarini xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi farmonidan kelib chiqadi. Xususiy lashtirilgan 622 ta korxonalarning davlatga tegishli aksiyalarini birjada va undan tashqaridagi bozorlarda sotishga ruxsat berilgan.

Oltinchi bosqich asosan 2009-2011 yillar. Bu davrda iqtisodiyotni tartiblash va uning tarkibiy tuzilishini o‘zgartirish negizida barqaror iqtisodiy-ijtimoiy o‘sish ta’minlandi. Kelajakda, ya’ni 2010 yilga kelib, yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 6-8% ga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur’ati 7-8% ga, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish sur’ati 6-7% ga yetkazish mo‘ljallangan edi.

Nazorat savollari:

1. Davlat mulkining mohiyati va o‘lchamlari haqida nima bilasiz?
2. Mulkchilik munosabatlari haqida nima bilasiz?
3. Xususiy biznes va tadbirkorlikning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi nimadan iborat?
4. “Ekonomiks” darsligining mualliflari K.R.Makkonellva L.S.Bryu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalariga qanday ta’rif bergan?
5. Xususiy biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishning beshta bosqichi nimadan iborat?
6. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning mohiyati, yo‘llari va bosqichlari haqida nima bilasiz?
7. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy qoidalari nimadan iborat?
8. 1992-2011 yillarda turli mulkchilikka assoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni olti bosqichi nimadan iborat?

5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlash va rejorashtirish.

REJA:

5.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o‘rni.

5.2. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o‘rta muddatli prognozlar.

5.3. Ilmiy prognozlashtirishning tamoyillari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari.

5.4. Dasturlash va rejorashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funksiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejorashtirish nazariyasining asoslari.

5.5. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejorashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.

5.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o‘rni.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida prognozlashtirish – bu o‘tmishni, hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatları, tendensiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bashorat qilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlarini va vazifalarini aniqlash. Prognozlash mamlakat iqtisodiyotini boshqarish nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bunda boshqaruv yechimlarni tanlashda asos bo‘lib xizmat kiladi, keljak maqsadlariga erishish uchun hozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish yo‘llarini aniqlaydi.

«*Prognozlash*» - iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichi yoki mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishning bir qismidir. Shu bilan birga bu nisbatan mustaqil fan bo‘lib, o‘ziga xos bir qancha belgilari bilan farqlanadi:

- birinchidan, prognozlar direktiv xarakterga ega emas;
- ikkinchidan, ularning miqdor baholari asosan ehtimollik xarakteriga ega;
- uchinchidan, ular ko‘proq darajada sodir bo‘lgan rivojlanish muammolarini aniqlashga va ularni yechish yo‘llarini izlashga qaratilgan.

Iqtisodiyotda prognozlashning asosiy vazifasi jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yo‘llarini real baholash bu rivojlanishning maqbul boshqaruv yechimlarini ilmiy asoslash uchun ustuvor variantlarni aniqlashdir. Bundan tashqari, u iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qiladi, muammolarni, yangi jarayon va holatlarni o‘rganadi, iqtisodiy-ijtimoiy

rivojlanishning ehtimoliy yo‘nalishlarini belgilaydi, imkoniyatlarni baholaydi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik yo‘nalishlarni asoslaydi.

Prognoz yunoncha so‘zidan olingan bo‘lib, oldindan ko‘ra bilish, bashorat etish ma’nolarni anglatib, kelajakni ilmiy usullar orqali istiqbollash tushuniladi.

Prognoz - bu istiqboldagi voqeа, hodisalarning ilmiy modeli hisoblanadi, ya’ni kelajakda ob’ektning ehtimoliy holati haqida yoki bu holatga erishishning muddatlari va al’ternativ yo‘llari haqida ilmiy asoslangan fikrlar, mulohazalardir.

Prognozlash deganda prognozni ishlab chiqish, ya’ni ma'lum bir jarayonning rivojlanish aniq kelajagini maxsus ilmiy tadqiq etishdir. Prognozlashtirish prognozni ishlab chiqish jarayoni. Prognozning axborot bazasi bo‘lib hisobotlar (aholining tabiiy va mexanik harakatlarining joriy hisoboti) va maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuvlar (aholini ro‘yxatdan o‘tkazishlar, maxsus tanlama ijtimoiy-demografik tadqiqotlar, aholining turli ro‘yxat va kartotekalari) hisoblanadi. Prognoz rejalarни bajarilishini aniqlash uchun xizmat qiladi. Prognoz tahlillari rejalarning bajarilish yoki bajarilmasligi mumkin bo‘lgan oqibatlarni aniqlash imkonini beradi.

Prognozlar ob’ektning xarakteri, mazmun mohiyati va komplekslilik darajasi, kabilarga qarab farqlanadi.

Oldindan aytib berish va ko‘rish - bu turli ma’nolarga ega biri biriga yaqin tushunchalardir. Oldindan aytib berish – bu mantiqiy xulosalar asosida sub'ekt yoki ob’ektning kelajakdagi holati haqidagi mulohazalardir. Oldindan ko‘ra bilish – bu ob’ektni qonuniy rivojlanishini anglashga asoslangan ob’ektni kelajakdagi holati haqida mulohazalardir.

Oldindan ko‘ra bilishning uch shaklini farqlashadi: ilmiy, ilmiy bo‘lmagan va empirik. Ilmiy ko‘ra bilish tabiat, jamiyat (ob-havo bashoratlari, mamlakat rivojlanishining proqnozi va boshqa) qonuniy rivojlanishining ilmiy metodlar asosida qurishga asoslangan ilmiy nazariy natijalar hisoblanadi. Ilmiy bo‘lmagan oldindan ko‘rish real bo‘lmagan, o‘zaro bog‘langan fantastik ko‘rish (fol ochish, Nostradamus bashoratlari). Empirik ko‘rish insonlarning har kungi tajribalariga asoslanadi.

Ilmiy oldindan ko‘ra bilishning uch shakli mavjud: gipoteza, prognoz va reja plan. Gipoteza – bu sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki sodir bo‘lmaydigan u yoki bu holatni rivojlanishi haqidagi farazlar. Gipoteza darajasida qoida bo‘yicha tadqiq etilayotgan ob’ektni rivojlanishi haqidagi miqdor tavsiflari, umumiy qonuniyatları beriladi. Prognoz – bu ob’ektni kelajakdagi holati haqida, unga erishish muddatlari va al’ternativ yo‘llari haqidagi ehtimol ilmiy asoslangan mulohaza tushuniladi. Gepoteza bilan taqqoslaganda u aniqligi yuqori bo‘lgan, nafaqat miqdor balki, sifat tavsiflariga ega. Reja tadqiq etilayotgan holatni, ob’ektni aniq qism voqelikni ko‘ra bilish va oldiga qo‘ygan maqsadni aniq qo‘yishni nazarda tutadi

Prognoz va reja o‘rtasidagi farqlari:

- 1) reja direktiv xarakterga ega bo‘lsa, prognoz – esa tavsiya etuvchi;
- 2) rejani ishlab chiqishda doim prognoz ishlab chiqilishini talab etadi;

3) prognoz ko‘p variantli, reja esa unday emas.

Prognoz va reja ishlab chiqilgandan keyin bir qator aniq chora-tadbirlar, davri boshlanadi. Ko‘pincha bu jarayon dasturni ishlab chiqish shaklida amalga oshiriladi.

Prognoz kelajakni tavfsiflab berish uchun u yoki bu sohadagi sodir bo‘ladigan o‘zgarishlardan oldinroq yuradi. Prognoz qilinayotgan ob’ektni rivojlanish tendensiyalari qancha vaqtliroq topilsa, boshqaruv shunchalik samaraliroq bo‘ladi. Amaliyotda prognozning 3 xil turi bor:

- qisqa muddatli (1 yildan 5 yilgacha),
- o‘rta muddatli (15 yilgacha)
- uzoq muddatli (15 yil va undan yuqori).

Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan ilmiy texnika davrida uzoq muddatli prognoz o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Qo‘shma korxonalarda qisqa muddatli prognozlarni 5 yildan ko‘p bo‘lmagan davr bilan cheklangan holda ishlab chiqishadi.

Prognozlashda prinsipial bo‘lib quyidagi sxema hisoblanadi:

- maqsadlar nazariy erishsa bo‘ladigan;
- erishish yo‘llari va mablag‘larini imkon darajada;
- resurslar ehtimoliy.

Rejalashtirishda prinsipial sxema quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

- maqsadlar tavsiya qilingan yoki majburiy;
- erishish yo‘llar va mablag‘lari mavjud;
- aniq belgilangan;
- resurslar chegaralangan.

Makrorejalashtirish – makroprognoz bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘z ichiga byudjet va soliq rejalahtirishni davlat dasturlarnini va bozorlarni oladi.

Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o’rni

Qoida tariqasida, iqtisodiyot umuman makrodarajaga, tarmoqlar va hududlarga - mezo darajaga, korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar - mikro darajaga ko‘riladi.

Prognozlash va rejalahtirish, tegishli kontseptsiya, dastur va hodisani ishlab chiqishda odatta ijrochilar oldiga qo‘yiladigan muhim vazifalar - bu iqtisodiyotning yuqori samarali tuzilmasini saqlash va rivojlantirish, ishlab chiqarishning o’sish sur’atlarini asoslash va tartibga solish, ishlab chiqarishning yuqori darajasi. uning bozorda raqobatbardoshligini ta’minlash, moddiy, energiya, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni, aholining etarli daromad darajasini va ijtimoiy ta’mintoni ta’minlash, mintaqa, davlat va tashqi dunyo bilan mavjud bo’lgan turli xil iqtisodiy aloqalarni saqlab qolish va yangilarini o’rnatish..

Uzoq muddatli istiqbolga mo’ljallangan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy, eng muhim yo‘nalishlari (tarmoqlar, birlashmalar, korxonalar va boshqalar) bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlarning maqsadlari va qiymatlarini aniqlash jarayoni va ularni amalga oshirish mexanizmini shakllantirish

atrof-muhit omillarini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Strategik rejalarshirishda iqtisodiy o'zgarishlarning mohiyatini, iqtisodiyotning barqarorligini, aholi turmush darajasini, mamlakat mudofaa qobiliyatini va hokazolarni belgilaydigan vazifalar hal qilinadi. Shu bilan birga, yakuniy natija qat'iy belgilanmagan, lekin o'lcham va vaqt bo'yicha berilgan maksimal chegaralar bilan ma'lum bir zonada joylashgan.

Vazifalarning tabiati boshqaruv organi tomonidan belgilab berilgan strategik rivojlanish maqsadlariga bog'liq bo'lib, ular hal qiluvchi darajada rejalarshirishning yo'naliishi va mazmunini belgilaydi. Masalan, ular yalpi ichki mahsulotning moddiy va energiya sig'imini keskin pasayishi, yoqilg'i resurslari bilan ta'minlashda yanada barqarorlikka erishish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, aholi turmush darajasini eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashtirish bo'lishi mumkin.

5.2. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o'rtal muddatli prognozlar.

Iqtisodiy prognozlashning eng muhim nazariy muammolaridan biri prognoz tipologiyasini tuzish hisoblanadi. U turli mezon va belgilar (prognozlashni tashkil etish maqsadi, vazifalari, ob'ekti, usullari va x.k.) yordamida tuzilishi mumkin. Ularning eng muhimi quyidagilar hisoblanadi: prognozlashning miqyosi, oldini olish vaqt, ob'ektning tafsiloti, prognozning funksiyasi.

Prognozlashning miqyosi bo'yicha prognozlar quyidagilarga bo'linadi: makroiqtisodiy va tarkibiy (tarmoqlararo va hududlararo) prognozlar, iqtisodiy majmualari (yoqilg'i-energetika, agrosanoat, investitsion, ishlab chiqarish infratuzilma, aholiga xizmat ko'rsatish sohasi)ni rivojlantirish prognozlari, tarmoq va hududiy prognozlar, iqtisodiyot tizimining birlamchi bug'lnari (korxona, ishlab chiqarish birlashmalari hamda alohida ishlab chiqarish va mahsulotlar) prognozi.

Aktiv va passiv, o'zi amalga oshadigan va o'zi-o'zini rad etadigan prognozlar.

Qidiruv va normativ prognozlar haqida gap ketganda, ularning aktiv va passivlarga bo'linishini ham ta'kidlash kerak. Siyosiy qaror qabul qilishda rivojlangan har qanday prognoz aktiv prognozdir, shunday qilib aktiv deb - barcha normativ prognozlarni atash mumkin. Kidiruv prognozlarini esa, aktiv deb ular holatni o'zgartirish maqsadida qaror ishlab chiqishni boshlash uchun asos bo'lsa atasa bo'ladi. Lekin qidiruv prognozlarining asosiy vazifasi - siyosiy qarorning asosi emas, shuning uchun ular ko'pincha passiv harakterga ega.

Prognoz ob'ektiga prognozning ta'siri muammosi asnosida o'zi amalga oshadigan va o'zi-o'zini rad etadigan prognozlar bo'lishi mumkin. Birinchi holatda prognoz shunchaki "kuchli" bo'lishi mumkin, buning uchun sharoit bo'lmasa ham, ular amalga oshadi. Shuningdek, qonunchilik hokimyatining yuqori organi bilan qarama-qarshilikda bo'lgan davlat boshlig'i buyurtmasini bajaradigan taniqli ekspertlar pralamentning muddatdan oldin tarqalib ketishini prognoz qilgan bo'lsa,

masalani aynan shunday yechilishiga olib kelishi mumkin. Bunday prognoz xatoli hisoblanadi, chunki unda prognoz qilingan voqea noto‘g’ri tarzda tushuntirilgan. Ammo, qaror qabul qiluvchi shaxsga prognozchilarning katta ta’sir omili shunday prognozning amalga oshishga imkon yaratib berdi.

Bu misol shuni ko‘rsatadiki, prognozning amalga oshish salohiyati doim uning muvaffaqiyatni belgilamaydi.

O‘zini-o‘zi rad etadigan prognozlar amalga oshmaydilar. Ular uchun siyosiy holatning bo‘lishi mukmin bo‘lgan variantlardan biri salbiy oqibatga olib kelishini ko‘rsatish muhum. Bu qaror qabul qiluvchi shaxslar mazkur muammoga katta e’tibor berishlari va bo‘ladigan voqeani oldini olish uchun zarur hisoblanadi. Natijada prognoz amalga oshmaydi, lekin samarali bo‘ladi, chunki uning vazifasi - prognoz qilinadigan ob’ektga shunday ta’sir ko‘rsatishi natijada, prognoz qilingan stsenariyni amalga oshmasligiga imkon tug‘diradi.

Prognozlar vaqt davriyligi bo‘yicha tezkor, qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli va olis muddali prognozlarga bo‘linadi. Tezkor prognoz bir oygacha, qisqa muddatli bir oydan bir yilgacha, o‘rta muddatli bir yildan besh yilgacha, uzoq muddatli besh yildan o‘n besh to yigirma yilgacha, olis muddatli esa ushbu muddatdan ortiq bo‘lgan davrga tuziladi.

Sanab o‘tilgan prognoz turlari shuningdek tadqiq etilayotgan jarayonlarni baholash mohiyati va tavsloti bilan bir-biridan farq qiladi. Tezkor prognozlar prognoz davrida tadqiq etilayotgan ob’ektda miqdor va sifat jihatdan hech qanday sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmaydi degan tahminlarga asoslanadi. Ularda kutilayotgan voqealarning aniq miqdoriy baholash ustun turadi. Qisqa muddatli prognozlar faqatgina miqdoriy o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Unga muvofiq holda voqealarning baholanishi ham miqdoriy tarzda amalga oshiriladi. O‘rta muddatli va uzoq muddatli prognozlar tadqiq etilayotgan ob’ektda miqdor va sifat jihatidan o‘zgarishlarga tayanadi, shunda o‘rta muddatli miqdoriy o‘zgarishlar sifatli o‘zgarishlardan ustun turadi. O‘rta muddatli prognozlarda voqealarning miqdoriy-sifat, uzoq muddatli prognozlarda esa sifat-miqdoriy baholash amalga oshiriladi. Uzoq muddatli prognozlar faqatgina sifatli o‘zagrishlarga tayanadi, bu erda faqatgina tadqiq etilayotgan ob’ekt rivojlanishining umumiy qonuniyatları to‘g‘risida gap boradi. Bunda prognoz qilinayotgan voqealarni baholash shakli sifatli hisoblanadi.

Tadqiq etilayotgan ob’ektning tafsilotiga qarab prognozlarning bo‘linishi takror ishlab chiqarish jarayonining turli jihatlari bilan bog‘liq. Ushbu belgi bo‘yicha quyidagi iqtisodiyot prognozлари ajralib turadi: ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishi; ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va ilmiy-texnik taraqqiyotining oqibatlari; o‘sish dinamikasi (uning sur’ati, omillari va tuzilmalari); mehnat resurslarning takror ishlab chiqarishi, bandliligi va kadrlarni tayyorlash; tabiiy resurslardan iqtisodiy foydalanish; asosiy fondlar va sarmoya qo‘yilmalarining takror ishlab

chiqarishi; aholining hayot tarzi; moliyaviy munosabatlar, daromad va narxlari; tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar.

Ushbu sanab o‘tilgan yo‘nalishlardan har biri alohida ahamiyatga ega va mustaqil tarzda ishlab chiqilishi mumkin. SHu bilan birga ular o‘rtasida xalq xo‘jaligini prognozlashning ilmiy tavsiyatini ta’minlovchi metodologik hamjihatliligi mavjud. Iqtisodiy prognozlash hamjihatlikda boshqa prognozlashningturlari (ijtimoiy, siyosiy, demografik, ilmiy-texnik, tabiiy resurslarni prognozlash va shu kabi) bilan birga amalga oshiriladi. Ushbu progozlarning natijalari xalq xo‘jaligi va iqtisodiy prognozlashningboshqa turlarida inobatga olinadi. O‘z navbatida iqtisodiy prognozlar boshqa barcha ijtimoiy jarayonlarning prognozlash va rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turli xil progozlarning aloqasi ularni ishlab chiqish ketma-ketligida ham o‘z ifodasini topadi. Xususan, iqtisodiy prognozlar ilmiy-texnik taraqqiyoti, tabiiy resurslar, demografik jarayonlar va x.k. ning progozlaridan keyin ishlab chiqiladi.

5.3. Ilmiy prognozlashtirishning tamoyillari va progozlarini ishlab chiqish bosqichlari, usullari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida prognozlash jarayonining asosiy tamoyillari quyidagilar:

- 1) progozning ilmiy asoslanganligi (tabiat, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olib ilmiy metodlar yordamida ishlab chiqish);
- 2) progozlashning uzluksizligi (mamlakatda, iqtisodiyotda vaziyatlarning o‘zgarishini hisobga olib progoz doimo to‘g‘rulanib (korrektirovka) turishi kerak);
- 3) istiqbol va joriy progozlashning muvofiqligi (progozlash o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshiriladi, lekin ustivorlik istiqbol progozlashga beriladi);
- 4) progozlarning kelishilganligi (ishlab chiqilgan progoz aralash progozlar bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lishi kerak);
- 5) progozning ko‘p variantliligi, al’ternativliligi (progozning bir necha variantlari ishlab chiqilishi, vaziyatlarning o‘zgarishi holatlarida boshqa variantlardan foydalanish uchun talab etiladi. Odatta progozni uch varianti mavjud: optimistik, pessimistik va realistik);
- 6) asosiy omillarni tanlash (progozlashda hisob-kitoblarga tadqiq etilayotgan jarayonga ta’sir etuvchi omillar kiritilgan bo‘lishi kerak). Buning dolzarbli shundaki, iqtisodiy jarayonlarning o‘zi murakkab, ko‘p omilli va hamma omillarning ta’sirini hisobga olish qiyin);
- 7) progoz ishlab chiqishning tizimliligi (progozlash jarayonini bir tomondan bir butun tizim sifatida, ikkinchi tomondan esa alohida mustaqil bo‘limlardan tarkib topgan murakkab tizim sifatida qaralishi);
- 8) progozlarning verifikasiyalanganligi (progoz bahosi ishonchli va asoslangan bo‘lishi kerak);

9) adekvatlilik (prognoz modelining real hayotga, tendensiyalarga, qonuniyatlarga maksimal yaqin bo‘lishi kerak);

10) rentabellik (ishlab chiqilgan prognozdan samara uni ishlab chiqish uchun qilingan xarajatlardan yuqori bo‘lishi kerak).

Prognozlash tamoyillari prognozlash modellari va turli metodlarini metodologik yagonaligini ta'minlaydi.

Prognozlar tipologiyasi turli mezonlar va xususiyatlarga qarab tuziladi. Ular orasida quyidagilar mavjud:

- 1) prognozlash ko'lami;
- 2) yetkazib berish muddati yoki prognoz vaqtiga gorizonti;
- 3) funksional xususiyat;
- 4) prognozlash ob'ektlarini axborot bilan ta'minlash darajasi.

Prognozlash miqyosiga ko'ra quyidagilar mavjud:

- makroiqtisodiy prognoz;
- tarkibiy (tarmoqlararo va hududlararo) prognoz;
- xalq xo‘jaligi komplekslarini (energetika, investisiya, agrosanoat va boshqalar) rivojlantirish prognozları;
- sanoat va mintaqaviy prognozlar;
- alohida korxonalar, aktsiyadorlik jamiyatları, shuningdek, alohida tarmoqlar va mahsulotlarni rivojlantirish prognozları.

Yetkazib berish vaqtiga yoki vaqt oralig'i bo'yicha barcha prognozlar quyidagilarga bo'linadi:

- operatsion yoki joriy (1 oygacha);
- qisqa muddatli (1 oydan 1 yilgacha);
- o'rta muddatli (1 yildan 5 yilgacha);
- uzoq muddatli (5 yildan 15-20 yilgacha);
- uzoq muddatli (20 yildan ortiq).

Prognozlash va rejalashtirishni ekspert baholash usullari

Asosiy g'oya, olingan natijalarni baholash va qayta ishlashning bir qancha usullari bilan birgalikda odamning intuitiv-mantiqiy fikrlashining oqilona tartibini tuzishdan iborat. Mohiyati- prognoz mutaxassis yoki mutaxassislar guruhining fikriga asoslanib, professional, ilmiy va amaliy tajribaga asoslangan. Ajratish 1. Individual - tegishli profildagi mutaxassis mutaxassislarning fikrlaridan foydalananishga asoslangan. Usullar keng tarqalgan intervyl, tahliliy, ssenariy yozish; Suhbat usuli-bashoratchi va ekspert o'rtasidagi savol-javob sxemasi bo'yicha suhbat, bunda bashoratchi oldindan ishlab chiqilgan dasturga muvofiq, bashorat qilinayotgan ob'ektni rivojlantirish istiqbollari to'g'risida mutaxassisiga savollar beradi. Muvaffaqiyat mutaxassisning turli masalalar bo'yicha o'zboshimchalik bilan xulosa chiqarish qobiliyatiga bog'liq.

Analitik usul- tendentsiyalarni tahlil qilish, prognoz qilinayotgan ob'ektning holati va rivojlanish yo'llarini baholash bo'yicha ekspertning mustaqil ishi. Ekspert prognoz ob`ekti haqidagi barcha kerakli ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. U o'z xulosalarini memorandum shaklida tuzadi. Asosiy afzallik - bu mutaxassisning individual qobiliyatini maksimal darajada oshirish qobiliyati. Ammo bu murakkab tizimlarni bashorat qilish va tegishli bilim sohasidagi bitta mutaxassis-ekspertning cheklangan bilimlari tufayli strategiyani ishlab chiqish uchun juda mos emas.

Skript usuli Ham individual, ham jamoaviy ekspert bahosiga taalluqli bo'lishi kerak. Har xil sharoitda jarayon yoki hodisaning mantig'ini aniqlashga asoslangan. U mavjud vaziyatdan ob'ektning kelajakdagi holatiga o'tish jarayonida rivojlanayotgan voqealar ketma -ketligini o'rnatishni o'z ichiga oladi.

2. Kollektiv tengdoshlarning sharhlari - ("aqliy hujum") Muammoli vaziyatni "aqliy hujum" qilishda mutaxassislarning ijodiy salohiyatidan foydalanishdan iborat bo'lib, u birinchi navbatda g'oyalalar ishlab chiqarishni amalga oshiradi, so'ngra ularni aksil-g'oyalarni ilgari surish va kelishilgan nuqtani ishlab chiqish bilan buzish (yo'q qilish, tanqid qilish). ko'rinish.

"635" usuli- aqliy hujumning turlaridan biri. Delphi usuli- ekspert bashorat qilishning yanada oqilona va qat'iy tartibini ishlab chiqish bo'yicha birinchi urinishlardan biri

Rasmiy prognozlash va rejalahtirish usullari

Rasmiylashtirilgan usullarga ekstrapolyatsiya usullari, iqtisodiy va matematik usullar, muvozanat usuli, me'yoriy va boshqalar kiradi.

1) Asos ekstrapolyatsiya usullari bashorat qilish - bu empirik qatorlarni o'rganish. Empirik ketma -ketlik - bu o'z vaqtida ketma -ket olingan kuzatishlar to'plami, funktsiya - bashorat qilinayotgan ob'ektning unga ta'sir etuvchi omillarga bog'liqligini aks ettiruvchi eng oddiy matematik model.

2) Iqtisodiy va matematik usullar uni hal etishning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonining matematik modelini qurishni va natijani mantiqiy talqin qilishni nazarda tutadi. Modellashtirish eksperimental, ikonik va mavhum bo'lishi mumkin. Iqtisodiy va matematik modellarga optimal rejalahtirish modellari, kirish-chiqish balansi modellari, korrelyatsiya-regressiya tahlili, matritsa modellari, iqtisodiy va statistik modellar, qaror qabul qilish modellari, simulyatsiya modellari va tarmoqni rejalahtirish modellari kiradi.

3) Balans usuli- mamlakat, mintaqa, sanoat, korxonaning har xil turdag'i mahsulotlarga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini ishlab chiqarish imkoniyatlari va resurslar manbalari bilan bog'lashdir. Bu usul buxgalteriya balansini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi, bu ko'rsatkichlar tizimi bo'lib, unda daromad manbalari bo'yicha resurslarni tavsiflovchi bir qismi boshqasiga teng bo'lib, ularning xarajatlarining barcha sohalarida taqsimlanishini ko'rsatadi. Balansning resurs qismi ehtiyojlar aniqlangandan keyin shakllanadi.

Resurslar barcha daromad manbalari bo'yicha hisoblanadi. Ehtiyojlar aniqlangandan so'ng, resurslar bilan bog'liqlik rivojlanadi.

4) Mohiyati normativ usul normalar va standartlardan foydalangan holda prognozlar, rejalar, dasturlarning texnik -iqtisodiy asoslanishidan iborat. Ko'rsatkich qabul qilingan o'lchov birliklarida mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ilmiy asoslangan o'lchovni tavsiflaydi.

Hisoblash uchun odatda quyidagi ifoda ishlataladi:

$$Q = V * N$$

bu erda Q - kerakli qiymat;

V-mahsulotlar soni, aholi soni va boshqalar;

N-norma. Norm va me'yorlar alohida guruh va turlarga bo'linadi: mehnat xarajatlari normalari; ishlab chiqarish stavkalari; vaqt normalari; moddiy resurslardan foydalanish normalari; xom ashyo, yoqilg'i, elektr energiyasini iste'mol qilish stavkalari; moliyaviy me'yorlar; Ijtimoiy normalar; ekologik standartlar.

5.4. Dasturlash va rejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funksiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejalashtirish nazariyasining asoslari.

Davlat boshqaruvida prognozlash - bu ijtimoiy jarayonlar va munosabatlarning rivojlanishi, ularning o'zgarishi vaqtлari va tabiat haqidagi ilmiy asoslangan g'oya. Prognozlash jarayoni qat'iy vaqt doiralari, ilgari qabul qilingan qarorlar bilan cheklanmaydi, bu dastlabki xususiyatga ega. Prognozlar, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning borishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan va shu bilan birga davlat ta'siriga qisman mos keladigan (yoki qo'llab-quvvatlanmaydigan) davlat boshqaruvi ob'ektlari to'g'risida ma'lumot manbai hisoblanadi. Noto'g'ri boshqariladigan (yoki boshqarilmaydigan) omillar sifatida, qoida tariqasida, tabiiy-iqlim, demografik, harbiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy, savdo-opportunistik omillar ajratiladi.

Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatida prognozlarning quyidagi turlaridan foydalaniлади:

- 1) ijtimoiy-iqtisodiy;
- 2) demografik;
- 3) mehnat resurslari va ishchi kuchi prognozları;
- 4) tabiiy resurslar bo'yicha prognozlar; ijtimoiy makroiqtisodiy prognozlar;
- 5) ichki va tashqi bozorlar kon'yunkturasining makroiqtisodiy prognozları;
- 6) ilmiy-texnika sohasidagi prognozlar;
- 7) harbiy-siyosiy;
- 8) tashqi iqtisodiy prognozlar.

Vaqt xarakteristikasiga ko'ra qisqa, o'rta, uzoq muddatli prognozlar farqlanadi, ularning sub'ektlari mos ravishda valyuta kurslari, aktsiya baholari, narxlar va boshqalar bo'lishi mumkin; yangi turdag'i xizmatlar yoki mahsulotlarni

yaratish va taqdim etish, maqsadli dastur, milliy loyiha va boshqalarni amalga oshirish; mamlakatdagi demografik vaziyat, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va boshqalar.

Konsolidatsiyalangan makroiqtisodiy prognozlar mamlakat iqtisodiyotining kutilayotgan holatini aniqlash va uning asosiy parametrlari - yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, asosiy kapitalga investitsiyalar, real pul daromadlari dinamikasi tendentsiyalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan davlat prognozining asosiy elementiga aylandi. aholi va boshqalar. Makroiqtisodiy prognozlash pessimistik, optimistik va realistik prognozlarni ishlab chiqish bilan bog'liq. Makroiqtisodiy prognozlar turli prognozlash usullari yordamida amalga oshiriladi.

Ekstrapolyatsiya usuli keljakdag'i rivojlanish traektoriyasi o'tmishdagi rivojlanish traektoriyasining davomi ekanligiga asoslanadi. Ekstrapolyatsiyani bashorat qilish inertial jarayonlarga qo'llaniladi. Faktorlarni bashorat qilish usuli prognoz mavzusiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, kerakli ko'rsatkichlarning omillarga bog'liqlik turini aniqlash (chiziqli yoki eksponensial bo'lishi mumkin) va prognoz qilingan ko'rsatkichlarning qiymatlarini hisoblashni o'z ichiga oladi. Modelni bashorat qilish usuli iqtisodiy va matematik modellarga asoslangan prognozlash vositasidir. Davlat boshqaruvi amaliyotida u modellanayotgan ob'ektga mos keladigan makroiqtisodiy modellarni qurishning murakkabligi tufayli keng qo'llanilmagan. So'nggi yillarda davlat organlari ekspert prognozlashning eng universal usuli sifatida ko'proq murojaat qila boshladilar, bunda ekspert tajriba, analogiya va sezgi asosida prognoz qiladi.

Rejalshtirilgan faoliyat boshqaruvi sub'ektining tabiiy va zaruriy funktsiyasidir. Davlat boshqaruvi tizimida rejalshtirish universaldir. Reja - bu nafaqat orzu qilingan natija, balki unga erishish yo'llari va bu rejalshtirish va prognozlash o'rtaidagi asosiy farqdir. Rejalshtirish jarayon sifatida rejani ishlab chiqish, tuzish, amalga oshirish jarayonini kuzatish va tuzatishdan iborat. Rejalar har qanday davr uchun ishlab chiqiladi. Qisqa muddatli rejalar bir yilgacha bo'lgan muddatga qaratilgan. O'rta muddatli rejalar, qoida tariqasida, bir yildan besh yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi. Uzoq muddatli rejalar 5-20 yil muddatga ishlab chiqiladi.

Rejani ishlab chiqishning har xil turlari diskret rejalshtirish va doimiy prokat rejalshtirishga xosdir. Birinchi holda, rejalar "uchdan oxirigacha" ishlab chiqiladi, chunki bir reja tugallanganda, u boshqasi bilan almashtiriladi. Ikkinci holda, reja vaqt-vaqt bilan tugashidan oldin ham uzaytiriladi. Rejalshtirish jarayoni bosqichli xarakterga ega, shuning uchun quyidagilar mavjud: xalqaro rejalshtirish (mamlakatlarning birgalikdagi siyosiy, iqtisodiy va boshqa faoliyati); davlat rejalshtirish; tarmoqni rejalshtirish; hududiy rejalshtirish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hududlarini rejalshtirish. Rejalshtirish ob'ekti va foydalaniladigan ko'rsatkichlarga ko'ra, ijtimoiy rejalshtirish farqlanadi (ijtimoiy

xarakterdagи jarayonlar va ob'ektlarga taalluqlidir); makrodarajada ishlab chiqarish va iqtisodiy rejalashtirish (iqtisodiy o'sishga qaratilgan); davlat moliyaviy rejalashtirish (davlat byudjetlarini, fondlarini shakllantirish bilan bog'liq).

Davlat rejalashtirishning quyidagi shakllarini ishlab chiqish dolzarbdir:

- 1) davlat darajasida majburiy tasdiqlash bilan rejalashtirilgan kontseptsiya;
- 2) davlat direktivasi bo'yicha uzoq muddatli rejalashtirilgan inshootlar;
- 3) davlat darajasida indikativ rejalarni ishlab chiqish va qabul qilish orqali indikativ rejalashtirish;
- 4) davlat maqsadli dasturlari;
- 5) davlat rejalashtirilgan buyurtma;
- 6) davlat byudjetini davlatning moliyaviy rejasi sifatida shakllantirish;
- 7) davlat mulkini xususiylashtirish va undan foydalanishning davlat rejalari va dasturlarini qabul qilish;
- 8) davlat investitsiya va innovatsion loyiham.

Davlat dasturlari ko'pincha maqsadli rejalashtirishga ekvivalent atama sifatida ishlatiladi. Dasturiy-maqsadli usul - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan jamiyat hayotining turli sohalaridagi muammolarni hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'liq dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishning asosiy yo'lidir.

Dasturiy-maqsadli rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: maqsadlarni aniq shakllantirish va tizimlashtirish ("maqsadlar va vazifalar daraxti"); amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning belgilangan maqsadlar bo'yicha shartliliqi (maqsadni amalga oshirish bo'yicha harakatlar tizimi); dastur tadbirlarini amalga oshirish uchun vositalar va resurslarni dastlabki tashkil etish; dasturni boshqarishga tizimli yondashish va boshqaruv organlari tomonidan chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish.

Dasturiy yondashuvning mohiyati "dastur sohasi", "dastur parametrlari", "dastur tuzilmasi" tushunchalari orqali ochib beriladi. Umuman olganda, dastur tuzilmasi quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi: maqsadli (muammoning mazmuni, uni hal qilish zarurligini dastur usullari, maqsadlari, vazifalari, dasturning muddatlari va bosqichlari bilan asoslash), ijro etuvchi (dastur faoliyati tizimi), resurs (hajmlar, resurslar manbalari), tashkiliy (amalga oshirish mexanizmi, boshqaruv va nazoratni tashkil etish, oqibatlarni baholash, dastur pasporti).

Maqsadli dasturni ishlab chiqish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) dasturni maqsadli belgilash; dasturni ilmiy va loyiha ishlab chiqish (uni amalga oshirish yo'llarini asoslash);
- 2) tarkibiy rivojlanish (bo'limlarni shakllantirish, dasturning ijro etuvchi tuzilmasini qurish, dastur faoliyatini asoslash);
- 3) resurslarni rivojlantirish (dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar hajmi va manbalarini asoslash).

Maqsadli dasturni ishlab chiqish chiziqli bo'lмаган, lekin tsiklik jarayon bo'лганлиги sababli davlat dasturlarini ishlab chiqish usullari mazmunining yagona algoritmi mavjud emas.

Davlat dasturlarini tasniflash quyidagi asoslarga ko'ra mumkin:

1. Davlat dasturining funktsional yo'nalishiga ko'ra:
 - ijtimoiy yo'naltirilgan (ijtimoiy);
 - ilmiy-texnikaviy (innovatsion);
 - investitsion (reproduktiv);
 - ekologik;
 - milliy xavfsizlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish dasturlari.
2. Davlat dasturlarini amalga oshirish obyektiga ko'ra:
 - hududiy (mintaqaviy);
 - sanoat;
 - resurslar salohiyatini rivojlantirish dasturlari;
 - tashqi iqtisodiy;
 - tashkiliy va boshqaruv;
 - marketing.
3. Dasturni amalga oshirish muddatiga ko'ra:
 - qisqa muddatli, 3 yilgacha bo'лган muddatga;
 - o'rta muddatli, 3-5 yil muddatga;
 - uzoq muddatli, 5 yildan ortiq muddatga.
4. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasiga ko'ra:
 - byudjet hisobidan to'liq amalga oshirilgan dasturlar;
 - nodavlat moliyalashtirish manbalarini jalg qilgan holda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlar;
 - qo'shma hududiy dasturlar (hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dasturlar);
 - hokimiyat va boshqaruv organlarining joriy faoliyati bilan bog'liq dasturlar.

5.5. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.

O 'zbekistonda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishdan ko'zlangan bosh maqsad hududlami barqaror rivojlantirishni rag'batlantirish va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajalari o'rtasida keskin farqlarning vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun sharoit yaratishdan iborat.

Mamlakat hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish maqsadini amalga oshirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning barcha hududlarini barqaror rivojlantirish uchun ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini imkon darajada tenglashtirish;

- hududlaming tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashtirilishi va rivojlanishidagi asossiz vujudga keltirilgan nomutanosiblikni bartaraf etish;
 - hududlar ixtisoslashuvini oqilonalashtirish va tumanlararo iqtisodiy aloqalami optimallashtirish;
 - hududlaming hududlararo va tashqi iqtisodiy integratsiyalashuvi, ayrim hududlaming iqtisodiy va ijtimoiy biqiqligi (o‘zi bilan o‘zi bo‘lishlik, tor doirada o‘ralashib qolishlik) ga barham berish.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning huquqiy shakllari sifatida qonunlar, qonunosti va sud huquqiy hujjatlar, aktlar xizmat qiladi. O ‘zbekistonda hududlar rivojlanishini tartibga solishda Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari muhim o’rin tutadi.

Hududlar rivojlanishini tartibga solishning tashkiliy-institutsional tarkibi respublika ijro hokimiyati darajasida Vazirlar Mahkamasi, ko‘pgina vazirlik va idoralar tomonidan shakllantiriladi.

Hududlarni rivojlantirish umumiyligi siyosati O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Ayrim iqtisodiyot sektorlari va yo‘nalishlari bo‘yicha hududiy muammolar bilan quyidagi davlat tuzilmalari shug'ullanadi:

- Markaziy bank;
- Moliya vazirligi;
- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi;
- Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi;
- O‘zbekiston respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi;
- Qurilish va arxitektura bo‘yicha qo‘mita;
- «O‘zkommunxizmat» agentligi va boshqalar.

Mustaqillik yillarda O ‘zbekiston Respublikasida hududlaming iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘nalishlarbo‘yicha amalga oshirildi:

- hududlar, tumanlar guruhi va tumanlami kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- hududlar mineral xomashyo resurslarini kompleks o‘zlashtirish, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, tashqi atrof muhitni muhofaza qihsh;
- sanoat va uning tarmoqlarini rivojlantirishning hududiy va respublika dasturlarini ishlab chiqish, faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish quvvatlari profflini o‘zgartirish, xorijiy investitsiyal jalb qilish vf yangi korxonalami qurish;
- hududlar qishloq xo‘jaligini ularning tabiiy-iqlim xususiyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashirish, qishloq xo‘jaligida islohotlarni rivojlantirish va yanada chuqurlashtirish bo‘yicha respublika, hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ish bilan bandlik, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha respublika dasturlarini amalgalash oshirish;
- respublika va mahalliy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish;
- mahalliy budgetni mustahkamlash, hududlarga dotatsiya va subvensiyalar ajratish;
- boshqarishning hududiy-xo'jalik tizimini oqilona tashkil etish maqsadida mamlakatni ma'muriy-hududiy bo'linishini takomillashtirish.

Hudud rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi vaziyatlarga bog'liq:

- mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari iqtisodiy bazasi;
- mamlakatdagi budget tizimi;
- tadbirkorlikning rivojlanish ko'lami;
- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish shakllari hamda usullariga, tezligiga;
- soliq imtiyozlarini qo'llash tajribasi;
- budgetdan tashqari jamg'armalar;
- moliyaviy resurslarga;
- hududning investitsiyaviy va eksport imkoniyatlari;
- viloyatlar va tumanlararo, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalar;
- bozor infratuzilmasi obyektlari rivojlanish darajasi;
- aholining ish bilan bandlik muammolarining xususiyatlari;
- hududdagi ekologik vaziyat.

Hudud rivojlanishini davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri tartibga solish respublika budgeti, dotatsiya va subvensiyalar hisobiga maqsadli dasturlar va yirik investitsiya loyihamalarini amaiga oshirish orqali bo'ladi.

Davlat tomonidan hududlami rivojlantirishni tartibga solish maqsadida quyidagi dasturlar ishlab chiqiladi:

1. Sanoatni rivojlantirish dasturlari.
2. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishni tartibga solish.

Bunda quyidagi tartiblash usullaridan foydalanimoqda:

- hududlarda mahsulot hajmi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va hududlamning ixtisoslashuvini tartibga solish;
- qishloqda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;
- qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ ahvolini yaxshilash;
- qishloq xo'jaligi korxonalarini moddiy-texnika bazasini yaxshilash va mustahkamlash, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalar tarmog'ini yaratish;
- tabiatni muhofaza qiluvchi va gidrotexnik qurilmalami qurish;
- zarar ko'rib ishlovchi va past rentabelli qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturiga muvofiq qishloqda mulkdorlar sinfini, fermer xo‘jaliklarini shakllantirish jarayonlari davom ettirildi, tuproq unumdarligini oshirish, seleksiya va urug‘chilikni yaxshilash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hajmlarini o‘sirish chora-tadbirlari ko‘riladi.

3. Hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanish va qo‘shma korxonalami tashkil etishni tartibga solish.

Endilikda, respublika hududida, ayniqsa, kam rivojlangan hududlarda qo‘shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investitsiyalami jalb etish uchun maqsadli dasturlar tuzish va ularni rag‘batlantirish uchun soliq, boj, kredit imtiyozlari mexanizmini yaratish maqsadga muvofiqli.

4. Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish.

Hududlarda temiryo‘llar, avtomobil yo‘llarini qurish hududiy siyosatning muhim qismi hisoblanadi. Buning oqibatida hududlaming viloyatlararo, tumanlararo tashqi iqtisodiy aloqalari kuchayadi, tadbirkorlik, biznes rivojlanishi, xorijiy investitsiyalami jalb etish uchun qulay muhit yaratiladi.

5. Hududlaming ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish.

Ijtimoiy sohani tartibga solishda respublika, hududiy va mahalliy boshqarish darajalari mavjud bo‘ladi. Hududlaming ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish territorial dasturlar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda qabul qilingan dasturlami amalga oshirish va hududlaming rivojlanishini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilami amalga oshirish maqsadga muvofiqli:

- hududlarni rivojlantirish bo‘yicha respublika va hududiy dasturlami tanlash va ularni amalga oshirishni asoslash hamda navbatga qo‘yish tizimini shakllantirish;

- respublika va hududiy dasturlami amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish, buning uchun mahalliy hokimliklar va tegishli vazirliklarning mas’uliyatini oshirish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarining hududiy jihatlarini kuchaytirish;

- tarmoq dasturlarining hududiy jihatlari monitoringini tashkil etish;

- hududlar va tarmoq imkoniyatlari, zaxiralarini chuqur o‘rganish va hisobga olish asosida prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

- dasturlarni amaiga oshirish ustidan qat‘iy nazoratni kuchaytirish, nazorat tizimini yaratish.

Hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish uchun ma’muriy qarorlar qabul qilish bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, iqtisodiy rag‘batlantirish tavsifiga ega bo‘lgan dastak va usullardanmfoydalanish maqsadga muvofiqli.

Moliyaviy jihatdan qo’llab-quvvatlash uchun hududni tanlashda hududdagi muammoli holatlami chuqur o‘rganish lozim bo‘ladi.

Hukumat tomonidan hududlarni tashkiliy-axborot, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy kreditlar, grantlar olish, xorijiy investitsiyalami jalb qilish, xalqaro dasturlar va texnik ko'maklar loyihamida ishtirok etishida yordam berish va qo'llab-quwatlash kerak bo'ladi.

Hududiy rivojlanishni tartibga solishda moliyaviy mexanizmlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Hududlami rivojlantirish uchun 1999-yilgacha mavjud bo'lgan budgetlararo transfertlar o'z mablag'lari minimal xarajatlami qoplay olmaydigan hududlarga subvensiyalar shaklida berilar edi.

Subvensiyalar hajmi Davlat budgeti loyihasi bilan birgalikda tasdiqlanadi. Mablag'lar, bиринчи, navbatda hududlaming ish haqi, stipendiyalar, nafaqa va pensiyalami moliyalashtirishga ajratiladi.

2000-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'g'risida»gi qonuni bu tizimga ba'zi o'zgartirishlar kiimdi. Bu o'zgarishlar jumlasiga mahalliy budgetlaming defitsitsizligi to'g'risidagi qoida kiritildi. Shuningdek, mahalliy hokimliklarga tasdiqlangan ko'rsatkichlardan yuqori, qo'shimcha tarzda tushgan daromadlardan o'z ehtiyojlari uchun ishlatish huquqi berildi.

Mahalliy budgetlami balanslashtirish umum davlat soliqlardan ajratmalar normativlarini va berilgan dotatsiyalami tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Respublika hukumati tomonidan mahalliy hokimiyat organlari va o'zini-o'zi boshqarish organlariga davlat boshqaruvi vakolatlari bir qismining o'tkazilishi oqibatida hududiy mahalliy budgetlarning roli oshadi.

Nazorat savollari:

1. «Prognozlash» deganda nimani tushunasiz?
2. Prognoz va reja o'rtafigi farqlari nimadan iborat?
3. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. nimadan iborat?
4. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o'rni.
5. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o'rta muddatli prognozlar.
6. Ilmiy prognozlashtirishning prinsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari.
7. Dasturlash va rejorashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funksiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejorashtirish nazariyasining asoslari.
8. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejorashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.

6-mavzu. Davlatning iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati.

REJA:

6.1. Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

6.2. Biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlatning mikroiqisodiy siyosati. Davlat mikroiqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari.

6.3. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga usul va vositalari.

6.1. Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuuni tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda. Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'limgan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zлari ish joylarini joriy etishlari, hozirgi davrda bizda vaqtinchalik mayjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin.

Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega. Kichik korxonalar ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning etakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tishda tobora o'z o'rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish jarayonini ta'minlovchi butun tizimni asosiy bog'lovchilik sifatini o'zlarida namoyon etmoqdalar.

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollarini, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda. Tadbirkorlik yo'nalishini kapitalizatsiya qilish orqali firmalar biznes hamkorlari bilan loyihalarni amalga oshirishda yuqori tendentsiyani rivojlantiradi. Hamkorlik yo'li bilan olingan resurslar yangi mahsulotni ishlab chiqish va bozorning

ta'sirchanligi kabi qobiliyatlarni yaratishi mumkin. Natijada, firmalar ichida ishlab chiqilgan qobiliyatlar raqobatbardosh ustunlikni va ish faoliyatini oshiradi.

Kichik korxonalar ishlab chiqargan mahsulot davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan sifati jihatidan qolishmasligi va, hatto, ayrim hollarda ulardan yuqori turishi bilan ajralib turadi. Respublikamizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining 60-70 foizi bevosita ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan, ular fermerlar, dehqonlar, sanoatchilar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilar va hokazolardir.

Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalalar olib kirish uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivoj-lantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustda PF-3305-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga asosan «o'rta korxonalar» tushunchasi bekor qilindi va 2004 yil 1 yanvardan boshlab quyidagilar kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi:

- yakka tartibdagagi tadbirkorlar; - ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lган xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan;
- xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lмаган tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji;
- chakana savdo va umumiyl ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar.

Quyidagi tarmoqlarda band bo'lган xodimlarning o'rtacha yillik soni:

- engil va oziq-ovqat sanoti, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 100 kishidan;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;
- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiyl ovqatlannish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan bozor sharoitiga tez moslashadilar hamda ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashda bir qancha ustunliklarga ega. Chunki, kichik korxonalar o'z faoliyatlarini tor ishlab chiqarish dasturlariga, ilg'or texnologiyaga, kam turkumli ilm-fan talab qiladigan mahsulotlar chiqarishga tezda moslaydilar hamda bozor asoslarini tez o'zlashtirib boradilar.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rnlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'limgan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi qator farmon va qarorlari, xususan, 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4725-sonli Farmoniga muvofiq, iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada engillashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha keskin va ta'sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sohaning yanada rivojlanishiga zamin va turtki bo'lmoqda. Jumladan, xususiy mulkni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida 2016 yilda 55,7 ming ta yangi korxonalar tashkil etilib, shundan 26,9 mingtasi kichik tadbirkorlik (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) subyektlaridir. 2017 yil davomida 32 mingga yaqin yoki 2016 yilga qaraganda 18 foizga ko'p yangi kichik biznes subyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazilib, o'z faoliyatini boshladi. Hamkorlik yo'li bilan olingan resurslar yangi mahsulotni ishlab chiqish va bozorning ta'sirchanligi kabi qobiliyatlarni yaratishi mumkin. Natijada, firmalar ichida ishlab chiqilgan qobiliyatlar raqobatbardosh ustunlikni va ish faoliyatini oshiradi. Umuman olganda, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan samarali islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining Kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 56,9 foizgacha, sanoatda esa 45 foizgacha oshdi. Hozirgi kunga kelib iqtisodiyotda ish bilan band aholining 78 foizi mazkur sohada mehnat qilmoqda.

2016 yilda mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyati jahon iqtisodiyotida, shu jumladan, asosiy savdo hamkorlarimiz hisoblangan davlatlarda kuzatilayotgan nobarqaror moliviy-iqtisodiy vaziyatlar, shuningdek, tashqi bozorlarda asosiy xomashyo tovarlari narxlarining pasayishi ta'sirida yuzaga kelgan noqulay raqobat sharoitlariga qaramasdan, 2016 yil yakunlariga ko'ra tashqi savdo aylanmasi qariyb 24,7 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2015 yilga nisbatan 1,0 foizga kamaydi. Tashqi savdo balansining ijobiy saldosi 453,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Bu esa mamlakatimiz to'lov balansi ijobiyligini ta'minlab, oltin-valyuta zaxiralarining oshishiga xizmat qildi.

2017 yilda O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'lgan biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan qator tizimli choratadbirlar amalga oshirildi. 2016 yil oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirishlarning barcha turlarini bekor qilish orqali yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatda asosiy e'tibor kichik va xususiy korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va ularning eksport faoliyatini rag'batlantirishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarga qaratilgan bo'lib, bu tarmoqlar va hududlar iqtisodiy rivojlanishining hamda aholi bandligini ta'minlashning muhim yo'nalishi bo'lishi lozim.

6.2. Biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlatning mikroiqisodiy siyosati. Davlat mikroiqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan manbalarga tayanadigan bo'lsak, "Tadbirkor" atamasi ingliz iqtisodchisi R.Kantil'onga tegishli bo'lib, u quyidagilarni tushungan: "Tadbirkor – bu doimiy daromadga ega bo'limgan dehqon, hunarmand, savdogar, kambag'al va boshqalardir. U o'zgalar molini muayyan narxda sotib olib, o'zining molini ham muayyan bo'limgan yuqoriq narxda sotishga intiladi. Uning asosiy iqtisodiy vazifasi turli tovarlar bozorida talabga mos taklifni yuritish hisoblanadi". Shuningdek, R.Kantil'on "Tijorat tabiat haqida ocherk" asarida yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi xizmat ko'rsatish bilan bog'liq yangi korxonalar yoki yangi tijorat g'oyalarini yaratish (tatbiq etish) da riskni o'z zimmasiga oluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni xususiy tadbirkor tushunchasi bilan izohlagan.

Fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832yy.) birinchi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida "tadbirkorlik qobiliyati" (layoqati) va ishchi kuchi o'rtasidagi farqni ish

haqi darajasida deb ko'rsatadi. Darhaqiqat, tadbirkor mehnati uchun oladigan ish haqi, yollanma ishchiga nisbatan yuqoriligi, ularning bajaradigan vazifalari, iqtidorligi, faolligi, qobiliyati, intizomi va boshqarish qobiliyatida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. J.B.Seyning yana muhim nazariy kashfiyotlaridan biri, takror ishlab chiqarish nazariyasi "Sey qonuni", "bozor qonuni" yoki "sotish nazariyasi" bo'lib, "har bir odam bir vaqtning o'zida ham sotib oluvchi, ham sotuvchidir" deb ko'rsatgan.

Qayd etish joizki, barcha nazariy qarashlarda u yoki bu jihatdan tadbirkorlik faoliyati zarurligi tan olingan. Chunonchi, J.B.Sey xususiy sektor – iqtisodiy resurslarning past unumдорлиги va past daromadi bilan yuqori unumдорлиги va yuqori daromadining o'zaro qorishmasi ekanligini ta'kidlaydi. J.B.Seyning xususiy tadbirkor to'g'risidagi bu tasavvuri talabga mos taklifni amalga oshirishga qaratilgan. Bu hol ingliz iqtisodchisi R.Kantil'on tomonidan tavakkalchilik bilan bog'lanadi. Shuningdek mazkur davrlarda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq yangi atamalar vujudga keldi.

Misol uchun, kapitalga egalik qilish, foydali ishlab chiqarish, moliyaviy tavakkalchilik, tashabbuskorlik va boshqalar. Vaqt o'tishi bilan tadbirkorlik haqidagi tasavvurlar rivojlantirildi hamda faoliyati davomida foyda oshishiga e'tibor qaratildi. J.B.Sey "Siyosiy iqtisod traktati" nomli asarida xususiy tadbirkorlik rostgo'ylik, aniqlik, tashabbuskorlik, moddiy ta'minlanganlik va boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tdi. Ta'kidlash joizki, kichik biznesning rivojlanish tarixida tadbirkor tashabbuskor, yangilikka intiluvchan, ilg'or fikrlovchi, aql sohibi, shafqatsiz raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishuvchi inson sifatida tasavvur qilindi.

XX asr boshlari esa G'arbda Yozef Shumpeterning tadbirkorlik nazariyasi haqidagi mulohazalari muhokamalar mavzusi bo'lib, "tadbirkorlikning vazifasi – yangi ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etish yo'li bilan ishlab chiqarishni isloh qilish va inqilobi o'zgarishlarni amalga oshirishdir" deb hisoblandi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalarining mazmun mohiyatini "Ekonomiks" darsligining mualliflari K.R.Makkonell, L.S.Bryu xususiy sektorni maxsus insoniy resurs sifatida qabul qilib, ularning fikricha, kichik biznes – bu shunday sohaki, u tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi jarayonida yer resurslari, kapital va mehnatni birlashtirish bo'yicha tashabbusni o'z zimmasiga olib, biznesni yuritish jarayonida asosiy qarorlarni qabul qiladi. Mazkur soha yangilik yaratuvchi bo'lib, tijorat asosida yangi mahsulotlar va ishlab chiqarish texnologiyalari yoki biznesni tashkil etishning yangi shakllarini ishlab chiqarishga intiluvchi risk bilan ish tutadi. Boshqa xorijiy olimlar esa, xususiy sektorni xususiy shaxslar, korxonalar yoki tashkilotlar tomonidan moddiy boyliklarni yaratish, ishlab chiqarish, tovarlar xarid qilish yoki

sotishdan manfaatdor shaxslar yoki tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida xizmatlar ko‘rsatishni amalgalashish sifatida tushunadilar.

A.Smit (1723-1790) va D.Rikardolar (1772-1823) bozor baholarini tartibga solish vazifasini bajaruvchi kichik xo‘jalik yurituvchilarni investorlar deb hisoblaganlar. A.Smit mazkur toifaning alohida belgilari mavjudligini bilgan holda, ta’kidlaydiki, o‘zlarining hayotlari davomida har xil reja va loyihalar bilan butunlay band bo‘ladilar, o‘zlarining ko‘plab ixtirolari bilan boshqa ko‘pchilik mahalliy dvoryanlar darajasidan farqlanadilar deb ta’kidlaydi.

Neoklassik maktab vakili A.Marshall (1842-1924) tomonidan iqtisodiy o‘sish uchun tadbirkorlikning hal qiluvchi ijodiy ahamiyati tan olinib, A.Smitning ishlab chiqarish omilining uchta mumtoz toifasiga: yer, ish haqi va kapitaldan tashqari mehnat to‘rtinchi, deb qaraydi. Mehnat bu - “ishonchli tadbirkorlik qobiliyatini va kapitalini talab qiluvchi yaxlit birlashgan tashkilotdir”. Shu bilan birga A.Marshall tadbirkorlik qobiliyatini korxonalarining boshqarish shakli bilan bog‘lagan holda talqin etib, tadbirkorlik qobiliyatini kapital qo‘yilmalarning hajmiga, ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohalariga hamda kor

Omillar bosqichida mamlakatning barcha raqobatbardosh tarmoqlari ishlab chiqarishning asosiy omillari: tabiiy resurslar, arzon ishchi kuchi va mamlakatning mavqeい, hududi bilan belgilanadigan foydalar hisobidan o'z mavqelariga erishadi.

Raqobat jihatdan ustunliklar omillarning qiymati bilan belgilanadi, bunda texnologik rivojlanish ko'pincha chet eldan xarid qilish yo'li bilan keltirilgan texnologiyalarga asoslanadi.

Raqobatbardoshlining yanada yuqori bosqichi – bu investisiyalar asosidagi raqobatbardoshlik. Ushbu bosqichda mamlakatlarning raqobat jihatdan ustunliklari faol investisiya siyosatiga asoslanadi. Bunda ham texnologik rivojlanish chetdan keltirilgan texnologiyalarga asoslanadi, biroq bu o'zlashtirish birinchi bosqichdag'i kabi passiv hisoblanmaydi. Firmalar eng yaxshi texnologiyalar, lisenziya, nouxauga investisiya qilishadi, bunda texnologiyalar mamlakat ichida doimiy ravishda takomillashib boradi. Iqtisodiyot ichida sarmoyaning kuchli safarbar qilinishi sodir bo'ladi, kapital qo'yilmalarning o'sishi omillarning takomillashuviga olib keladi, shu bilan birga u ularning qimmatlashuvini ham keltirib chiqaradi. Rivojlanishning eksportga yo'naltirilgan strategiyasi ishlab chiqiladi, chunki ichki bozor hali unchalik katta va talabchan bo'lmaydi va shuning uchun mahsulot sifatini takomillashtirishga undamaydi.

Innovasiyalar bosqichi iqtisodiyot raqobatbardoshligining ichki salohiyati to'liq ishga tushishi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda firmalar nafaqat xorijiy texnologiyalarni qo'llashadi va takomillashtiradi, balki o'z texnologiyalarini barpo etishadi. Daromadlarning yuqori bo'lishi, ta'lif darajasining oshishi va jadal ichki raqobat tufayli ichki bozor sig'imli va talabchan bo'ladi. Ushbu bosqichda firmalar

global strategiyalarni ishlab chiqishadi va chet elda keng ko‘lamli investisiyalarni amalga oshiradi.

Iqtisodiyot raqobatbardoshligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Hozirgi zamonda davlat – milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish siyosati bilan shug‘ullanishi mumkin va lozim bo‘lgan yagona institutdir.

Har yillik Jahon iqtisodiy forumi (Davos) tomonidan 161 ta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha raqobatbardoshlikning integral indeksi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagi sakkizta blok bo‘yicha guruhlangan: ochiqlik, davlat (davlat siyosatining samaradorligi), moliya, infratuzilma, texnologiya, boshqaruv, mehnat va institutlar.

Raqobatbardoshlik makro va mikro darajaga ajratiladi. Makro darajadagi raqobatbardoshlikni mutaxassislar aholi turmush darajasini oshirishda va xalqaro iqtisodiy andozalarga amal qilishda, milliy iqtisodiyotning boshqa mamlakatlarda ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar bilan raqobat sharoitida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish qobiliyati sifatida ta'riflashadi

Mikrodarajadagi raqobatbardoshlik omillarning ikkita guruhi bilan aniqlanadi: milliy kompaniyalarning rivojlanish darjasasi, shuningdek makroiqtisodiy biznes-muhitning sifati bilan. Forum ma'ruzasining mualliflari firmalar darajasidagi raqobatbardoshlikni to‘rtta asosiy omil bilan bog‘laydilar:

- resurslar,
- tashqi raqobat,
- talab,
- tarmoqlararo aloqalar.

Bunda firma ichidagi menejment, marketing, harakat strategiyasi («tadbirkorlik muhitining sifati») ham muhim hisoblanadi.

Jahon iqtisodiy forumining ma'lumotlariga asoslangan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, tadbirkorlik muhitining omillari umuman mamlakatlar bo‘yicha iqtisodiy o‘sish dinamikasiga eng katta ta’sir ko‘rsatdi (60 foiz).

Tadbirkorlik muhiti tomonidan raqobatbardoshlikning eng muhim omillari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: ichki bozorda raqobatning jadalligi, axborot infratuzilmasining rivojlanishi, talab xususiyatlarining murakkablashuvi va ichki taklifning miqdar va sifat bo‘yicha talabga mosligi.

Mamlakatning raqobatbardoshligi – erkin va halol raqobat sharoitida mamlakatning jahon bozori talablarini qondiruvchi tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin. Tarixan mamlakatlarning

raqobatbardoshligi konsepsiysi milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimoti va har bir mamlakatning xalqaro savdodagi rolini asoslab beruvchi qiyosiy ustunliklari (arzon mehnat, boy tabiiy resurslar, qulay jug‘rofiy o‘rin, iqlim, infratuzilma omillari va hokazo.) nazariyasiga asoslangan.

Mamlakatlararo raqobatbardoshlik sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda Jahon iqtisodiy forumining raqobatbardoshlik bo‘yicha har yillik ma’ruzalarida chop etiladigan ishlanmalari ajralib turadi. Jahon Iqtisodiy Forumi (JIF)ning mamlakatlar raqobatbardoshligini baholash metodikasi amaliyatda keng qo‘llaniladigan metodikalardan biri bo‘lib, u 12 ta asosiy ko‘rsatkichga asoslanadi:

1. Mamlakat faoliyat ko‘rsatishining umumiy ko‘rsatkichlari
2. Makroiqtisodiy muhit
3. Texnologik yangiliklar va ularning diffuziyasi
4. Axborot va kommunikasiya texnologiyalari
5. Mamlakatning umumiy infratuzilmasi
6. Davlat muassasalarida – qonunlar va faoliyat
7. Davlat muassasalarida - korrupsiya
8. Mahalliy raqobat
9. Bozor sub'ektlarining rivojlanishi
10. Kompaniyalar strategiyasi va taktikasi
11. Atrof muhitni muhofaza qilish (AMMQ)
12. Xalqaro tashkilotlar (banklar)

Mamlakat faoliyat ko‘rsatishining umumiy ko‘rsatkichlariga o‘z ichiga YaIM, aholi, aholi jon boshiga YaIM, aholi jon boshiga YaIMning real o‘sishi, ishsizlik darajasi hamda aholining bandligi ko‘rsatkichlarini oladi. Xalqaro tashkilotlar (banklar)ga esa o‘z navbatida Jahon bankining biznesni rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, Jahon bankining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, Xalqaro valyuta fondining biznesni rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, XVFning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, Mintaqaviy Tiklanish va taraqqiyot banklari (TTB)ning biznesni rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi, Mintaqaviy TTBning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga investisiyalarining samaradorligi kiradi.

Jahon Iqtisodiy Forumining metodikasiga muvofiq har bir mamlakat uchun iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan eng muhim bo'lgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida o'lchanadigan o'zining raqobatbardoshlik indeksi ishlab chiqiladi.

Mamlakat raqobatbardoshligi omillari (ko'rsatkichlari)ning tahlili milliy iqtisodiyotlar rivojlanishning jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda ular ichidan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga va uning raqobatbardoshligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatuvchi asosiyalarini aniqlash imkonini beradi, xususan inson salohiyatini rivojlantirish (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy soha), fan-texnika inqilobi, innovasiyalarni rivojlantirish va hokazo.

Mamlakatning raqobatbardoshligini baholash uchun dastlab axborotni yig'ish va uning ishonchlilagini tekshirish, so'ngra keyingi bosqichda mamlakat unga intilishi lozim bo'lgan raqobatbardoshlik darajasining me'yorlarini belgilash zarur. Ushbu holatda biz miliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun qaysi yo'nalishda ish olib borish lozimligini aniqlash maqsadida jahondagi eng yaxshi hisoblangan me'yorlarni ko'zda tutish lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, turli ko'rsatkichlar jahondagi eng yaxshi ko'rsatkichlarga qaraganda katta yoki kichik qiymatga ega bo'lishi mumkin, chunki har bir mamlakat o'z xususiyatiga va mamlakat uchun qandaydir optimal qiymatga ega, ya'ni mamlakat barcha ko'rsatkichlar bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi mumkin emas.

AQSh misolida ko'rgazmali hisob-kitoblarni amalga oshiramiz. Nima uchun biz ushbu mamlakatni tanladik? Buning bir necha sabablari mavjud: birinchidan, bu jahoning bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan eng rivojlangan mamlakati, ikkinchidan, so'nggi yillarda u JIFning jahonda mamlakatlarning raqobatbardoshligi bo'yicha reytingida yuqori mavqelarni egallagan. Aynan AQShda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha 2015 yilgacha mo'ljallangan strategik dasturlar qabul qilinganligi va AQSh ma'muriyatini tomonidan mazkur dasturlarning amalga oshirilishiga juda katta e'tibor qaratilishi ham muhim omil hisoblanadi. Ushbu dasturlarda barcha ko'rsatkichlarni, ayniqsa inson salohiyatini rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik ishlari (ITTKI) ni ko'chaytirishga doir ko'rsatkichlarni yaxshilash chora-tadbirlari ko'zda tutilgan.

Ko'rsatkichlarning ushbu tarkibidan dastlabki uchtasi eng muhim, chunki ular jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, demak, ular milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini belgilab beruvchi strategik ko'rsatkichlardir. Lekin ko'rsatkichlar qiymatini baholashda «Mamlakat aholisi turmushining sifati» ko'rsatkichini biz jamiyatni rivojlantirishdan maqsad aholining farovonligini oshirishdan iboratligidan kelib chiqqan holda uchinchi

ko‘rsatkichdan yuqoriga qo‘ydik. Shunday qilib, mamlakat aholisi turmushining sifati muhim samarali ko‘rsatkich hisoblanadi.

Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari quyidagilar bilan aniqlanadi:

- birinchi bosqichda – ishlab chiqarish omillari: tabiiy resurslar, tovarlar ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar, malakali ishchi kuchi hisobidan (bir determinant bilan ta'minlanadi);
- ikkinchi bosqichda – ta'lim, texnologiya, lisenziyaga tajavvuzkor investisiyalash asosida (bir deteminant bilan ta'minlanadi);
- uchinchi bosqichda – «romb»ning barcha tarkibiy qismlarining amal qilishi yo‘li bilan mahsulotning yangi turlarini, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, tashkiliy qarorlar va boshqa innovasiyalar hisobidan;
- to‘rtinchi bosqichda – tashkil etilgan boylik hisobidan va to‘liq foydalanmayotgan barcha determinantlarga tayanadi.

7.2. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari.

Monopoliya atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya’ni, yunoncha “monoc” — yagona, tanho. bitta va “poleo” — sotaman) tarkib topsada, uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi. Monopoliyanı quyidagicha ta’riflash o‘rinli: monopoliya — monopol yuqori narxlarni o‘rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalarning birlashmalari.

Monopoliya — iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik; bozorni tashkil etish shakli. Bunday bozorlarda yagona sotuvchi o‘z tovari bilan faoliyat ko‘rsatadi, boshqa tarmoqlarda bunday tovarning o‘ribbosari bo‘lmaydi. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining ozchilik korxonalar, sohibkor shaxslar yoki davlat qo‘lida to‘planishi natijasida paydo bo‘ladi.

Monopoliya ko‘rinishlari qadimdan mavjud. Noyob mahsulot yetishtiriladigan yerlar, konlar, suv havzalari, o‘rmonlar va boshqa tabiiy manbalar ozchilik qo‘lida to‘planib, egalariga monopol mavqe bergen, ular ma’lum mahsulotni bozorga tanho yetkazib beruvchilarga aylanib, u yerda hukmron bo‘lganlar.

Monopoliya o‘z tabiatiga ko‘ra ishlab chiqarishda turg‘unlik paydo qiladi, chunki monopol mavqega tayanib, sarflarni kamaytirmay foyda ko‘rish,

raqobatning yo‘qligi yoki zaifligidan foydalanib bozorga o‘z izmini o‘tkazish mumkin. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi, shu sababli hatto bozor iqtisodiyoti hukmron davlatlar monopoliyaga qarshi choratadbirlarni ko‘radilar. Monopolianing asosiy shakllari — kartel, sindikat, trest, konsernlar hisoblanadi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to‘planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to‘planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishini namoyon etadi.

Monopoliyalarning turlarini bir nesha mezonlarga ko‘ra ajratish mumkin.

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko‘ra:

- sof monopoliya
- oligopoliya
- monopsoniya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab shiqravshи yoki sotuvchining narx va ishlab shiqrish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O’zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O’zbekiston havo yo’llari» DAK, «O’zbekiston temir yo’llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab shiqrish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o‘z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba’zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab shiqravchilar sonining ko’payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo’ladi. Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko’p hamda ular o’rtasida ma’lum darajada raqobat mavjud bo’lgan, biroq har bir ishlab shiqravvchi yoki sotuvchi o‘z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma’lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida ko’plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab shiqravshilarini keltirish mumkin.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab shiqrish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O’zbekistonda tsement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko’mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg’un) va Boysun (To’dar) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvshi yoki sotuvchilar soni juda ko’p bo’lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste’molchisi yoki xaridori mavjud bo’lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Bunga “UzAuto

Motors (GM Uzbekistan)” korxonasi yaqqol misol bo’la oladi. Mazkur yirik korxona mamlakatimizdagi yengil avtomobilarni ishlab chiqarishda zarur bo’lgan ko’plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab shiqaruvchilaridan sotib olishda yakkahukmonlik mavqeiga ega bo’ladi.

Monopoliya vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko’ra quyidagilarga bo’linadi:

- tabiiy monopoliya;
- legal monopoliya;
- sun’iy monopoliya.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab shiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo’lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo’lgan mulkdorlar va xo’jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o’ziga xos texnologiyaning qo’llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo’lmaydigan ba’zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo’lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo’lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab shiqarish hajmining ko’payib borishi bilan tovar birligiga to’g’ri keluvchi xo’jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo’ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya sub’ektlari tomonidan ishlab shiqarilgan mahsulotlar iste’molini boshqa turdagи mahsulotlar bilan almashtirib bo’lmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvshi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvshi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

1) patent tizimi – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutloq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

2) mualliflik huquqi – ilmiy, badiiy va san’at asarlari, ijro san’ati fonogrammalari, ko’rsatuvlar, efir to’lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o’z mahsulotlarini ma’lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko’paytirishga ruxsat berish imkonini ta’minlaydi;

3) tovar belgilari – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzları, nomi va boshqalarni ro'yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yisha paydo bo'lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvshi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish ushun) nomi.

Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o'zgartiradi, ya'ni:

- bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik ushun turli to'siqlar hosil qiladi (xom ashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalarga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);
- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarini bu darajaga shiqishiga imkon bermaydi;
- ishlab shiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvshi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;
- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib shiqarishga harakat qiladi.

Sun'iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsortsium, kontsern kabi aniq shakllarda namoyon bo'ladi.

Kartel – bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarning uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab shiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab shiqarish umumiyligi hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi va h.k. bo'yisha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdag'i mahsulot ishlab shiqaruvshti bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab shiqarilgan mahsulot maxsus tashkil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab shiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsortsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda kata miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish).

Kontsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo’lgan, ko’p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuini o’z ichiga oluvshi birlashma. Odatda bunday birlashma ma’lum ishlab shiqarish faoliyatini bosqishma-bosqish ravishda amalga oshirish uchun zarur bo’lgan turli soha korxona va tashkilotlaridan tuziladi. Bunda bosh tashkilot qolgan ishtirokchilar faoliyati ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozirda sun’iy monopoliyalarning sanab o’tilgan shakllari orasida kontsernlar keng tarqalgan.

Monopolianing iqtisodiy taraqqiyotga ta’sir qiluvshi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning ijobiy tomoni asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo’ladi:

1) monopoliya ma’lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi;

2) monopolist bo’lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko’proq rag’bat va imkoniyat mavjud bo’ladi.

Monopolianing salbiy tomoni sifatida quyidagi jixatlarni ko’rsatish mumkin:

1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi;

2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi;

3) iqtisodiy turg’unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi;

4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to’sib qo’yilishi.

Bundan ko’rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiyjt rivojlanishiga ancha jiddiy ta’sir ko’rsatishi, taraqqiyot yo’liga g’ov bo’lishi ham mumkin. Shunga ko’ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo’llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat deb ataladi.

7.3. Davlatninr iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilish tajribalari.

Monopoliyaga qarshi siyosat — davlatning monopoliyaga qarshi kurash siyosati. Dunyo tajribasiga ko’ra, Monopoliyaga qarshi qonunchilik, asosan, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha shakllandи.

Birinchidan, ishlab chiqarish (tarmoq)ni boshqaruvchi qonunlar. Bu qonunlarga binoan, odatda, hech bir korxona (korporatsiya)ning biror turdagи

mahsulot ishlab chiqarishning yarmidan ortig‘ini nazorat qilishga huquq berilmaydi.

Ikkinchidan, barcha yirik korporatsiyalar ishtirokchilari boshqa korporatsiyalar aksiyalarining ma’lum cheklangan miqdoridan ortig‘iga ega bo‘la olmasligi belgilab qo‘yiladi.

Uchinchidan, narxlarni bozor muvozanati belgilagan darajadan yuqori yoki past turishini, narx ustidan kelishib olishni taqilovchi kartellarta karshi qonunlar joriy qilinadi.

Davlatning monopoliyalarga qarshi siyosati milliy iqtisodiyotida raqobat oddindan shakllanib bo‘lgan mamlakatlarda raqobatchilik muhitini takomillashtirishga, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda esa bu muhitni shakllantirishga qaratilgan.

Bozorda monopoliyani o‘rnatishga urinishlar va monopol mavqeni suiiste’mol qilishni taqiqlaydigan trestlarga qarshi birinchi qonun — Sherman qonuni AQShda 1890-yilda qabul qilingan. Monopoliyaga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar har bir mamlakatda sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi.

Rivojlangan barcha davlatlarda sog‘lom raqobat muhitini himoya qilish maqsadida turli ko‘rinishdagi, monopolistik foaliyatlar ustidan davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladi. Mac, AQShda monopoliyaga qarshi davlat siyosati —Federal savdo komissiyasi va Adliya departamentining trestlarga qarshi boshqarmasi, Rossiyada — Monopoliyaga qarshi siyosat va tadbirkorlikni qo‘llabquvvatlash vazirligi, Yaponiya va Janubiy Koreyada — Halol raqobat bo‘yicha komissiya, Yevropa Ittifoqida esa — Raqobat bo‘yicha komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi organ 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi sifatida tashkil qilindi.

1996-yil 15-mayda ushbu boshqarma negizida Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil etildi.

2000-yil 2 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida"gi farmoniga asosan monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarilib, mustaqil davlat qo‘mitasiga aylantirildi.

O‘zbekiston davlatining raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa

shakllarini vujudga keltirish asosiy o‘rin tutadi. Xususiy lashtirish natijasida, birinchidan, mulk o‘z egalari qo‘liga topshirilsa, ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muxiti vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 4 maydagi PF-3603-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasining nomini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirdorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasining nomi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasi deb o‘zgartirildi.

Institutsional va tarkibiy islohotlarni jadallik bilan amalga oshirish, davlat aktivlarini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish, kapital bozorining ishonchli ishslash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligini tashkil etildi.

Respublikada monopol mavqeiga ega bo‘lgan korxonalarni Davlat reestriga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o‘tish davrining o‘ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Hozirgi davrda Respublikada agar korxona ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagи mahsulotning 35% dan ortiq bo‘lsa, bu korxona monopolistik korxona sifatida Davlat reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalar ro‘yxatiga kirgan korxona yoki tarmoqlarning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi:

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo‘yish.

2. O‘z monopol mavqeini suiiste’mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo‘lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994 yil iyuldagи 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Ob’yektlarning xo‘jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining «Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» (1996 yil, aprel) qonuni asosida g‘irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo‘l qo‘ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e’tibor beriladi.

Tabiiy monopoliyalarni davlat yo‘li bilan tartibga solish, mahsulot va xizmatlariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko‘rsatkichlarni belgilashni o‘z ichiga oladi.

Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Monopoliyaga qarshi qonunchilik davlatning monopoliyaga qarshi kurash siyosati demakdir. Monopoliyaga qarshi qonunchilik asosan, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha shakllandi.

Birinchidan, ishlab chiqarish (tarmoq)ni boshqaruvchi qonunlar. Bu qonunlarga binoan, odatda, hech bir korxona (korporatsiya)ning biror turdag'i mahsulot ishlab chiqarishning yarmidan ko‘pini nazorat qilishga huquq berilmaydi.

Ikkinchidan, barcha yirik korporatsiyalar ishtirokchilari boshqa korporatsiyalar aksiyalarining ma'lum cheklangan miqdoridan ortig‘iga ega bo‘la olmasligi belgilab qo‘yiladi.

Uchinchidan, narxlarni bozor muvozanati belgilagan darajadan yuqori yoki past turishini, narx ustidan kelishib olishni ta’qiqlovchi kartellarga qarshi qonunlar joriy qilinadi.

Bozorda monopoliyani o‘rnatishga urinishlar va monopol mavqeni suiste’mol qilishni taqiqdaydigan trestlarga qarshi birinchi qonun-Sherman qonuni AQShda 1890 yilda qabul qilingan. Monopoliyaga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan chora tadbirlar har bir mamlakatda sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi. Bunda sog‘lom raqobat muhitini himoya qilish maqsadida turli ko‘rinishdagi, monopolistik faoliyatlar ustidan davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladi.

Kleyton qonuni – (1914 y) – istemolchilarni narx orqali qochirish, majburiy shartnomalar tuzish, raqobatni korxonalarining zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni sotib olish ta’qiqlanishidan iborat.

Seller –Kefaver qonuni – (1950 y) bu qonunda Kleyton qonuniga o‘zgartirish kiritilgan bo‘lib, unda nafaqat raqobatni korxonalarining zaiflashuviga olib keluvchi aksiyalarni, balki ishlab chiqarish vositalarini sotib olish ham ta’qiqlanadi.

Monopoliyaga qarshi faoliyatni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari:

- bozorning monopollashuvini cheklash;
- raqobatchi kompaniyalar qo‘shilishini ta’qiqlash;
- monopol narxlar belgilanishini ta’qiqlash;

-raqobatni madaniylashgan tarzda olib borishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Tartibga solinadigan narx o‘rtacha umumiy xarajatlarga teng bo‘lsa, monopolist hech qanday iqtisodiy foyda olmaydi.

Iqtisodiy monopoliyalar-ishlab chiqarish va kapitalning to‘planishi hamda korxonalarning turli yo‘llar bilan birlashishi natijasida vujudga keladi. Masalan kartelni olaylik. Kartel bu – bir tarmoq korxonalarning ittifoqi bo‘lib, uning ishtirokchilari to‘liq iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoladi, faqat ishlab chiqarish hajmi, sotish bozorlari va baholari to‘g‘risida kelishib oladilar. Yoki sindikatni olaylik.

Sindikat – bir turdagи mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonlar birlashmasi bo‘lib, uning a’zolari ishlab chiqarish soxasida mustaqilligini saqlab qoladi, mahsulot esa sindikat Mulki sifatida sotiladi. Qolaversa ishlab chiqarish vositalari va mahsulotga birgalikda egalik qiluvchi korxonalar guruhi bo`lib, foyda qo‘shilgan capital hajmiga qarab ham taqsimlanishi mumkin.

Amalda, monopolistlar yuqori foyda olish maqsadida xarajatlar kamaytirib, chekli iqtisodiy xarajatlar ba’zi talablaridan amalda foydalanmay bu muammodan qutulishga harakat qiladi. Monopoliya bilan shug‘ullanish uchun hukumat tomonidan ishlataladigan uchinchi siyosat davlat mulk siyosati hisoblanadi.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining qarori (19.04.2019 yilda 3155-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) bilan Qonun hujjatlarining raqobatga ta’sirini baholash metodikasi tasdiqlandi.

Raqobatga ta’sirni baholash chog‘ida tovar va moliya bozorlarida raqobatni bevosita yoki bilvosita cheklaydigan holatlar aniqlanadi. Bunda baholash ikki xil usul asosida amalga oshiriladi:

- «ex-ante» – qonunlar, Prezidentning, Oliy Majlis palatalarining, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezidentning farmonlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari loyihalariga (bundan keyin – NHH loyihalari) nisbatan;

- «ex-post» – amaldagi qonun hujjatlariga nisbatan NHH loyihalarini baholash.

Metodikaga ko‘ra, NHH loyihasi quyidagi oqibatlarning biriga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lganda uning ta’siri raqobat uchun salbiy deb baholanadi:

- tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning doirasi va sonini cheklasa;

- yetkazib beruvchilarning o‘zaro raqobatlashish imkoniyatini chegaralasa yoki ularning bunga qiziqishini pasaytirsa;
- iste’molchilar uchun kerakli axborotni tanlash imkonini chegaralasa.

NHH loyihalarida muayyan ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa, baholash uchun Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga (yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan NHH) yoki uning hududiy bo‘linmalariga (mahalliy hokimiyat organlarining hujjatlari loyihalari) kiritiladi.

Masalan:

- ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlar va litsenziyaning yangi turlarini joriy etish;
 - bozor ishtirokchilarida ortiqcha xarajatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan talablar yoki shartlarni kiritish;
 - tabiiy monopoliya sub’yektlarining tovar (ish, xizmat)lari narxi (tarifi)ni, shuningdek boshqa tartibga solinadigan narx (tarif)ni oshirish va h.k.
- Jami 10 banddan iborat.

Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatning amalga oshirilishi

Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to‘sinqinlik qilib, iqtisodiy rivojlanishga ancha jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi, taraqqiyot yo‘liga g‘ov bo‘lishi ham mumkin. Shunga ko‘ra, deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo‘llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosatning mazmunini tashkil etadi.

Davlatning antimonopol siyosati – monopoliyalar faoliyatini cheklash, tartibga solish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishga qaratiladi.

Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan.

Iqtisodiyotda monopolashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o‘z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya’ni iqtisodiyotning monopolashuv darajasi, uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo‘lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Bular asosan antimonopol qonunchilik yordamida hal qilinadi. Juhon tajribasida bunday qonunchilik 120 yildan ortiq davr davomida rivojlanib kelgan.

Hozirgi davrda, erkin raqobatni himoya qiluvchi qonunchilik bitimlari G‘arbiy Yevropaning barcha mamlakatlarida mavjud. Ularda mazkur qonunchilik ikki yo‘nalishga ega: narxlar va kompaniyalar qo‘shilishi ustidan nazorat qilish.

Antimonopol tartibga solish takomillashmagan va muayyan xarajatlar bilan birga borsa-da, ular bozor iqtisodiyotida monopolistik tamoyillarni cheklashga olib keladi. Monopolialarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar boshqa mamlakatlarda ham sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi.

Antimonopol qonunchilik quyidagi qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

1. Sherman qonuni (1890y.) Bu qonun kartel bitimlarini noqonuniy deb hisoblaydi, savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo‘lga olish, narxlar bo‘yicha kelishuvlarni taqiqlaydi. Bu qonun asosan savdo va tijorat faoliyatining monopolashuviga qarshi yo‘naltiriladi. Hamda erkin savdoni cheklashga qaratilgan kelishuvlarning har qanday shakliga taqiq qo‘yadi. Mazkur qonunda jazo chorasi sifatida jarimalar, zararni qoplash, qamoqqa olish va hatto aybdor firmani tugatishni ham ko‘zda tutadi. Bu qonunning eng muhim xususiyati mavjud faoliyat qilib turgan monopolialarga qarshi kurashga qaratiladi. Uning kamchiligi asosiy qoidalar noaniqligi, qonunning bajarilishini nazorat qiluvchi doimiy muassasa yo‘qligi va antimonopolistik tadbirlarning profilaktik xarakterga ega bo‘lganligidir.

2. Kleyton qonuni (1914y.) Bu qonun savdo amaliyotida kamsitishni, mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo‘yicha kamsitish, ma'lum ko‘rinishdagi birlashib ketishlar, o‘zaro bog‘lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi. Bu kamchiliklar ma'lum darajada bartaraf qilinib qolinmasdan, balki trestlarga qarshi qonunchilikka doir asosiy tushunchalar aniqlashtirildi va monopolialarga qarshi faoliyat tushunchasi kengaytirildi. Xususan, monopolistlar o‘zaro ta'sirining moliyaviy jihatlariga hamda monopol hokimiyatichilikni tiklashga asosiy e'tibor qaratildi. Trestlarga qarshi qonunlarning bajarilishini nazorat qilish hukumat Federal savdo komissiyasiga yuklatiladi. Shu qonun tufayli “monopol kasallik” deb nomlangan profilaktik tadbir kengaydi.

3. Robinson-Payman qonuni (1936y.) Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo‘yicha kamsitishlar va boshqa shu kabilarni taqiqlaydi. AQShdagi trestlarga qarshi mavjud qonunchilik ko‘proq darajada boshqa mamlakatlarda ham antimonopol qonunchilikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

4. Unler-Li qonuni (1938y.) Savdo bo‘yicha federal komissiyaga “savdoda chalg‘itishga olib keladigan harakatlarni” nazorat qilish bo‘yicha qo‘shimcha majburiyat qo‘ydi. Natijada komissiya iste'molchini reklama va yolg‘on ma'lumot natijasida jabr ko‘rishdan himoya qilish vazifasini oldi. Unler-Li qonuni iste'molchilar huquqini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur qonun yolg‘on reklama va ma'lumotlarni soxtalashtirishga qarshi qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

5. 1950-yilda Kleyton qonuniga Keller-Kefover tuzatishi kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga to'siq qo'ygan bo'lsa, Keller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi[35]. Unda moddiy aktivlar sohasida monopoliyalar o'zaro ta'siriga e'tibor qaratadi. AQShda XX asr 80-yillarining birinchi yarmida monopoliyalarga qarshi qabul qilingan yo'riqnomalar hujjalarda Xorfindal-Xirishman indeksidan foydalananib tarmoqlar konsentratsiyalashuvining normativlarini o'rnatdi. Agar bu indeks 1000 dan yuqori bo'lmasa, bozor kuchsiz konsentratsiyalashgan, 1800 dan yuqori bo'lsa kuchli darajada konsentratsiyalashgan deb tan olingan.

Ayni vaqtda bir qator tarmoqlarda (gaz-ta'minoti, elektr ta'minoti va hokazo) tabiiy monopoliyalardan holi bo'lish qiyin. Shu sababli, davlat ularga nisbatan bevosita yoki bilvosita tartibga solish dastak va vositalarini qo'llashga majbur bo'ladi.

Tabiiy monopoliyalar – ishlab chiqarishning texnologik xususiyatiga ko'ra raqobat mavjud bo'lmasan sharoitda talabni qondirishning o'ziga xos bozor tuzilmasidir. Tabiiy monopoliyalar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar iste'molda boshqa tovarlar bilan almashtirilishi mumkin emas. Bunday tovarlarga talabning o'zgarishiga ular narxining o'zgarishi kam darajada ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy monopoliyalar ob'ektiv sabablarga ko'ra vujudga keladi. U aynan olingan biron-bir tovarga talab bir yoki bir nechta ishlab chiqaruvchilar tomonidan samarali darajada qondiriladigan vaziyatni ifodalaydi. Tabiiy monopoliyalarning asosi – ishlab chiqarish texnologiyalari va iste'molchilarga xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlaridir. Bu yerda raqobatni qo'llash mumkin emas yoki uni qo'llash samarasiz. Masalan, energiya ta'minoti, aloqa xizmati ko'rsatish va shu kabilar o'z tabiatiga ko'ra bozorda monopol mavqeni egallaydi.

Tabiiy monopoliyalar quyidagi sohalarda faoliyat ko'rsatadi:

- magistral truba o'tkazgichlarda gaz, neft va neft mahsulotlarini jo'natish;
- elektr va issiqlik energiyasini uzatish xizmati;
- temir yo'l transporti;
- transport terminallari, aeroport, suv portlari xizmati;
- aloqa, pochta xizmati va hokazo.

Qayd qilingan monopol tuzilmalarning asosiy belgilari quyidagilar:

- faoliyat qilish tartibini o'rnatish, amalga oshirish va to'xtatishning huquqiy asoslanganligi;

- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishining chegaralanganligi;
- monopoliya sub'ektlari umumiy huquqiy mavqega ega bo‘lgan holda, ular huquq va majburiyatlarining o‘ziga xosligi;
- monopoliyalar faoliyatini tartibga solishning yaxlit tizimi mavjudligi;
- tabiiy monopoliya sub'ektlari tomonidan ishlab chiqariladigan tovar (xizmat)lar boshqalari bilan almashtirilishi mumkin emasligi, ularning o‘rnini bosuvchisi mavjud bo‘lmashigi;
- mazkur tovarlar bozorida talabning noelastikligi, uning doimiy barqarorligi. Bu ularga narx (ta’rif) oshgan taqdirda ham, talab o‘zgarmay qolishini anglatadi.

Umumiy holda tabiiy monopoliyalar texnologiyalardagi xususiyatlar tufayli tarmoq yoki sohaga raqobatchilarning kirishi uchun to‘siqlarning mavjud bo‘lishi yoki davlat yaratib bergen imtiyozlar natijasida vujudga keladi va faoliyat ko‘rsatadi.

Davlat tabiiy monopoliyalarni tartibga solish maqsadida ularning mahsulot (xizmat) lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko‘rsatkichlarni nazorat qiladi.

Davlatning tabiiy monopoliyalarni tartibga solish usullarini qo‘llashidan maqsad quyidagilardan iborat:

- tabiiy monopoliyalarning sodir etishi mumkin bo‘lgan monopol holatini suiiste'mol qilishini oldini olish;
- iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish;
- jamiyat manfaatlari yo‘lida monopol tarmoq ishlab chiqarishining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu maqsadlarga erishish iqtisodiyotda joriy etilgan tartibga solish usullarining qanchalik samarali ishlashini hamda har qanday davlatda qabul qilingan nazorat qilish mexanizmlarining optimal tashkil etilganligiga bog‘liq.

Monopol faoliyatni tartibga solish – bu davlatning ishlab chiqaruvchilarning bozorni monopollashtirish imkoniyatini cheklash maqsadida amalga oshiradigan qonunchilik, ma’muriy va iqtisodiy tavsifdagi chora-tadbirlaridir.

Antimonopol qonunchilik dastlab AQShda qabul qilinib, keyin barcha industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlarga keng yoyilgan. Mazkur qonunchilik asosida maxsus antimonopol muassasa (qo‘mita) tashkil qilinib, u davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatini amalga oshiradi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bozor tuzilishini joriy tahlil qilish;

- monopollashuv omillarini aniqlash;
- antimonopol qonunchilikni amalga oshirish;
- sohaga tegishli qonun va hukumat qarorlarini ekspertizadan o'tkazish;
- monopolist korxonalarga sanksiyalar qo'llash;
- monopoliyalarni bo'lish va qayta tashkil qilish bo'yicha takliflar berish.

Ma'muriy chora-tadbirlar dekartel va detrest tavsifiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Germaniya va Yaponiya iqtisodiyotida ikkinchi jahon urushidan keyin ana shunday tadbirlar qo'llanilgan. Iqtisodiy tadbirlar odatda monopol ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga narx o'sishini cheklashga qaratiladi va tegishli narx siyosatini taqozo etadi. Narx siyosati ijtimoiy xizmatlardan tashqari tovarlarning ko'pchilik guruhiga narxlarni erkinlashtirishni ko'zda tutadi. Bu siyosatning asosiy maqsadi milliy bozorga chet ellik ishlab chiqaruvchilarning kirib kelishini yo'l qo'yiladigan darajada nazorat qilish asosida raqobatni rag'batlantirish, mavjud monopoliyalarga qarshi turuvchi raqobatchi korxonalarini moliyaviy, soliq va kreditli vositalar orqali rag'batlantirish, ishlab chiqarishni diversifikasiyalash uchun shart-sharoit yaratishdir.

Davlatning monopoliyalarga qarshi amalga oshiradigan iqtisodiy chora-tadbirlarini quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

- monopol mahsulot o'rmini bosuvchi ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- xorijiy investisiyalarni jalb qilish, qo'shma korxonalar va erkin savdo zonalari tashkil qilish;
- taqchil tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha tadbirlarni davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirish.

Davlatning monopoliyalar faoliyatini tartibga solish usullari quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga qaratiladi:

- bozorning monopollashuvini cheklash;
- doimiy davlat monitoringini amalga oshirish;
- monopol narxlar o'rnatilishini taqiqlash;
- raqobatni saqlash, ya'ni raqobatchi kompaniyalar qo'shilishiga yo'l qo'ymaslik.
- raqobatning zamонави shakllarda amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash.

Davlat monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda uning ijobiy tomonlari va salbiy oqibatlarini hisobga olish taqozo qilinadi. Monopoliyalarning ijobiy tomonlari bu, eng avvalo, ular mahsulotining yuqori sifat bilan farqlanishidir. Bundan tashqari, monopoliyalarning yirik ko‘lami harakatlar va barcha turdag'i resurslarni tejash imkonini beradi. Monopolistik tuzilmalar ishlab chiqarishga katta miqdordagi moddiy va moliyaviy xarajatlarni taqozo qiladigan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini tez joriy qilish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

Monopoliyalarning salbiy tomonlari: Bozordagi mavqeい va monopol narxlar tufayli yuqori foydaga egalik qilib, mahsulot chiqarish hajmini cheklaydi, raqobat kuchsiz bo‘lgan yoki umuman mavjud bo‘lmagan sharoitda fan-texnika taraqqiyoti hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun rag‘batlarni ham yo‘qotadi.

Jamiyatda daromadlar tengsizligini kuchaytiradi. Bunga qo‘sishimcha monopol yuqori foydani o‘zlashtirish aholi boshqa qatlamlari daromadlarining nisbatan kamayib borishini anglatadi. Monopoliyalar iqtisodiy sohada nomonopol tizimlarni o‘zlarining kansitilgan sharoitlariga bog‘lab erkin va sof raqobatga qarshi turadi. Siyosiy sohada oligarxlar ommaviy axborot vositalarini sotib olib, saylovoldi kompaniyalari paytida siyosiy partiyalarni moliyalashtirib, parlament va hukumatga o‘zlarining tarafdarlarini kiritib qulay shartnomalar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa qulayliklarga ega bo‘lib jamiyatning boshqa a'zolari manfaatlari, huquq va erkinliklari kansitilishiga olib keladi.

Monopoliyalar mavjud bo‘lishining ijobiy va salbiy jihatlari tahlili, ular ham bozor iqtisodiyotining zaruriy tarkibiy qismi ekanligini anglatadi. Shundan kelib chiqib, davlatning vazifasi monopoliyalarni siqib chiqarish emas, balki monopoliya va raqobatni jamiyat manfaatlari uchun oqilona uyg‘unlashtirishga qaratilishi zarur.

7.4. O‘zbekistonda davlatning raqobatni rivojlantirish siyosati

Hozirgi davrda: “iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko‘rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish” davlat antimonopol siyosatining asosini tashkil qiladi.

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhitini uzoq davr davomida, evolyusion yo‘l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Bizning respublikada sog‘lom raqobatga sharoit yaratish, iqtisodiy sub'ektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o‘tganlaridek: «Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Raqobat bo‘lmasa bozor iqtisodiyotini barpo etib bo‘lmaydi».

Raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir.

O‘zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o‘rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o‘z egalari qo‘liga topshirilsa, ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi.

Raqobatchilik muhitini vujudga keltirish xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘lidagi mavjud to‘sqliarni bartaraf etishni anglatadi. Bu iqtisodiyotda monopol tuzilmalar faoliyatini tartibga solishni ham taqozo etadi. Bunday tartibga solishning zaruriy sharti uning me'yoriy huquqiy asoslarining yaratilishidir.

«Monopol faoliyatni cheklash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga (1992 yil) ko‘ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarining bozorga kirib borishiga to‘sinqilik qilish, raqobatning g‘irrom usullarini qo‘llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga yetkazgan zararni qoplashlari, jarima to‘lashlari, g‘irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

Respublikada monopoliyaga qarshi faol choralarni amalga oshirish uchun Moliya vazirligi tizimida monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish boshqarmasi tuzildi. Boshqarmaga ro‘yxatga kiritilgan monopol mavqedagi korxonalar mahsuloti bo‘yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turish huquqi berildi. Respublikada monopol mavqega ega bo‘lgan korxonalarini Davlat Reestriga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o‘tish davrining o‘ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyat sohasidagi ahamiyatli o‘zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan (1996 yil 27 dekabrda) «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat

to‘g‘risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g‘irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to‘xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilishini ta‘minlashga qaratilgan. Shuningdek, mazkur qonunda mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeini suiste‘mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko‘zda tutsa, ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish zarurligi belgilab qo‘yilgan.

Mazkur qonun monopoliyalarning amal qilishini taqiqlamay, balki bozorda ularning hukmronligi oqibatida kelib chiquvchi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan. Qonunda ko‘zda tutilgan taqiqlar ham rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun O‘zbekiston va boshqa o‘tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xos bo‘lgan monopolist tuzilmalar xatti-harakatiga qarshi o‘rnatalgan.

Quyidagi xatti-harakatlar monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid hisoblanadi:

- xo‘jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan bozordagi ustunlik mavqeining suiste‘mol qilinishi (5-modda);
- xo‘jalik sub'ektlarining raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlari (o‘zaro kelishilgan xatti-harakatlari) (6-modda);
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyat organlarining raqobatni cheklashga yo‘naltirilgan xatti-harakatlari (7-modda);
- g‘irrom raqobat (8-modda).

Respublikada agar korxona ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagи tovarlarning 35 foizidan ortiq bo‘lsa, bu korxona monopolistik korxona sifatida Davlat Reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20 foiz deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalar ro‘yxatiga kirgan korxona (tarmoq) larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko‘rsatish lozim:

1. Monopol mavqeидаги korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo‘yish.

2. O‘z monopol mavqeini suiiste‘mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo‘lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Mahkamasining (1994 yil 18 iyuldagи 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Ob’ektlarning xo‘jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi.

Respublikada raqobatchilik muhitini shakllantirish maqsadida va davlatga qarashli bo‘lmanan sektorni qo‘llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish fondi tashkil etildi. Raqobatchilik muhitini shakllantirishga ko‘plab xalqaro tashkilotlar ham faol qatnashmoqda. Jumladan, YuNIDO yordamida bir nechta biznes inkubatorlar tashkil etildi. Yevropa jamiyati Komissiyasi Amaliy aloqalar markazi, Germaniya texnikaviy ko‘maklashuv jamiyati kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash markazi tashkil etildi. Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar rivojlangan bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tabiiy monopoliya sub'ektlari faoliyati ustidan nazorat qilishning bir qator usullari qo‘llaniladi. Ularning huquqiy asosi va tartibi O‘zbekiston Respublikasi «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi qonun (9-moddasi)da belgilangan bo‘lib, «tabiiy monopoliya sub'ektlari faoliyati ustidan davlat nazorati monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi».

O‘zbekistonda barcha monopoliyalar faoliyati ustidan nazorat qiluvchi organ bu – O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi hisoblanadi.

Monopoliyaga qarshi davlat organlari tabiiy monopoliyalarning quyidagi faoliyatlar ustidan nazorat qiladi:

1) tabiiy monopoliya sub'ekti asosiy vositalarga nisbatan mulk huquqini yoki foydalanish huquqini qo‘lga kiritadigan bitimlar ustidan (agar bunday asosiy vositalarning balans qiymati tabiiy monopoliya sub'ekti o‘z kapitali qiymatining 10 foizdan ortiq bo‘lsa);

2) tabiiy monopoliya sub'ekti asosiy vositalarning bir qismiga nisbatan mulk huquqini yoxud ularga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini xo‘jalik yurituvchi boshqa sub'ektga o‘tkazadigan bitimlar ustidan (agar bunday asosiy vositalarning balans qiymati tabiiy monopoliya sub'ekti o‘z kapitali qiymatining 10 foizdan ortiq bo‘lsa);

3) iste'molchilarga realizasiya qilinadigan tovarlar hajmi bo‘yicha shartnomalarga rioya etilishi ustidan;

4) tovarlar narxini chiqarish hamda narxlar (tariflar)ni qo‘llash tartibiga rioya etish ustidan;

5) tabiiy monopoliya sub'ektlarining tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi ustidan.

Nazoratning boshqa bir xil usuli – bu tabiiy monopoliya sub'ektlarining qiladigan ayrim xatti-harakatlari uchun tegishli ruxsat olish yo‘li bilan amalga

oshirilib turiladi. Ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, agar tabiiy monopoliya sub'ektlari o'zining o'n foizdan ortiq balans qiymatiga ega bo'lgan asosiy vositalarini tasarruf etish yuzasidan tuziladigan bitimlari, yoxud ularni egalik qilish bilan bog'liq harakatlari uchun oldindan monopoliyaga qarshi davlat organiga tegishli axborot hamda bunday harakatlarni amalga oshirishga rozilik so'rab iltimosnama taqdim etishi shart, deb belgilab qo'yilgan.

Agar bunday harakatlar monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan muvofiq emas deb topilsa, rad etilishi ham qonunda o'z aksini topgan.

Bunday nazoratning o'rnatilishidan maqsad, tovar bozorlaridagi kompaniyalar monopol mavqeining yanada oshib ketishi, mutlaq hukmronligiga olib kelishi, iste'molchilarining haq-huquqlariga ziyon keltirish xavfining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotida tabiiy monopoliya sub'ektlariga nisbatan o'rnatilgan bunday nazorat usullari jahon amaliyotiga mos keladi va ular tabiiy monopoliya sub'ektlarining o'z ustun mavqeini suiste'mol qilishlarini oldini olishga, belgilangan narxlarni asossiz oshirishlarini oldini olishga, iste'molchi manfaatlariga mos ravishda sifatli xizmat qilishga, tovar bozorlaridagi ularning ustun mavqeini qattiq boshqarib turishga qaratilgan.

Nazorat savollari:

1. Raqobatning mohiyati va usullari.
2. Mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligining namoyon bo'lishi qanday shakllarga ega?
3. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning qanday asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin?
4. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari.
5. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari.
6. Davlatninr iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo'nalishlari, usullari.
7. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilish tajribalari.
8. O'zbekistonda davlatning raqobatni rivojlantirish siyosati.

8-mavzu. Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari

REJA:

8.1. Mintaqaviy iqtisodiyot.

8.2. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, prinsiplari va maqsadlari.

8.3. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqaish kuchlarini joylashtirish.

8.4. O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatini o‘ziga xos xususiyatlari.

8.1. Mintaqaviy iqtisodiyot

Mintaqaviy iqtisodiyot muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o‘rganadi. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko‘pgina iqtisodiy omillarni (mehnat unumдорлиги о‘sishi, milliy daromadni hududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baho va tariflarning hududiy tafovutlari va h.k.) chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Mintaqaviy iqtisodiyot bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy uslublardan foydalaniлади. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

1. Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘tishi munosabati bilan mintaqaviy iqtisodiyot fanining ahamiyati ortib bormoqda. Mintaqalarni o‘rganishda hozirgi paytda ularda ro‘y berayotgan holatni chuqur (qaysi jihatlari ortayotganini) tushunish lozim. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida O‘zbekistonдagi har bir mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha. Masalan, Toshkent shahri, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari asosiy xalq xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishiga ko‘ra respublikaning boshqa mintaqalaridan oldinda turadi. Aksincha, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha quyi o‘rnlarni egallaydi.

2. Qishloq xo‘jaligida ortiqcha ishchi kuchlari mavjudligi – Farg‘ona vodiysi viloyatlari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sirdaryo va Jizzax

viloyatlarida esa, aksincha, qishloq xo‘jaligini xodimlar bilan ta’minlash jiddiy muammo bo‘lib turibdi. Navoiy viloyatida ishsizlik darajasi yuqori.

Hozirgi vaqtdagi mintaqaviy siyosatning muhim vazifalaridan yana biri – iqtisodiy kooperatsiya va mintaqalararo hududiy mehnat taqsimotini takomillashtirishdan iborat. Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri - turli hududlar aholisining turmush darajasi bo‘yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda rivojlanish darajasi past bo‘lgan hududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o‘rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisod nazariyasи, sotsiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador. Bozor munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

8.2. Davlat mintaqaviy siyosatining prinsiplari va mohiyati

Mintaqaviy siyosat hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o‘rtasida moddiy ne’matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruva vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim. Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o‘rganiladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri;

- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;
- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko‘payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o‘z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;
- u yoki bu turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);
- mintaqaning avtonomiya darjasи, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta’milanishi;
- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darjasи, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo‘yilmalar qayta taqsimlanishini ta’minalashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo‘nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo‘nalish - kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo‘llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta’minalash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinci yo‘nalish – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo‘llash (ma’muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo‘yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomyeratsiya markazlariga nisbatan keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini

joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Uchinchli yo‘nalish - muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalgan etishni rag‘batlantirishshahri. Mazkur yo‘nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarini joylashtirishda davlat tomonidan muhim e’tibor beriladigan asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

3. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha nazariyalar: I.Tyunenning «qishloq xo‘jalik standarti» nazariyasi; A.Veberning sanoat «shtandortlar» nazariyasi, A.Lyoshning «Joylashtirish» nazariyasi, U.Ayzardning «Joylashtirish» nazariyasi, F.Perruning «O‘sish qutblari va rivojlanish markazi» nazariyasi.

Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik nazariyalarga ajratish mumkin. Statik nazariyalar XIX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo‘lgan. Dinamik nazariyalar esa bir asrdan so‘ng – XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Dastlabki joylashtirish nazariyalari hozirda klassik standart nazariyalar deb atalib, ular Y.G. Fon Tyunen, V. Launxard, A.Veber nomlari bilan bog‘liq. Ushbu nazariyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- alohida olingan biror qishloq xo‘jaligi yoki sanoat korxonasining ko‘rib chiqilishi;
- joylashtirishning barcha omillari to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plab, ularni umumlashtirib, korxonani qurish (ishlab chiqarishni joylashtirish)ning qulay joyi to‘g‘risida aniq javob olish mumkinligi to‘g‘risida takliflar mavjudligi.

Y.G. Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning obektiv qonuniyatlarini mavjudligini aniqlagan birinchi olim hisoblanadi (uning birinchi ishi 1826-yilda paydo bo‘lgan). Tyunen qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bozorida sanoat mahsulotlari bilan ta’minlovchi shahargacha bo‘lgan masofaga qarab joylashtirish, ixtisoslashish va qishloq xo‘jaligini yuritish usullarini tanlash modellarini taklif etdi. Tyunen modelida transport xarajatlari joylashtirishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi.

V. Launxard ham sanoat korxonalarini ko‘rib chiqib, transport omili hal qiluvchi omil, deb hisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalarini joylashadigan joy to‘g‘ri tanlanganligini xomashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi.

V. Kristallyer «Markaziy o‘rin nazariyasi»ning asoschisidir. U matematik hisob-kitoblar orqali hududiy iyerarxiya bir darajadan boshqa darajaga to‘g‘ri

geometrik progressiya orqali o‘tishini isbotladi. Masalan, viloyat bir necha tumanlardan, o‘z navbatida tumanlar ko‘plab qishloq fuqarolari yig‘inlaridan iborat. Har bir qishloqqa o‘ziga tegishli bo‘lgan tovar va xizmatlar yo‘naltirilgan. SHunday qilib, olim aholi punktlari guruhiy tizimini tashkil etishning qulay variantini aniqlash orqali markaziy o‘rinlar nazariyasini yaratdi. Mazkur nazariya asosida bozor mintaqasining eng samarali tuzilmalarini, tovar va xizmatlar harakatining oqilona yo‘nalishlarini, shahar va aholi punktlari boshqaruvi ma’muriyatining qulay tuzilmasini shakllantirishni aniqlash mumkin.

Hududiy nazariyalarni (shu jumladan, hududiy siyosat nazariyalarini) o‘rganishga oxirgi o‘n yilliklarda nisbatan kamroq e’tibor berildi. To‘g‘ri, hududiy iqtisodiyot bo‘yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob holida nashr etildi. Ammo, hududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko‘rib chiqildi. Hududiy o‘sish nazariyalarini ko‘rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o‘sish modellarini qo‘llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o‘sishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o‘xshatish mumkin (development economics). Ikkinchisi esa, alohida korxona va firmalarning xatti-harakatlarini tahlil etishga asoslangan. CHunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina belgilab beradi. Kompaniyalar o‘z faoliyatini u yoki bu hududda olib borishining sabablari joylashtirish nazariyalarini orqali ko‘rib chiqiladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatları: ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, mintaqa xo‘jaligining kompleks rivojlantirish, xududiy mehnat taqsimoti.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatları ishlab chiqarish kuchlari va hududlar o‘rtasidagi umumiylar munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e’tibor berish lozim. Ayni paytda, tabiiy-resurs salohiyatlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik sharoitni yaxshilash masalalari ham hisobga olinadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatları quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish;
- mintaqalarni kompleks rivojlantirish;
- mintaqalar o‘rtasidagi hududiy mehnat taqsimoti;
- mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal holatga keltirish va ishlab

chiqarishning barcha (tayyor mahsulotgacha bo‘lgan) bosqichlarini muayyan hududga joylashtirish tushuniladi. Mamlakatimizning turli hududlari tabiiy resurslar zaxiralarning miqdori, komponentlar tarkibi, geologik salohiyatlariga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning xomashyo, yoqilg‘i, energiya va iste’mol manbalariga yaqinligini ta’minlaydigan transport omili katta ahamiyatga ega.

Mintaqalar o‘rtasida hududiy mehnat taqsimoti bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. SHuning uchun har bir mintaqqa faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlar asosida muayyan sohaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqalar asosida boshqa mintaqalar bilan mahsulot ayirboshlaydi.

8.3. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqish kuchlarini joylashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo‘yicha nazariyalar: I.Tyunenning «qishloq xo‘jalik standarti» nazariyasi; A.Veberning sanoat «shtandortlar» nazariyasi, A.Lyoshning «Joylashtirish» nazariyasi, U.Ayzardning «Joylashtirish» nazariyasi, F.Perruning «O‘sish qutblari va rivojlanish markazi» nazariyasi.

Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik nazariyalarga ajratish mumkin. Statik nazariyalar XIX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo‘lgan. Dinamik nazariyalar esa bir asrdan so‘ng – XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Dastlabki joylashtirish nazariyalari hozirda klassik standart nazariyalar deb atalib, ular Y.G. Fon Tyunen, V. Launxard, A.Veber nomlari bilan bog‘liq. Ushbu nazariyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- alohida olingen biror qishloq xo‘jaligi yoki sanoat korxonasining ko‘rib chiqilishi;
- joylashtirishning barcha omillari to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plab, ularni umumlashtirib, korxonani qurish (ishlab chiqarishni joylashtirish)ning qulay joyi to‘g‘risida aniq javob olish mumkinligi to‘g‘risida takliflar mavjudligi.

Y.G. Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning obektiv qonuniyatlarini mavjudligini aniqlagan birinchi olim hisoblanadi (uning birinchi ishi 1826-yilda paydo bo‘lgan). Tyunen qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bozorida sanoat mahsulotlari bilan ta’minlovchi shahargacha bo‘lgan masofaga qarab joylashtirish, ixtisoslashish va qishloq xo‘jaligini yuritish usullarini tanlash modellarini taklif

etdi. Tyunen modelida transport xarajatlari joylashtirishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi.

V. Launxard ham sanoat korxonalarini ko‘rib chiqib, transport omili hal qiluvchi omil, deb hisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalari joylashadigan joy to‘g‘ri tanlanganligini xomashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatları

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatları: ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, mintaqa xo‘jaligining kompleks rivojlanirish, xududiy mehnat taqsimoti.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatları ishlab chiqarish kuchlari va hududlar o‘rtasidagi umumiylar munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e’tibor berish lozim. Ayni paytda, tabiiy-resurs salohiyatlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik sharoitni yaxshilash masalalari ham hisobga olinadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatları quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish;
- mintaqalarni kompleks rivojlanirish;
- mintaqalar o‘rtasidagi hududiy mehnat taqsimoti;
- mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal holatga keltirish va ishlab chiqarishning barcha (tayyor mahsulotgacha bo‘lgan) bosqichlarini muayyan hududga joylashtirish tushuniladi. Mamlakatimizning turli hududlari tabiiy resurslar zaxiralarining miqdori, komponentlar tarkibi, geologik salohiyatlariga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning xomashyo, yoqilg‘i, energiya va iste’mol manbalariga yaqinligini ta’minlaydigan transport omili katta ahamiyatga ega.

Mintaqalar o‘rtasida hududiy mehnat taqsimoti bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darjasasi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. SHuning uchun har bir mintaqa faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlar asosida muayyan sohaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqlar asosida boshqa mintaqalar bilan mahsulot ayirboshlaydi.

8.4. O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatini o‘ziga xos xususiyatlari.

Mintaqaviy siyosat hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o‘rtasida moddiy ne’matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim. Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o‘rganiladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri;
- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darjasи;
- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko‘payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o‘z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;
- u yoki bu turdagи mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);
- mintaqaning avtonomiya darjasи, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va h.k.;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta’milanishi;
- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darjasи, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko‘pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo‘yilmalar qayta taqsimlanishini ta’minalashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo‘nalishda olib borilmoqda:

Birinchi yo‘nalish - kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma obektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilashdan iborat. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo‘llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa tarmoq mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi. Hozirda mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta’minalash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinci yo‘nalish – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan, yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo‘llash (ma’muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo‘yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomyeratsiya markazlariga nisbatan keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishning oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Uchinchi yo‘nalish - muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalgan etishni rag‘batlantirishshahri. Mazkur yo‘nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarni joylashtirishda davlat tomonidan muhim e’tibor beriladigan asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

Respublikamiz iqtisodiyotida ham bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan boshqa mamlakatlardagi singari “samarali” usulni qo‘llash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab foydalanilmayotgan zaxiralalar ishga tushirilmoqda; yangi korxonalar asosan kommunikatsiyalar bilan yaxshi ta’milangan kichik va o‘rtacha shaharlarga joylashtirilmoqda; qishloq xo‘jaligida tabiiy-iqlim sharoitiga mos ekinlar ekish joriy etilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, birinchi navbatda boy tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega hudud va shaharlarni rivojlantirish, mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlarni kamaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Qishloqda sanoatni, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarni ishga tushirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tizimini shakllantirish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, respublikamizning turli hududlari maydoni, aholi soni, tabiiy-iqlim sharoiti, infratuzilma obektlari bilan ta’milanishi, shaharlashuv darajasi, aholining turmush sharoiti va boshqalarga ko‘ra bir-biridan keskin farq qiladi.

Jumladan, mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari o'rtasidagi aholi zichligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent viloyatining Toshkent tumaniga to'g'ri kelsa (1 km² maydonda 767 kishi), aksincha eng siyrak mintaqasi Navoiy viloyatining Tomdi tumani (1 km² maydonda 0,58 kishi) hisoblanadi.

Aholi tabiiy ko'payishida shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutlar yaqqol sezilib turadi. Xususan yirik, sanoatlashgan va mahalliy millat vakillari nisbatan kam istiqomat qiladigan shaharlarda aholi tabiiy ko'payishi qishloq joylarga nisbatan bir necha bor past ekanini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq, Ohangaron, CHirchiq shaharlarda tabiiy o'sish respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 3-5 marta kamdir.

Samarqand viloyati Urgut tumani aholi soni bo'yicha mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari orasida eng yuqori o'rinni egallaydi. U erda 335 ming kishi istiqomat qiladi. Buxoro viloyati qorovulbozor tumani esa, aksincha, aholisi eng kam hudud hisoblanadi. U erda 13,6 ming kishi yashaydi.

Umuman, har bir tuman yoki shaharning o'ziga xos xususiyatlari haqida bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Mamlakatning mintaqaviy-iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning mana shunday alohida jihatlari albatta hisobga olinishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Mintaqaviy iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishda qanday ilmiy uslublardan foydalilanadi?
3. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati nimadan iborat?
4. Davlat mintaqaviy siyosatining prinsiplari va maqsadlari. nimadan iborat?
5. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish nimadan iborat?
6. Ishlab chiqish kuchlarini joylashtirish deganda nimani tushunasiz?
7. Mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o'rganilganda nimalarga e'tibor berish lozim?
8. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatini o'ziga xos xususiyatlari.

9-mavzu. Yuksalish, rivojlanish va iqtisodiy siyosat

REJA:

9.1. Rivojlanishga nisbatan iqtisodiy o'sish: turmush darajasi va turmush sifati.

9.2. Iqtisodiy sikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari. Iqtisodiy inqirozlarning turlari.

9.3. Makroiqtisodiy muvozanat va uninr bozor iqtisodiyotida namoyon bo'lish shakllari. Davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati.

1. Rivojlanishga nisbatan iqtisodiy o'sish: turmush darajasi va turmush sifati.

Iqtisodiy rivojlanish - takror ishlab chiqarishning kengayishi va iqtisodiyotda, ishlab chiqaruvchi kuchlarda, ta'lim, fan, madaniyat, aholi turmush darajasi va sifati, inson kapitalida bosqichma-bosqich sifat va tarkibiy ijobiy o'zgarishlar. Iqtisodiy rivojlanish ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi, shuning uchun u iqtisodiyotning texnologik tuzilmalari va moddiy boyliklarni taqsimlashning o'ziga xos tarixiy sharoitlarida turlicha boradi. Bu butun insoniyat hayotining sifatini yaxshilash jarayoni va turmush darajasini, o'zini o'zi hurmat qilish va erkinlikni yaxshilash imkoniyatlaridir.

Jozef Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" kitobida iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi farqlarni keltirdi, turli tipdagi innovatsiyalarning mohiyatini belgilab berdi va ularni tasnifladi.

Shumpeter o'sish va rivojlanish o'rtasidagi farqni quyidagicha izohladi: "Bir qator pochta aravalarni xohlagancha qo'ying - siz temir yo'lga ega bo'lmasiz". Iqtisodiy o'sish - bu miqdor o'zgarishi - vaqt o'tishi bilan bir xil tovarlar va xizmatlar (xususan, pochta aravalari) ishlab chiqarish va iste'molining ko'payishi. Iqtisodiy rivojlanish - bu ishlab chiqarishdagi, mahsulotdagi, xizmathardagi, boshqaruvdagi, umuman iqtisodiyotdagi ijobiy sifat o'zgarishlari, ya'ni innovatsiyalar (innovatsiya - bu yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulot (tovar, xizmat) yoki foydalanishga kiritilgan jarayon, yangi savdo usuli yoki biznes amaliyotida, ish joyini tashkil etishda yoki tashqi aloqalarda yangi tashkiliy usul).

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u iqtisodiy o'sishni, iqtisodiyotning innovatsion sektori va venchur biznesni yaratishni, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni, mehnat unumdonorligi va aholi turmush sifatini oshirishni o'z ichiga oladi. Venchur kapitali (VC) – bu xususiy kapitalni moliyalashtirishning bir turi bo'lib, u venchur kapital firmalari yoki fondlari

tomonidan startaplarga, dastlabki bosqichdagi hamda yuqori o'sish potentsialiga ega deb hisoblangan va rivojlanayotgan yoki yuqori o'sishni (ishchilar soni, -yillik daromad, operatsiyalar ko'lami va boshqalar nuqtai nazaridan) ko'rsatgan kompaniyalarga beriladi.

Norbert Toma tomonidan o'zgarishlarni boshqarishning zamonaviy kontseptsiyasi tartibga solish va boshqarishning quyidagi tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi: iqtisodiy (masalan, soliqlarni oshirish yoki kamaytirish, JSTga kirish, bozor globallashuvi va boshqalar), texnologik (modernizatsiya, yuqori texnologiyalar), siyosiy va huquqiy (qonunchilikdagi ijobjiy o'zgarishlar), ijtimoiy-madaniy (axloq va axloq, madaniyat, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar, manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash), jismoniy va ekologik (iqlim sharoitlari, ekologiya).

Saymon Kuznets inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishi jarayonlarida etakchi rolni ta'kidlaydi. To'plangan inson kapitalining yetishmasligi, uning past sifati mamlakatda iqtisodiyotning navbatdagi raqobatbardosh texnologik rejimini yaratishga imkon bermaydi.

Aholining turmush darajasini o'rganish 1950-yillarning oxiridan boshlab har tomonlama amalga oshirildi. 1970 yildan boshlab bu tadqiqotlar doimiy va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'ldi. Xalqaro statistikada aholi turmush darajasining turli ta'riflari mavjud.

Aholining turmush darajasi tushunchasini tor va keng ma'noda farqlash kerak.

Tor ma'noda, bu moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan shaxsiy ehtiyojlarini qondirish.

Keng ma'noda - xalq hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining butun majmuasi.

So'zning keng ma'nosida turmush darajasi hayot sifati deb ataladi. Aholining hayot sifatining to'rtta darajasi mavjud:

1. Kambag'allik - bu biologik mezonlarga ko'ra moddiy ne'matlar va xizmatlarning ruxsat etilgan minimal to'plami bo'lib, ulardan foydalanish insonning hayotiyligini saqlab qolish imkonini beradi.

2. Qashshoqlik - mehnat qobiliyati darajasida (mehnat takror ishlab chiqarishning eng quyi chegarasi) tovar va xizmatlar iste'moli. Xalqaro statistika qashshoqlikning ikkita ta'rifidan foydalanadi: mutlaq va nisbiy qashshoqlik. Birinchi holda, qashshoqlik deganda uy xo'jaliklarining sog'lig'ini saqlash va o'rtacha faol mehnat hayotini olib borish uchun mutlaqo zarur bo'lgan imtiyozlar yig'indisini ta'minlay olmaydigan holat tushuniladi. Ikkinci holda, qashshoqlik

ma'lum bir me'yordan sezilarli darajada past bo'lgan uy xo'jaliklarining past daromadlari sifatida tushuniladi.

3. Aholining normal turmush darajasi - bu insonning jismoniy va aqliy kuchini normal tiklashni ta'minlaydigan oqilona, ilmiy asoslangan normalar bo'yicha moddiy ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilishdir.

4. Boylik – tovar va xizmatlarni shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan darajada iste'mol qilish.

"Turmush darajasi" tushunchasi murakkab tuzilishga ega, chunki u iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik munosabatlar o'zaro bog'liq bo'lgan inson faoliyati sohasini tavsiflaydi. Turmush darajasi nafaqat odamlarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi, balki iste'mol qilinadigan tovarlarning mutlaq miqdori va sifatidir.

Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarini aniqlash, hatto milliy statistika doirasida ham, davlatlar hududi va aholisi bo'yicha katta bo'lgan va shuning uchun turmush darajasi bo'yicha juda xilma-xil bo'lgan hollarda ancha murakkablashadi.

Xalqaro statistikaga kelsak, aholi turmush darajasini solishtirish va solishtirishni yanada qiyinlashtiradigan yangi omil va shartlar paydo bo'lmoxda. Bu shartlarga quyidagilar kiradi:

1. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va ularning salohiyati;
2. Moliya tizimining holati;
3. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi;
4. Mamlakatlarning intellektual salohiyati darajasi;
5. Geografik omillar;
6. Milliy an'analar va xususiyatlar.

Yuqoridagilarga shuni qo'shimcha qilish kerakki, turmush darajasini ma'lum bir minimal tovar va xizmatlar deb hisoblash mumkin.

1. Fiziologik minimum, bunda mablag'larning 80% dan ortig'i oziq-ovqatga sarflanadi. Sanoat tovarlariga kelsak, zaruriy tovarlar (kiyim, poyabzal, bosh kiyim). Xizmat xarajatlari ahamiyatsiz. Fiziologik minimum insonga mehnat qobiliyatini tiklamasdan yashashga imkon beradi.

2. Yashash minimumi insonning nafaqat mavjudligini, balki uning mehnat qibiliyatini tiklashini ham ta'minlaydi.

3. Ijtimoiy daraja. Ushbu iste'mol darajasi oqilona byudjetga asoslanadi - past daromad darjasini TM deb ataladi.

Turmush darajasini butun aholiga nisbatan ham, aholining alohida guruhlariga nisbatan ham o'lchash mumkin. Aholining turmush darajasi ko'rsatkichi ijtimoiy ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligi ko'rsatkichi sifatida qaraladi.

Aholining turmush darajasi toifasining aniq ta'rifi mavjud emasligi sababli, uning etarli statistik tavsiflari uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar ro'yxati haqidagi savollar munozarali bo'lib qolmoqda.

Aholining turmush darajasini tavsiflash uchun ushbu soha mutaxassislari quyidagilarni taklif qilishadi:

- 1) Tanlangan shaxsiy ko'rsatkichlar;
- 2) Bitta umumiyo ko'rsatkich;
- 3) Bahor kartasi.

Xususiy ko'rsatkichlar aholi turmush darajasining individual jihatlarini tavsiflaydi, bu toifani har tomonlama tavsiflash uchun etarli emas. Aholining turmush darajasining umumlashtirilgan ko'rsatkichini ishlab chiqish barcha xalqaro statistikaning eng muhim vazifalaridan biridir. Umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida quyidagilar taklif qilindi: real ish haqi indeksi, yashash minimumi indeksi, yashash qiymati indeksi. Ushbu ko'rsatkichlarning har biri qimmatlidir, ammo ular turmush darajasini to'liq o'lchashni ta'minlamaydi.

1960 yilda BMT ishchi guruhi xalqaro miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari bo'yicha hisobot tayyorladi. Bu ko'rsatkichlar kartasini yaratishga birinchi urinish edi. 1978 yilda aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarining yangi tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u ko'rsatkichlarning 12 guruhini o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda aholining turmush darajasini baholash uchun BMT Statistik komissiyasi quyidagi ko'rsatkichlar guruhlarini ajratishni tavsiya qiladi:

1. Aholining demografik xususiyatlari (tug'ilish, o'lim, kasallanish, o'rtacha umr ko'rish);
2. Aholi daromadlari ko'rsatkichlari (real va nominal);
3. Xarajatlar va jamg'armalar ko'rsatkichlari;
4. Aholining moddiy ne'matlar va xizmatlarni iste'mol qilish ko'rsatkichlari;
5. Aholining uy-joy va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari;
6. Bandlik va ishsizlik darajasi;

7. Aholining mehnat sharoitlari ko'rsatkichlari;
8. Bo'sh vaqt ko'rsatkichlari;
9. Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, turizm va rekreatsiya ko'rsatkichlari.

Aholining turmush darajasi toifasining murakkabligi va ko'p qirraliligi uning ko'rsatkichlar tizimiga asoslangan har tomonlama xarakteristikalari zarurligini oldindan belgilab beradi. Turmush darajasining barcha elementlari ob'ektiv ravishda o'zaro bog'langanligi sababli, statistik ko'rsatkichlar ham o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Aholining turmush darajasi ko'rsatkichlari tizimiga kiritilgan barcha ko'rsatkichlarni ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Turmush darajasining miqdoriy jihatini tavsiflovchi miqdoriy ko'rsatkichlar:

- a) Aholi daromadlari ko'rsatkichlari;
- b) Moddiy ne'matlar sarfi va iste'moli ko'rsatkichlari;
Saqlash ko'rsatkichlari;
- a) To'plangan mulk va uy-joy bilan ta'minlash ko'rsatkichlari;
- b) Daromad differensiatsiyasi ko'rsatkichlari, qashshoqlik darajasi va chegaralari.

2. Sifat ko'rsatkichlari:

- a) Demografik statistika ko'rsatkichlari (chaqaloqlar o'limi darajasi, onalar o'limi darajasi, o'rtacha umr ko'rish);
- b) Davlat va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari;
- v) Iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va tuzilishi ko'rsatkichlari;
- g) Savodxonlik, ta'lim va madaniyat ko'rsatkichlari;
- d) Uy-joy qulayligi ko'rsatkichlari.

Aholining turmush darajasini tavsiflash uchun quyidagi manbalardan foydalilanildi:

- a) Aholini ro'yxatga olish;
- b) Uy-joylarni ro'yxatga olish;
- v) Maxsus namunaviy so'rovlar;

g) Joriy statistika.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida aholi turmush darajasi to'g'risida eng to'liq ma'lumot manbai bu aholini ro'yxatga olishdir. Ularning afzalliklari:

1. Dastlabki aholini qamrab olish nuqtai nazaridan ko'p qirrali;

Qabul qilingan ma'lumotlarning keng doirasi;

Natijalarning batafsil hujjatlari.

Ammo bu manbaning kamchiligi ham bor: aholini ro'yxatga olish kamdan-kam uchraydi.

Maxsus tanlanma so'rovlarga misol tariqasida AQSHdagi sog'liqni saqlash muassasalarining tanlab olingen so'rovlari, Fransiyadagi noqulay yashash sharoitlari bo'lgan shaharlar bo'yicha so'rovlari va Buyuk Britaniyadagi uy xo'jaliklari xarajatlarining tanlanma so'rovlari kiradi. Shvetsiya va Norvegiyada aholining turmush darajasi bo'yicha tanlab o'rGANishlar ushbu davlatlarning statistika xizmatlari tomonidan har 5 yilda bir marta o'tkaziladi.

1993 yildan boshlab aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari tizimi Milliy hisoblar tizimida o'z aksini topdi. Ijtimoiy ma'lumotlarga asoslangan hisoblar sun'iy yo'ldosh hisoblari deb ataladi.

Yashash standarti tushunchasi. Turmush darajasi - bu aholining hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlanganlik darajasi. Shuningdek, u odamlar uchun yashash sharoitlari (mehnat, kundalik hayot, dam olish) majmui sifatida belgilanadi.

Keng ma'noda turmush darajasi iste'mol darajasi va tarkibini, mehnat sharoitlarini, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarning tuzilishi va qanoatlantirilish darajasini, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasini, ishlamaydigan va ishlamaydiganlarning miqdori va tarkibini o'z ichiga oladi. bo'sh vaqt, ekologik xavfsizlik darajasi va boshqalar.

Tor ma'noda turmush darajasi deganda yakuniy mahsulot va xizmatlarning haqiqiy iste'moli hajmi va tarkibini belgilovchi real daromadlar hajmi tushuniladi.

Turmush darajasi, birinchidan, moddiy, ma'naviy ne'matlarning haqiqiy iste'mol qilinishiga, ikkinchidan, ehtiyojlarning rivojlanishiga bog'liq.

Iste'mol darajasi - iste'molchilar soniga bog'liq bo'lgan iste'molning xususiyati. Odatda, iste'molning uchta darajasi ajratiladi:

har bir alohida shaxsning iste'moli amalga oshiriladigan individual;

odamlar jamoalarining iste'moli sodir bo'ladigan jamoa;

Davlat (davlat)dagи barcha odamlarning iste'mol manfaatlari bilan bog'liq jamoat. Bular tartibni saqlash, xavfsizlik, mudofaa, boshqaruv, ta'lim, fan, tashqi aloqlardir. Har birimiz ularga muhtojmiz, lekin hech kim ularni qondira olmaydi.

Turmush darajasi qanchalik yuqori bo'lса, ehtiyojlar shunchalik yuqori bo'ladi. Bular asosan jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlardir.

Jismoniy ehtiyojlar insonning jismoniy hayotini saqlab qolish bilan bog'liq. Ular moddiy (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo'lgan ehtiyojlar) va nomoddiy (jismoniy faollik, uyqu va boshqalarga bo'lgan ehtiyojlar) bo'linadi.

Ma'naviy ehtiyojlar - bu atrofdagi dunyoni bilish, ta'lim, malaka oshirish, ijodiy faoliyatning turli turlariga, estetik idrok etishga, madaniy qadriyatlardan foydalanishga bo'lgan ehtiyojlar.

Ijtimoiy ehtiyojlar insonning jamiyatdagi faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bu ijtimoiy faollik, o'zini namoyon qilish, odamlar bilan muloqot qilish, ijtimoiy huquqlarni ta'minlash zarurati.

Aholi turmush darajasining miqdoriy va sifat xususiyatlarini belgilovchi omillar ishlab chiqaruvchi kuchlarning holati, ishlab chiqarish munosabatlarining tabiat, tabiiy-iqlim sharoitlari, davlatning geografik o'rni va atrof-muhitning boshqa xususiyatlari hisoblanadi.

Turmush darajasini nafaqat aholining ayrim guruhlari farovonligini tahlil qilganda, balki milliy miqyosda ham hisobga olish mumkin. Bu turli mamlakatlardagi aholi turmush darajasini solishtirish imkonini beradi.

Turmush darajasining ko'rsatkichlari. Turmush darajasini baholash uchun bir qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi: aholi jon boshiga (oila) asosiy mahsulotlarni iste'mol qilish; iste'mol savati; iste'molchi byudjeti; yashash haqi. Aholi jon boshiga asosiy mahsulotlarni iste'mol qilish - ulardan ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanish. Iste'mol har doim xilma-xildir, chunki inson ehtiyojlarini xilma-xildir. "Iste'mol darajasi" degan tushuncha mavjud. Bu ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, yil, oy, kun) iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning o'rtacha miqdori. Normlar ikki xil: real va ilmiy asoslangan (ratsional).

Birinchi oilada 5 kishi bor 3 kishi pul topadi. Har birining daromadi oyiga 1 mln. so‘m 2 kishi boqimanda. Bu oilaning jami daromadi 3 mln. so‘m bo‘lib, jon boshiga 600 ming so‘mdan to‘g‘ri keladi.

Ikkinci oilada 6 kishi bor ulardan faqat 2 kishi ishlab oyiga 2000 mln. so‘m daromad topadi, lekin bu yerda boqimanda 4 kishi, jon boshiga daromad 330 ming so‘mga to‘g‘ri keladi. Daromadlarning farqlanishi ($600 > 330$) pul topishga emas balki, oila a’zolari soniga, boqimandalar soniga bog‘liq.

Daromadning farqlanishi uning tabaqalanishi-differensiasiysi, deb yuritilib daromadlardagi tengsizlikni ko‘rsatadi.

Daromadlardagi tengsizlik aniqlanganda xonadonlar 5 ta kvintelga (guruhga) bo‘linadi. Bunda xonadonlar quyidan yuqoriga, ya’ni past daromaddan yuqori daromad sari joylashtiriladi:

- 1 kvintel' – o‘ta kambag‘allar;
- 2 kvintel' – kambag‘al;
- 3 kvintel' – o‘rtahol;
- 4 kvintel' – boy;
- 5 kvintel' – o‘ta boylardan iborat bo‘ladi.

Turli kvinteldagi xonadonlarning umumiy xonadonlar sonidagi hissasi (% hisobida) ularning jami daromaddagi hissasi bilan taqqoslanadi. Bu bilan xonadonlarning qanday daromadlarning qanday qismini olinganligi aniqlanadi.

Odatda quyi kvintellardagi xonadonlarning daromaddagi hissasi kichik bo‘ladi, ya’ni masalan 10 % xonadon 5-6 % daromadni oladi. Vaholanki, yuqo-ri kvintellarda xonadonlar soni kam bo‘lsada, ular daromadning katta qismini oladilar. Ayrim mamlakatlarda oz miqdordagi 4-5 foizni tashkil etgan boy oilalar daromadlarning katta qismini oladilar.

O‘zbekistondagi oilalar iqtisodiy holatiga ko‘ra 4 toifaga ajratildi

O‘zbekistonda 3 oyda (2022y.) 736 ming nafar fuqaroning bandligi ta’milangan aytildi.

Hokim yordamchilari uch oy davomida 35,3 million aholi yashaydigan 6 mln 900 ming xonadonni to‘liq xatlovdan o‘tkazdi.

Natijasi bo‘yicha ular 4 ta toifaga ajratildi:

- 11 foizi — kam daromadli;
- 47 foizi — doimiy daromadi bo‘lgani bilan qo‘sishimcha daromadga ehtiyoji bor;
- 6 foizi — ijtimoiy himoyaga muhtoj;
- 36 foizi — iqtisodiy ahvoli yaxshi, o‘ziga to‘q oilalar.

Ta’kidlanishicha, yangi tizim orqali har bir hokim, uning iqtisod bo‘yicha 1-o‘rinbosari va hokim yordamchilari aholining 64 foizi bilan manzilli ishlash kerakligini bilib oldi.

Bu borada, joylardagi mutasaddi rahbarlar va hokim yordamchilari birinchi va ikkinchi toifadagi xonadonlar bilan ishlab, 3 oyda 736 ming nafar fuqaroning bandligini ta’miladi hamda 54 ming nafar fuqarolarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitdi.

Mahallalardagi hokim yordamchilarining tashabbusi bilan 50 mingta oilaviy tadbirkorlik loyihamalarini amalga oshirish uchun 1 trillion 300 milliard so‘m kredit va 20 milliard so‘m subsidiya ajratildi.

Natijada hududlarda 47 mingta yangi tadbirkorlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, 8 mingta kichik sanoat va servis loyihamalari ishga tushirildi, 2,5 mingta korxona quvvatlari tiklandi va oshirildi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni o‘sishi, axolining turmush darajasi ko‘tarilayotganligiga qaramay, eng boy va eng kambag‘allar o‘rtasidagi tafovut oshib bormoqda.

BMT ning ma'lumotiga ko‘ra, dunyodagi eng boy 3 odamning boyligi Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi qit'asidagi 48 ta kam rivojlangan mamlakatlarning yillik yalpi ichki mahsulotidan ortiq. Sayyora-mizning 225 eng boy odamlarining umumiy daromadi 1 trln. dollardan ortiq. Shunday bir vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda yashayotgan 4,4 mlrd. axolining 3/5 qismi kanalizasiyadan foydalanmay, 1/3 qismi toza ichimlik suvidan iste'mol qilishdan, 1/3 qismi sog‘liqni saqlash xizmatidan foydalanishdan mahrum etilgan. Yevropaliklar bir yilda 11 mlrd. dollarlik iste'mol qilgan muzqaymoqning qiymati, dunyoda toza ichimlik suvi va kanalizasiyaga muhtoj bo‘lganlar ehtiyojini to‘la qondirish imkonini beradi.

Erkinlik, tenglik,adolat, mafkurlarlar va fikrlarning xilma-xilligi, hokimiyatning saylov asosida vujudga kelishi, hokimiyatlar bo‘linishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud qarorisiz mahrum etib bo‘lmasisligi, aybsizlik prezumpsiyasi bularning barcha-barchasi demokratiyaning eng muhim belgilari bo‘lib, demokratik davlatlar konstitutsiyalarining muhim prinsiplarini tashkil etadi.

10.4. Davlat budgeti - davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muhim shakli sifatida

Davlat byudjeti — davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo‘ljallangan pul daromadlari va harajatlari majmui. D.b. davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. D.b. tarkiban umum davlat (yoki markaziy) byudjeti (mamlakat miqyosidagi umumiy daromadlar va harajatlari yig‘indisi) vamahalliy (munitsipal) byudjet (hududiy tuzilmalar — o‘lka, viloyat, tuman va h.k. doirasidagi pul daromadlari va harajatlari)ga bo‘linadi.

Ikki turdagи byudjetlar nisbati mamlakatning ichki sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Davlat jamiyatga ijtimoiy xizmatlar (milliy xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saklash, atrof-muhitni himoya qilish, nochorlarga yordam berish, aholiga bepul

ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va b.) ko'rsatadi va bularning barchasi harajat talab qiladi. Byudjet daromadlari soliqlar, soliqdan tashqari yig'imlar, davlat zayomlaridan tushgan pul, davlat mulkini sotishdan yoki ijaraga berishdan kelgan mablag'lardan shakllanadi.

Byudjet daromadining aholi jon boshiga hisoblangan miqdori mamlakatning byudjet salohiyati (potensiali) deb yuritiladi va bu byudjet daromadining umumiy hajmiga hamda aholining soniga bog'liq. Byudjet harajatlari uning daromadidan ortib ketsa, byudjet taqchilligi, ya'ni kamo-madi yuzaga keladi. Kamomad miqdori mamlakat yalpi millim mahsulotning 3—3,5% ga teng bo'lishi me'yoriy hisoblanadi. Byudjet kamomadining g'oyat oshib ketishi va uni daromad bilan ta'minlash mumkin bo'lmaganda byudjet harajatlari qisqartiriladi. Markaziy, mahalliy D.b.lari va D.b.dan tashqari fondlar (davlatning muayyan maqsadli fondlari, maxsus maqsadli soliqlar, zayomlar, byudjetdan subsidiyalar hisobiga yaratiladigan maxsus fondlar) yig'indisi davlatning yigma byudjetini tashkil etadi. D.b., odatda, joriy yilda kelgusi yil uchun tuziladi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida u chorak yoki yarim yilga tuzilishi ham mumkin. D.b.ni huku-mat tuzadi va yuqori qonun chiqaruvchi organ (parlament) tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhlari o'rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo'ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi darajasi ham daromadlaridagi farqlarni bartaraf qilmaydi.

Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida Lorents egri chizig'idan foydalilanadi (1-chizma). Chizmaning yotiqlik chizig'ida aholi guruhlarining foizdagi ulushi, tik chizig'ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlarning mutlaq teng taqsimlanishi imkoniyati (burchakni teng ikkiga bo'luvchi) 0E chiziqa ifodalangan bo'lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko'rsatadi. Ya'ni aholining 20% barcha daromadlarning 20%ni, aholining 40% daromadlarning 40%ni, aholining 60% daromadlarning 60%ni olishini bildiradi va h.k. Demak, 0E chizig'i daromadlarning taqsimlanishidagi mutlaq tenglikni ifodalaydi.

Shuningdek, nazariy jihatdan mutlaq tengsizlikni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda aholining ma'lum guruhlari (20%, 40 yoki 60% va h.k.) hech qanday daromadga ega bo'lmay, faqat bir foizi barcha 100% daromadga ega bo'ladi. Chizmadagi 0FE siniq chizig'i mutloq tengsizlikni ifodalaydi.

Real hayotda mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlik holatlari mavjud bo‘lmaydi. Balki aholining ma’lum guruhlari o‘rtasida daromadlarning taqsimlanishi notejis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishini Lorents egri chizig‘i deb nomlanuvchi 0E egri chizig‘i orqali kuzatish mumkin. Aholi guruhlari ulushi va daromad ulushini birlashtiruvchi egri chiziqdan ko‘rinadiki, aholining dastlabki 20%ga daromadlarning juda oz (taxminan 3-4%gacha) qismi to‘g‘ri keladi. Keyingi guruhlarga to‘g‘ri keluvchi daromad ulushi ortib boradi. Daromadning eng katta qismi (deyarli 60%) aholining so‘nggi 20%ga to‘g‘ri keladi. Bu guruh chegarasi ichida ham daromadlar notejis taqsimlangan, ya’ni dastlabki 10% taxminan 20% daromadga ega bo‘lsa, keyingi 10%ga daromadning deyarli 40% to‘g‘ri keladi va h.k.

Mutloq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorents egri chizig‘i o‘rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo‘lsa, ya’ni Lorents egri chizig‘i 0E chizig‘idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi daroji ham shunchalik katta bo‘ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutloq teng bo‘lsa, bunda Lorents egri chizig‘i va bissektrisa o‘qi bir-biriga mos kelib, farq yo‘qoladi.

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashning ko‘proq qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlaridan bir ditsel koeffitsiyenti hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich 10% eng yuqori ta’milangan aholi o‘rtacha daromadlari va 10% eng kam ta’milanganlar o‘rtacha daromadi o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1ga, SHvetsiyada esa 5,5:1ga teng.

Yalpi daromadning aholi guruhlari o‘rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Djini koeffitsiyenti) ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Djini koeffitsiyenti chizmadagi Lorents egri chizig‘i bilan mutlaq tenglik chizig‘i o‘rtasidagi yuzaning OFE uchburchak yuzasiga nisbatli orqali aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich qanchalik katta bo‘lsa, (ya’ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo‘ladi. Jamiyat a’zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko‘rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Djini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar mavjud. Bularning asosiyлари quyidagilar:

- kishilarning umumiy (jismoniy, aqliy va estetik) layoqatidagi farqlar;
- ta’lim daroji va malakaviy tayyorgarlik darojasidagi farqlar;
- tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darojasidagi farqlar;
- ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o‘rnatishga layoqatiligi (bozordagi hukmronlik darojasidan kelib chiqib) darojasidagi farqlar.

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashga qaratiladi.

Nazorat savollari:

1. Taqsimlashning ikki jihatni xaqida nima bilasiz?
2. Nufuzli iqtisodiyot qoidalari xaqida nima bilasiz?
3. Aholi daromadlari, ularning turlari va manbalari.
4. Daromadlar tengsizligi, ular darajasini aniqlash.
5. Aholi turmush darajasi.deganda nimani tushunasiz?
6. Davlat budgeti – nima?
7. Mamlakatning byudjet salohiyati (potensiali) – nima?
8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar nimadan iborat?

11-mavzu: Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari va davlatning ijtimoiy siyosati

REJA:

- 11.1. Ijtimoiy siyosat mazmun mohiyati, maqsadlari, nazariyasi.**
- 11.2. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va ularni guruhanishi.**
- 11.3. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy sohalari.**
- 11.4. Davlatning ijtimoiy siyosati**

11.1. Ijtimoiy siyosat mazmun mohiyati, maqsadlari, nazariyasi

Jamiyat ijtimoiy sohasi nimani ifodalaydi? Ijtimoiy siyosatning asosiy yunalishlari qanday? Ijtimoiy (sotsial) degan so'z keng ma'noda "tabiiy" degan tushunchadan farq qiluvchi "ijtimoiy" va tor ma'noda ijtimoiy tuzumning o'ziga xos sohasi sifatida ifodalanadi.

Ijtimoiy (sotsial) degan tushunchada odamlar hayotiy faoliyatining jami umumiy, jamoa harakteri ifodalangan. Unda turli birliklar-sinflar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalar, millatlar, xalqlar o'rtasidagi birlashuvga qaratilgan intilishlar namoyon bo'ladi. Kishining u yoki bu sinfga, ijtimoiy qatlamga bo'lgan aloqasi uning jamiyatga tutgan o'rniga berilgan baxo hisoblanadi. U yoki bu birliklar o'rtasidagi munosabat va o'zaro aloqalar jarayonida har bir insonning fe'l-atvorini ifoda etuvchi ijtimoiy sifatlari tarkib topadi. Ijtimoiy munosabatlar har bir individning jamiyatdagi tengligini (yoki notengligini) ifodalaydi. Bizda shu vaktga kadar jamiyat a'zolarining hammasi umumxalq boyligi hisoblangan ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabatlardagi tengligi ta'kidlab kelingan.

Ijtimoiy soha sinflar va ijtimoiy guruhlar, millatlar va elatlarning manfaatlarini, jamiyat bilan shaxsning munosabatlarini mehnat va turmush sharoitlarini, kishilarning sixat – salomatligi va bush vaktini o'z ichiga oladi. Faqatgina ana shu sohada iqtisodiy faoliyatning natijalari ro'yobga chikadi.

Demak, ijtimoiy soha o'z ichiga ijtimoiy jarayonning hamma qirralarini, ijtimoiy tizimning ob'ektiv shart-sharoitlari va sub'ektiv omillarni ijtimoiy va shaxsiy kizikishlar tuzilmasi hamda ularning murakkab dialektik aloqasini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy siyosat-jamiyatga siyosiy raxbarlik qilishning shunday yunalishidirki, u o'z ichiga qator ijtimoiy tadbirlar orqali moddiy farovonlikni oshirish, ijtimoiyadolat, demokratiya, sinflar, millat va elatlar, ijtimoiy qatlamlar, kollektiv va shaxsning turmush madaniyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Jamiyatni yangilash vazifasi uzoq muddatli,chuqur uylab kurilgan yaxlit ijtimoiy siyosatga muvofiq kelishi ya’ni ijtimoiy sohaning hamma tomonlarini bir butun holda o’z ichiga olgan va xalq ommasining extiejini to’la kondirish, ularning faolligini yanada oshirishga qaratilgan bo’lishi kerak.

Ijtimoiy siyosatning asosiy yo’nalishlari qaysilar? Bularni shunday ta’riflasa bo’ladi.

Birinchidan - jamiyat a’zolarining mehnat va dam olishga qaratilgan siyosiy yo’lini ishlab chiqish:

Ikkinchidan - aholiga ijtimoiy turmush xizmatlarini ko’rsatishning samarli yo’llarini ishlab chiqish:

Uchinchidan - aholiga nafaqa va imtiyozlar berish, ijtimoiy himoyalash siyosatini olib borish.

Ijtimoiy adolatni ta’minlash odil ijtimoiy siyosatning maqsadidir.

Tarixan o’zini oqlagan insonparvar ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashdir. Ijtimoiy adolat tenglik va erkinlik so’zleri bilan hamoxang bo’lib, u doimo va ko’pchilik tomonidan qo’llanib keladi.

Turli darajadagi deputatlikka nomzod bo’lgan birorta shaxs ijtimoiy adolat so’zini chetlab o’ta olmaydi, doimo uni himoya etish maqsadida so’z beradi.

Ijtimoiy adolat so’zi nimani anglatadi va hozir mamlakat raxbariyati tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy siyosat kanday ro’yobga chikarilmokda. Boshqa hamma ijtimoiy voqelik kabi “ijtimoiy adolat” tushunchasi tarixiy ya’ni har bir aniq vaziyatda jamiyat taraqqiyoti darjasini bilan belgilanadi. Xatto Arastu farovonlik va baxt-saodat tushunchalarini odamlar o’zleri olib borayotgan hayotdan tashkil bo’lgan deb to’g’ri ko’ra olgan.

Ijtimoiy sohada bundan buyonga rivojlanishga yangicha nazar tashlash uning olib boraetgan ahamiyatni to’la-to’kis baxolash zarur. Chunki ayni shu sohada mehnatkashlarning hayotiy manfaatlariga daxldor bo’lgan iqtisodiy faoliyat natijalari ro’yobga chikadi. Ayni shu sohada jamiyatning insonparvarlik tabiatini namoyon bo’ladi.

Adolat jamiyatning chinakam turmush normasi bo’lib kolishi uchun nima qilish kerak? Mustaqil jumxuriyatlarning hozirgi axvoli va uni rivojlantirish vazifalari bu muammoni benixoya dolzarb qilib kuymokda. Adolatsizlik ko’rinishi kaerda sodir bo’lmasin ishlab chiqarish, taqsimot sohasidami, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo’yish ishidami, odil sudlovchi amalga oshirishdami davlat, jamoat mulkidan va xizmat mavkeidan shaxsiy boylik ortirish maqsadida foydalanish va shu kabi xollardami, bo’larning hammasi kishilarning tabiiy noroziligini ko’zgotadi, unga qarshi faol harakat qilina boshlaydi. Tozalash deb atalgan bir so’z

bilan ifodalash mumkin bo'lgan jarayon ro'y beradi. Hozirgi kunda ijtimoiy adolat normalarini qaror toptirish uchun uning yo'lida tusik bo'lgan juda murakkab ko'pdan -ko'p muammolarni bartaraf etishga to'g'ri kelmokda.

Jamiyat ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari boruvchi insonni o'z ijtimoiy turmushining markaziga qo'yish orqali yetuklik bosqichiga erishgan sayin ijtimoiy adolatning ko'pgina muammolarini hal etish uchun yangi imkoniyatlar ob'ektiv ravishda ega bo'lib qoladi. Endilikda hamma gap shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda qolgan. Ishlab chiqarish iqtisod boshqaruv, sohasidagi har qanday qarorga endilikda ijtimoiy adolat printsipini mustaxkamlashga qay darajada ko'maklashadi, degan nuqtai nazardan qaralmokda.

Jamiyatning har bir fuqarosiga qo'yadigan u yoki bu iqtisodiy siyosiy huquqiy talabi odilligini, o'zining xizmat qilaetgan ishining xaqligiga komil ishonch ma'naviy ruxni oshiradi, shaxsni uluglaydi, aktiv hayotiy pozitsiyani vujudga keltiradi.

Ijtimoiy manfaatlarni ko'zlamay turib, xakikiy adolatni tasavvur qilish ham uning printsiplarini amalga oshirish ham mumkin emas. Jamoat davlat ishini o'z ishi deb bilib gamxurlik qilish – ijtimoiy adolatning muhim qirrasidir.

11.2. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va ularni guruhlanishi.

Jamiyatda siyosiy hokimiyat amal qilishi, uning chegaralari, qoidalariga doimiy ta'sir ko'rsatuvchi kuchlar mavjud. Agar biz siyosiy hokimiyatni-barcha guruhlar manfaatlari borasidagi doimiy o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirning oliy ko'rinishi tarzida baholaydigan bo'lsak, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar siyosiy hokimiyatning asosiy subyektlari, deb qaralishi lozim bo'ladi. Ammo, shaxs hayotda turli rollar va turli vazifalarda namoyon bo'lishini yaxshi bilamiz. Masalan, yigit (qiz) oilada - farzand, o'quv dargohida - talaba, to'garakda - shogird, siyosiy harakat yoki uyushmada - xayrixoh, faol a'zo yoki yetakchi singari rollarni bajaradi. U turli maqsad va vazifalar doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari, yosh, jins, millat, kelib chiqishi, egallayotgan (yoki egallab bo'lgan) kasbiga ko'ra bog'liqliklar ham mavjud.

Shunday qilib, inson o'z ijtimoiy yoki siyosiy faoliyatini turli guruhlar ichida olib boradi. Siyosiy fanda ana shu faoliyatlarning hammasi emas, faqat hokimiyatga qaratilganlarigina o'rganiladi. Deylik, tadbirkor o'z ish faoliyati yuzasidan turli jamoalar, guruhlar bilan bog'lanadi, ular bilan birgalikda yoki ularga zid ravishda harakat qiladi. O'z - o'zidan tushunarligi, tadbirkorning bu faoliyati politologik tahlil obyekti bo'la olmaydi. Ammo, tadbirkor o'z muammolarini siyosiy hokimiyat orqaligina hal qila oladigan hollar mavjud. Masalan, soliq siyosatini o'zgartirish, davlat miqyosida u yoki bu qonunni qabul

qilish yoki bekor qilish. Bu holda tadbirkor o'ziga o'xshash boshqa tadbirkorlar bilan uyushadi, yoki agar shunday uyushma mavjud bo'lsa, unga murojaat etib, hokimiyat organlarida o'z manfaatini himoya qiluvchi qaror qabul qilinishini talab etadi. Shu tarzdagi bosimni kuchaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik, mutaxassislar muhokamaga tortiladi v.h. Siyosatda uyushgan ijtimoiy guruuhlar ta'siri samarali, deb hisoblanishi ana shundan. Tadbirkorning shu tarzdagi faoliyati - bevosita politologik tahlil obyektini tashkil etadi. Shunday qilib, jamiyatni undagi mavjud ijtimoiy guruuhlar yoki qatlamlar nuqtai nazaridan o'rganish-siyosiy fandagi yana bir muhim yo'nalishlardan biridir. Jamiyatlar barcha davrlarda ichki bo'lingan.

Taraqqiyot davomida bu bo'linish murakkablashib borib, jamiyatlar bag'rida yangidan - yangi qatlamlar vujudga kelgan. Ijtimoiy qatlamlarning siyosatdagi muhim o'mmini allomalarimiz Forobiy, Ibn Sino, Nizomulmulk, buyuk Amir Temur alohida ta'kidlagan. Jamiyatlarning rivojlanishi bilan bu o'ren yanada mustahkamlandi. Demokratik jamiyatda ijtimoiy guruuhlar siyosatning faol subyektiga aylanadilar. Boshqacha qilib aytganda, demokratik jamiyat o'z manfaatlariga ega bo'lgan va shu manfaatga erishish uchun faoliyat ko'rsatuvchi turli ijtimoiy guruhlarning birligidir. Jamiyatni aynan shu tarzda qarash va o'rganish demokratik an'anaga xosligini yana bir bor ta'kidlaymiz. Siyosiy tizimlarning ichida faqat demokratiyagina guruhlarning keng siyosiy ishtiroki, muhokama, murosaga asoslanadi.

Demak, "xalq" deb ataluvchi yaxlit birlik aslida har xil manfaatlar, ehtiyojlarga ega turli ijtimoiy guruhlardan iborat ekanligi va bu hol qonuniyiligi e'tirof etildi. Bu guruuhlar jamiyatda tutgan o'rinnari, ega bo'lgan resurslari, uyushish darajasiga ko'ra farqlanadi. Shuningdek, bu guruuhlar o'rtasidagi farqlar demografik, etnik, konfessional bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy qatlamlashuv-o'zaro bog'liq va pog'onala shuv asosida tashkil topgan qatlamlar birligidan iborat ijtimoiy tengsizlik tizimi. Har qanday jamiyatni turli omillarga asosan turli xil ijtimoiy guruhga bo'lish mumkin.

Ijtimoiy guruhlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- demografik guruuhlar. Masalan, yoshlar - qariyalar, ayollar - erkaklar, oilallar va oila ko'rmaganlar v.h. Jamiyatda ushbu har bir guruhning o'z muammolari, ehtiyojlari, talab va istaklari mavjudligi demografiya yoki sotsiologiyada chuqur o'rganiladi.
- etnik jamoalar (guruuhlar) odamlarning tarixiy, barqaror ijtimoiy birligi sifatida qabilalar, elatlar, millatlardan iborat. Millat - etnosning oliy ko'rinishi. Uni, odatda, hudud, iqtisodiy aloqalar, til, ruhiy o'ziga xoslik, madaniyat va o'z - o'zini anglashning umumiy jihatlariga ko'ra farqlashadi. Siyosatga, etnik jamoalar

(guruuhlar)ning doimiy bosimi mavjud va bu uning eng nozik, eng murakkab yo'nalishi.

Negaki, etnik masalalarini to'la ko'lamda faqat davlat miqyosidagina hal qilish mumkin. Shuning uchun, har bir millat hokimiyatga o'z ta'sirining doimiy va barqarorligidan manfaatdor.

- e'tiqod asosida birlashuvchi ijtimoiy - guruuhlar. Bularga dindorlar va ateistlar, turli e'tiqod tarafdarlari kiradi.

- sinflar. Daromadi, bilimi, malakasi, nufuzi, hokimiyatga ta'sir darajasi bilan ajralib turuvchi guruuhlar.

Shunday qilib, mohiyatiga ko'ra siyosiy boshqaruvi mexanizmi - turli - jamoalar (guruuhlar) o'zaro munosabatining birligidan iborat. Jamiyatda mavjud har qanday manfaat hokimiyat tomonidan tenglik asosida qabul qilinmaydi. U yoki bu ijtimoiy manfaatni siyosatda hisobga olinishi uchun u "eshitilishi", "ko'zga ko'rinarli" bo'lishi, "bosim ko'rsata" olishi lozim.

Guruuhlar va fuqarolar o'z resurslarining cheklanganligini yengib o'tishga doimo intiladilar. Ana shu intilishlarni boshqara bilish, ularni tinch yo'lga yo'naltirish siyosiy sohada hal qilinuvchi masalalardan biridir. Chunki, biron guruh ijtimoiy mavqeining ortishi doimo boshqa guruhning hisobiga ro'y beradi. Guruuhlar o'rtasidagi farqlar doimiy va o'zgarmas tabiatga egami?

An'anaviy jamiyatlarda, bunday tengsizlik holati barqaror bo'lib, u jamiyatda muayyan ixtiloflar va keskinlikning manbai bo'lib xizmat qiladi. Bir ijtimoiy guruh, masalan, ayollar maqomining jamiyatda kattiq chegarada saqlanib turilishi, manfaatlarining doimiy ravishda inkor etilishi - shu qatlam noroziligining kuchayishiga olib kelishi mumkin. An'anaviy jamiyatlarda buning oldini olish uchun zo'rlik, muayyan urf - odatlarning kuchayishi kabi vositalar qo'llanadi.

Siyosiy jarayonning bevosita subyektlari - davlat, partiyalar, jamaot birlashmalari, ijtimoiy – siyosiy harakatlar mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi turli ijtimoiy guruuhlar, qatlamlarning manfaatlarini bayon etish, ularni siyosiy hokimiyat doirasiga olib chiqish, hal etish, uchun faoliyat ko'rsatadi. Agar shunday bo'lmasa, ya'ni partiya, jamaot birlashmasi yoki harakat muayyan ijtimoiy guruh manfaatini emas, tashkilot, ya'ni o'zining manfaatini ifodalash uchungina faoliyat ko'rsatsa, bunday tashkilotni nodemokratik, deb atashga toliq acocga egamiz. Yuqorida aytib o'tilgan manfaatlarni bayon etish vazifasi "vakolat", "vakolatlilik", "vakolat tizimi" tushunchalari bilan chambar chas bog'liq.

Ijtimoiy vakolat g'oyasi va tamoyillari

"Vakil" tushunchasi juda ko'p ma'nolarda ishlataladi. Masalan, muayyan bir shaxs to'g'risida o'z millati, kasbi, ijtimoiy guruhi v.h.ning "tipik vakili" biror

mamlakat vakili, davlat rahbari vakili, u yoki bu savdo kompaniyasining vakili deyiladi: Siyosiy so'zlashuvda "vakil", "vakolatlilik" deyilganda biror guruh, partiyalarning muayyan bir shaxsga, tashkilotga, idoraga o'z manfaatlarini hokimiyat tarkibida himoya qilish uchun vakolatlarning berilishi nazarda tutiladi.

Alovida olingan har bir individ davlat boshqaruvida bevosita ishtirok eta olmaganligi tufayli, aholining turli qatlamlari manfaatlarining muayyan vakolat va huquq berilgan maxsus vakillar himoya qilishi mumkin. Saylangan vakillar xalq manfaatlarini xalqning o'zidan ko'ra yaxshiroq amalga oshirishi va himoya qilishi ehtimol qilingan. Vakolatlilikning qanchalik yuqori ahamiyatga molik bo'lganligini, masalan, Dj. Medison respublika boshqaruvini vakolatlilik bilan bir narsa, deb baholaganida ko'rish mumkin.

Avval, vakolatlilikni amalga oshirishning samarali yo'llari va vositalarini izlay boshlandi.

Angliyada amaliy vakolat nazariyasi qaror topdi. Uning mohiyati shundan iboratki, parlament a'zolari aholining ayrim qatlamlari (yoki guruhlari) ning emas, butun millatning vakillaridirlar. Shuning uchun ular qanday qilib, kimlarning orasidan va qaerda saylanganlarining ahamiyati yo'q. Shu qarash mualliflari—viglar—parlament a'zolari saylanganlaridan so'ng o'z saylovchilariga boshqa bog'liq bo'lmasliklari kerak, deb ishonishardi. Konservatorlar parlament — qandaydir har hil, bir — biriga dushman manfaatlarning elchilari to'plangan joy emas, balki umon manfaatini amalga oshirishga intilayotgan; butun ingliz xalqi vakillarining kengashi bo'lishi kerakligini zo'r berib ta'kidlagan.

Sh.L: Monteske fikricha, odamlar o'z aholi punktlari, shaharlari, regionlari manfaatlari va muammolarini mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan yaxshiroq biladilar.

Shuning uchun hokimiyat organlariga vakillarni butun mamlakatdan emas, saylov okruglariga aylantirilgan alovida shaharlar, joylardan saylash kerak. Shu tariqa amaliy vakolat nazariyasi geografik vakolat g'oyasi bilan to'ldirildi. U Amerikada qaror topdi. Unga ko'ra qonun chiqaruvchi yig'ilish a'zolari davlatning butun aholisi vakillari sifatida emas, muayyan hudud vakillari sifatida: saylanishlari kerak bo'lgan.

Bu ikki shakl bilan Fransiyada vujudga kelgan fraktsion va milliy vakolat nazariyalari uzviy bog'lik Fraksion nazariya J.J.Russoga borib taqaladi. U xalq suvereniteti odamlar suverenitetidan kelib chiqadi, degan fikrga asoslanadi. Masalan, davlat o'n ming fuqarodan iborat. Bu holda har bir fuqaro hokimiyat suverenitetining o'n mingdan bir qismiga ega.

Zamonaviy fraktsion suverenitet nazariyasiga ko'ra har bir fuqaro o'z deputatiga taqdim etgan mandatda ulushga ega. U, shuningdek, mandatning

imperativ harakterini, ya'ni deputat o'z faoliyatida saylovchilar irodasi bilan bog'liqligini nazarda tutadi. Bizning kunlarda bu nazariya demokratiyaning muhim qirrasini tashkil etadi. Unga "bir inson — bir ovoz" tamoyili toliq mos keladi.

Milliy vakolat nazariyasi ham vakolatlilikni amalga oshirishda muhim o'rinni tutadi. Buyuk fransuz inqilobi davrida uning Konstitutsion Assambleyasi suverenitet alohida fuqarolarga emas, ularning ayrim birligi millatga mansubligi to'g'risidagi g'oyani asoslab berdi. Unga ko'ra har bir deputat o'z saylovchilarining vakili emas. Aksincha, deputatlar millat irodasini bayon etib, millat ularga topshirgan mandatni amalga oshiradilar. Shunga ko'ra, fraksion vakolat nazariyasidan farqlicha, mandat o'z imperativ harakterini yo'qotadi, ya'ni depugatlar endi o'z saylovchilari irodasini emas, butun millat irodasini ifodalaydilar.

Vakolat nazariyاسining ahamiyati shundaki, u respublika va demokratik boshqaruv shakllarining keng miqiyosda yoyilishiga turtki bo'ldi. Yuqorida aytib o'tilganidek, "to'g'ridan — to'g'ri" demokratiya nisbatan kichik jamoalarga xos edi, negaki, u barcha yoshi katta fuqarolarning eng muhim qarorlarni qabul qilishda ishtirokini shartlar edi.

Zamonaviy aholisining soni millionlarni tashkil etuvchi, davlatlarda bunday modelni tatbiq etib bo'lmaydi. Aynan vakolat institutining shakllanishi milliy davlat doirasida respublika yoki demokratik boshqaruv shaklining qaror topishi imkonini berdi. Bu vaqtda hatto boshqaruvning bunday shakli — yolg'iz milliy davlat bilan uzviy bog'liq, degan fikr ham qaror topdi "Jamiyat qancha kichik bo'lsa, — deb yozadi Dj.Medison, — aniq farqlanuvchi partiyalar va manfaatlar paydo bo'lishi uchun shuncha imkoniyat kam va ko'pchilikning bir partiyada bo'lib qolishi ehtimoli ko'proq. Maydon kengayishi va aholi sonining ko'payishi bilan "partiyalar soni va manfaatlar xilma- xilligi ancha ko'payadi". Aynan shu holat, Medison fikricha, respublika sharoitida fraksion kurashni xavfsiz qiladi.

Vakolat prinsiplari va turli ijtimoiy qatlamlar vakillarining qonun chiqaruvchi v.b. hokimiyat organlariga saylanishi o'z — o'zidan bu prinsiplarni amalga oshirish vositalari va qurollari to'g'risidagi masalani qo'ydi. Ana shunday vosita sifatida hozirgi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda siyosiy partiyalar, harakat, uyushmalar qaror topdi.

O'xshash manfaatli va dunyoqarashli odamlar oxir— oqibatda yagona maqsadga erishish uchun birlashadilar. Bir- biri bilan kelisha olmaydigan turlicha manfaatlar va fraksiyalar mavjudligining qonuniyligini tan olish hokimiyat tizimida bu manfaatlar va fraksiyalarni siyosiy tizimda ifodalash vositalari, ya'ni partiyalar, harakatlar, uyushmalar qonuniyligini tan olishga olib keladi.

Vakolat prinsipi ahamiyati oshishining yana bir sababi — siyosiy jarayonga yangi — yangi aholi qatlamlarining kirib kelishi, xalqning ijtimoiy — siyosiy hayotdagi roli ortganligidir.

Zamonaviy jamiyatlarda esa siyosiy hokimiyat turli ijtimoiy qatlam vakillarining bir qatlamdan ikkinchisiga o'tishi, yoki butun bir qatlamlar maqomining o'zgarishi (masalan, tadbirkorlikning sinf sifatida jamiyatimizdag'i ta'sirining kuchayib borishi) jarayonini kuzatib, boshqarib, muvofiqlashtirib boradi. Masalan, O'zbekistonda ham, barcha zamonaviylashuv jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlar singari, marginal qatlama mansub odamlar soni keskin ortib ketdi.

Buning obyektiv va jiddiy sabablari juda ko'p. Shulardan biri, sobiq tuzum davrida ko'pchilik odamlarda shakllangan boqimandalik kayfiyatidir. Mehnatining samarasini ko'rmay ishga borib — kelishining o'zi uchungina, oydan — oyga kafolatli ish haqi olib o'rgangan odamlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning doimiy hamrohlar - tengsizlikning kuchayishi, inflatsiya, ishsizlik, tanlov asosida ishga kirish kabi holatlarga tayyor bo'lмагanlar. O'tgan o'n yil davomida bu jarayonlarda o'z yo'lini topib, yangi ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z egallagan maqomidan qoniqqan odamlar bilan bir qatorda, shu vaziyatda turli sabablar bilan o'z maqomini yo'qotgan shaxslar ham mavjud. Shu bilan birga yangi ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini topa olmagan yoshlar ham marginal qatlam safiga kirib keladi. Ushbu qatlamni o'z mavqeidan norozilik, quyi bilim yoki past kasbiy malaka darajasi, umidsizlik va, eng muhimi, o'z ahvolini oson va tez o'zgartirishga intilish ajratib turadi. Bu qatlamning son jihatdan ko'payishi va muammolarining uzoq vaqt hal qilinmasligi jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf soladi.

Shaxs, guruh yoki qatlam mavqeining o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni "ijtimoiy mobillik" yoki "ijtimoiy siljish", deyiladi. Ijtimoiy mobillik ijtimoiy barqarorlik tushunchasi bilan bevosita bog'liqligini yuqoridagi misollarda ko'rdik. Agar ijtimoiy—iqtisodiy munosabatlar doirasida guruhlarning siljishi—jamiyat uchun odatdagi chegaralarda amalga oshsa, bu — sezilarli o'zgarishlarga olib kelmaydi. Ijtimoiy—iqtisodiy o'zgarishlar keskinlashganda, guruhlarning siyosatga bosimi kuchayadi, barqarorlik uchun xavf tug'iladi. Demak, ana shu turdag'i keskinliklarni oldini olish — davlat siyosatining muhim yo'naliши. Shaxs yoki gurux mavqeining o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarning ochiqligi, ya'ni inson yoki guruh sifatlari, bilimi, malakasi, samarali faoliyati kabi jihatlariga ko'ra o'z maqomini o'zgartira olish imkonining mavjudligi bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lган ixtiloflarni va ziddiyatlarni yumshatadi, jamiyatdagi guruhlarning o'zaro hamkorligi, manfaatlarining yaqinlashishiga olib keladi.

Jamiyatda aniq—ravshan ajralib turuvchi ijtimoiy guruh sifatida, birinchi navbatda, sinflar ajratib ko'rsatiladi. Sinflar — daromad miqdori, kasbining

nufuzliligi, bilimi, hokimiyatga ta'siri darajasiga ko'ra belgilanuvchi, ijtimoiy maqomi taxminan bir xil bo'lgan odamlar guruhidir. Ushbu ta'rifga ko'ra, jamiyat ishchi - dehqonlarga emas, turmush tarzi, qadriyatları, xulq — atvori, qarashlari o'xhash bo'lgan odamlar guruhi — yuqori sinf, o'rta sinf, bo'yicha sinfga ajraladi. Mazkur "Amerikada demokratiya" asarining mualifi Aleksis de Tokvil Arastudan XX asr so'ng jamiyatda faqat "o'rta sinf" ning ko'pligi — barqarorlik va tinchlikni ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlagan.

Yuqori sinf (juda boylar) yoki buyi sinf (kambag'allar) ning ko'payib ketishi - jamiyatda zulm va istibdodning ortishiga olib keladi, Tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydi. Yuqori sinf nafaqat boylik, balki yuqori bilim, malaka, axborotga ko'proq darajada egaligi sababli yangliklarga ochiq, muhokama va muloqotga tayyor ekanligi sotsiologik tahlil bilan isbotlangan. Shu bilan bir qatorda, bu qatlama vakillari quyi sinf muammolari — ish sharoitini yaxshilash, ish haqini oshirish, ijtimoiy himoya masalalariga ancha loqaydiliklari bilan ajralib turishi ham aniqlangan. O'z navbatida, quyi sinf vakillari ta'lim darajasi pastligi, malakasizligi, axborotga ega emasligi natijasida hokimiyat bilan munosabatlarida ko'proq o'z shaxsiy tasavvurlari, mish-mishlarga suyanishlari, o'z ahvollarini yaxshilash uchun keskin, radikal choralar qo'llash tarafdoi ekanligi bilan ajralib turadi. Masalan, "davlatning barcha tashkilotlarida nazorat o'tkazib, tartib o'rnatish kerak" qabilidagi "g'oyalar" singari.

Faqat o'rta sinfgina jamiyatni barqaror tutib turuvchi ijtimoiy kuch bo'la oladi, Bir tomonidan, bu sinf vakillari yetarli darajada bilim, axborot, malaka, boylik, obro'ga ega bo'lganlari uchun keng fikrlay olish, jamiyatdagi jarayonlarga to'g'ri baho bera olish layoqati va resurslariga ega bo'lsalar, ikkinchi tomonidan, ular boshqa qatlamlar manfaatlari va harakatlarini kuzatib borish, muammolar yechimini izlash, ularni hal qilishdan to'la manfaatdorlar.

O'tish davri jamiyatlarida ijtimoiy sohada hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan birini, shu tariqa, jamiyatda o'rta sinf, ya'ni o'z oyog'ida mahkam turgan, mulkdor odamlar guruhini shakllantirishdan iborat, deyishimiz mumkin. Bunda mulk, albatta, do'kon, firma, korxonagini emas, hunar, bilim ham bo'la oladi.

Jamiyatda aniq — ravshan ajralib turuvchi demografik guruhlarni: qadriyatlar, yoshlar, ayollar singari toifalarga bo'lish mumkin, Ularning har biri o'ziga xos hususiyatlari, manfaatlari asosida ijtimoiy guruh sifatida qaraladi. Ular bir jamiyatda ana shu guruhlar muhim ta'sir kuchiga egalar. Masalan, zamonaviy jamiyatlarda resurslari yetarlicha foydalanimayotgan ijtimoiy guruh sifatida ayollar qaraladi. Ayollar muammolariga eng ko'p diqqatni qaratayotgan jamiyat azal — azaldan eng ma'qul jamiyat, deb hisoblangan. Shu bilan birga, ma'lumotlarga ko'ra, ayol huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirishda eng ko'p

muvaffaqiyatlarga erishgan Shvetsiyaga ham BMT ekspertlari fikricha, to'la tenglikka erishishi uchun yana 100 — 150 yil kerak ekan.

Zamonaviy jamiyatlarda din siyosatdan ajratilgan. Fuqarolarning e'tiqod erkinliklari davlat va jamiyat tomonidan e'tirof etilib, kafolatlangani holda, birorta diniy guruhning o'z qarashlari va aqidalarini butun jamiyat uchun zo'rlik bilan kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Etnik jamoa (guruh) — qabila, elat, millat kabi barqaror guruhlardan iborat. Bu guruhlarning har birini ba'zan "xalq", deb ataladi. Ba'zan "etnik jamoa" tushunchasi bilan bir necha xalqlarni nomlashadi. Masalan, o'zbek, qozoq, turkman, qirg'izlar — turkiy etnik jamoasi tarkibiga kiradi.

Milliy o'z — o'zini anglaganlik — milliy jamoa a'zolarining o'z tarixi, buguni va kelajagi, boshqa jamoalar qatoridagi o'z o'rni va ular bilan munosabatlarga doir, qarashlar, fikrlar, baholar birligidir. Milliy o'z- o'zini anglash natijasida ijtimoiy — etnik guruh siyosat subyekti sifatida shakllanadi. Bu jarayonda milliy manfaatlar ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy guruhlarning ichida ochiq — ravshan ko'rinish turuvchi va o'z manfaatlarini yuqori darajada anglaganligi, uyushqoqligi, yuqori malakaviyiliği va hokimiyatga bevosita kuchli ta'sir eta oluvchi byurokratiya — siyosatning faol sub'ekti, deb qaralishi mumkin.

By hodisani tahlil etganda, unga ikki xil yondashuvni bir — biridan ajratish lozim. Birinchisi, byurokratiyani davlat boshqaruvi mexanizmi sifatida, asosan, tanqidiy baholovchi ommaviy ong va, ikkinchisi, uni hukmronlik uslublari va usullari haqidagi bilim egalari sifatida o'rganuvchi politologik va sotsiologik yondashuvlardir.

11.3. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy sohalari

Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqaqlashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni byudjet orqali turli guruhlari o'rtasidagi qayta taqsimlashdan iborat.

Davlat daromadlarini qayta taqsimlashdan ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor narxlarini o'zgartirish va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo'lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog'liq bo'lmaydi.

Ijtimoiy to’lov larning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni inson parvarishlashtirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholini daromadlari darajasiga infliyatsiya sezilarli ta’sir ko’rsatish sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste‘mol tovarlarni narxning o’sishini hisobga olish va nominal daromadlarini narxlar o’sishiga bog’liqlikdan oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muhim yo’nalishi aholining kambag’al qatlamini qo’llab-quvvatlash hisoblanadi.

Amaliy hayotda qashshoqlikning o’zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning minimal me‘yor bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajatlarni ham o’z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko’zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan malakatlarda aholining ijtimoiy yordamiga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulkni miqdori, oilaviy ahvoli kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o’rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishag yo’naltirilgan siyosatdir.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo’nalish – bu narxlar erkinlashtirilishni va pulning qadrsizlanish darajasiga ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o’rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. “Ma‘lumki, malakatimzda kam ta‘minlangan oilalarni bepul sigir berish yo’li bilan qo’llab-quvvatlash alohida e’tibor qaratiladi. Masalan, 2006 yildan hozirga qadar nan shunday oilalar uchun 103 mingdan ziyod qoramol berildi. Natijasida 2009 yilning birinchi yanvargacha shaxsiy yordamchi va dehqon xo’jaliklari qoramol boquvchi sifatida ro’yxatga olingan fuqarolarning umumiy soni bir million 100 mingdan ko’proqni tashkil etdi. Shulardan 54 ming kishiga yangi mehnat darajasiga berildi, bir yuz o’n bir ming fuqaroning esa mavjud mehnat daftarchasiga ish stoji tegishli tartibda qayd etildi” 1.

Aholining ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo’nalishi – ichki iste‘mol bozorini himoya qilish, hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq – ovqat mollari asosiy turlari iste‘molini muayyan darajada saqlab turish bo’ldi. Bunga erishishida muhim mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ulrga yuqori boj to’lov lari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me‘yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyaga ega bo’ladi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo’nalishi - aholining kam ta‘minlangan tabaqalarning ijtimoiy himoyalash va qullab-quvvatlash borasida

kuchli chora-tadbirlar o'tkazganligi bo'ldi. Masalan, pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

Yalpi ijtimoiy kafolatlar tizimdan ishonchli ijtimoiy kafolatlari va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tiziiga izchillik bilan o'tish-ijtimoiy siyosati amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlanishini bildiradi.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar davlat byudjetining umumiylariga nisbatan 2006 yilda 51,9 foizni, 2007 yilda 53 foizni 2009 yilda 54,6 foizni, 2009 yil 56,3 fozni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 59,1 foizni yetkazish rejalashtirilgan.

Mamlakatda 2008 yilda ijtimoiy infuzilma bo'yicha qilingan ishlar salmoqli bo'ldi. Ya'ni, "Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169ta kasb-hunar kolleji va 14 ming 700 o'rinni 23ta akademik litsey qurildi va rekonstruktsiya qilindi. Shu bilan birga, 69ta yangi maktab barpo etildi va 582ta maktab kapital rekonstruktsiya qilindi. Shular qatorida 184ta bolalar sport inshooti, 26ta qishloq vrachlik punkti va 7 million 240 ming kvadrat metr to'rар joy binolari va boshqa ob'ektlar qo'rildi" [1]

Bularning barchasi mamlakat aholisini ijtimoiy har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, uning turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, islohotlar davridagi davlat aholining muhtoj tabaqalarni qo'llav-quvvatlash bilan birga, o'z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta'minlashga haraqat qilayotgan kishilar uchun teng sharoit va qo'lay imkoniyat yaratib bormoqda.

11.4. Davlatning ijtimoiy siyosati

O'zbekistonning o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazishdir. Qolgan barcha qoidalari ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida qat'iy kafolatni vujudga keltirishga bo'ysundirilgan.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish birdan-bir maqsad emas. Barcha islohotlar - iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad insonning mehnat, ijodiy va ma'naviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat. Shu sababli

jamiyatning sifat jihatidan yangi holatga o‘tishida bizga islohot chog‘ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, axloqiy qadriyatlar, ma’naviy tayanchlar barbod bo‘ladigan, o‘tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas. Davlatning faol islohotchilik mavqeida butun diqqat-e‘tiborni iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish muammolarini birinchi navbatda hal etishga, qonuniylik va huquq-tartibotga rioya qilishga, eski iqtisodiy munosabatlarni bozor munosabatlariga aylantirishga qaratish ijtimoiy barqarorlik uchun mustahkam negizni vujudga keltiradi.

O‘z navbatida, aholining eng kambag‘al, muhtoj tabaqalariga vaqtida madad berish, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo totuvlikni ta‘minlash islohotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun kafolat bo‘lib xizmat qiladi. Boshlangan poklanish jarayonini totalitar rejim, odamlarni ma‘muriy va mafkuraviy jihatdan qul qilish sari burib yuborishga yo‘l qo‘ymaydigan ijtimoiy tayanch bo‘ladi. Shu boisdan bozor munosabatlarini joriy etishdan avval odamlarni oldindan kuchli darajada ijtimoiy himoyalash choralar ko‘rilishi kerak.

Shvetsiya, Germaniya, Avstriya va boshqa rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasi odamlar ijtimoiy himoyalangan va kafolatlarning kuchli, ta’sirchan vositasi mayjud bo‘lgan taqdirdagina bozor iqtisodiyoti sari jadal harakatni ta‘minlash, tarkibiy qayta qurish, ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish va, ayni paytda, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo‘lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi. Bozor munosabatlariga o‘tishni jadallashtirish davrida faol ijtimoiy siyosatni kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar qatoriga qo‘yish bir qancha omillar bilan bog‘liq.

Birinchidan, respublikada bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni juda noqulay ijtimoiy sharoitda boshlandi. O‘zbekiston boshqa mustaqil respublikalardan farqli ravishda, tub iqtisodiy islohotlarni aholining turmush darajasi juda past bo‘lgan sharoitda o‘tkazishga majbur bo‘lmoqda. Respublika aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan haqiqiy daromad, o‘rtacha oylik ish haqi va pensiyalar miqdori jihatidan, oziq-ovqat mahsulotlari, ashyoviy buyumlar bilan ta‘minlanish, pulli xizmat, uy-joy maydoni, ijtimoiy-madaniy muassasalar tarmog‘i jihatidan eng so‘nggi o‘rinlardan birida edi. Aholining mutlaq ko‘pchiligi qashshoqlikda kun kechirayotgan edi. Aholining demografik tarkibi boqimandalarning soni ko‘p bo‘lishini oldindan belgilab qo‘ygan edi. Respublika aholisining dearli to‘rtadan uch qismi o‘zining eng zaruriy ehtiyojlarini ham qondirishga qodir emasdi, davlatning madadiga muhtoj edi. Bularning hammasi bирgalikda islohot yo‘lidagi har bir qadamni aholi qanday kutib olishini nazarda tutishni, zarur hollarda esa, ana

shunday qadamni qo‘yishdan oldin, aholining qashshoq tabaqalarini hamda ma’lum miqdorda daromad oladigan shaxslarni oldindan himoyalash yuzasidan samarali chora-tadbirlar ko‘rishni talab qilar edi. Bunday sharoitda kuchli ijtimoiy kafolatni vujudga keltirmay turib o‘tkazilgan islohot barbod bo‘lishi muqarrar edi.

Ikkinchidan, oldingi taqsimlash tizimi munosabatlarining barcha illatlarini odamlarga singib ketgan bir tekischilik psixologiyasini tag-tomiri bilan tugatish qat’iy zaruratdir. Sobiq respublikalardagi islohotlarning murakkabligi shundaki, odamlarda bir necha avlod davomida tarbiyalangan mehnatga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish qiyin. O‘z vaqtida odamlarning ongiga zo‘r berib singdirilgan aqidalarga mos ma’lum tafakkur vujudga kelgan va ularni tugatish nihoyatda mushkuldir.

Insonning jamiyatdagi o‘z o‘rni haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishi, u o‘zini kichkina odam, uning uchun hamma muammoni davlat hal qiladi, deb hisoblashi - o‘tmishdan qolgan asosiy merosdir. Bizda odamlar shunday tarbiyalangan, bu ularning aybi emas, hamma illat shundaki, odamlarimiz ular uchun kimlardir o‘ylaydi, deb hisoblashadi. Davlat va hukumat, korxona va xo‘jalik bor ekan, ular hammasini o‘ylaydi va bizni kulfatda qoldirmaydi, deb hisoblaydilar. Pirovard natijada shunday munosabat vujudga keladiki, mehnat omillari mutlaq yo‘q bo‘lib ketib, inson tabiatidagi ulkan salohiyat barham topadi. Eng achinarlisi shundaki, o‘z faoliyatining maqsadga muvofiqligini, samarali va natijador mehnati bilan munosib turmush sharoitini ta’minlashi mumkinligini tushunib yetish amrimahol bo‘lib qoldi. Bunday sharoitda odamlar o‘z imkoniyatini ishga solmaydi, balki yulg‘ichlik, mehnatsiz daromad olish, ijtimoiy to‘lovlardan tekinga foydalanish hisobiga yaxshi turmushni ta’minlashning nomaqbul yo‘llarini topishga urinadi. Bir tekischilik yuz berayotganini va o‘z mehnati munosib baholanmaganini ko‘rgan odam esa ranjiydi, uning tafakkuri o‘zgaradi.

O‘tmishdan qolgan merosning nuqsoni yana shundaki, davlat boy bo‘lsa oila ham, har bir inson ham badavlat bo‘lsa bo‘ladi-u, biroq buning aksi bo‘lmaydi, deb hisoblab kelingan. Bunday sharoitda ishlab chiqarish va mehnatning samarador bo‘lishiga umid qilish qiyin edi. Bunday dunyoqarashning eng achinarli tomoni shundaki, davlatimiz boy - bizni och qoldirmaydi, degan gaplar hayotimizga singib ketgan edi.

Uchinchidan, zamonaviy bozor munosabatlarining tabiatи iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytirishni taqozo etadi. Chunki bozor munosabatlari bozorni mollar va xizmatlar bilan to‘ldirish orqali har bir kishining va jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Ijtimoiy yo‘nalishdagi o‘z bozor iqtisodiyotimiz yo‘lini vujudga keltirish ijtimoiy himoyalashning shunga mos keladigan yaxlit tizimini barpo etishni talab

qiladi. Bu tizim fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini ta'minlashning iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini o'z ichiga olishi lozim.

Bozor tomon harakat qilingan sari, ijtimoiy siyosatning ustuvor jihatlari, aholiga ijtimoiy madad berish va uni himoya qilish choralari ham o'zgara boradi. Islohotning turli bosqichlariga ijtimoiy siyosatning o'ziga xos qoidalari mos keladi.

Masalan, bozor munosabatlarini vujudga keltirishning dastlabki bosqichida ulgurji va chakana narxlarning anchagina qismi erkin tus oladi. Bunday sharoitda pulning qadrsizlanishi kuchayadi, iqtisodiyot bir tekis ishlay olmaydi. Bu davrga asosiy vazifasi butun aholining hayotini ta'minlaydigan amaldagi tizimni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashdan, aholining moddiy ahvoli keskin yomonlashib, ommaviy ravishda qashshoqlashishiga, umumiy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdan iborat bo'lgan ijtimoiy siyosat mos keladi.

Bu bosqichda ijtimoiy himoyalash choralari asosan tovon to'lash vazifasini bajardi. Asosiy e'tibor hayotiy zarur oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi pasayishiga yo'l qo'ymaslikka, kerakli ashayoviy mollarning kamaytirilmasligiga, ularni bemalol xarid qilish kafolatini vujudga keltirishga, valutaning ko'p kirib kelishi natijasida ichki bozorning barbod bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka, aholining daromadlari va narx-navo darajasini boshqa mustaqil respublikalardagi darajaga bosqichma-bosqich tenglashtirib borishni ta'minlashga qaratildi.

Aholining eng kam daromadli tabaqalariga - nafaqadorlarga, nafaqadorlarga, ko'p bolali va kambag'al oilalarga, o'quvchi yoshlarga, ya'ni eng qiyin ahvolga tushib qolgan odamlarga amaliy yordam ko'rsatish ijtimoiy himoyalash tizimining asosiy yo'nalishi bo'ldi. Shu maqsadda aholining mazkur toifalari uchun kundalik zarur mollarni sotib olishda, kommunal va transport xizmatiga haq to'lashda qo'shimcha imtiyozlar joriy etildi. Pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar miqdori ancha oshirildi. Hozir respublikada 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga nafaqa to'lash tizimi amal qilmoqda. Ikki yoshgacha bo'lgan go'daklar hamda kamqonlik kasaliga uchragan homilador ayollarning bepul ovqatlanishi tashkil etildi. Umumiy ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarning o'quvchilariga bepul nonushta berildi. Maktab o'quvchilari va talabalar tushlik ovqati qiymatining 50 foizi chegirib tashlandi.

Narx-navoning o'sishi munosabati bilan ish haqining miqdorini qayta ko'rib chiqishni ham aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlari qatoriga kiritish zarur. 1991 yildan boshlab ish haqini oshirish to'g'risida yettita hujjat qabul qilindi. Shu maqsadlarga yarim trillion so'mdan ko'proq mablag' sarflandi. 1993 yilning yanvaridan boshlab respublikada barcha xodimlar uchun yagona tarif jadvali joriy etildi. Bu esa jami haq to'lash tizimini tartibga solib, turli kasbdagi va toifadagi xodimlar ish haqi farqlarida xolisona nisbatni vujudga keltiribgina qolmay, shu

bilan birga mehnatga haq to‘lashni eng kam miqdordagi ish haqi bilan qat’iy bog‘lashga imkon berdi. Mulkchilik shakli turlicha bo‘lgan korxonalarda ish haqining eng kam miqdorini pulning qadrsizlanishi darajasiga qarab qayta ko‘rib chiqish orqali hamma toifadagi xodimlarning mehnat haqi muntazam oshirilmoqda. Yagona tarif jadvali joriy etilgach, aholining ijtimoiy kafolatlari, avvalo mehnatga haq to‘lashning kafolati darjasи mustahkamlanadi.

Respublika chetdan sotib oladigan va buning uchun budgetdan mablag‘ ajratiladigan eng muhim oziq-ovqat turlarini belgilangan miqdorda sotishning joriy etilishi, shuningdek, boshqa mollarni kuponlar, cheklarga sotish joriy etilib, nisbatan arzon mollarning respublikadan tashqariga olib ketilishi imkoniyatining cheklab qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Vaqtincha ish bilan ta’milanmagan shaxslarga ijtimoiy madad berishga katta e’tibor qaratildi. Ish bilan ta’minalash to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ishsizlarga maxsus nafaqa to‘landi, ularni qayta o‘qitish va yangi kasblarga o‘rgatish tashkil etildi. Hozir mehnat bozorini tartibga solishning respublika tizimini barpo etish asosan tugallandi. Davlat ish bilan ta’minalash xizmati tashkil etildi. Aholini ish bilan ta’minalash va ijtimoiy himoyalashga ko‘maklashuvchi jamg‘arma barpo etildi. Shaharlarda va tumanlarda 220 ta mehnat birjasi ishlab turibdi.

Budgetdagи kamomadga qaramay, ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari bo‘lmish sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya va madaniyatning moddiy bazasini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash choralari ko‘rilmоqda.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat o‘z oldiga qo‘yilgan barcha vazifalarni to‘la-to‘kis bajardi. Respublikada erkin narxga o‘tish amalda tugallandi va bu o‘tish aholi uchun "shok terapiyasi"ga nisbatan kamroq ijtimoiy larzalar bilan kechdi. Hozirgi vaqtda respublika aholisi ijtimoiy jihatdan ishonchli ravishda himoya qilingan bo‘lib, daromadlar miqdori, asosiy iste’mol ne’matlari va xizmatlardan foydalanish darjasи jihatidan boshqa respublikalarga ancha tenglashib qoldi, ba’zi jihatlardan esa o‘zib ham ketdi. O‘zbekistonda ish haqining va pensiyalarning eng kam miqdori boshqa respublikalarga nisbatan eng yuqori darajalardan birida turibdi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatidan yangi bosqich, ya’ni ijtimoiy himoyalash vositasini chuqurlashtirish, uni o‘zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirish zarurati chinakam yetildi. Ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari butun aholiga emas, balki faqat shunday himoyaga haqiqatan ham muhtoj bo‘lganlarga nisbatan qo‘llanilishi lozim. Butun tizimi bir tekischilik va tayyorga ayyorlik kayfiyatini tugatishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu narsa ijtimoiy himoyaning mavjud usullarini, ularni moliyaviy ta’minalash manbalarini tubdan o‘zgartirishni taqozo etadi. Shunday bir vosita zarurki, bunda aholining turmush

darjasи ishonchli ravishda himoya qilingan, turli xil ag‘dar-to‘ntarlar va larzalar ta’siridan kafolatlangan bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy siyosat va uni ro‘yobga chiqarish chora-tadbirlari umuman iqtisodiy islohotlar bilan shunchaki qo‘sib olib borilmasdan, balki ularning uzviy tarkibiy qismi bo‘lishi ham kerak. Respublika aholisini ijtimoiy himoyalash, mavjud imkoniyatlar va strategik maqsadlarni e’tiborga olgan holda, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning yagona tizimini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Eng avvalo, bundan buyon aholini ijtimoiy himoyalash, qolaversa, umuman odamlarning farovonligini ta’minalash borasidagi tadbirlar amalga oshiriladigan manbalar masalasini yaxshilab o‘ylab ko‘rish zarur. Ijtimoiy himoyada qatnashuvchi asosiy subyektlarning mavqeini tubdan o‘zgartirish talab qilinadi. Aslini olganda, so‘nggi vaqtgacha davlat ijtimoiy muhofazaning asosiy subyekti bo‘lib keldi. U daromadlarning bir qismini markazlashtirilgan tartibda ijtimoiy ehtiyojlar uchun qayta taqsimlar edi. Bozor munosabatlariga o‘ta borilgani, mehnatkashlarning o‘zlariga va xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ko‘proq iqtisodiy erkinliklar berila borilgani sari davlat ijtimoiy muhofazaga oid vakolatlarni muqobil tuzilmalarga topshirishi lozim.

Aholini ijtimoiy himoyalash, odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal qilishda davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalarining, jamoat tashkilotlari va xayriya tashkilotlarining ("Navro‘z", "Mahalla", "Mehr-shafqat" hamda boshqa xayriya jamg‘armalarining) mablag‘lari faol ishga solinmog‘i kerak. Ijtimoiy himoyalash davlatning ham, jamoat tashkilotlarining, turli xayriya jamg‘armalarining ham asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozim.

Buning ma’nosi shuki, pensiya ta’mnoti, talabalarga, ko‘p bolali va muhtoj oilalarga haq to‘lash tizimida ularning turmush darjasи budget vositasida va davlat kafolati yo‘li bilan ham, shuningdek, turli xayriya jamg‘armalari, korxonalar, tashkilotlar va xo‘jaliklarning jamg‘armalari orqali ham qo‘llab-quvvatlanishi mustahkamlab qo‘yilishi kerak.

Mehnatga layoqatli aholining psixologiyasini o‘zgartirish juda muhimdir. U ijtimoiy himoyalashning passiv obyektidan, davlatning moddiy yordamidan bevosita va bilvosita foydalanuvchidan o‘z taqdirining faol sohibiga, o‘zining ijtimoiy farovonligi uchun mas’ul bo‘lgan shaxsga aylanishi lozim. Aholining mehnat faoliyatini kuchaytirish hisobiga uning yakka tartibda o‘zini o‘zi himoya qilish vositalari to‘la ishga solinishi kerak.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning yangi bosqichida quyidagilar ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Birinchidan, fuqarolarning iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, kasb-korni va mehnat sohasini erkin tanlash bo‘yicha kafolatlangan konstitusiyaviy huquqlarini ta’minlash. Mehnatga layoqatli kishining o‘zi mehnat faoliyati shaklini erkin tanlash huquqidan foydalana borib, o‘zini va o‘z oilasini moddiy jihatdan zarur darajada ta’minlashi, oilasining farovonligi uchun, sog‘lom avlodni kamol toptirish uchun javobgar bo‘lishi kerak. Ijtimoiy siyosat, uni ro‘yobga chiqarish vositalari odamlarning mehnatdagi faolligi va tadbirkorligini oshirish uchun shart-sharoit vujudga keltirishga qaratilmog‘i lozim.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoyalash aniq maqsadni ko‘zlagan va o‘z egasiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish - ijtimoiy muhofaza yangi tizimining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib qolmog‘i lozim.

Bu borada, avvalo, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining narxlariga dotatsiya berishdan voz kechish talab etiladi. Mavjud tizimda davlat budgetdan ajratayotgan juda katta mablag‘lar unga hammadan ko‘ra ko‘proq muhtoj bo‘lganlargagina yetib bormasdan, balki butun aholi o‘rtasida tarqalib ketmoqda. Bu holda ijtimoiy himoyalash tadbirining samarasi ko‘zga ko‘rinmay qoladi.

Hozir narxlarga beriladigan dotatsiya hammaga barobar bo‘lib, ular aholining muayan qatlamlariga qaratilmagan, mehnat natijalari bilan bog‘lanmagan, yalpi xayriya tusidadir. Bunday dotatsiyalar budgetga og‘ir yuk bo‘lib tushmoqda. Narxlarga beriladigan dotatsiya iqtisodiy jihatdan faol aholining faoliyatini rag‘batlantirmasligi e’tiborga olinsa, dotatsiya aholining unga haqiqatan ham muhtoj bo‘lgan aniq qatlamiga ijtimoiy yordam tariqasida berilishi kerak.

Madaniy-ma’rifiy mamlakatlarda aholining ba’zi tabaqalarini ijtimoiy himoyalash boshqacha yo‘l bilan amalga oshiriladi. Bu mamlakatlarda narx-navo asosan tutib turilmaydi, nazorat qilinmaydi, balki erkin qilib qo‘yiladi. Muhtojlar esa yordam oladilar. Shu sababli, dotatsiyaga ajratilayotgan mablag‘lar muhtojlarning o‘ziga yordam tarzida berilishi lozim.

Kelgusida biz bosqichma-bosqich erkin narxlarga o‘tamiz. Bunda har bir kam ta’minlangan oilaga communal xizmat haqini to‘lash, tovar sotib olish uchun yordam berib boriladi.

Uchinchidan, aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalari va guruhlarini qo‘llab-quvvatlash avvalgidek ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolaveradi, biroq u ma’lum yo‘nalishdagi siyosat tusini olishi lozim.

To‘rtinchidan, iqtisodiy jihatdan faol aholiga kelganda shuni aytish kerakki, uning uchun davlat mehnatni rag‘batlantirishning kuchli vositasini joriy etish hisobiga bu tabaqaning mehnat va ijodiy imkoniyatini to‘liq darajada ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratib berishi kerak. Xodimlar bir

tekischilikni keltirib chiqaradigan idora qoidasi bo‘yicha emas, balki mehnatiga qarab taqdirlanishi lozim. Mehnatkash o‘z malakasiga, ishining sifatiga yarasha maosh olishi kerak. Fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish zarur. Mehnatdan manfaatdorlikni kuchaytirish, mehnat haqi, uni tabaqlashtirish darajasi mehnat unumdorligi va samaradorligini o‘sirish bilan chambarchas bog‘liqligi masalalarini yuqoridagilar bilan bog‘liq holda hal etish zarur. Rublning xarid quvvati va qadri tushib ketayotganligi sababli shu vaqtga qadar ushbu muammoni hal etish mushkul edi. Moliyaviy ahvol barqarorlashgan sharoitdagina uni hal qilish mumkin.

Dotatsiya emas, balki erkin harakat qilish imkoniyatini berish payti keldi. Har bir korxona mustaqil xo‘jalik faoliyati natijasida o‘z xodimlariga mehnatga yarasha haq to‘lash imkoniyatini topishi lozim.

Beshinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida real mehnat bozorini shakllantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o‘z mehnati bilan oilasining turmush darajasini yaxshilash imkonini beradigan sharoitni yaratish asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Mehnat bozori mehnat resurslarini ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifni shakllantirish asosida, xo‘jalik yuritish sohalari va tarmoqlari, mashg‘ulot turlari va shakllari bo‘yicha aniq maqsadni ko‘zlab taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi vazifasini bajarishi lozim. Odamlarning bir qismi ishsiz qolsa, qashshoqlar ko‘payib ketadi, degan noto‘g‘ri tasavvurdan xalos bo‘lish payti keldi. Mehnat bozori bo‘lmasa, ishchi kuchi tovarga aylantirilmasa, bozor munosabatlari to‘g‘risidagi gap-so‘zlar og‘izda qolib ketadi.

Kishilarning bir qismini moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, ayniqsa, yashirin ishsizlik mavjud bo‘lgan, mehnat faolligini namoyon qilish imkonini bermayotan qishloq xo‘jaligidagi ishdan ozod qilish zarur. Bizda xizmat ko‘rsatish sohasi amalda rivojlanmagan, bu soha barcha erkin mehnat resurslarini qamrab olishi mumkin.

Oltinchidan, bozor munosabatlari o‘tish davrida ijtimoiy soha - sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va san’at, shuningdek ilm-fan ayniqsa mushkul ahvolga tushib qoladi. Biz uchun ma’naviyat, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma’naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham biz xalqning ma’naviyatiga zarar yetkazgan holda mablag‘ni tejay olmaymiz. Hozirgi murakkab davrda mazkur tarmoqlarni ishonchli tarzda qo‘llab-quvvatlash, ularda ishlovchi kishilarning mehnatiga munosib baho berish, ularni kuchli ijtimoiy himoyalash, ularning ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish talab qilinadi.

Biz, yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaylik, deganimizda barpo etilayotgan yangi jamiyat uchun eski tizimning foydali jihatlarini saqlab qolish zarurligini nazarda tutamiz. Jumladan, bu gap ijtimoiy sohamizga taalluqlidir. Sog‘liqni saqlash, madaniyat, maorif sohalarimizda ham g‘oyat katta ijobiy tajriba to‘plangan. Boshqa mamlakatlar uchun namuna bo‘la oladigan yutuqlarimiz bor. Mana shu yutuqlardan voz kechishning, tashqaridan kiritilgan ijtimoiy andozalarni ko‘r-ko‘rona ko‘chirishning mutlaqo hojati yo‘q. Butun ijtimoiy sohani tubdan isloh qilish, uning moddiy-texnika negizini mustahkamlash, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, ijtimoiy tarmoqlar majmui xodimlarining kasb mahoratini hamda mehnati samaradorligini oshirish uchun qudratli iqtisodiy omillarni vujudga keltirish va shu asosda aholini ijtimoiy xizmatlar bilan ta‘minlashni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish zarur ekanligi shubhasizdir.

Ijtimoiy xizmatni tashkil etishning butun dunyoda qabul qilingan ikki bo‘g‘inli tizimiga o‘tish zarur, bu tizim pul bilan aralash tarzda ta‘minlashga asoslanadi. Bunday tizimda davlat har bir kishiga belgilangan eng oz miqdor doirasida malakali ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ta‘minlanishini kafolatlaydi. Qo‘sishimcha xizmatlardan esa fuqarolar o‘z mablag‘lari - daromadlari, jamg‘armalari, sug‘urta to‘lovlar va aniq maqsadga qaratilgan davlat qarzları hisobiga foydalanishlari lozim.

Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotning asosiy yo‘nalishlari fuqarolarga bepul davlat tibbiy xizmati ko‘rsatishning va shoshilinch yordam berishning kafolatlangan minimumini saqlab qolgan holda fuqarolarni tibbiy sug‘urta qilishni joriy etish va tibbiy muassasalar ishini budget-sug‘urta prinsipiga o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta‘lim sohasida o‘tish davrida umumiylar va kasb ta‘limi sifatining davlat standartini, ta‘lim sohasida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishni ta‘minlash, ulardan kimlar foydalanishini aniq belgilash, davlatdan tashqari ta‘lim tuzilmalarini rivojlantirish vazifasi birinchi o‘ringa chiqmoqda.

Ilmiy va madaniy sohadagi mavjud imkoniyatlarni saqlab qolish, qayta tiklash, ko‘paytirish maqsadida bundan buyon ham fundamental fanning, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga, aqliy va ijodiy mehnat xodimlarining obro‘yini oshirishga davlat tomonidan zarur mablag‘lar ajratilaveradi.

Bozor munosabatlariga o‘tishning boshqa prinsiplarini amalga oshirish ham aholini ijtimoiy jihatdan kuchli himoya qilish dasturlarini ro‘yobga chiqarishga batamom bog‘liqidir. Samarali ijtimoiy siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tarkibiy o‘zgartirishlar, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari bilan uyg‘unlashtirib amalga oshirib borgan taqdirdagina ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish mumkin. Pirovad maqsad

esa O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millionlab oilalarning munosib turmush kechirishi uchun sharoit vujudga keltirishdan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy (sotsial) degan tushuncha nimani ifodalaydi?
2. Ijtimoiy siyosat mazmun mohiyati va maqsadlari nimadan iborat?
3. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo’nalishlari qaysilar?
4. Ijtimoiy guruhlarning qanday ko’rinishlari mavjud?
5. Ijtimoiy vakolat g’oyasi va tamoyillari xaqida nima bilasiz?
6. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy sohalari xaqida nima bilasiz?
7. Bozor munosabatlariga o‘tishni jadallashtirish davrida faol ijtimoiy siyosatni kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar qanday omillar bilan bog‘liq?
8. Davlatning ijtimoiy siyosati nimadan iborat?

12-mavzu. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari.

REJA:

12.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiiyati va uni ta'minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari.

12.2. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari (indikatorlari).

12.3. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning tutgan o'rni va uning manfaatlariga tahdidlar.t

12.4. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash.

12.5. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash.

12.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiiyati va uni ta'minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarbligi uning milliy xavfsizligi, barqarorlikni ta'minlash masalalari, jahon hamjamiyatining zamonaviy sharoitlarida asosiy tahdid va iqtisodiy tizimdag'i har qanday o'zgarishlar turli xavf-xatar va tahidlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadi. Shuning uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, unda bo'ladigan tahidlarning oldini olish masalasi yuzaga keladi.

Xavfsizlik muammosi mustaqil davlatchilikning shakllanishi va jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarning qaror topishi bilan bir paytda vujudga keladi. Chunki shu vaqtdan boshlab, barqarorlik, rivojlanish bilan bir qatorda xavf-xatar, turli-tuman tahidilar ham paydo bo'lib, ularni hisobga olish, ularga asoslanib, davlat strategiyasi va siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish mamlakat xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

“Xavfsizlik” tushunchasi Rober ma'lumotnomasiga ko'ra 1190 yilda paydo bo'ldi. Bu tushuncha o'zini har qanday xavf-xatardan himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhining xotirjam holatini ifodalagan . Ushbu ma'noda mazkur tushuncha G'arbiy Yevropa halqlari leksikonida XVII asrgacha qo'llangan. Tarixning keyingi davrlarida davlat tuzilmalarining shakllanishi bilan bog'liq ravishda xavfsizlik tushunchasi moddiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda davlat qurilishi, boshqarish organlari tendensiyalariga mos keladigan real xavf-xatar (jismoniy va ma'naviy)ning yo'qligi natijasida vujudga keladigan tinchlik holati ma'nosini anglatgan .

XX asrning oxirlariga kelib, “xavfsizlik” va “milliy xavfsizlik” tushunchalari bizning leksikonimizda tez-tez qo‘llana boshladi. Bu insoniyat rivojlanishining murakkablashuvi, yadro, atom va boshqa ommaviy qirg‘in quollarining keng tarqalishi, ekologik vaziyatning og‘irligi, yangi xavfli kasalliklarning vujudga kelishi, terrorizm xavfining kuchayishi, totalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning qarama-qarshi qutblarga bo‘linishi barham topgandan keyingi davlatlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi, ularda bozor islohotlarining amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Dunyodagi bunday o‘zgarishlar xavfsizlik, umumiyligini va milliy xavfsizlik muammolariga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirdi.

“Xavfsizlik” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, turli ma’nolarda talqin etiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “xavf - qo‘rqinch, qo‘rqish, vohima, hadiksirash, biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo‘lish ehtimoli, xatar, xavotirlanish, xavfsirash, xavotir, tashvish” ma’nosida, “xavfsizlik – xavf-xatarning yo‘qligi, xavf bo‘lmagan holat, xavfsizlik t’miqlangan”, deb ta’rif berilgan .

Xavfsizlik insoniyat hayotining turli sohalarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalanish, kafolatlanish ma’nosini anglatadi. Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga tahdid soluvchi potensial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xavf sabab-oqibat nuqtai-nazardan shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita ziyon yetkazuvchi hamda mamlakat yer maydonining qisqarishi yoki yomonlashuvi, ijtimoiy va ma’naviy turmush tarzining buzilishi, yemirilishi bilan bog‘liq xavf bo‘lishi mumkin. Vujudga kelishi manbalariga ko‘ra xalqaro, milliy, lokal (hududiy), xususiy (korxona va shaxsga doir) xavflarga ajratiladi. Shuningdek, inson hayoti sohalari va faoliyati turlari bo‘yicha ham xavfning namoyon bo‘lish shakllari o‘rganiladi.

Milliy xavfsizlik va uning tarkibi

Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiyligini shakli hisoblanadi. Shuningdek, u mamlakat milliy manfaat ehtiyojlarining namoyon bo‘lish shakli hamdir. Boshqacha aytganda, manfaat ehtiyojlarini qondirish va moddiy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lish va farovonlikka intilish to‘g‘risidagi tasavvurlarning jamini ifodalaydi.

Milliy xavfsizlik fuqarolar, ya’ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shaxs, fuqaro manfaatlari o‘z ichiga ularning konstitusion huquq va erkinliklari, yashash xavfsizligini ta’minlash, turmush darajasi va sifatini oshirish, jismoniy, ma’naviy, intellektual rivojlanishini oladi.

Ushbu manfaatlar bir-birlari bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ular jamiyat a’zolarining mustaqilligini ta’minlash, xalq farovonligi va turmush darajasini

oshirish, uning madaniyati ma'naviy qadriyatlarini saqlashga bo‘lgan intilishlarini ifodalaydi. Shu boisdan har qanday mamlakat manfaatlari uchta muhim maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

- 1) xalq farovonligini oshirish;
- 2) mamlakat hayot faoliyati va hududini himoya qilish hamda obod etish;
- 3) milliy madaniyatni rivojlantirish .

Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g‘oyaviy, informasion va boshqa omillar hamda tahdidlardan himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu boisdan milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy, harbiy-mudofaa, g‘oyaviy, iqtisodiy, ekologik, informasion xavfsizliklarni o‘z ichiga oladi.

Siyosiy xavfsizlik – mamlakatning milliy-davlat tuzilishi hamda konstitusion tuzumni himoya qilishga yo‘naltirilgan xavfsizlikdir.

Xarbiy-mudofaa xavfsizligi – mamlakat mustaqilligi, hududiy yaxlitli va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan xavfsizlikdir.

G‘oyaviy, mafkuraviy xavfsizlik – jamiyat hayotida mavjud bo‘lgan mafkurani saqlab qolish, begona mafkuralarning suqilib kirishiga qarshi kurashish xavfsizligi.

Ekologik xavfsizlik – tabiat va insonning o‘zaro munosabatlaridagi muayyan qonuniyatlarning buzilishi oqibatida yuzaga keladigan ekologik falokatlarning oldini olishga qaratilgan xavfsizlik.

Iqtisodiy xavfsizlik – mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan xavfsizlikdir.

Informasion xavfsizlik – milliy xavfsizlikning barcha shakllarini, ayniqsa, g‘oyaviy, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning vositasi sifatida namoyon bo‘ladigan xavfsizlik.

Shuni ta'kidlash joizki, “milliy xavfsizlik” tushunchasi ko‘p qirrali va xilmoxil shakllarda namoyon bo‘ladi. Ammo shunga qaramay, u quyidagi xususiyatlarga ega:

Birinchidan, milliy xavfsizlik aniq tarixiy mazmunga ega, ya’ni jamiyatga qaysi sohalarda va qanday darajada tahdidlarning vujudga kelayotganligini aniqlashga qaratilgan aniq holatlardagi aniq tahlillarni talab qiladi.

Ikkinchidan, milliy xavfsizlik bir-biriga zid o‘lchamlar, jamiyatga xavf soluvchi tahdidlar va ularni bartaraf etadigan ijtimoiy-iqtisodiy parametrlar hamda ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Uchinchidan, milliy xavfsizlik muammosining ahamiyati va keskinligi jahon hamjamiyati hamda ayrim mamlakat, hudud taraqqiyotining burilish davrlarida g‘oyatda oshadi.

To‘rtinchidan, milliy xavfsizlik to moyillari va parametrlari, ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchan hamda turli mamlakatlarda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Ammo shunga qaramasdan, har bir mamlakatning milliy xavfsizligi insoniyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining umumiyligi tendensiyalari bilan bog‘liqdir. Shuningdek, umumbashariy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar milliy xavfsizlikka ta’sir o‘tkazib turadi.

Beshinchidan, milliy xavfsizlikka milliy davlat manfaatlari va milliy g‘oya, milliy mafkura ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Oltinchidan, milliy xavfsizlikni ta’minalashda iqtisodiy xavfsizlik muhim o‘rin tutadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va tarkibiy elementlari

Milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uni ta’minalashning eng muhim sharti yoki omili, ko‘rsatkichi iqtisodiy xavfsizlikdir. “Taniqli rus iqtisodchisi L.I.Abalkin ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi uch elementni ko‘rsatib bergen:

- iqtisodiy mustaqillik. Hozirgi jahon xo‘jaligi sharoitida iqtisodiy mustaqillik absolyut xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o‘zaro bog‘liq qilib qo‘yadi. Bunday jarayonda iqtisodiy mustaqillik davlatning iqtisodiy resurslar ustidan nazorat o‘rnata olish imkoniyatini, jahon savdosi, kooperatsiya aloqalari, ilmiy-texnika yutuqlarini ayirboshlashda teng ishtirok etish va raqobatbardoshlikni ta’minalaydigan ishlab chiqarish, samaradorlik va sifat darajasiga erishishni anglatadi;
- milliy iqtisodiyotning barqarorligi. Bu shaklidan qat’i nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuviga, beqarorlikka olib keluvchi omillarning jilovlanishini (ya’ni iqtisodiyotdagi kriminal tuzilmalarga qarshi kurash, daromadlar taqsimlanishida jiddiy farqlar, tabaqlananishning kelib chiqishi, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik) taqozo etadi;
- o‘z-o‘zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirlik. Bu esa investisiyalar va innovasiya uchun qulay muhitning yaratilishi, ishlab chiqarishning mutnazam modernizasiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiyligi darajalarining o‘sib borishi milliy iqtisodiy barqarorlik mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi .

Ushbu fikrlarga asoslanga holda “iqtisodiy havfsizlik” tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yanilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini ta‘minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisi, deb ta‘riflash mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning turli sub'ektlariga tegishli bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: alohida fuqarolar; xususiy tadbirkorlik, biznes; davlat korxonalari; milliy iqtisodiyot; davlat.

Ichki iqtisodiy sohalarda xavfsizlik tabiiy, texnikaviy-iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy, mikro va makroiqtisodiy rivojlanishning boshqa omillari, shuningdek, beqarorlik, tanglikni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi tahdidlar ta’siridan himoya qiluvchi ichki immunitetlar bilan bog‘liqdir.

Tashqi iqtisodiy sohadagi xavfsizlik mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshliligi, milliy valyutasi barqarorligi, davlatning moliyaviy ahvoli bilan tavsiflanadi.

Turli iqtisodiy tahdidlar, noxush holatlar oqibatida ko‘rilgan zararlarning o‘rnini qoplash uchun zarur bo‘lgan xarajatlarni prognoz qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida favquloddagi holatlar oqibatida ko‘riladigan zararlarni qoplash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan resurslarni baholash va o‘z vaqtida shakllantirish uchun imkoniyat yaratiladi.

Kompensasion resurslar o‘z mazmuniga ko‘ra sug‘urta, zaxira, rezerv resurslarini anglatadi. Kompensasion salohiyat (potensial) mamlakat iqtisodiyotining tanglik, noxush holatlarga qayishqoqligini, uning oldini olish va uni yengib o‘ta olish, xo‘jalik jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligi va mustahkamligini tiklay olish qobiliyatini anglatadi. Kompensasion salohiyat milliy iqtisodiyot, xalq xo‘jaligining biron-bir sektori yoki biron-bir yirik hududda noxushliklar vujudga kelganida ularni tiklay olishga qodirligini ifodalaydi.

Mamlakat iqtisodiy tizimining turli darajalaridagi iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy xavfsizlik ob'ektlari hisoblanadi;

- makroiqtisodiy darajadagi mamlakat iqtisodiyoti;
- hududiy va tarmoq darajasidagi hudud va tarmoq iqtisodiyoti;
- oila va shaxs darajasidagi mamlakat fuqarolarining har birining iqtisodiy manfaatlari. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asosan xulosa qilib, keng ma'noda iqtisodiy xavfsizlikni milliy iqtisodiyotning samarali, dinamik o‘sishiga, uning jamiyat, davlat, shaxs ehtiyojlarini qondirishning, tashqi bozorda raqobatga

bardoshlilagini ta'minlovchi, turli tahdid va yo'qotishlardan kafolatlovchi ichki va tashqi sharoitlar yig'indisi deb ta'riflash mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllarini uning sub'ektlari va ob'ektlari nuqtai nazaridan turkumlash mumkin. Iqtisodiy xavfsizlikning iqtisodiy sub'ektlari:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;
- korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

Iqtisodiy adabiyotlarda xavfsizlik xo'jalik faoliyati sohalarida yuzaga kelishi nuqtai nazaridan asosan uch yo'naliш, ya'ni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol va moliyaviy sohalar bo'yicha turkumlanadi. Bizning nazarimizda ushbu uch yo'naliш barcha mamlakatlar uchun umumiш bo'lgani bilan, ayrimlari uchun qo'shimcha yo'naliшlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol, moliyaviy, transport kommunikasiyalari va ijtimoiy sohalar bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy xavfsizlik turlarining mohiyati, vujudga kelish sabablarini o'rganish, milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlash ularning oldini olish va ulardan muhofazalanish chora-tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqish hamda vujudga keltirishga imkon beradi. Buning uchun ushbu xavf-xatarlar va xavfsizlik darajasini aniqlash, ularning ko'rsatkich va mezonlarini o'rganish lozim bo'ladi.

Iqtisodiyot sub'ektlarining xavfsizligi

Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilish jarayonida ularni islab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat, notijorat va jamoatchilik tashkilotlari mavqeyida faoliyat yuritishlari nuqtayi nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Korxona (firma)ning ixtisosligiga ko'ra xavfsizligini ta'minlashning xususiyatlari ham turlichcha bo'ladi.

Xo'jalik faoliyati sohalarida yuzaga keladigan iqtisodiy xavfsizlik turlari:

Ishlab chiqarish-xo'jalik sohasidagi xavfsizlik:

- energetik xavfsizlik;
- texnologik xavfsizlik va h.k.

Xo'jalik-iste'mol sohasidagi xavfsizlik:

- oziq-ovqat xavfsizligi;

- ekologik xavfsizlik va h.k.

Moliyaviy xavfsizlik:

- qarzdorlik;
- to‘lovga noqobillik va h.k.

Iqtisodiy xavfsizlik turlarining mohiyati, vujudga kelish sabablarini o‘rganish, milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish va uklardan muhofazalanish chora-tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqish hamda vujudga keltirishga imkon beradi. Buning uchun ushbu xavf-xatarlar va xavfsizlik darajasini aniqlash, ularning ko‘rsatkich va mezonlarini o‘rganish lozim bo‘ladi.

12.2. Iqtisodiy xavfsizlik ko’rsatkichlari (indikatorlari)

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi holati mezon va ko’rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makro va mikro darajada iqtisodiy xavfsizlikka bo’ladigan tahdidlarni tahlil qilish va bashoratlashda iqtisodiy xavfsizlikning mingdan ziyod ko’rsatkichlaridan foydalaniladi. Lekin shularning ichida 19 ta indikatorдан foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaniladi. Bu indikatorlar iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlarida va ijtimoiy sohada iqtisodiy xavfsizlikning muhim jihatlarini ifodalaydi. 19 ta indikatorning xususiyatlaridan biri ular orasidagi o’zaro bog’liqlikdir.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezon va ko’rsatkichlari asosida iqtisodiy tizimning amal qilishidagi tahlikali chegaralar belgilanadi. Ko’rsatkichlar tahlikali chegaralar sifatida qabul qilingan birliklardan chekingan holatlarda tizim izchil rivojlanishga bo’lgan qobiliyatini, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini yo’qotib boradi, transmilliy korporatsiyalarning ekspansiyasi ob’yektiga aylanib qoladi, milliy boyliklarning talon-taroj qilinishi, xufiyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarining kengayishidan zarar ko’radi.

Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan xoli bo’lgan tarzda rivojlanish chegaralarini son jihatdan ham belgilashi talab etiladi.

Demak mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma’lum bir chegara doirasida yo’l qo’yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko’rsatkichlarning o’zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. SHu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini normal taraqqiy etishiga to’sqinlik qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikda negativ, buzuvchi jarayonlarning shakllanishiga olib keladi. Iqtisodiy xavfsizlikning miqdoriy ko’rsatkichlari bo’yicha milliy manfaatlarni ta’minlash maqsadida ko’rsatkichlarning eng quyi yoki yuqori chegaralari aniqlanadi.

Hokimiyat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlik siyosati ko'rsatkichlarning barchasini me'yorida saqlab turishga qaratilishi kerak. Iqtisodiy xavfsizlikning bir chegaraviy ko'rsatkichi boshqa shunday ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga ta'minlanishi mumkin emas. Davlat har bir konkret holatda xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashuvini ta'minlashga harakat qilishi kerak bo'ladi. Ayni paytda qisqa davr oralig'ida foyda keltirishi mumkin bo'lgan ish, strategik jihatdan umuman foydasiz bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikning mezoni – iqtisodiy xavfsizlikning mohiyatini ifodalovchi muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiy holatni baholash hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- resurs salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash;
- resurs, kapital, mehnatdan samarali foydalanish darajasini etakchi mamlakatlar darajasiga va shuningdek, ichki va tashqi xarakterga ega bo'lgan tahdidlar minimumni tashkil etgandagi darajasiga muvofiqligini baholash;
- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini baholash;
- hududiy sarhadlarni va iqtisodiy makonni yaxlitligini baholash;
- suverenitet va mustaqillikni, tashqi tahidlarga qarshi turish imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy barqarorlikni va ijtimoiy ziddiyatlarni oldini olish va hal etish imkoniyatlarini baholash.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Monitoring iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash, tahlil qilish va ularning o'zgarish tendensiyalari va istiqbolini aniqlash imkonini beradi.

Mutaxassislarning fikricha, mezonlar biror-bir harakatni amalga oshirish uchun yo'llanma sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Uni amalga oshirishda jamiyat bazisini qayta tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish salohiyatini qayta qurish, yangi bozor institutlarini, xo'jalik yuritish dastaklarini, boshqarish tizimini yaratishga muvofiq bosqichma-bosqich harakat qilish zarur bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi ko'rsatkichlari mavjud:

- yalpi ichki mahsulot (hududiy yalpi mahsulot);
- inflyatsiya darajasi;
- davlat byudjeti kamomadi;
- ichki qarz darajasi;
- tashqi qarz darajasi;
- ishsizlik darajasi;

- turmush darajasi va sifati;
- oltin valyuta zahiralari;
- xufiyona iqtisodiyot faoliyati; ekologik holat.

YUqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari yana bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud. Masalan, aholi daromadlari, chakana narxlar miqdori, uy-joy bilan ta'minlanganlik, hududning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, hududning to'lov balansi, eksport-import saldosi va boshqalar.

YUqorida ta'kidlanganidek, ko'rsatkichlarning barcha majmuasi qabul qilingan chegaralar doirasida bo'lgan va bir chegaraviy ko'rsatkich boshqa bir chegaraviy ko'rsatkichning yomonlashuvi hisobiga yaxshilanmagan taqdirdagina xavfsizlikning eng yuqori darajasiga erishiladi.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan ularning tahlikali chegara miqdorlari o'rtaсидаги bog'liqliк dinamikada o'рганилиши zarur.

Iqtisodiy xavfsizlikning tahlikali chegarasiga oid indikatorlar 50 ko'rsatkichni o'z ichiga olgan bo'lib, ular to'rt guruhga ajratilib turkumlangan:

- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moliyaviy tizim barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ijtimoiy soha ko'rsatkichlari;
- tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari14.

Birinchi guruh ko'rsatkichlariga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdag'i mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun harajatlar ulushi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlariga esa davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob-kitob va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar kiradi.

Uchinchi guruh aholi daromadlari darjasasi, aholining mulkiy jihatda tabaqalanishi, ishsizlik kabilarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi guruh ko'rsatkichlari:

- mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi kabi indikatorlar kiradi;
- YaIM hajmi, sanoat ishlab chiqarishi hajmi va tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdag'i mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun harajatlar va boshqalar;
- davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o'zaro hisob- kitob va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar

- aholi daromadlari darajasi, aholining mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik darajasi

- mamlakat ichki iste'molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi

Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining guruhanishi

Xo'jalik yuritishning istalgan sohasida – ishlab chiqarish, tashqi savdo, ilmiy- texnikaviy hamkorlik va boshqalarda, barcha mamlakatlar uchun xavfsizlikning ma'lum chegaralari mavjud bo'lib, ularni ilmiy asoslangan me'yorlar asosida aniqlash mumkin. Ayni paytda ayrim olingan mamlakatda mavjud bo'lgan vaziyatga to'liq baho beruvchi universal ko'rsatkich mavjud ekanligi to'g'risida gapirish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. CHunki iqtisodiy xavfsizlik ko'p omillar ta'sirida bo'ladigan hodisa hisoblanib, u milliy ishlab chiqarishning uzlusiz o'zgarib turuvchi ichki va tashqi sharoitlarining yig'indisini aks ettiradi.

“Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii” nomli dasrlikda ta'kidlanishicha, iqtisodiyot holati, uning xavfsizligi uchta indikator, ya'ni iste'mol narxlari, milliy valyuta kursi va aholining pul daromadlari bilan belgilanadi. Mana shu uchta indikator iqtisodiy xavfsizlikning boshqa indikatorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ular iqtisodiy xavfsizlik vositasi sifatida xizmat qiladi¹⁵. Bunday ko'rsatkichlar davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalarini amalga oshirish vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

CHegara ko'rsatkichlari – iqtisodiyot sohasidagi milliy manfaatlarning miqdor jihatdan ifodalanishidir. Mazkur ko'rsatkichlar tizimli tahlil, prognoz va ijtimoiy- iqtisodiy rejalashtirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyot sohasida asosiy ustuvorlik aholining turmush darajasini yuksaltirish bo'lganligi bois YAIM hajmi va u bilan bog'liq ko'rsatkichlarning quyi chegaraviy miqdorlarini belgilashda aynan shu ko'rsatkich asos sifatida olinishi kerak.

Jahon tajribasidan ma'lumki, ijtimoiy sohada tahdidlar minimal darajada bo'lishi uchun yashash minimumidan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushi 7-10 foizni tashkil etishi, boy va kambag'allar daromadlari o'rtaqidagi tafovut esa sakkiz martadan oshmasligi kerak.

Bir guruh rossiyalik olimlar iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlarini belgilashda BMT tomonidan 1990 yilda qabul qilingan insoniy rivojlanish indeksini taklif etadilar. Mazkur indeks ijtimoiy taraqqiyotning eng aniq umumlashgan ko'rsatkichi (mezoni) bo'lib hisoblanadi¹⁶.

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlikning chegaraviy miqdorlari uchta guruhga ajratib ko'rsatiladi:

- birinchi guruhga ishlab chiqarish sohasi, uning tashqi dunyoga minimal darajada bog'liqlik sharoitida faoliyat yuritish qobiliyatini kiritadilar. Ushbu guruhga quyidagi chegaraviy miqdorlar kiritilgan:
 - YAIM umumiy hajmi – “katta yettilik” bo'yicha o'rtacha indikatorning 75 foiz miqdorida;
 - aholi jon boshiga YAIM hajmi – “katta yettilik” bo'yicha o'rtacha indikatorning 50 foiz miqdorida;
 - dunyo bo'yicha o'rtacha indikatorning 100 foiz miqdorida;
 - sanoat mahsuloti ishlab chiqarishi umumiy hajmida qayta ishslash sanoati ulushi – 70 foiz;
 - YAIMda investitsiyalar ulushi – 25 foiz;
 - sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik ulushi – 20 foiz;
 - aholining ichki iste'molida import ulushi – 30 foiz, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari – 25 foiz;
 - mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida yangi mahsulotlar ulushi – 6foiz.

Ikkinci guruh ko'rsatkichlari tarkibiga aholi turmush darjasи va sifati bilan bog'liq chegaraviy miqdorlar kiritilgan:

- aholining umumiy sonida yashash minimumidan past daromadga ega bo'lgan fuqarolar ulushi - 7 foiz;
- umr ko'rish uzunligi – 70 yosh;
- boy va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi tafovut – 8 marta;
- ishsizlik darjasи – 7 foiz.

Uchinchi guruh ko'rsatkichlari moliyaviy holat bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- YAIMga nisbatan ichki qarz miqdori – 30 foiz;
- YAIMga nisbatan tashqi qarz miqdori – 25 foiz;
- YAIMga nisbatan byudjet defitsiti – 5 foizgacha;
- naqd xorijiy valyuta hajmining naqd milliy valyuta hajmiga nisbati 25 foiz;
- YAIMga nisbatan pul massasi (M2) – 50 foiz.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, chegaraviy ko'rsatkichlarning bir xil miqdorini belgilab qo'yish uslubiy jihatdan uncha to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, birinchi guruh ko'rsatkichlarida keltirilganidek, investitsiyalar ulushi YAIMga nisbatan hisoblaganda 25 foizdan kam bo'lgan holatda iqtisodiyotga tahdid yuzaga keladi. Lekin, ayni paytda investitsiyalar ulushi 40 foiz bo'lidanida ham tahdid yuzaga kelishi mumkin. Farq shundaki, birinchi holatda mehnat quollarining moddiy va ma'naviy jihatdan eskirishi natijasi sifatida tahdid yuzaga kelsa, ikkinchi holat aholi turmush darajasi va sifatining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. SHundan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning ayrim chegaraviy miqdorlarini qat'iy qilib emas, balki ma'lum doira chegarasida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

12.3. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning turgan o'rni va uning manfaatlariga tahdidlar.

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti xalqaro mehnat taqsimoti asosida milliy iqtisodiyotlar o'rtasida barqaror, har tomonlama o'zaro aloqadorlikning shakllanishi oqibatida xo'jalik haayotining xalqaro miqyosda internatsionallashuvini ifodalaydi. Buning oqibatida iqtisodiy makon vujudga kelmoqda. Ushbu makonda xalqaro tovarlar, xizmatlar, xom ashyo resurslari, moliyaviy mablag'lar, kapital, ishchi kuchi bozorlari vujudga kelib, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik hamda bog'liqlik kuchaymoqda. Jahon miqyosida global-texnologik, moliyaviy, axborot, madaniy tizimlar jadal ravishda rivojlanmoqda.

Milliy iqtisodiyot, xalqaro mehnat taqsimotiga ko'ra, ixtisoslashuvi, o'zining foydali qazilma boyliklari, geografik joylashuvi, fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro savdo, xalqaro iqtisodiy faoliyatining faolligiga muvofiq jahon iqtisodiy tizimida o'ziga xos o'rinni yegallaydi. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish uchun milliy iqtisodiyot xalqaro hamkorlikka ochiq bo'lishi, ya'ni ochiq iqtisodiyot tavsifiga yega bo'lishi lozim. Ochiq iqtisodiyotning xususiyatlari va potensial imkoniyatlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatda bozor mexanizmi va unsurlari raqobat muhiti shakllanishining jadallahsuvi;
- jahon xo'jaligi bilan o'zaro aloqada milliy iqtisodiyot an'anaviy tovar ayirboshlashdan tashqari, kapitalni chetga chiqarish va chetdan kiritish, ilmiy-texnikanening kooperatsiyalashuvi, ishlab chiqarish integratsiyasi kabi shakllarda integrallashadi;
- xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirishga asoslangan holda ichki ishlab chiqarish hajmlariga nisabatan milliy daromadning o'sishi;

- xalqaro ayirboshlashning mutanosib iqtisodiy o'sish omili sifatidagi rolining ko'payishi;
- xalqaro resurslar aylanmasi va uning samaradorligini oshirish hisobiga ichki ishlab chiqarish ko'lamiga nisbatan milliy daromadning ko'proq o'sishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish yo'li bilan ochiq turdag'i bozor iqtisodiyotini vujudga keltirmoqda. Mamlakatimizda ochiq iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirish istiqbollari ustun darajada jahon xo'jaligi tizimiga kirib borishiga bog'liqdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosatining quyidagi tamoyillarga asoslanishi belgilab berilgan:

mafkuraviy kurashlardan qat'i nazar tashqi munosabatlarda oshkorali;

teng huquqli va o'zaro manfaatlari hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

o'zining milliy davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;

to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashqi aloqalar o'rnatish hamda ularni rivojlantirish;

umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilish va xalqaro tartiblarga izchillik bilan o'tish.

Iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni yerkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oqibatida mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirib kela boshladi, qo'shma korxonalar ko'paya bordi, ichki bozor tovarlar bilan to'la boshladi. Ammo, shu bilan birga, buning mamlakat manfaatlariga zid tomoni ham ko'zga tashlana boshladi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, manfaatlariga tahdidlardan himoyalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- taklif etilayotgan investitsion loyiha va xorijiy hamkorlar bilan tuzilgan yirik bitimlar, iqtisodiy xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda, dastlabki mustaqil ekspertizadan o'tkazish;
- xorijiy kapital uchun ustuvor soha va tarmoqlar bilan bir qatorda, ularning kiritilishi man qilinadigan soha va tarmoqlar ham qonuniy asosda belgilab qo'yilishi kerak;
- xorijiy investorlar tomonidan ayrim sohalarda aksiyalarni xarid qilish jarayonlarini qat'iylashtirish;
- xorijiy investorlarning strategik tarmoqlarda milliy boyliklarimizning katta qismini qo'lga kiritishlariga yo'l qo'ymaslik;
- mamlakat bank tizimining ishonchini himoyalash;
- tashqi faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlaridagi rahbar kadrlarning malakasini oshirish, ularni o'qitish va qayta tayyorlash;

- ichki bozorni, milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatchilar tajovuzidan himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar infratuzilmasini rivojlantirish;
- tashqi bozorlarda milliy eksportchilar va ishlab chiqaruvchilarimizning diskreminatsiya qilinmasligi, kamsitilishidan himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi nizo va kelishmovchiliklarni ko‘p tomonlama tartibga solish mexanizmlari teng huquqli shartnomalar tuzish orqali hal qilinishiga intilish lozim bo‘ladi. Bunda asosiy e’tibor mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilari va fuqarolarimizning manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi;
- chet ellardagi respublika mulkini himoya qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdodan yuqori foyda, iqtisodiy samara olishga intilish bilan bir vaqtda, mamlakatning jahon iqtisodiyoti tizimida o‘ziga mos nufuzli o‘rinni egallashiga intilishi kabilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning yerkinlashtirilishi sharoitida xo‘jalik subyektlari faoliyatini nazorat qilish mexanizmining takomillashmaganligi tufayli, bu sohada jinoiy guruhlar, korrupsiya, xufyona iqtisodiyot, narkobiznes, iqtisodiy qaroqchilik ham jonlana boshladi. Shuningdek, ayrim holatlarda jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuv maqsadlari bilan milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlari o‘rtasida ziddiyat vujudga kelganligi tufayli, asosiy energiya va xom ashyo mahsulotlarining jahon hamda ichki narxlari o‘rtasida nomutanosibliklar vujudga keldi.

12.4. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta’minlash.

Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning xavfsizligini ta’minlashda davlat markaziy o‘rin yegallaydi. Bu boradagi davlatning vazifalari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

davlatning mikro va makro darajada iqtisodiy tartiblash ko‘lamlarini o‘z ichiga oladigan tik hamda strategic qarorlarni asoslash, qabul qilish uchun dastaklar bilan ta’minlash;

iqtisodiy va ma’muriy dastak, vosita hamda usullar yordamida iqtisodiy strategiya va joriy dasturlarni amalgam oshirish, yerishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash, mavjud sharoitlarga mos ravishda ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga tuzatishlar kiritish;

boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalar tizimida himoyalanishni rag‘batlantirish rejimlarini ko‘zda tutadigan qonunlar va meyoriy hujjatlarni hayotga tatbiq yetish orqali mamlakatning iqtisodiy suverenitetini huquqiy va siyosiy jihatdan himoyalashni ta’minlash;

iqtisodiyotni yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezlikda hal qilish uchun davlat boshqaruvi organlari hamda mansabdar shaxslarning huquqlari, vazifalari mas'uliyatini oqilona taqsimlash va ularning o'zaro bir o'lchamdag'i faoliyatini uyg'unlashtirish.

Mamlakat xavfsizligini ta'minlashni boshqarish tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-tashkiliy tuzilmalar;

kommunikatsiya va o'zaro aloqalar tizimi;

axborotlar;

har tomonlama tayyorlangan kadrlar.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv ishlari ikki, o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi:

iqtisodiy huquqbazarliklarning manbalari va ularning subyektlariga qarshi kurashish;

barcha qonun, meyoriy hujjatlar hamda boshqaruv qarorlarini iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash talablariga mosligini aniqlash uchun ekspertizadan o'tkazish.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning samaradorligini oshirish hisoblanadi. Zero mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasi uning iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyat milliy iqtisodiy resurslari, zaxiralari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, bozor strukturasi, boshqarish tizimi, sanoatni tashkil etish hamda tashqi bozor konyunkturasining o'zgarishlarga moslashuvchanligi boshqa mamlakatlarning qo'llab-quvvatlashi, xalqaro uyushma va tashkilotlarda ishtirok eta olishi bilan ifodalanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy mahsulotlar bo'yicha importga bog'liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim bo'ladi. Shuningdek, **milliy tovar ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini ichki va tashqi bozorda himoya qilishga qaratilgan oqilona proteksionizm siyosatini amalga oshirish lozim**. Bu siyosat quyidagilarni ko'zda tutishi kerak:

- monopolistik faoliyatni cheklash;
- tayyor ishlab beruvchi sanoat mahsulotlarini, asosan, mashina va asbob- uskunalarni eksport qilishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlarini, imtiyozli kreditlash usullarini qo'llash;
- turli ishlab chiqarish tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni,

yangi tashkil topgan xo‘jalik subyektlarini qo‘llab- quvvatlash, ular uchun qulay sharoitlar yaratish;

- ichki bozorga noqonuniy yo‘llar bilan arzon, iste’molchilar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tovarlarni kirib kelishining oldini olish;
- ichki bozorda milliy tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatini ko‘zlash, ularni tashqi bozorga chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash;
- yirik ishlab chiqarish birlashmalarini qo‘llab quvvatlashning oqilona tizimini yaratish.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun iqtisodiyotning kriminallashuviga qarshi kurashish kerak.

Jinoiy guruhlarning iqtisodiyotga kirib kelishining oldini olish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- daromadlarni deklaratsiya qilish tizimini takomillashtirish;
- nodavlat xo‘jalik subyektlarining ayrim faoliyat turlarini qonun yo‘li bilan cheklash;
- ro‘yxatga olinmasdan turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni man qilish;
- iste’molchilar salomatligiga zarar yetkazuvchi mahsulotlarni va litsenziyasiz, sifat sertifikatisiz tovar sotishni man qilish;
- bankrotlik qonuni talablarini hayotga qat’iy tatbiq etish;
- huquq-tartibot organlarida iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘limlari faoliyatini kuchaytirish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turli nazorat va davlat organlarining tadbirkorlar xo‘jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarini cheklash va bunga qarshi kurashish;
- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmlari erkin amal qilishini ta’minlash bilan bir qatorda, davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish faoliyati samaradorligi va ta’sirchanligini oshirish kabilar maqsadga muvofiqdir.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun asosiy mahsulotlar bo‘yicha importga bog‘liqlikka barham berish, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni kuchaytirish lozim. Buning uchun mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, xom ashyo, oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni, mahsulotlarni eksport qilishga yo‘naltirilgan mahsulotga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Shundagina mamlakatning iqtisodiy ahvoli jahon bozorlaridagi konyuktura o‘zgarishlariga, resurs baholarining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmaydi. Shu boisdan, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat strategiyasi iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar qilishga, sanoat,

moliya va bank tizimini mustahkamlashga qaratiladi. Buning uchun, texnologik jihatdan orqada qolishga barham berish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish lozim bo‘ladi.

12.5. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash

Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning muhim sharti barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholi turmush darajasini oshirish va turmush shroitlarini yaxshilash hisoblanadi. Chunki ijtimoiy sohada, hayotda keskinlikning vujudga kelishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi uchun xavf-xatar tug‘dirishi shubhasizdir.

Ijtimoiy sohadagi mamlakat iqtisodiy xavfsizligini keltirib chiqaruvchi sabablarning eng muhimlarini quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy ziddiyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra hamisha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. O‘zgarishlarning qay tarzda borishi yoki bo‘lmasa, keskin shakllarga kirishi: ijtimoiy noroziliklar, stixiyali portlashlar, fuqarolar urushlari va inqirozlar tusini olishi to‘planib qolgan ijtimoiy muammolarning qay darajada keskinligiga, hukmron tuzilmalarning bu muammolarni hal qila olishi yoki hal qila olmasligiga bog‘liq.

Islohotlarning mohiyatiga to‘ralarcha putur yetkazish, ijtimoiy adolatni buzish, hokimiyatning turli pog‘onalaridagi korrupsiya aholining tang ahvolini yanada yomonlashtiradi va oqibatda jiddiy, ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi ham mumkin.

Keng ko‘lamdagi uzoq muddatli isloq qilish jarayonining dastlabki bosqichini eng qiyin, ijtimoiy portlash xavfi bo‘lgan bosqich deb atagan. Chunki o‘tish davri ko‘p hollarda bir qancha hal etilmagan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi va ular zamiridagi larzaga soladigan kuchni o‘zida saqlab turadi.

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kishilarning eskicha va yangicha fikrlashlari o‘rtasidagi, o‘tmish va hozirgi zamondagi qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashadi. Aholi daromadlari o‘rtasidagi farqlarga quyidagi holatlar ta’sir ko‘rsatmoqda:

iqtisodiyotning turli sohalarida, mamlakatning turli mintaqalarida daromad olish imkoniyatlarining barobar emasligi;

mamlakatning 60 %dan ortiq aholisi yashayotgan qishloq joylardagi yashirin ishsizlik hamda kichik va o‘rta biznesning yetarli darajada rivojlanmayotganligi salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Oilalarning pul daromadlari tarkibida 47%ga yaqini turli shakldagi tadbirkorlik va xususiy mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi turmush darajasi barqaror o‘smoqda. Shu boisdan O‘zbekistonda aholi turmush darajasiga va hayot sharoitlari bilan bog‘liq ijtimoiy tahdidlar birmuncha

kamaydi¹. Yana bir muhim ijtimoiy tahdid real ishsizlik hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholi ichida ishsizlik darajasi 10%dan oshib ketsa, u iqtisodiy tahdidni vujudga keltiradi. Ishsizlikning vujudga kelishi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan biridir. Ammo ishsizlik tufayli kambag‘allik, hatto qashshoqlik, jinoyatchilik, narkomaniya va shunga o‘xhash ijtimoiy ofatlar, ijtimoiy norozilikning kelib chiqishi tabiiydir.

Ammo aholi turmush darajasini oshirishda ma’lum muammolarni hal yetish taqozo etiladi. Jumladan, turli iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha ishchi va xizmatchilarining o‘rtacha ish haqlari keskin farqlanmoqda. Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan xodimlar ish haqlari o‘rtacha respublika darajasiga nisbatan 60%dan ortiqni tashkil etib, sanoatdagi o‘rtacha ish haqiga nisbatan bir necha barobarga kam. Bunday tafovut keskin bo‘lib, ma’lum iqtisodiy tahdidni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohalarida, ya’ni sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va san’at sohalaridagi xodimlarning o‘rtacha oylik ish haqlari o‘rtacha respublika darajasining 60-80% ini tashkil yetmoqda. Vaholanki, ushbu tarmoqlarda xodimlarning bilim, kasb-malaka darajalari boshqa tarmoqlardagilarga nisbatan ancha yuqoridir.

Yana bir muhim ijtimoiy tahdid real ishsizlik hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholi ichida ishsizlik darajasi 10% dan oshib ketsa, u iqtisodiy tahdidni vujudga keltiradi. Ishsizlikning vujudga kelishi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan biridir. Ammo ishsizlik tufayli kambag‘allik, hatto qashshoqlik, jinoyatchilik, narkomaniya va shunga o‘xhash ijtimoiy ofatlar, ijtimoiy norozilikning kelib chiqishi tabiiydir.

Ushbu iqtisodiy tahdidning yana bir xususiyati respublika qishloq xo‘jaligida ortiqcha bandlikning mavjudligi hisoblanadi. Chunki bu mehnat resurslaridan ekstensiv, unumsiz foydalanishga oxir-oqibatda ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi. Hozirgi davrda qishloq xo‘jaligida ortiqcha ishlab chiqarish natijalariga ziyon yetkazmagan holda bo‘shatib boshqa sohalarga o‘tkazish lozim bo‘ladi.

Mamlakat ichki xavfsizligiga tahdidlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aholi, shu jumladan, mehnatga layoqatli aholi, mehnat resurslari sonining o’sish sur’atlarining asosiy fondlar yaratayotgan yangi o‘rinlarning o’sish sur’atlariga nisbatan orqada qolishi, kelgusida ishsizlar daromad olish imkoniyatiga ega bo‘limgan kishilar sonining o’sishiga olib kelishi mumkin;
- ish haqining aholi, shu jumladan, yollanma ishchi va ishchi xizmatchilarining oila daromadlaridagi ulushining kamayishi, ish haqining

rag‘batlantiruvchanligining pasayishi;

- aholi tarkibida keksa nafaqa yoshidagi kishilar ulushining ko‘payishi kelgusida ularning ijtimoiy ta’minoti masalalarida muammolarni tug‘diradi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to‘sinqinlik qiluvchi omillarning ko‘payishi;
- soliq yukining og‘irligi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga to‘sinqinlik qiluvchi omil hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga kishilar o‘rtasidagi noformal, iqtisodiy aloqa va munosabatlar ham tahdid soladi. Bu tahdidda sabab bo‘luvchi holatlarni kassa nazoratidan tashqaridagi hisob-kitoblar, maishiy xizmat ko‘rsatish, uy-joylarni ijaraga berishga naqd pulni noformal munosabat va aloqalarda ko‘rish mumkin.

Nazorat savollari:

1. “Xavfsizlik” tushunchasi nimani ifodalaydi?
2. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiiyati va uni ta’minalashning ahamiyati. nimadan iborat?
3. Milliy xavfsizlik va uning tarkibi xaqida nima bilasiz?
4. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va tarkibiy elementlari nimadan iborat?
5. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlari indikatorlari. xaqida nima bilasiz?
6. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning tutgan o‘rni va uning manfaatlariga tahdidlar. xaqida nima bilasiz?
7. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta’minalash. nimadan iborat?
8. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash nimadan iborat?

13-mavzu. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish siyosati

REJA:

13.1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zarariyati.

13.2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va tarkibiy qismlari.

13.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari.

13.4. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish bosqichlari.

13.1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zarariyati.

Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, ular o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi hamda iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, har bir davlatdan tashqi omillardan oqilona va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tashqi ta’sirlardan himoyalashga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan ichki bozorning tashqi bozorlar bilan o‘zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarini shakllantiradigan tub bozor o‘zgarishlarini amalga oshirish obyektiv ravishda tashqi iqtisodiy omillarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati — xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlami ta’minlash borasidagi davlat faoliyatining yo‘nalishi va sohasi, shuningdek, tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyati uning davlat va xalqning suverenitetini ta’minlashdan iborat bo‘lgan, milliy manfaatlarni himoya qilish bo‘yicha mexanizmining butun sa’y-harakati ijtimoiy-iqtisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlashda o‘z ifodasini topadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish tartibini belgilashga doir bir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari bo‘lib tashqi savdo siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijdagi milliy kapital qo‘yilmalarni tartibga solish borasidagi siyosat - valuta siyosati hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan alohida

davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amaiga oshirish ko‘rinishlari ham mavjud.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko‘plab davlatlarda mavjud bo‘lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o‘z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ulami rivojlantirish yo‘nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta’sir etish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarini savdo-siyosiy mexanizm sifatida ta’riflash mumkin.

Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilash lozim. Unda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini iqtisodiy huquqiy tartibga solishga asosiy o‘rin ajratilgan bo‘lib, umummilliy manfaatlarga mos kelishi lozim.

Davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatni normativ tartibga solish negizida milliy hamda xalqaro huquq me’yorlari yotadi.

Biroq, davlatning tashqi iqtisodiy siyosat sohasidagi munosabatlarini tartibga solishda milliy xuquqiy mexanizmlarning ham ahamiyati katta. Bunday mexanizmlar hozirgi kunda davlatning xalqaro maydondagi strategik faoliyatini belgilashda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari va uni amaiga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida uning o‘z oldiga qo‘yan vazifalari mavjud bo‘lib, davlatning iqtisodiy siyosati bu vazifalarni bajarilishiga qaratilmog‘i kerak.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida davlat tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning o‘ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- eksportni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilishini yaxshilash;
- importning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, ya’ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish;
- mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, ya’ni ma’lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o‘rnatish.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo‘g‘inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o‘ringa ega bo‘lishini ta’minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo‘g‘inida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish.

Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo‘yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish;
- milliy investitsiyalami sug‘urtalash;
- eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilarini ishlab chiqarishi xarajatlari o‘rtasidagi farqni qoplash;
- davlat tomonidan respublikaga ilg‘or texnologiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;
- eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;
- ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valutani mustahkamlash va uni boshqa valatalarga erkin almashuvini ta’minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me’yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

13.2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va tarkibiy qismlari.

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayrboshlash yo‘liga ma’lum to‘siqlar qo‘yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi.

Bularga mamlakat iste’mol bozorlarini himoyalash, ichki bandlikni oshirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish va hokazolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatga bardoshli bo‘lgan davlatlar ham, bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalarni o‘rnatish, bojxona bojlari va tariflami kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta’minlovchi standartlami

o‘rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta’sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o‘z tashqi iqtisodiy siyosatlarini yurg’izadilar.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maqsadlarga muvofiq uning tashqi iqtisodiy siyosatiga asoslangan.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati deganda, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Hozirda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish siyosatida ikki yo’nalish o‘zaro bog‘langan:

- 1) erkinlashtirish;
- 2) proteksionizm.

Ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoyalashga qaratilgan iqtisodiy siyosat proteksionizm deyiladi.

Erkinlashtirish - davlatning tashqi savdoda iqtisodiy va ma’muriy to’siqlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatidir.

Erkinlashtirish va proteksionizm siyosati dunyodagi har qanday davlat uchun xos. Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirishga moyillik kuzatilayapti. Bu jarayon uch xil ko‘rinishda amalga oshirilayapti:

- alohida mamlakatlar o’rtasidagi o‘zaro savdoda;
- yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi alohida davlatlar o’rtasida;
- tariflar va savdolar Bosh bitimi (GATT), Savdo va rivojlanish bo‘yicha BMTning konferensiyalari (YuNKTAD), BMTning Yevropa iktisodiy komissiyasi (EIK) doirasida ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat — bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jihatni jahon va mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko’rsatishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valuta siyosati, bojxona siyosati kiradi.

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faoliyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayrboshlashni

qamrab oladi va eksport va import siyosatlari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning eksport siyosati, deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulklami jahon bozorida sotishga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Eksport qiluvchi korxonalarini rag'batlantirishda davlat byurtmalari, budgetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlarini moliyalash va hokazolardan foydalaniladi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning import siyosati, deganda mamlakatga xarijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellectual mulklarni kelinishini tartibga solishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to'g'ridan to'g'ri cheklash hisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash, importga oid antidemping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo'llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarini mamlakat hududiga jalb etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarni xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Valyuta siyosati — davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valyutaga, valyuta kursiga, valyuta operatsiyalariga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari; davlat iqtisodiy siyosatining va tashqi iqtisodiy faoliyatining tarkibiy qismi. Valyuta siyosatining asosiy dastaklari — valyuta intervensiysi, valyuta cheklashlari, valyuta subsidiyasi, valyuta pariteti, valyuta rezervlari, devalvatsiya, revalvatsiya va b.dan tashkil topadi. Mamlakatda Valyuta siyosatini hukumat, markaziy bank, markaziy moliya muassasalari amalga oshiradi.

Valuta siyosati valuta muammolarini hal etish bo'yicha qarorlar tayyorlash, qabul qilish va tadbiq etishdan iboratdir. XVF mamlakatlararo valutani boshqarish tashkiloti bo'lib hisoblanadi.

Valuta siyosati huquqiy jihatdan valutaviy qonunlar asosida tartibga solinadi. Bularga huquqiy darajadagi chegaralarning o'rnatilishi, mamlakat ichkarisida va mamlakat tashqarisida valuta qimmatliklari bilan bo'ladigan munosabatlarni har tomonlama tartibga solish, yana valutaviy muammolar bo'yicha ikki tomonlama va mamlakatlararo valutaviy kelishuvlarni tuzish kiradi.

Valuta siyosati maqsad va amalga oshirish muddatiga ko'ra tarkibiy va joriyga bo'linadi.

Tarkibiy valuta siyosati jahon valuta tizimi tarkibini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli tadbirlar majmuidir. Tarkibiy valuta siyosati, joriy valuta tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Joriy valuta siyosati valuta kursi, valuta operatsiyasi, valuta bozorining faoliyati va oltin bozorini qisqa vaqtida tezkorlik bilan boshqarishdir.

Valuta siyosatining quyidagi shakllari mavjud: diskont, deviz siyosati va uning ko'rinishlari: valuta intervensiysi, valuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish, valutaviy cheklashlar, devalvatsiya, revolvatsiya.

Diskont (foiz stavkasi) siyosati. Markaziy bankning foiz siyosati, odatda milliy valutaning amaldagi massasiga ta'sir ko'rsatish, ya'ni uni kamaytirish yoki ko'paytirish orqali valuta kursiga ta'sir etish mexanizmidir. Foiz stavkasi ssuda kapitalining yillik daromadini uning mutlaq kattaligiga nisbatidan kelib chiqadi. Foiz o'zining iqtisodiy ma'nosi bo'yicha, ssuda kapitalidan foydalan- ganlik uchun to'lanadigan qo'shimcha qiymatdir. Foiz stavkalari odatda foyda me'yorি orqali aniqlanadi, lekin amaliyotda foiz stavkasi darajasi ssuda kapitallariga bo'ladigan talab va taklifdan kelib chiqadi. Bu talab va taklif bir qancha fundamental iqtisodiy hamda boshqa, ya'ni davriy o'zgarishlar, inflyatsiya darajasi, iqtisodiyotga davlatning aralashuv darajasi, Markaziy bank va davlatning budget — soliq siyosati va h.k. omillarga bog'liq.

Deviz siyosati. Markaziy bankning deviz siyosati muomaladagi xorijiy valuta miqdoriga ta'sir etish orqali valuta kursiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, chet el valutasidagi aktivlar barqarorligini ta'minlashga qaratiladi.

Valuta intervensiysi. Markaziy bankning deviz siyosatining eng keng tarqalgan shakli, valuta intervensiysi hisoblanadi. Markaziy bankning milliy valuta kursiga ta'sir etish maqsadida valuta bozorida chet el valutalarini sotib olish yoki sotishiga valuta intervensiysi deyiladi. Hozirgi davrda valuta intervensiyasidan ko'zlangan maqsad valuta kursining qisqa vaqt oralig'iда, kutilmaganda yuzaga keladigan keskin tebranishlarga barham berish hisoblanadi.

Devalvatsiya - milliy valutaning chet el valutalariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrining tushishidir.

Ya'ni, ayni paytda 1 USD=11000 UZS bo'lsa, ma'lum bir muddat, masalan 6 oydan so'ng 1 USD=11500 UZS bo'lishi, milliy valutaning xorijiy valutaga nisbatan devalvatsiyasi hisoblanadi. Devalvatsyaning kelib chiqishiga sabab bo'lib, inflyatsyaning kuchayishi va mamlakat to'lov balansining salbiy qoldiqqa ega bo'lishi hisoblanadi.

Devalvatsiya siyosatini mamlakat to'lov balansi yomonlashganda va mamlakatga import oqimi sezilarli darajada ko'payganda amalda qo'llash iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etadi.

Demak, devalvatsiyani qo'llash shart-sharoiti yuzaga kelganda, uni darhol amalga oshirish lozim, aks holda sun'iy ravishda kursning qat'iy ushlab turilishi, butun iqtisodiyotga sezilarli darajada talafot yetkazishi mumkin.

Revalvatsiya — milliy valutaning chet el valutalariga yoki hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrini oshirishdir. Revalvatsiya qadri kuchli valutalarga nisbatan qo'llaniladi.

Revalvatsiya (lot. valeo — qadr-qimmatga egaman) — 1) milliy valyuta — pul birligi kursini boshqa mamlakatlar yoki xalqaro valyutapul birliklariga nisbatan rasmiy oshirish. Inflyatsiya bartaraf etilganidan keyin ichki pul muomalasini barqarorlashtirish usullaridan biri. Iqtisodiyotga devalvatsiyaga nisbatan aksinchata'sir ko'rsatadi. Muayyan bir mamlakat valyuta kursini boshqa mamlakatlar valyutalariga nisbatan ko'tarish eksport qilinayotgan tovarlarning chet el valyutasidagi narxini oshiradi va bu bilan xalqaro bozorda mamlakatning raqobat qilish qobiliyatini pasaytiradi, tovarlar eksportiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Revalvatsiyani o'tkazayotgan mamlakat uchun Revalvatsiya chet el valyutasini arzonroq sotib olish imkoniyatini yaratadi, bu esa tovarlar importyori va kapital eksportyorlari manfaatlariga muvofiq keladi;

Inflyatsiyaning nihoyatda past darajada bo'lishi, uzoq vaqt davomida mamlakat to'lov balansining aktiv bo'lishi hamda milliy firma va kompaniyalarning jahon savdo bozorida raqobatbardoshligining ortishi, revalvatsiyani keltirib chiqaradi. Revalvatsiya devalvatsiyaga nisbatan jahon amaliyotida kamroq qo'llaniladi.

Valutaviy cheklashlar deganda, chet el valutasi hamda valuta qimmatliklari bilan bo'ladigan operatsiyalarga davlat tomonidan cheklashlarni joriy qilishga aytiladi. Hozirgi vaqtida, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda valutaviy cheklashlar mutlaqo olib tashlangan, ayrimlarida esa, uning zaif ko'rinishini kuzatish mumkin.

Masalan, Buyuk Britaniyada 1979-yildan buyon valutaviy cheklashlar mutlaqo yo'q.

Valutaviy cheklashlar mamlakatlar hududidan oltin va valuta qimmatliklari chiqib ketishining oldini olishda, shu asosda, chet el valutalariga bo'lgan talabni tartibga solish maqsadida qo'llaniladi.

Mamlakatlarda valuta kursi rejimini tanlash, uning shartlariga amal qilish ham valuta siyosatining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Davlatning bojxona siyosati — mamlakat ichki va tashqi siyosatininig tarkibiy qismi bo'lib, bojxona siyosatining asosiy maqsadlari qiyidagilar:

-bojxona nazorati ostidan eng samarali foydalanishini va bojxona hududida tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlaydi;

- mamlakat bozorini himoya qilish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirishga doir savdo va siyosiy vazifalami ro'yobga chiqarishda ishtirok etish;

-bojxona siyosati bojxona ishining bir qismi bo'lib, unnig asoslari O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi bilan belgilanadi.

Davlatning yuqorida keltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy shakllari mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarida qatnashuvchi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchilar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishga va tartibga solishga qaratilgan.

13.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari

Hozirgi paytda dunyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy siyosatni yuritishda yuqoridagi holatlami hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimidan samara foydalanilmoqda va uning tarkibiga kirgan tashkilot va muassasalar faoliyati takomillashtirilmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tashqi iqtisodiy faoiiyatni boshqarish tizimining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-respublika milliy manfaatlariga javob beruvchi va uning jahon hamjamiyatidagi o'mini ta'minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va amalga joriy etish;

-tashqi iqtisodiy faoiiyatni tashkil etishning qonuniy asoslarini takomillashtirish va yanada erkinlashtirish;

-mulkchilik ko'rinishining turli shakllaridan qat'iy nazar tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari uchun eng yuqori samaradorlilmi ta'minlash, ularning faoliyati va manfaatlarini himoya qilish;

- milliy iqtisodiyotning tarkibiy bo'g'inlarini modernizatsiyalashda tashqi iqtisodiy omillardan oqilona foydalanish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga solishda va erkinlashtirishda umume'tirof etilgan quyidagi usullaridan foydalaniladi: tashqi iqtisodiy faoiiyatni tartibga solishning bilvosita va tashqi iqtisodiy faoiiyatni tartibga solishning bevosita (iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy-huquqiy) usullardir.

Tashqi iqtisodiy faoiiyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullari bo'lib tashqi iqtisodiy aloqalarda qatnashuvchilaming iqtisodiy

manfaatlari, ularning daromadini taqsimlashga, bitim shartlarini bajarishga ta'sir etuvchi, bojxona tariflari va bojlari, turli soliqlar, valutadan tushgan puldan ajratmalar me'yori, xalqaro operatsiyalarni kreditlash va sug'urtalashning foiz stavkalari kabilar hisoblanib u sub'yeqtarning u yoki bu harakatni tanlash imkonini beradi.

Bojxona bojlari: iqtisodiy mazmuni va ko'rinishlari.

Iqtisodiy faoiiyatni tartibga solishning bevosita usullari ichida bojxona bojlari va tariflari juda muhim hisoblanadi.

Ular yordamida tashqi iqtisodiy aloqalaming tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan tashqi savdo tartibga solinadi.

Tariflami o'zgartirish orqali davlat eksport va importni rag'batlantirishi yoki qisqartirishi orqali milliy ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlariga ta'sir etishi mumkin.

Bojxona boji - bu mamlakatga olib kelinayotgan yoki mamlakatdan olib chiqilayotgan tovar(ishlar, xizmatlar)larga solinadigan majburiy soliqdir.

Amaliyotda qo'llaniladigan bojxona bojlari turlicha.

Undirish usuliga ko'ra guruhanishini ko'radigan bo'lsak, mahsulotni bojxona qiymatiga nisbatan foizda belgilanadigan advalor bojlar jahonda ko'proq tarqalgan. Shu sababdan ham bojning bu turi qo'llaniladigan mamlakatlarda mahsulotning boj qiymatini, ya'ni advalor bojlarini hisoblashiga asos bo'lgan mahsulotning bojxona qiymatini (narxini) aniqlash usullariga katta e'tibor beriladi.

Boj qiymati import va eksport qiluvchi, tashuvchi yoki ulaming ishonchli vakillari tomonidan mahsulotlar bayonnomasida ko'rsatiladi va shunga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Ammo ba'zi hollarda bojxona mahsulotning e'lon qilingan narxini tan olmasligi va uni o'zi mustaqil aniqlashi mumkin. Amaldagi qo'llanilayotgan usulga qarab mahsulot narxi 20-25 foiz, hatto 2 martagacha ko'paytirilishi mumkin. Shuning uchun mahsulot narxini belgilashning muhimligi hisobga olinib, uni belgilash qoidalari tariflar va savdo haqidagi Bosh bitimga (GATT) kiritilgan.

Tashqi savdoni tartibga solishda o'ziga xos (spetsifik) usuliga ko'ra mahsulotning har bir o'lchov birligidan(dona, kilogramm, metr, metr kub va b.) undiriladi. Bundan tashqari yuqoridagi ikki usul uyg'unlashgan aralash bojlar ham qollaniladi.

Bojxona bojlarining ikkinchi guruhi awalo import bojlari va eksport bojlari hamda tranzit bojlariga ajraladi.

Import bojlar ichki bozorlarga chet el tovarlari oqimini tartibga solish va davlat budgetini to'ldirish maqsadida belgilanadi. Import bojlari eng kam va eng ko'p miqdordagi bojlarga bo'linadi.

Eng kam miqdordagi import bojlar o'zaro qulay sharoitlar tartibini yaratib berishni ko'zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo'lgan mamlakatlar mahsulotlariga o'rnatiladi.

Eng ko'p miqdordagi import bojlari esa bunday shartnoma va bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o'rnatiladi.

Undan tashqari ko'plab mamlakatlarda imtiyozli bojlar ham qollaniladi va bu bojlar asosan rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan o'rnatiladi.

Eksport bojlar mamlakatda ushbu mahsulotga talab ko'p bolgan holda uning taqchilligini oldini olish maqsadida belgilanadi.

Tranzit bojlari mamlakat hududidan tovarlarni olib o'tilayotganida bojxona hududida tovarlardan undiriladigan bojlar hisoblanadi.

Tashqi savdoni tartibga solishda boj tariflari ko'rinishlaridan keng foydalaniladi.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek, bojxona bojlari stavkasi, ya'ni ularning tartibga solingan ro'yxati bojxona tariflari, deb ataladi.

Bojxona tarifi — aniqlangan belgilariga ko'ra guruhshtirilgan mahsulotlar (klassifikator) ro'yxati asosida mahsulotni bojxona chegarasidan olib chiqilayotganda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona bojlari haqidagi umumiy ma'lumotdir.

Mahsulotni guruhshtirishda asosiy belgilar sifatida ishlab chiqarish, tabiiy farqlar (hayvonot va o'simlik dunyosi), qayta ishlash darajasi (hom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor buyumlar)ni misol qilib keltirish mumkin.

Zamonaviy sharoitda jahon savdosida tovarlar klassifikatorlari sifatida BMTning xalqaro savdo klassifikatoridan, Bryussel Bojxona Nomenklaturasi nomlagan klassifikatoridan keng foydalaniladi. Bu klassifikatorlar mahsulotlami tariflash va shartli belgilashning uyg'unlashtirilgan tizimi bo'lib, unda olti xonali shartli raqamli belgiga ega bo'lgan mahsulot haqidagi asosiy ma'lumotlar hamda uning mahsulotlar nomenklaturasidagi o'rni ko'rsatilgan.

Bojxona tariflari asosan milliy darajada qollaniladi va bunda qator vazifalarni bajaradi:

- 1) fiskal — davlat budgeti daromadlarini toldirish manbayi bo‘lib xizmat qiladi;
- 2) proteksionistik — milliy ishlab chiqaruvchilami chet el raqobatidan himoya qiladi;
- 3) tartiblovchi, ya’ni ichki mahsulotlar bozorlari tarkbini muvofiqlashtirish maqsadida mahsulotni chetga chiqishini cheklaydi va mamlakat iqtisodiyotidagi yetakchi tarmoq mahsulotlari eksportini rag‘batlantiriladi.

Ko‘pgina davlatlar proteksionizm siyosatini iqtisodiyotni tiklanishi sharoitida o‘z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida qollaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar «sinishi» jamiyatda ishsizlik xavfini tug‘diradi.

Bojxona tariflari va bojlaridan tashqari tashqi iqtisodiy faoiiyatni tartibga solishning iqtisodiy, egiluvchan usullari sifatida turli soliqlar keng qollaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham foydalaniladi.

Ko‘pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qollanilsa, eksport mahsulotini sotishdan tushumlarga soliqlar esa imtiyozlarga ega. Bu eksportni rag‘batlantirishga, ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko‘p bolganda o‘z mahsulotlari kabi import mahsulotlarga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoiiyatni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari

Tashqi iqtisodiy faoiiyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniladi.

Bevosita usullar o‘zining mazmuniga ko‘ra iqtisodiy, ma’muriy, me’yoriy-huquqiy ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin.

Bevosita usullariga litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagи bevosita usullar ichida keng tarqalgani hisoblanadi.

Litsenziyalash - bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma’lum tartibidir.

Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksporti hamda importi, moliya operatsiyalari o‘tkazish, xorijda ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi.

O‘zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro‘yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi, boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan.

Litsenziyalash ma'lum vaqt davomida umumdavlat maqsadlariga mo'ljallangan mahsulotlar, xizmatlar bilan bitimlar bo'yicha eksportni (importni) chegaralash va nosog'lom raqobatni ogohlantirish chorasi sifatida qo'llaniladi.

Litsenziyalar — bosh litsenziyalar va bir martalik litsenziyalarga bo'linadi.

Bosh litsenziyalar Markaziy hukumat tomonidan beriladi va o'zida ma'lum mamlakatlarga strategik bo'lmagan, Iitsenziya hujjatlarini haqiqatda rasmiylashtirishni talab qilmaydigan mahsulotlar eksportiga rasman ruxsat berishni aks ettiradi.

Bir martalik litsenziyalar Iitsenziya berish huquqiga ega bo'lgan davlat idoralari tomonidan eksport yoki import bo'yicha har bir alohida bitimga ruxsat ko'rinishida beriladi.

Moliya operatsiyalarini litsenziyalash davlatga mamlakat ichida valuta oqimi harakatini tartibga solish imkonini beradi.

Milliy davlat va shunga o'xshash tuzilmalarga beriladigan ishga joylashtirish litsenziyalar, ularga xorijiy sheriklar bilan kelishgan holda xorijga o'z ishchi kuchini yetkazib berish huquqini beradi.

Eksport va importni kvotalashning tashqi savdoni chegaralash vositasi sifatida qo'llanilishi.

Jahon amaliyotida mahsulotlar, shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvotalash keng qo'llaniladi. Unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport yoki importga miqdoriy yoki qiymat chegaralami (kvotalarini) belgilaydi.

Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to'lov balanslarini, ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish, muzokaralarda o'zaro kelishuvga erishish uchun qollaniladi.

O'zbekistonda kvotalash xalq iste'mol mollarini va strategik xomashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda.

Ishchi kuchining tashqi migratsiyasini tartibga solishda ham kvotalash usuli qo'llaniladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatiladi.

Litsenziyalash va kvotalashdan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyatning turli ko'rinishlarini tartibga solish maqsadida iqtisodiy xarakterdag'i boshqa bevosita usullar ham qo'llaniladi.

Ularga bojxona bojlarining ba'zi turlari, eksportni ixtiyoriy chegaralash, pasaytirilgan eksport bahosi va eng kam import bahosi, eksport subsidiyalari,

korxona nizom fondida kapital hissasini aniqlash, belgilangan valuta kursi va boshqalar kiradi.

Jahon amaliyotida qollaniladigan maxsus, dempingga qarshi va kompensatsion bojxona bojlari.

Tashqi savdoni tartibga solishning bevosita tarifli bo‘lmagan usullari guruhiba bojxona bojlarining maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion va boshqa turlari kiradi.

Ba’zi hollarda mamlakatlar tomonidan maxsus bojxona bojlari qo‘llaniladi. Masalan, mahsulotlar olib kelish hajmi va sharti mahalliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirsa, yoki mamlakat manfaatlariga zid bo’lganda qo‘llaniladi.

Maxsus bojxona bojlarining miqdori har bir aniq holat uchun alohida o‘rnataladi.

Dempingga qarshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qollanilib, o‘zida qo‘shimcha import bojlarini aks ettiradi.

Ular, odatda, jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo‘yicha eksport qilinayotgan mahsulotlarga o‘rnataladi. Bu bojhami belgilash haqidagi qarorni Xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so‘ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to’lash tartibini belgilaydi.

Kompensatsion bojlar olib kelinayotgan mahsulotlar kabi olib chiqilayotgan mahsulotlarga ham belgilanadi. Ular ishlab chiqarish yoki eksport qilishda subsidiyalar (davlatning moliyaviy yordami) ajratilgan va bu olib kelish yoki olib chiqish milliy ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarga zarar yetkazishi mumkin bo’lganda qo‘llaniladi.

Bunday holda davlat mamlakatga yetkazilgan zarami yoki davlatning moliyaviy xarajatlarini qoplashi lozim bo’lgan bojhami o‘matadi. Kompensatsion bojlar miqdori aniqlangan subsidiyalar miqdoridan oshmasligi lozim.

Savdo cheklashlarining zamонавиј турлари

So’nggi o’n yilliklarda eksportni «ixtiyoriy» chegaralash va eng kam import baholarini belgilash haqida bitimlar tuzish amaliyotda keng tarqala boshladi. Savdo cheklashlarining bu yangi turlarining xususiyati, ularni o‘rnatishning noan’anaviy usulidan iborat. Ya’ni import qiluvchi mamlakatni himoya qiluvchi savdo to’siqlari import qiluvchi mamlakat chegarasida emas, balki eksport qiluvchi mamlakat chegarasida kiritilganda eksportni «Ixтиориј» chegaralash qollaniladi.

Xuddi shunga o‘xshash eng kam import bahosini o‘matish ham amaiga oshiriladi. Bunday baholarni o‘rnatgan import qiluvchi mamlakatlar bilan

kontraktlar tuzishda bunga eksport qiluvchi firmalar tomonidan qat’iy amal qilinmog‘i lozim.

Eksport bahosi eng kam darajadan pasaytirilgan holda import qiluvchi mamlakat dempingga qarshi boj kiritadi va uni qo‘llash bozordan chiqishga olib kehshi mumkin.

Bevosita tartibga solishning ko‘pgina tadbirlari bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan holda qo‘llaniladi.

Eksportni davlat tomonidan rag‘batlantirish tadbiri sifatida ko‘pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo‘llaniladi, ya’ni tajriba-konstrukturlik ishlari va eksportga mo‘ljallangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat budgetidan imtiyozli kreditlar berilishi ko‘zda tutiladi.

Tashqi iqtisodiy faoiyatni tartibga solishning ma’muriy usullari

Ma’muriy va me’yoriy-huquqiy tartibga solish usullari ham u yoki bu tashqi iqtisodiy faoiyatni chegaralashga, yo rag‘batlantirishga qaratilgan.

Bu bitimlami tuzish va amalga oshirish tartibi, texnik standartlar, mahsulotlardan foydalanish xususiyatlari, ishchi kuchi sifati, valuta operatsiyalarini amalga oshirish muddati, darajasi va boshqalarga qo‘yiladigan talab va me’yorlar bilan bog‘liq turli xil m a’muriy tadbirlardir.

Ma’muriy xarakterdagи davlat tomonidan tartibga solishning o‘ziga xos choralar sifatida tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro‘yxatga olish, mahsulotlar bayonnomasi yoki bojxona bayonnomasini taqdim etish hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro‘yxatga olish —bu tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini hisobga olish va rasmiylashtirishning ma’lum tartibidir.

Ro‘yxatga olish o‘matilgan shaklda to‘ldixilgan ro‘yxatga olish varaqasini taqdim etish, ro‘yxatga olinganlik raqamini berish, tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini rasmiy ravishda chop etiladigan Davlat ro‘yxatlari to ‘plamiga kiritish va ro‘yxatga olinganlik haqidagi guvohnomani berishni o‘z ichiga oladi. Ro‘yxatga olinganlik haqidagi ma’lumot tezda tarmoq tashkilotlari va davlat hamda mahalliy hokimiyat tashkilotlariga yetkazilishi lozim.

Mahsulot bayonnomasi - bu tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisining mahsulotni davlat chegarasini kesib o’tayotgani haqida ushbu mamlakatda o‘rnatilgan qoidalarga muvofiq bergen rasmiy arizasidir.

U ikki ko’rinishda, ya’ni bojxona bayonnomasi bo‘yicha va tovar-transport hujjalari bo‘yicha (yetarli malaka va tajribaga ega bo‘lgan tashqi iqtisodiy birlashmalar uchun) amalga oshiriladi.

Ba'zi fuqarolar mamlakatga kirishda va chiqishda tashilayotgan buyumlar, mulk, shu jumladan, valuta haqida bayonnomani bir xil andozadagi varaqalarga to'ldirishlari lozim.

Tashilayotgan yuklarga bayonnomma tashqi iqtisodiy operatsiya qatnashchisi tomonidan har bir mahsulot uchun to'ldiriladi va unda operatsiya turi (eksport, import), mahsulot nomi, eksport va import qilayotgan mamlakat, valuta, mahsulotning umumiy haqiqiy bahosi va boshqalar ko'rsatiladi.

U faqat tashqi savdoga emas, balki butun tashqi iqtisodiy faoliyatga to'siq bo'lgan m'a'muriy tadbir bo'lib, valuta bilan chegaralash hisoblanadi.

Kapitalni olib kelish va olib chiqishni tartibga solish va valuta bilan chegaralash chora-tadbirlari o'zaro chambarchas bog'liq. Bu tadbirlarga foydani xorijga o'tkazish sharti, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash, milliy xodimlaming korxonani boshqarishda qatnashish sharti va boshqalar kiradi.

Har bir mamlakat ichki va jahon bozorida vujudga kelgan vaziyatni hisobga olib, tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etishning u yoki bu vositasini umummilliy vazifalami hal etishga yo'naltirgan holda faol qollaydi.

0'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish bosqichlari

Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari haqida fikr bildirilganda, asosan muayyan mamlakatning tovar eksport-import operatsiyalari, kapitallar, kreditlar, investitsiyalar harakati, ishchi kuchi migratsiyasi va ular bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar nazarda tutiladi.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida eksportning asosiy qismini xomashyo tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida tayyor mahsulotlami eksport qilish jadallik bilan ko'payib bormoqda.

0'zbekistonda davlatning tashqi iqtisodiy sohadagi siyosatini shakllantirishda rejali iqtisodiyotdan meros bo'lib qolgan iqtisodiy aloqalaming xususiyatlari ham hisobga olingan. Unga ko'ra, an'anaviy tovarlar savdosi bilan cheklanib qolish, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xizmatlar va axborotlar, moliya kapitali va ishchi kuchi bilan ayirboshlash kabi turlarini deyarli rivojlanmaganligini, importning eksportdan ustunligi, eksport va import strukturasining samarasizligi: chetga asosan xomashyo chiqarihb, chetdan iste'mol tovarlari keltirilganligi kabi salbiy jihatlarini sanash mumkin.

Bunday holat respublika iqtisodiyotidagi nomutanosiblikni yanada chuqurlashtirdi.

Shuning uchun ham 0‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi respublikaning mavjud imkoniyatlarini obyektiv baholashni va ulardan milliy manfaatlar yo‘lida imkoni boricha to‘liq foydalanishni talab qiladi.

Mustaqillik yillarda 0‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish borasida izchil islohotlar olib borildi. Unga ko‘ra, islohotlaming tadrijiy rivojlanish bosqichida dastlab tashqi savdoni tartibga solishning institutsional va huquqiy bazasi yaratilib, tashqi savdoni tartibga solishda bilvosita m a’muriy usullardan keng foydalanilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda tashqi savdoni tartibga solishning xalqaro amaliyotga mos keladigan bevosita iqtisodiy usullari joriy etilib, ekportga yo‘naltirilgan tashqi savdo siyosati olib borildi. Tashqi savdoni bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi natijasida milliy valutani joriy operatsiyalar bo‘yicha konvertatsiyalashuviga erishildi.

Respublikamizda eksport salohiyatini oshirish maqsadida milliy ishlab chiqaruvchilarga o‘zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat) larni eksport qilganida bir qator soliq imtiyozlari ko‘zda tutilgan.

Jumladan:

Qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha: tovarlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valutadagi eksportiga nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi, ya’ni eksport faoliyati to‘liqligicha qo‘silgan qiymat solig‘idan ozod etilgan.

Aksiz solig‘i bo‘yicha: tovarlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valutadagi eksportiga aksiz solig‘i solinmaydi (0‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ayrim tovarlardan tashqari).

Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicba: eksportchi korxonalar uchun realizatsiyaning umumiyligi hajmida o‘zi ishlab chiqargan tovarlar eksportining erkin konvertatsiyalananadigan valutaga eksport qilish ulushiga bog‘liq holda daromadga soliq solishning regressiv shkalasi amal qiladi.

Eksport ulushi:

- realizatsiyaning umumiyligi hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo‘lganida - belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

- realizatsiyaning umumiyligi hajmida 30 foiz va undan ko‘p bo‘lganida - belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Mol-mulk solig‘i bo‘yicha:

- realizatsiyaning umumiyligi hajmida 15 foizdan 30 foizga qadar bo‘lganida belgilangan stavka 30 foizga kamayadi;

- realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko‘p bo‘lganida - belgilangan stavka 2 baravarga kamayadi.

Shuningdek, mamlakat milliy xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan tovarlar bilan ichki bozor ehtiyojlarini to‘liqroq darajada ta’minlash maqsadida ko‘pgina import tovarlarini olib kirish bo‘yicha ham qator yengilliklar yaratilgan.

Bu boradagi yengilliklaming xususiyatlari jihatiga sifatida, ta’kidlash lozimki, mamlakat investitsiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan xorijdan keltirilayotgan yangi texnika va texnologiyalar va iste’mol uchun birlamchi darajada zarur bo‘lgan un, yog‘och va yog‘och materiallari kabi tovarlarga ko‘proq ustuvorlik berilgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan usul va vositalar asosida mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tashqi savdo balansida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatni har tomonlama uyg‘un va jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, barcha sohalarni modernizatsiya qilish va erkinlashtirishdek maqsadlarga xizmat qilishga qaratilgan.

Keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq. Uning barcha yo‘nalishlari, avvalambor, xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratish, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirish, tinchlik va barqarorlik, xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar, avvalo, qo‘shni davlatlar bilan olib borayotgan ochiq, konstruktiv, o‘zaro manfaatli tashqi siyosati Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari o‘tgan davrda Turkmaniston, Qozog‘iston, Rossiya, Xitoy, Qirg‘izistonga amalga oshirgan davlat tashriflari mamlakatimiz tashqi siyosatida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlariga alohida e’tibor qaratilayotganining amaliy isbotidir. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ta’kidlaganidek, o‘tgan qisqa vaqt mobaynida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratishga erishildi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonunchiligidagi nazarda utilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomalar qoidalari qo‘llaniladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va yakka tartibdagi tadbirdor sifatida ro‘yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga haqlidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘ylmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari hisoblanadilar.

Oldi-sotdi yoki ayrboshlash obyekti bo‘lgan tovarlar, ishlar (xizmatlar), har qanday mol-mulkka, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlar, valyuta qimmatliklariga, elektr, issiqlik energiyasi va boshqa turdagি energiyaga, transport vositalariga, intellektual mulk obyektlariga nisbatan, tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanilishi qonunchilik bilan taqiqlanganlarini istisno etganda, tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari quyidagi huquqlarga ega:

- qonunchilik doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashish shakllarini mustaqil belgilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o‘z xohishiga ko‘ra boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnomaga asosida belgilangan tartibda jalb qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga, shu jumladan milliy va chet el valyutasidagi daromadga qonunchilikka muvofiq mustaqil ravishda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari:

- tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi hisobotni qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etishi;

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlarning O‘zbekistonda belgilab qo‘yilgan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalariga muvofiqligini tasdiqllovchi hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim etishi shart.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari:

- xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- tashqi savdo faoliyati;
- chet el investitsiyalarini jalg qilish;
- O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik ishlab chiqarish, moliya, bank va sug‘urta faoliyati, ta’lim va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog‘liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa sohalarda qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali aloqalarni o‘rnatishi va kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, ishlari (xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatidir.

Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko‘rsatish), ularning bajarilish (ko‘rsatilish) joyidan qat’i nazar, ishlari (xizmatlar) eksportidir.

Xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko‘rsatish), ularning bajarilish (ko‘rsatilish) joyidan qat’i nazar, ishlari (xizmatlar) importidir.

Chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati obyektlariga hamda qonunchilikda taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy ne’matlarning barcha turlari hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari va tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga moddiy va nomoddiy ne’matlarni hamda ularga bo‘lgan huquqlarni qo‘yish bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari harakatlarining yig‘indisi O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati deb e’tirof etiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;
- valyuta bilan tartibga solish;
- soliq bilan tartibga solish;
- tarif va notarif tartibga solish;
- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo‘llash;
- tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o‘rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o‘rnatish;
- eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab qilinadigan hujjalarning to‘liq ro‘yxatini belgilash;
- o‘z xossa hamda xususiyatlari ko‘ra yalpi qirg‘in qurolini (yadroviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik) va zaharovchi qurol) hamda uni yetkazib berish vositalarini (raketalar va yalpi qirg‘in qurolini yetkazib berishga qodir boshqa texnika vositalarini), boshqa turdagи qurol-yarog‘ hamda harbiy texnikani yaratishda muhim hissa qo‘sishi mumkin bo‘lgan, eksport nazorati obyektlari ro‘yxatlarida ko‘rsatilgan tovarlar, asbob-uskunalar, ilmiy-texnika axboroti, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalariga nisbatan eksport nazoratini o‘rnatish;
- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;
- texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalarini belgilash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

13.4. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy vo'nalishlari va tarkibiy qismlari.

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayrboshlash yo‘liga ma’lum to‘silalar qo‘yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zamrligi bilan tushuntiriladi.

Bularga mamlakat iste'mol bozorlarini himoyalash, ichki bandlikni osliirish, yangi tarmoqlami rivojlantirish va hokazolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatga bardoshh bo'lgan davlatlar ham, bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalami o'matish, bojxona bojlari va tariflarni kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta'minlovchi stand artlarni o'rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o'z tashqi iqtisodiy siyosatlarini yurgizadilar.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maqsadlarga muvofik uning tashqi iqtisodiy siyosatiga asoslangan.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati deganda, boshqa mamlakatlar bilan iktisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Hozirda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish siyosatida ikki yo'nalish o'zaro bog'langan:

- 1) erkinlashtirish;
- 2) proteksionizm.

Erkinlashtirish - davlatning tashqi savdoda iqtisodiy va ma'muriy lo'siqlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatidir.

Ichki bozomi xorijiy raqobatdan himoyalashga qaratilgan iqtisodiy siyosat ***proteksionizm*** deyiladi.

Erkinlashtirish va proteksionizm siyosati dunyodagi har qanday davlat uchun xos. Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirishga moyillik kuzatilayapti.

Bu jarayon uch xil ko'rinishda amalga oshirilayapti:

- aloliida mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda;
- yagona bojxona ittiloqiga kiruvchi alohida davlatlar o'rtasida;
- tariflar va savdolar Bosh bitimi (GATT).

Savdo va rivojlanish bo'yicha BMTning konferensiyalari (YuNKTAD), BMTning Yevropa iktisodiy komissiyasi (EIK) doirasida ko'p tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat — bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlар sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbiriar yig‘indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jihatи jahон va mamlакат iqtisodiyotiga ta’sir ko’rsatishning asosiy yo’nalishlari bo'yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valuta siyosati, bojxona siyosati kiradi.

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlар, xizmatlar, axborotlar, intellektual faohyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayrboshlashni qamrab oladi va eksport va import siyosat lari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo bo‘yicha davlatning eksport siyosati, deganda mamlакатning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulkni jahон bozorida sotishga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga yonaltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Eksport qiluvchi korxonalarni rag‘batlantirishda davlat byurtmalari. budgetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlарini moliyalash va hokazolardan foydalaniladi.

Tashqi savdo siyosati:

- joriy siyosat;
- uzoq muddatli siyosat;
- tashqi savdoga oid eksport siyosati;
- tashqi savdoga oid import siyosati.

Tashqi investitsiya siyosati:

- valuta siyosati;
- ish kuchining tashqi migratsiya siyosati;

Bojxona siyosati:

- milliy investitsiyalarningi eksporti sivosati;
- xorijiy investitsiyalaring import siyosati;
- diskonl(foiz)sivosati;
- deviz sivosati;

- valutada subsidiyalash;
- Ishchi kuchini eksporti siyosati.
- Ishchi kuchini importi siyosati.
- Valuta zaxiralarini deversifikasiyalash.

Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy shakllari

Tashqi savdo bo'yicha davlatning import siyosati deganda mamlakatga xorijdan ovarlar, ishlar, xizmatlar va intellektual mulklarni kelishini tartibga solishga yo'naitirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to'g'ridan to'g'ri cheklash hisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash, importga oid antidemping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo'llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati - xorijiy investitsiyalarini mamlakat hududiga jalg etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarini xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Valyuta siyosati - davlat va xalqaro valuta-moliya tashkilotlari tamonidan amalga oshiriladigan valyuta munosabatlari sohasidagi iqtisodiy choralar hamda tashkiliy shak] va usullar yig'indisini tashkil etadi.

Valyuta siyosati davlatning valyuta mablag'laridan maqsadli foydalanish bo'lib, valyuta mablagiarini shakllantirish va ishlatislining asosiy yo'nalishlarini hamda bunday mablag'lardan samarah foydalanishga yo'naltirilgan chora-tadbiriами ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Valyuta siyosatining amal qilish sohasi bo'lib valuta bozori, qimmatbaho metallar va toshlar bozori hisoblanadi.

Davlatning valuta siyosati diskont va deviz siyosatlariga bo'linib, moliya tizimining bir maromli faoliyatini va mamlakat to'lov balansi muvozanatini ta'minlash kabi vazifalarni qamrab oladi.

Diskont siyosati investitsiyalar harakatlarini tartibga solish va to'lov majburiyatlarini muvozanatlashtirish, valuta kursini taxminiy tuzatish uchun foizning hisob stavkasidan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.

Ushbu siyosat pul talabi holatiga, narx dinamikasi va darajasiga, pul massasi hajmiga, qisqa muddatli investitsiyalar migratsiyasiga ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

Deviz siyosati - valyuta intervensiysi va valuta cheklashlari yordamida valutani xarid qihsh va sotish bilan valuta kursini tartibga solish tizimi.

Valuta intervensiysi

Markaziy bankning xorijiy valutaning oldi-sotdisi bo'yicha maqsadli operatsiyalari bo'lib, u milliy valuta kursi dinamiksinu uni oshirish yoki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini ko'zlaydi.

Valuta cheklashlari milliy va xorijiy valuta, oltin va hokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy chora-tadbirlar majmuyidan iborat.

Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati - ishchi kuchi eksporti siyosati va ishclii kuchi impoiti siyosatlariga bo'linadi.

Ishchi kuchi eksporti siyosati deganda bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko'chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki taqiqlash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatga qo'shimcha valuta daromadlarini paydo qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Ishchi kuchi import siyosati deganda mamlakatga xorijdan ishclii kuchining kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish yoki to'siqlar qo'yish borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Davlatning bojxona siyosati — mamlakat ichki va tashqi siyosatininig tarkibiy qismi bo'iib, bojxona siyosatining asosiy maqsadlari qiyidagilar:

-bojxona nazorati ostidan eng samarali foydalanishini va bojxona hududida tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlaydi;

- mamlakat bozorini himoya qilish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirisliga doir savdo va siyosiy vazifalami ro'yobga chiqarishda ishtirok etish;

-bojxona siyosati bojxona ishining bir qismi bo'iib. unnig asoslari O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi bilan belgilanadi.

Davlatning yuqorida keltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy shakllari mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarida qatnashuvchi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchilar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishga va tartibga solishligiga qaratilgan.

Nazorat savollari:

1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zarariyati xaqida nima bilasiz?
2. Tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari nimadan iborat?
3. Valuta siyosatining qanday shakllari mavjud?
4. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va tarkibiy qismlari.
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari.
6. Davlatning bojxona siyosati asosiy maqsadlari nimadan iborat?
7. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari nimadan iborat?
8. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish bosqichlari. xaqida nima bilasiz?

Asosiy adabiyotlar:

1. Bod, Peter. (2019). Economic Policy Making. An Introduction to Comparative Analysis.
2. Acocella, Nicola & Di Bartolomeo, Giovanni & Hall, Andrew. (2011) f. The theory of economic policy: from a theory of control to a theory of conflict (resolutions).
3. Петросян Д.С., Безпалов В.В. Экономическая политика государства. Социальная справедливость в экономических отношениях. Учебное пособие. Москва: Инфра-М, 2016
4. Тупчиенко, В. А. Государственная экономическая политика: учебное пособие/ В.А.Тупчиенко. - Москва: Юнити, 2015. - 663 с

Qo'shimcha adabiyotlar

1. R. Glenn Hubbard, A. Patrick O'Brian. Essentials of Economics. 6th edition. Pearson. New York. 2019.
2. N. Gregory Mankiw. Essentials of Economics. 8th Edition. Cengage Learning; 8. edition (January 1, 2017). ISBN-13: 978-1337091992
3. Economics (Irwin Economics). Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue Sean M. Flynn. -21th edition. 2018.
4. Roger A. Arnold. Economics 13th Edition, Kindle Edition. (2018). ISBN-13: 978-1337617383
5. Лякин А.Н. Экономическая политика. Учебник и практикум. Россия: Юрайт, 2019. 432 стр. .
6. Abukasimov H., Topildiyev S. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.- T.: "Iqtisod-moliya", 2021.
7. Хажиев Б.Д., Мамбет-Ижанов К.К..Экономическая теория. Учебник. - Т.: «IQTISODIYOT», 2019. - 552. стр. . . .
8. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyas1. Darslik. - T.: Barkamol fayz-media, 2017. - 783 bet.
9. Mirziyoy Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 (6705)

10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sod “2022 — 2026-yillarg mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni
15. Mirziyoyev SH.M. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevralda bo‘lib o’tgan majlisida ma’ruzasidan “2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi” “Xalq so’zi” gazetasi, 08.02.2017
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil 23 sentyabr

Axborot manbalari:

18. www.gov.uz - Uzbekiston Respublikasi hukumat portalı.
19. www.lex.uz - Uzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
20. www.tradingeconomics.com -экономические показатели
21. www. tdiu-makro. narod.ru
22. http://www.tsau.uz – TDAU elektron kutubxonasi
23. www.ziyonet.uz – ta’lim portalı
21. www.edu.uz - O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.
22. www.unesco.org – BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti sayti.

23. www.unese.org/env/esd/ – BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti
24. www.unfra.org – BMTning aholishunoslik dasturi sayti.
25. www.who.org – Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sayti.

MUNDARIJA

Kirish		4
1-mavzu	Iqtisodiyot, bozor va iqtisodiy siyosat. 1.1. Iqtisodiyot va bozor. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining minimal chegaralari (majburiy vazifalari). 1.2. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. 1.3. Iqtisodiy siyosatning tipologiyasi va konsepsiysi Iqtisodiy siyosat turlarining klassifikatsiyasi.	5 5 13 15
2-mavzu	Iqtisodiy siyosat asoslari va tarkibi. 2.1. Iqtisodiy siyosat va uni amalga oshirish. 2.2. Iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqida klassik siyosiy iqtisod namoyondalari qarashlari. 2.3. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o'rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari konsepsiysi. 2.4. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. 2.5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo'yicha Keyns konsepsiyasining asosiy mazmuni. 2.6. Iqtisodiy rivojlanishni boshqarish davlatning roli haqida zamonaviy nazariya.	20 20 22 26 29 32 34
3-mavzu	Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar 3.1. Rasmiy (formal) va norasmiy (noformal) institutlar hamda iqtisodiy siyosat sohasidagi yechimlar. 3.2. Demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi cheklovlar. Iqtisodiy siyosat, vositalar va boshqaruv nazariyasi. 3.3. Saylovchilar, siyosiy partiyalar va taklif etilayotgan dasturlar. Parlament va institutsional qayta qurish.	38 38 41 48
4-mavzu	Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish- iqtisodiyotni tartibga solish vositasi 4.1. Davlat mulkining mohiyati va o'lchamlari 4.2. Xususiy biznes va tadbirkorlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi 4.3. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning mohiyati, yo'llari va bosqichlari	54 54 56 61
5-mavzu	5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlash va rejalashtirish. 5.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o'rni. 5.2. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy, uzoq va o'rta muddatli prognozlar.	69 69 72

	5.3. Ilmiy prognozlashtirishning tamoyillari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari. 5.4. Dasturlash va rejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funksiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejalashtirish nazariyasining asoslari. 5.5. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.	74 77 80
6-mavzu	Davlatning iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash siyosati. 6.1. Xususiy tarmoq va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o’rnii hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. 6.2. Biznes va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashda davlatning mikroiqisodiy siyosati. Davlat mikroiqtisodiy siyosatining asosiy yo’nalishlari. 6.3. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga usul va vositalari.	85 85 88 93
7-mavzu	Iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish. 7.1. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari. 7.2. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari. 7.3. Davlatninr iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo’nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. 7. 4. O‘zbekistonda davlatning raqobatni rivojlantirish siyosati	105 105 114 118 128
8-mavzu	Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari 1 8.1. Mintaqaviy iqtisodiyot 8.2. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, prinsiplari va maqsadlari. 8.3. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqish kuchlarini joylashtirish. 8.4. O‘zbekistonda mintaqaviy siyosatini o‘ziga xos xususiyatlari.	133 133 134 138 140
9-mavzu	Yuksalish, rivojlanish va iqtisodiy siyosat 9.1. Rivojlanishga nisbatan iqtisodiy o’sish: turmush darajasi va turmush sifati. 9.2. Iqtisodiy sikl va inqirozlarning kelib chiqish sabablari. Iqtisodiy inqirozlarning turlari.	143 143 158

	9.3. Makroiqtisodiy muvozanat va uninr bozor iqtisodiyotida namoyon bo‘lish shakllari. Davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati.	161
10-mavzu	Daromadlarni qayta taqsimlash, boylik va iqtisodiy siyosat 10.1. Bozor iqtisodiyoti va taqsimlash munosabatlari. 10.2. Aholi daromadlari, ularning turlari va manbalari. Daromadlar tengsizligi, ular darajasini aniqlash. 10.3. Aholi turmush darjasи. 10.4. Davlat budgeti - davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muhim shakli sifatida.	164 164 166 169 171
11-mavzu	Ijtimoiy siyosatning nazariy assoslari va davlatning ijtimoiy siyosati 11.1. Ijtimoiy siyosat mazmun mohiyati, maqsadlari, nazariyasi. 11.2. Jamiatuning ijtimoiy tarkibi va ularni guruhlanishi. 11.3. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy sohalari. 11.4. Davlatning ijtimoiy siyosati	175 175 177 184 186
12-mavzu	Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash vazifalari. 12.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiiyati va uni ta’minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllari. 12.2. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlari (indikatorlari). 12.3. Jahon iqtisodiy tizimida milliy iqtisodiyotning tutgan o‘rni va uning manfaatlariga tahdidlar. 12.4. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta’minlash. 12.5. Mamlakat ichki iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash.	196 196 201 207 209 212
13-mavzu	Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish siyosati 13.1. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining mohiyati va zarariyati. 13.2. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va tarkibiy qismlari. 13.3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning bilvosita va bevosita usullari. 13.4. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini erkinlashtirish bosqichlari.	215 215 217 222 234
Foydalanilgan adabiyotlar		240